O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

“QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY HAQIQAT, MILLIY XOTIRA VA MA’NAVIY MEROS”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

TO‘PLAMI

2026-yil 11-sentyabr, Termiz shahri

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

“QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY HAQIQAT, MILLIY XOTIRA VA MA’NAVIY MEROS” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

TO‘PLAMI

2026-yil 11-sentabr, Termiz shahri

Nashrga tavsiya etildi: *Termiz davlat universiteti Kengashining 2026-yil 16-sentabrdagi 2-sonli bayonnomasi bilan.*

Tuzuvchilar: A. Shaydullayev, Sh. Abdulloyev, N. Esanov, U. Quvvataliyev.

Texnik muharrir: A. Bo‘riyev.

Kompyuterda sahifalovchi: A. Tolipov.

Hajmi: 226 bet.

Terishga ruxsat berildi: 2026-yil 9-oktabr.
Bosishga ruxsat berildi: 2026-yil 12-oktabr.
Bosma tabog‘i: 13 bosma taboq.
Nashriyot: “Surxon ilm” nashriyoti.
Bosmaxona: Termiz davlat universiteti bosmaxonasi.

Adadi 100 nusxa

ҚАТАҒОН СИЁСАТИНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШ ТАРИХИ ВА УНИНГ ФОЖИАЛИ ОҚИБАТЛАРИ

Муслимбек Алижонов — Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети доценти, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD).

Аннотация: Ушбу мақолада 1917-1953 йилларда Совет сиёсий қатағонининг келиб чиқиши, ташкилий асослари ва фожиали оқибатларини таҳлил қилади. Мақолада ВЧК, ГПУ ва НКВДнинг тузилиши, функсиялари ва ҳудудий фаолияти батафсил ёритилади. Шунингдек, Сталин сиёсати остида миллий ва билимдон кадрларнинг нишонга олиниши ҳамда "Катта қирғин" даврида юз берган оммавий қирғинлар тафсилотлари келтирилади. Бундан ташқари унда Совет тизимининг репрессив механизмлари ва қатағоннинг ижтимоий, миллий ва инсоний оқибатларини илмий таҳлил қилинади.

Аннотация: В данной статье анализируются причины, организационные основы и трагические последствия советских политических репрессий в 1917–1953 годах. В статье подробно освещаются структура, функции и территориальная деятельность ВЧК, ГПУ и НКВД. Подчеркивается, что при политике Сталина национальные и образованные кадры подвергались репрессиям, а также приводятся подробности массовых репрессий в период «Большого террора». Кроме того, в статье проводится научный анализ репрессивных механизмов советской системы и социально-национальных, гуманитарных последствий карательной политики.

Annotation: This article analyzes the origins, organizational foundations, and tragic consequences of Soviet political repression from 1917 to 1953. It provides a detailed account of the structure, functions, and territorial activities of the VChK, GPU, and NKVD. It emphasizes that under Stalin's policies, national and educated cadres were targeted, and details of the mass repressions during the "Great Terror" are presented. Additionally, the article offers a scholarly analysis of the repressive

mechanisms of the Soviet system and the social, national, and human consequences of these punitive policies.

1917 йил 25 октябрда большевиклар Россия империясида давлат тўнтариши йўли билан ҳокимиятни қўлга олдилар. Улар олдида пролетар давлатини сақлаб қолишдек фавқулодда катта ва машаққатли вазифа турган эди. Бир томондан чор ҳокимиятини қўллаб-қувватлаган ички кучлар, иккинчи томондан, Кавказ, Волга бўйи, Ўрта Осиё ва Қозоғистондаги ўз мустақил давлатларини тиклаш орзуси билан яшаётган халқлар, иккинчи томондан, болшевиклар давлатини мурғаклик пайтидаёқ буғиб ташлашга тайёр турган Антанта давлатлари ўзаро бирлашганларида ёки бир пайтда ҳаракат қилганларида, болшевиклар давлатини сақлаб қолишлари амри маҳол эди. Шунинг учун Ленин давлат тўнтаришининг дастлабки кунларидаёқ Россия тасарруфидаги халқларга ўз тақдирларини ўзлари ҳал қилиш ҳуқуқини берувчи тарихий декларацияга имзо чекади. Лекин Россия тасарруфидаги халқларга (қоғозда бўлса-да!) бу ва бошқа имтиёзларнинг берилиши билан ёш Совет давлатини сақлаб қолиш ғоят қийин эди. Шунинг учун 1917 йил 27 октябрда Бутунроссия Марказий Ижроия Қўмитаси (ЦИК) ва Халқ Комиссарлари Совети (СНК) нинг бош оператив органи - Ҳарбий Инқилобий Қўмита (ВРК) ташкил этилади. Аммо большевиклар билан муроса қилишни истамаган кучлар янги ҳукуматни ағдариб ташлаш мақсадида турли тадбирларни амалга оширадилар [1]. Бунга жавобан Халқ Комиссарлари Совети 1917 йил 24 ноябрда Ишчи ва деҳқонлар ҳарбий трибуналини тузиш тўғрисида декрет қабул қилиб, трибуналга катта ваколат беради. 1917 йил 7 декабрда эса Халқ Комиссарлари Совети Ф.Э.Дзержинский раҳбарлигида аксилинқилобчилик ва ишташлашликка қарши кураш бўйича Бутунроссия Фавқулодда Комиссияси (ВЧК)ни ташкил этиш тўғрисида қарор чиқаради [2]. ВЧК гарчанд дастлаб аксилинқилобчилик ва ишташлаш сингари ҳаракатларга йўл қўймаслик ва шундай ҳаракатларда қатнашган кишиларни жазолаш

мақсадида тузилган бўлса ҳам, кўп ўтмай, Совет давлатининг қудратли жазо органига айланади.

Совет давлат аппаратининг такомиллашуви билан ВЧК зиммасига юкланган вазифалар турли халқ комиссарликларига олиб берилди ва ВРКнинг асосий вазифаси аксилинқилобчилик ва ишташлашларга қарши курашгина бўлиб қолди. Бутунроссия Марказий Ижроия Қўмитаси 1917 йил 1 декабрда ВРКни қайта қуриш масаласини кўриб, ВРК заминида Аксилинқилобчилик билан кураш бўлимини тузади. 5 декабрда мазкур бўлим тарқатиб юборилади. СНК мамлакатдаги мураккаб вазиятни ҳисобга олиб, аксилинқилобчилик ва ишташлашларга қарши курашадиган ва зарур ҳолларда энг шиддатли инқилобий чоралар кўрадиган махсус комиссияни тузиш ҳақида қарор қабул қилади. Дзержинский раҳбарлигида тузилган бу комиссия (ВЧК)га ҳибсга олиш, тинтув ўтказиш ҳамда аксилинқилобчи ва ишташлашловчиларга қарши барча зарур чораларни кўриш ваколати берилади. Дастлаб ахборот, ташкилий ҳамда аксилинқилобчилик ва ишташлашга қарши кураш бўлимларидан иборат бўлган ВЧК тузилмаси мунтазам равишда ўзгариб боради ва Совет давлати пойтахти Москвага кўчиб келганидан кейин, 1918 йил охири - 1919 йил бошларида ВЧК қошида қуйидаги тузилмалар ташкил этилади: махфий-тезкор, тергов, транспорт, ҳарбий (махсус), тезкор ва инструкторлик бўлимлари, шунингдек, ахборот бюроси ва назорат-тафтиш коллегияси. 1918 йил бошларида ташқи сиёсий вазиятнинг кескинлашиши ва аксилинқилобий кучларнинг фаоллашуви билан ВЧК маҳаллий Советларга мурожаат этиб, зудлик билан туман фавқулодда комиссиялари (ЧК)ни тузишни сўрайди. Айни пайтда шундай комиссиялар армия ва транспортда ҳам тузилади. Шу тарзда совет мамлакати ЧК органлари ва ходимларнинг доимий назорати остида яшай бошлайди.

Россияда чоп этилган сиёсий адабиётда берилган маълумотларга қараганда, 1920 йил июлида Россия губерниялари қошидаги ЧКларда 3 минг 679 ходим бўлган бўлса, 1921 йил бошларида улар сони 39 минг 762 ходимга

кўпайган [3]. Афсуски, шу йилларда Туркистондаги ЧК ходимларининг сони қанча бўлганлиги ҳақида бирор маълумот йўқ. Лекин тахмин қилиш мумкинки, агар Россияда чекистлар сони бир йил ичида 8 марта кўпайган бўлса, “босмачилик ҳаракати” авж олган Туркистонда улар сонининг кўпайиш даражаси бундан бир неча марта баланд бўлган.

Шу йилларда Туркистон Фавқулодда комиссияси (ТуркЧК) олдида турган асосий вазифа Туркистон Мухторият ҳукуматини тор-мор қилиб, Фаргона водийсининг “қон ва ўлим” водийсига айлантирилиши муносабати билан бошланган “босмачилик ҳаракати”ни тугатиш эди. ТуркЧК ходимлари назарида, болшевиклар ва қизил аскарларнинг хунрезликларига қарши бош кўтарган “босмачилар” ва уларга хайрихоҳ кишилар Туркистондаги уюшган аксилинқилобий кучлар, деб эълон қилинди ва қизил армиянинг мунтазам қисмлари уларни қириб ташлашга киришди. Большевиклар “босмачилар”ни Совет давлати томонига ўтишга тарғиб қилган ва улар ҳаётини сақлаб қолишга ваъда берган бўлсаларда, ўз хоҳиши билан совет томонига ўтиб, қурол-яроғларини топширган собиқ “босмачилар”ни мак- корона қириб ташладилар. Ҳатто шундай воқеалар ҳам бўлди-ки, улар “босмачилар” қиёфасида қишлоқларга кириб, тинч аҳолини таладилар, аёлларни зўрлаб, қаршилик кўрсатганларни эса отиб ташладилар, Сўнгра ўзларининг разил қилмишларини “босмачилар”га ағдариб, уларни аҳоли ўртасида бадном қилишга уриндилар. Шундай даҳшатли воқеалар туфайли “чека”/‘чекист” атамалари узоқ йиллар мобайнида халқни руҳий мувозанатдан чиқариб, унинг ҳаётини заҳарлаб келди.

ВЧК тугатилиб, ГПУ ташкил этилиши билан Бутунроссия МИҚ “Давлат сиёсий бошқармаси тўғрисида низом” “Давлат сиёсий бошқарманинг (тинчлик шароитида) махсус бўлимлари тўғрисида низом” “Давсиёсийбошқарманинг Транспорт бўлими тўгрисида низом” сингари бир неча низомларни тасдиқлайди [4]. Мазкур низомларга кўра, ГПУ раиси қошидаги Коллегия ГПУнинг олий органи ҳисобланади. 1922 йил охирида коллегиянинг

қуйидагилар таркиби тасдиқланади: ички ишлар халқ комиссари ва ГПУ раиси Ф.Э.Дзержинский; раис ўринбосари И.С.Уншлихт; Махфий-тезкор бошқарма бошлиғи В.Р.Менжинский; Махсус бўлим бошлиғи Г.Г.Ягода; Шарқий бўлим бошлиги Я.Х.Пегерс; Махсус бўлим бошлиғи Г.И.Бокий; ГПУ Пегроград губбўлими бошлиғи, С.А.Мессинг, ГПУ Моск ва губбўлими бошлиғи Ф.Д.Медведь.

Советларнинг 1922 йил 30 декабрда бўлиб ўтган I Бутуниттифоқ съездида “СССРнинг ташкил этилиши ҳақида Шартнома” қабул қилинган. Шу шартномага кўра, СССР Халқ Комиссарлари Совети ҳузурида Бирлашган Давлат Сиёсий Бошқармаси (ОГПУ)ни таъсис этилиши лозим эди. Шартноманинг тегишли моддасини бажариш мақсадида 1923 йил 30 августда А.Г.Белобородов ички ишлар халқ комиссари этиб тайинланади, Ф.Э.Дзержинский эса фақат ГПУ раиси бўлиб қолади. Шу йилнинг 18 сентябрида у ОГПУ раиси, В.М.Менжинский ва Г.ГЯгода унинг ўринбосарлари этиб белгиланади [5]. Ягода айни пайтда Махфий-тезкор бошқарма бошлиғининг ўринбосари ва Махфий бўлим бошлиғи лавозимларини ҳам эгаллайди. Шундай қилиб совет давлати шу тарзда ўзининг жазо органини йилдан-йилга кучайтириб, унга ҳаддан зиёд катта ваколатлар бериб, яқин орада бошланажак “тозалаш” компанияларига жиддий тайёргарлик кўра бошлайди.

СССР Маказий Ижроия Қўмитаси 1934 йил 10 июлда “СССР Умумиттифоқ Ички Ишлар Халқ Комиссарлигини тузиш ҳақида” қарор қабул қилди. Шу қарорга мувофиқ, СССР ОГПУси Давлат хавфсизлиги Бош бошқармаси (ГУГБ)га ай- лантирилди ва янги ташкил этилган НКВД таркибига ки- ритилди. Генрих Ягода СССР ички ишлар халқ комиссари этиб тасдиқланди. Янги ташкил этилган НКВД олдига асосан қуйидаги вазифалар қўйилди:

а) жамоат тартиби ва давлат хавфсизлигини таъминлаш;

б) социалистик мулкни қўриқлаш;

в) фуқароларни никоҳдан ўтказиш ва никоҳни бузиш ҳолларини қайд этиш;

г) чегарани қўриқлаш;

д) меҳнат-тузатув лагерларини сақлаб туриш ва қўриқлаш.

Шу вазифаларни юқори савияда ва тезкорлик билан бажариш мақсадида НКВД таркибида қуйидаги бошқарма ва бўлимлар тузилди:

а) Давлат хавфсизлиги Бош бошқармаси (ГУГБ);

б) Чегара ва ички қўриқлаш Бош бошқармаси (ГУПИВО);

в) Ёнғиндан сақлаш Бош бошқармаси (ГУПО);

г) Фуқароларни никоҳдан ўтказиш ва никоҳни бузиш ҳолларини қайд этиш бўлими (ЗАГС);

д) Маъмурий-хўжалик бошқармаси;

е) Молия бўлими (ФИНО);

ё) Кадрлар бўлими;

ж) Котибият;

з) Махсус вакиллар бўлими [6].

Шу вақтда НКВДнинг марказий аппарати 8211 кишидан иборат бўлган. ГУГБ ишларига шахсан СССР ички ишлар халқ комиссари Ягода раҳбарлик қилган. ГУГБ таркибига собиқ ОГПУнинг қуйидаги асосий тезкор бўлимлари кирган.

а) Махсус бўлим (контрразведка);

б) Махфий-сиёсий бўлим (сиёсий рақибларга қарши кураш);

в) Иқтисодий бўлим (диверсия ва зараркунандаликка қарши кураш);

г) Хорижий бўлим (хориждаги разведка);

д) Тезкор бўлим (партия ва ҳукумат раҳбарларини қўриқлаш, тинтув, қамоққа олиш, четдан кузатиш);

е) Махсус бўлим (шифрлаш ишлари, муассасалардаги мах-фийликни таъминлаш);

ё) Транспорт бўлими (транспортдаги қўпорувчилик ва зараркунандаликка қарши кураш);

ж) Ҳисоблаш-статистика бўлими (тезкор ҳисоблаш, статистика, архив) [7].

НКВД 1941 йил 3 февралда СССР НКВД ва НКГБ (Давлат хавфсизлиги халқ комиссарлиги) ажралгунига қадар унга қуйидагилар раҳбарлик қилишган:

Ягода Г.Г. (10.7.1934-26.9.1936).

Ежов Н.И. (26.9.1936-25.11.1938).

Берия Л.П. (25.11.1938-3.2.1941).

НКВДнинг халқ ғазаб ва нафратига учраган бу раҳбарлари тўғрисида том-том китоб ва мақолалар ёзилган. Бу китоб ва мақолаларнинг барчасида улар туфайли минглаб ва миллионлаб бегуноҳ кишиларнинг қириб ташланганлиги айтилиб келади. Аммо ўтган асрнинг 30-50-йилларида бўлиб ўтган сиёсий қатағонда фақат бу раҳбарларнигина қоралаш тўғри эмас. Агар шахсан Сталин ва у раҳбарлик қилган Сиёсий бюрони миллионлаб бегуноҳ кишиларнинг қирилиб кетишига “фатво” бермаганида, қатағон кўлами бу қадар катта бўлмаган, Совет ҳукуматининг юксак давлат мукофотларига сазовор бўлган, халқнинг ҳурмат ва муҳаббатини қозонган машҳур олимлар, ёзувчилар, санъаткорлар ва бошқалар омон қолган бўларди. Бинобарин, XX асрнинг 30-50-йилларидаги оммавий қатлиомнинг амалга ошишида, биринчи навбатда, Сталин, “ажал рўйхатлари”га имзо чеккан Сиёсий бюро аъзолари ва албатта, НКВДнинг “дўппини ол деса, каллани олиб келадиган” жаллодлари айбдордирлар.

Яна бир жиҳатни ҳам этиборга олмоқ лозим. Марказ ишончини қозониб, унинг нуфузли намо-яндалари билан яқиндан ҳамкорлик қилган, керак бўлганда ўз халқининг манфаати, қизиқишларини кўзлаб иш юритган билимдон кадрлар сони ҳам кўпайиб борган. Аммо Сталин яккаҳокимлиги кучайиб, тоталитар тузум бедодлиги авж олиб борган сари бундай кадрларни

арзимас сабаб ва баҳоналар билан қийноқ-қистовга олиш, вазифаларидан четлатиш одатий тусга кириб борди.

Раҳбар кадрлар, айниқса, ўз халқи, юртининг миллий манфаатларини ҳимоя қилиб, унинг истиқболини кўзлаб, ўзида куч, ирода топиб, бор ҳақиқатни айтишга журъат қилган миллат вакиллари биринчи навбатда ҳукмрон Марказ уюштирган қатағонга дучор бўлди. Ҳатто бу қатағон дахшатидан ўзбек тараққийпарварларининг ичидан етишиб чиққан ёки уларнинг миллий мафкураси асосида вояга етган, қалби юрт ҳуррияти ишқида лиммо-лим тўлган милиция ходимлари ҳам омон қолмади. Масалан, Акбар Исломов, Юсуф Алиев, Туроббек Тўрабеков, Алланазар Пирназаров, Абдуллажон Каримов, Алихўжаев Шоҳмансур ва яна бошқа қанчадан қанча юрт ўғлонлари сталинча қатағон сиёсатининг бегуноҳ қурбонларига айландилар.

Масалан, Ўзбекистон ҳудудида олиб борилган дастлабки кенг кўламдаги қатағон сиёсати Сталин даврига тўғри келиб, бу жараён 1937 йилдан то унинг ўлими (1953 йил)га қадар давом этган. 1937–1939 йиллар оралиғида 41 минг нафардан кўпроқ киши қамоқ жазосига маҳкум этилган. Шулардан 37 минг нафардан кўпроғи учлик судларида судланиб, 6 минг 920 киши отиб ташланган.

Айниқса, “Катта қирғин” дея ном олган 1937-1938 йиллардаги қатағонлар даврида миллатимизнинг кўплаб асл фарзандлари жисмонан йўқ қилинган, узоқ муддатга сургун қилинган ёки қамалган.

Хулоса ўрнида айтганда, қатағоннинг асосий хулосаси шундаки, у фақат НКВД раҳбарларининг зулми билан эмас, балки Сталин ва сиёсий бошқармаларнинг сиёсий қарорлари натижасида амалга оширилган тизимли репрессиялар натижасида юзага келган бўлиб, бу даврнинг фожиали оқибатлари Ўзбекистон ва бошқа туркий халқларнинг тарихида чуқур из қолдирган.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1) Carr Edward Hallett. The Bolshevik Revolution 1917-1923. Volume I-III. London: “Macmillan & Co”. 1950. – P. 36.
2) «Правда», № 290 от 18 декабря 1927, стр. 2.
3) РГАСИ (Российский государственный архив социально-политической истории), фонд 17, опись 3, дело 120, стр 13.
4) Trotsky L. History of the Russian Revolution, Vol. III, New York: Scribner’s. 1932. – P. 392-395.
5) Сборник документов: «СССР: от РСФСР к Союзу», Москва, 1957, стр. 132-134.
6) Rapoport, Y. Stalin’s Secret Police: A History of the NKVD, New York: Random House. 1990. – P. 82-85.
7) Snyder T. Bloodlands: Europe Between Hitler and Stalin, New York: Basic Books, 2010. – P. 134-136.

ҚАТАҒОН БЎЛГАН ҲАМДАМОВЛАР

ЖДПУ тузилмасидаги Қатағон қурбонлари хотираси музейи директори Бахтигул Эргашева

Подшо ҳукуматининг Туркистонда олиб борган мустамлакалаштириш сиёсати маҳаллий халқ орасида кучли норозилик келтириб чиқарди. Мустамлакачиларга дастлабки кунлариданоқ ўзининг норозилигини намоён этиб турди. XIX асрнинг 70-80 йилларида Туркистон ўлкасининг деярли барча жойларида кучайиб кетди. Миллий озодлик ҳаракатларининг кучайишига мустамлакачилар томонидан амалга оширилаётган иқтисодий зулм ва зўравонлик эди. Ҳукумат Туркистонни босиб олгач, ўзининг иқтисодий манфаатларини амалга оширишга ва ўлкани хом ашё базасига айлантиришга киришди. Маҳаллий аҳолининг барча ҳуқуқлари поймол этилиб, уларга фақат арзон ишчи кучи бўлган қуллар каби муомала қилинди. Айниқса 1916 йил 25 июнда император Николай II нинг “Империядаги эркак аҳолини ҳаракатдаги армия районида мудофаа иншоотлари ва ҳарбий алоқа йўллари қуриш учун зарур бўлган бошқа ҳар қандай ишларга жалб қилиш ҳақида”ги фармони яра устига чиққан чипқон бўлди. Фармонга кўра Туркистон ўлкасидаги 19 ёшдан 43 ёшгача бўлган жами 250 минг эркакни фронт орқасига сафарбар қилиш назарда тутилган эди. Бу шумхабар яшин тезлигида бутун Туркистон ўлкасига тарқалди. Азоб-уқубатлардан бағри қон, аламзада Туркистон меҳнаткашларини ларзага солди.

Туркистон тарихида Жиззах қўзғолони номи билан маълум бўлган умумхалқ қўзғолони содир бўлди. 1916 йил қўзғолон кескин тус олди. Воқеалар ривожидан хабар топган уезд ҳокими полковник Рукин, таржимон Мирзаҳамдам Зокиржонов ва икки соқчи йигит билан эски шаҳарга жўнайди. Қўзғолончилар ёпирилиб келиб ташланади ва улар ўлдирилади. Таржимон Мирзаҳамдам Зокиржонов ҳам вафот этади. Мирзаҳамдам Зокиржонов таржимон ва мингбоши бўлиб, жуда илмли, уддабурон киши бўлган. Унинг

фарзандлари: Анвар, Ҳасан, Абдулла, Сарвар, Маҳмуд,Умрилар бўлиб, ўз даврининг етук ходимлари бўлиб етишди.

Хўш унинг ўғиллари Анвар, Ҳасан, Абдуллада не айб эдики, уларга ҳам халқ бош кўтариб чиққан бўлса? Улар янги ҳаёт учун курашиб ҳалок бўлишди. 1937-1938 йиллардаги "Катта қирғин" даврида Ҳамдамовларнинг номини тилга олишга чўчишган. Оталаридан эрта маҳрум бўлган фарзандлар ўз йўлларини танлашга муваффақ бўлишди. Анвар Самарқанддаги дўстлари билан дадил ҳаракати, тиришқоқлиги билан фавқулодда комиссияда ишлади. Тез орада укалари Ҳасан, Абдулла, Маҳмудни ҳам ёнига чақириб бир мунча муддат фаолият олиб борди. Кейинроқ Анвар Ҳамдамов Янгиқўрғон милициясида ишлади. Сўнгра Фарғона водийсига ишга юборилган. 1936 йил оиласи билан Тошкентга кўчиб бориб, ободонлаштириш бўлимида ишлаган. Ҳасан Ҳамдамовнинг ҳаёт йўли ҳам акасиникидан қолишмайди. У ҳам бироз муддат милицияда хизмат қилган. Сўнгра таъминот бўлимида хизмат қилган. 1932 йилда туҳмат туфайли партиядан ўчирилиб, бекордан-бекорга қамоқда ўтириб келган. Абдулла бошқа ака-укаларига нисбатан энг саводли ва билимдони бўлган. Фаолиятини ўқитувчиликдан бошлаган, сўнгра янги тузилган жамоа хўжалигига раис этиб тайинланган. Унинг ҳам бошига ғавғолар ёғилди. 1930 йилда жамоа фаолларини тўплаб "зиёфат қилгани" ва бу билан "халқ мулкини талон-тарож қилгани учун" ноҳақдан 2 йилга озодликдан маҳрум этилди. Сарвар Ҳамдамов ўша кезлари хизмат юзасидан бошқа шаҳарларда кўпроқ бўлгани учун, айниқса ўша пайтда Кавказ орти шаҳарларида бўлиб бироз муддат ушланиб омон қолган. Зеро, подшо амалдорининг ўғли бўлган икки ака отилган, яна бири 10 йилга қамалган эди.

Жудолик-бу оғир кўргулик, у қачон бўлмасин барибир қалбларни ўртайди. Самарқанд вилоят суди томонидан берилган ҳужжатда Ҳасан ва Абдулла Ҳамдамовлар 1962 йил тўла оқланган. Анвар Ҳамдамов оиласини унинг қанча йилга қамалгани ва қаерга жўнатилганидан бехабар қолишди. Буни ҳар замонда олиб бораётган озиқ-овқатнинг олинмай қолганидан англашди. Бу

орада уруш бошланиб, Султон ўғли ҳарбий хизматга олиниб, жангдан тирик қайтмаган. 1944 йилда келган хат уларнинг умидларини пучга чиқарди. Анвар Ҳамдамов жангда эмас, Қараганда шаҳрининг қурилишларидан бирида юрак касали билан вафот этгани маълум қилинган. 1957 йил Анвар Ҳамдамовнинг қизи Хурсанд ишлаб чиқариш амалиётини Қарағанда шаҳрида ўтказди. Отасини жуда кам кўрган, у излари тушган тупроқни кўзга суртиш, сўнгги дақиқалари ўтган жойларни аниқлаш мақсадида Долинка қишлоғида қурилиш ишларида ишлаганини билиб олди. Суриштирув натижасида собиқ маҳбуслар ҳақида, бирга қамоқда ўтирганлар, яхши билган инсонларни топади. Ҳаттоки сурат ҳам кўрсатишади, лекин нусха кўчириб беришмайди.

Анвар Ҳамдамовни яна бир қизи Озода Анваровна ҳам ўз хотираларини ёзиб қолдирган: - “Отам ҳақида маълумот ололмай юрдим, 1957 йил унинг тўла оқланганлиги ҳақида Ўзбекистон Прокуратурасидан оқланганлиги тўғрисида хат олдик. Аммо бу куйган юракларимизга таскин бера олмади. Биз ухлаётгандик, алламаҳал эшик тақиллади, отам елкасига тўнини ташлаб ташқарига чиқди, икки милиционер билан кириб келди. Чироқни ёққанича лом-мим демай уйни тинтув қилди. Келганларнинг бири қозоқ, бири татар йигит эди. Улар гўё муҳим бир нарсани излашарди. Отам буни бир чеккада туриб кузатарди. Акам ва мен бўлаётган воқеалардан ўзимизга келмай отамга термулардик. НКВД ходимлари излаган нарсани топа олишмагач: -“Яна бошқа хона борми”,- деб суриштиришди. Отам уларни онам ва синглим ётган хонага бошлади. Улар ҳам безовта бўлишганди. Онамни юзини кўриб қўрқиб кетдим, у тахтадек қотиб қолганди. Фақат отам ўзини йўқотмасди. Роса ағдар-тўнтар қилишди-ю, аммо ҳеч нима топиша олмади.

-Қани бўлинг, биз билан борасиз,-деди татар йигити. Отам бошимизни силаб, юзимиздан ўпди-да, мағрур турганча: - Асло хавотир олманглар, тезда қайтиб келаман, деганча уларнинг олдига тушиб кетди.

Кунлардан бир куни Офтоб бувим билан отамни кўргани бордик. Тошкент қамоқхонасида бўлган отам узоқ юртларга жўнаши олдидан онаси билан

учрашишга рухсат олган экан. Уни кўриб йиғлаб юбордим. Назаримда отам анча ўзини олдириб қўйган. Ҳозир яхши эслай олмайман, аммо ўша кезда отам бизни қандайдир ҳассага таяниб кутиб олганди. Суҳбатимиз узоқ давом этмади. Қаршимизда соқчи бақрайиб турарди. Сўзсиз ҳаммамиз йиғлаб кўришдик. Бувим додлаб дадамни бағрига босди. У киши бўлса мени кўтариб, юзларимдан ўпди, хуллас бу учрашув мен учун бир умр унитилмас бўлиб қолган. Зеро, бу отамни сўнгги бор кўриш азоби эди...” Йиллар сувдек оқиб ўтсада, из қолдирмасди. Урушдан сўнг ҳаёт бир маромга тушсада, шахсга сиғиниш қурбонларининг тақдири узоқ вақт муаллақ қолиб кетди.

Ҳасан Ҳамдамов қамалганида унинг ўзи билмаган ва ҳатто эшитмаган жиноятлари хусусида суриштиришган. Отасининг подшо хизматида бўлганлиги ҳам кўп бор эсланган. Ёнидан топилган исми ёзилган қурол НКВДга дастак бўлди. Ҳасан Ҳамдамовнинг фарзанди Арслон отаси ҳақида:- Отамнинг узоқларга олиб кетишларини эшитиб қолдик, онам мени етаклаб Жиззах қамоқхонасига олиб борди. Юрак бағримиз қон ҳолда отамни кўриб қолиш учун борсак, у каби барча шўрпешоналарни ҳаммомга туширишаётган экан. Уни бағримиздан юлиб, узоқ юртларга олиб кетиши аниқ бўлиб қолганди. Отамнинг ранги синиққан, кайфияти йўқ эди. Қўриқчи гаплаштиргани қўймади. Унга сўзсиз термулиб турардик. Негадир отам ҳаммомга тушмади. Кейин ҳамма маҳбусларни сафга турғизишиб, кўчалар бўйлаб темир йўл станцияси томон бошлаб кетишди. Ҳибсдагиларнинг қариндош уруғлари қий-чув қилишиб, уларнинг орқасидан эргашишди. Қўриқлаб бораётган йигитлар уларни яқинлаштирмасди. Эшитган узун-қисқа гап-сўзлардан маълум бўлдики, уларга 10 йил муддат беришган. Аммо бу қайси айблари учун буни ҳеч ким айта олмасди. Отамизни Тошкентга олиб боришгач, ҳаммаси аён бўлади деб ўйлагандик. Отамизнинг “халқ душмани” бўлиб отилиб кетиши ҳар биримизнинг қалбимизни ўртар эди. Оиламиз бамисоли ари уяси бўлиб қолганди. Тиқ этса эшикка қараймиз. Мени отам учун мактабдан ҳайдашди. Ҳарбий хизматдан ҳам қолдиришди. Тақдирга тан бериб, отамиз тирик бўлса

ўзи бир кун кириб келишига умид қилардик. Аммо орзуйимиз рўёбга чиқмади.Қанча кутмайлик ундан дарак йўқ. Афсуски, бизда отамнинг бирор сурати ҳам сақланиб қолмаган.

Отамнинг тақдири билан қизиқиш 1956 йилда яъни партиянинг XX съездидан сўнг бошланиб, ёзмаган жойимиз қолмади. Мен ва Муяссар опам кўп жойларга мурожаат қилдик. Барча ҳаракатларимиз зое кетарди. Ниҳоят 60-йилларнинг бошида уйимизга бизга яхши таниш бўлган ва қишлоғимизга тез-тез келиб турадиган милиционер Рўзмат Йўлдошев бир одамни эргаштириб келди. У киши ёзган хатларимиз бўйича текшириш олиб бораётганини айтди. Бир йил ўтгач, опам Муяссар Ҳасанова номига Самарқанд вилоят судидан қоғоз келди. Унда отамнинг оқланганлиги хусусида сўз борарди.

Оқланганлик тўғрисидаги ҳукмлардан кўчирмалар:

“Шуни хабар қиламизки, Ўзбекистон ССР Прокуратурасининг раддияси асосида Ўзбекистон ССР Олий суди 1957 йил 31 майда қабул қилган қарорига биноан 1938 йилда қамалган Ҳамдамов Анвар устидан чиқарилган ҳукм бекор қилинади ва у тўла оқланди.

П.Копейко,
жумҳурият прокурорининг ўринбосари,
адлия катта маслаҳатчиси”.

“1938йилда давлатга қарши қилган жиноятлари учун ҳибсга олинган Ҳамдамов Ҳасан устидан қўзғатилган жиноий иш назорат сифатида қайта кўриб чиқилди. Натижада Самарқанд вилоят прокуратураси раддиясига асосан вилоят судининг ҳайъати Ҳамдамов Ҳасанни айбсиз, деб топди.

Қ.Аҳмаджонов
Самарқанд вилоят прокурорининг ўринбосари,
адлия маслаҳатчиси”.

“Ҳамдамов Абдуллага нисбатан қўлланилган Ўзбекистон ССР жиноят кодексининг 66-модда 1-қисм асосида олий жазо-отишга ҳукм этувчи жиноий

иш вилоят прокурорининг раддияси билан 1962 йил 26 нгоябрида Самарқанд вилоят судининг ҳайъати томонидан кўриб чиқилди.

Ўзбекистон ССР ички ишлар халқ комиссариати қошидаги учликнинг 1937 йил 19 октябрдаги қарори бекор қилинади ва ишда жиноят аломатлари йўқлиги сабабли у ҳаракатдан тўҳтатилади.

Ш.Баҳромов

Самарқанд вилоят суди раиси

вазифасини бажарувчи”.

BO‘LAT SOLIYEV: BIRINCHI O‘ZBEK TARIX PROFESSORI VA SIYOSIY QATAG‘ON QURBONI

Quvvataliyev Ubaydulla Begimqulovich.
Termiz davlat universiteti tuzilmasidagi
Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori
Tel: +99899 815 28 31
kuvvataliyev@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola birinchi o‘zbek tarix fanlari professori Bo‘lat Majidovich Soliyevning hayoti, ilmiy merosi va uning O‘zbekiston tarixidagi o’rni haqida muallifning fikr mulohazalarini aks ettiradi.

Kalit so‘zlar: *Bo‘lat Soliyev, O‘zbekiston, Markaziy Osiyo, tarixiy tadqiqotlar, sovet mafkurasi.*

Birinchi o‘zbek tarix professori Bo‘lat Soliyev O‘zbekiston o‘tmishini akademik tadqiq etishni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Olim 1882-yil 22-martda Rossiya imperiyasining Astraxan viloyatida tug‘ilgan. Bo‘lat Soliyevning hayoti va ijodi O‘rta Osiyoda tarix ilmiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Stalin siyosiy qatag‘onlari ostida bevaqt vafot etganiga qaramay, Bo‘lat Soliyevning O‘zbekiston tarixini o‘rganishga qo‘shgan hissasi ilmiy soha uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda[1].

Bo‘lat Soliyev mintaqa uchun muhim o‘zgarishlar davrida dunyoga keldi. 20-asr boshlari ijtimoiy va siyosiy inqirozlar bilan ajralib turdi va bu kontekst uning ilmiy izlanishlarini shakllantiradi. Dastlab Bo‘lat Soliyev oliy ta’limni Qozondagi nufuzli “Galiya” madrasasida olgan, bu ilm markazi musulmon dunyosida intellektual fikrning rivojlanishida katta rol o‘ynagan[2]. Madrasaning mumtoz islom manbalariga, jumladan, arab va fors tillariga e’tibor qaratgani Bo‘lat

Soliyevning keyingi faoliyatida markaziy o‘rinni egalladi. Bo‘lat Soliyevning merosi uning O‘zbekiston tarixini ilmiy o‘rganish borasidagi asosiy faoliyatidadir. Markaziy Osiyo tarixi ko‘pincha sovet mafkuraviy cheklovlari soyasida qolib ketgan bir paytda Soliyev siyosiy aralashuvdan mustaqil bo‘lgan tarixiy tadqiqotlar yo‘nalishini belgilashga harakat qildi. U barcha tarixlar singari O‘zbekiston tarixini ham mafkuraviy yuklamalarsiz o‘rganish, uning o‘rniga empirik dalillar va ilmiy qat’iylikka e’tibor qaratish lozim, deb hisoblardi.[3]

Bo‘lat Soliyev arab va fors tillarida yozilgan tarixiy matnlarga ixtisoslashgan bo‘lib, ular mintaqaning o‘tmishini tushunishda muhim ahamiyatga ega edi. Uning asarlari mintaqa islom tarixining o'rta asrlar davridan tortib 20-asr boshlaridagi voqealargacha bo‘lgan keng doiradagi mavzularni o'rgangan. Uning ushbu tillardagi birlamchi manbalarni tanqidiy tahlil qilishdan iborat tadqiqot usullari o‘z davri uchun yangilik bo‘lib, O‘zbekiston va Markaziy Osiyodagi bo‘lajak olimlar yetishib chiqishi uchun zamin yaratdi. Bo‘lat Soliyev asarlarining asosiy tamoyillaridan biri uning tarixni mafkurani buzmasdan o‘rganishga intilishi edi. Ilk sovet davrida tarixiy voqe ko'pincha siyosiy rejalar asosida shakllantirilardi, tarix marksistik-leninistik mafkuralarga mos kelishi uchun qayta yozildi. Soliyev esa tarix fani xolis va faktik, zamonaviy siyosiy tazyiqlardan xoli bo‘lmagan fan bo‘lishi kerakligini ta’kidladi. U ayniqsa, sovetlar siyosatiga zid bo‘lgan turkiy tilli xalqlarni umumiy o‘zlik ostida birlashtirishga intilayotgan siyosiy oqim – panturkizmning kuchayishi bilan bog‘liq edi. Bo‘lat Soliyevning O‘rta Osiyoning mustaqil va xolis tarixini sovet rivoyatlariga to‘g‘ri kelmaydigan qo‘llab-quvvatlashi uni o‘sha davrdagi hokimiyat bilan qarama-qarshi qo‘ydi.

Bo‘lat Soliyevning ilmiy faoliyati va mustaqil pozitsiyasi uni Sovet Ittifoqidagi kuchli siyosiy qatag‘onlar davrida Stalinning “Buyuk tozalash” davrida nishonga aylantirdi. 1937 yilda u “panturkizm” ayblovi bilan hibsga olingan - bu noaniq va tushunarsiz ayblov bo‘lib ko‘pincha siyosiy sabablarga ko'ra, tez-tez ziyolilar va millatchilarning ovozini o‘chirish uchun ishlatilgan. Unga qarshi aniq dalillar yo‘qligiga qaramay, Soliyev 1938 yilda o‘limga hukm qilindi.[4]

Soliyevning fojiali taqdiri sovet mafkuraviy talablarini bajarishdan bosh tortgan ziyolilar va olimlarga nisbatan keng qamrovli tazyiqlarning ko‘rinishi edi. Uning vafoti bilan Markaziy Osiyo o‘z tarixining eng yorqin tafakkurlaridan birini yo‘qotdi. Umri fojiali yakunlanganiga qaramay, Bo‘lat Soliyevning tarixchi va olim sifatidagi merosi bugun ham o‘z aks-sadosini saqlab kelmoqda. Uning o‘zbek tarixini ilmiy va xolisona o‘rganish yo‘lidagi sa’y-harakatlari stalinizm davridan keyin ham uning faoliyatini davom ettiradigan tarixchilarning keyingi avlodlariga asos soldi. Sobiq SSSR davrida O‘zbekiston tarixiy fanlari asta-sekin Bo‘lat Soliyevning xizmatlarini e’tirof eta boshladi. Uning ijodi O‘zbekiston tarixini o‘rganishda tamal toshi bo‘lib, uning nomi XX asr boshlarida Markaziy Osiyoning intellektual uyg‘onishi bilan abadiy bog‘lanib qoladi[5].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Темиров. Ф. Пўлат Солиев (рисола) — Toshkent. “Авu Матвuот-Konsalt” 2011. B 5.
2. Булат Салиев – үзбәк тарихын язган татар галиме // Фәнни Татарстан. - 2020. Б. 90.
3. G’afforov.Sh.Qatag‘onga uchragan tarixchi olim. (Po‘lat Soliev tavalludining 140 yilligi) “Jadidlarning ma’rifiy faoliyati: g’oyalari, maqsadlari, vazifalari va Turkiston taraqqiyotiga qo’shgan hissasi” mavzuidagi xalqaro ilmiy -amaliy konferensiya materiallari. 6-7-mart 2023-yil. Toshkent. B 213.
4. Ахорова.Х. Биринчи тарих фанлари доктори (Қатағон қурбонлари). // “Marifat”. 2002 йил 5 октябр.
5. Ражабов Қ. Солиев Бўлат // Ўзбекистон миллий энсиклопедияси.Т.7. Т.: ЎзМЭ нашриёти, 2004 689-бет.

XX ASR 40-YILLARI OXIRI 50-YILLARI BOSHLARIDA YOZUVCHI VA OLIMLARNING QATAG‘ON QILINISHI (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)

Masharipov Shavkat Ro‘zimovich,
Sh.Rashidov nomidagi SamDU tuzilmasidagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi xodimi
Samarqand shahar, Uneversitet hiyoboni, 15 uy. Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi
Tel: +998976126621

Annotatsiya, *Ushbu maqolada Sovet davlatining O‘zbekistonda ilmiy va badiiy ziyolilarning taqib qilinishi o‘sha vaqtda hukm surgan mustabid tuzumning o‘zboshimchaligi va zo‘rovonligi haqiqiy ko‘rinishi haqida fikr yuritiladi.*

XX asrning 40-yillari oxiri va 50-yillari boshidagi qatag‘onlar, asosan, madaniyat va fan arboblariga qarshi qaratildi.

Sovet davri sharoitida “Sovetlar mamlakati”da, xususan, Samarqand viloyatining ilimli ziyoli kishilari hibsga olinib qamaldi.

Tadqiqot davomida to‘plangan dalillar atroflicha o‘rganilib, unga ilmiy nuqtai nazardan baho beriladi.

Kalit so‘zlar, *KPSS, VKP(b) MK, NKVD, senzura, ekspozitsiya, repertuar, intelligensiya.*

Аннотация: *В статье рассматриваются преследования научной и творческой интеллигенции советским государством в Узбекистане как яркое проявление произвола и насилия правившего тогда авторитарного режима.*

Репрессии конца 1940-х – начала 1950-х годов были направлены в основном против деятелей культуры и науки.

В советское время научная интеллигенция, в частности из Самаркандской области, подвергалась арестам и тюремному заключению.

Доказательства, собранные в ходе исследования, тщательно изучены и оценены с научной точки зрения.

Ключевые слова: *КПСС, ВКП(б) МК, НКВД, цензура, экспозиция, репертуар, интеллигенция.*

Abstract, *This article discusses the Soviet state's persecution of scientific and artistic intelligentsia in Uzbekistan as a true manifestation of the arbitrariness and violence of the then-ruling authoritarian regime.*

The repressions of the late 1940s and early 1950s were mainly directed against cultural and scientific figures.

During the Soviet era, the scientific intelligentsia, in particular, from the Samarkand region, was arrested and imprisoned.

The evidence collected during the research is thoroughly studied and evaluated from a scientific point of view.

Key words, *CPSU, VKP(b) MK, NKVD, censorship, exposition, repertoire, intelligentsia.*

Mamlakatimizning istiqlolni qo‘lga kiritishi milliy o‘zlikni anglash va tarixiy haqiqatni tiklash uchun keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Vatanimizning yirik olimlari, keng ijodiy ziyolilar ommasi tomonidan yaqin o‘tmishni mustaqillik mafkurasi nuqtai-nazaridan o‘rganish ishlari boshlab yuborildi.

Qatag‘on siyosati tarixini o‘rganish, tadqiqotlarning aksariyat qismida ma’lumotlar Respublika miqyosida tahlil qilingan. Ammo hozirgi kunga qadar Samarqand viloyatida Sovet davlatining qatag‘on siyosati ta’siri yetarli darajada o‘rganilmagan.

Shu sababli hozirgi kunda Samarqand viloyatida Sovet davlatining qatag‘on siyosati oqibatlarini o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev yurt mustaqilligini muqaddas deb, uning sha’ni, g‘ururi uchun kurashga otlangan, Vatan

ozodligi o‘zining jonidan afzal bilgan, sovet hokimiyati tomonidan qatag‘on qilingan ota-bobolarimiz xotirasini, ularning ezgu ishlarini hozirgi avlodning ongi va tafakkurida jonlantirish maqsadida 2020 yilning 8 oktyabrida “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoyishi qabul qilindi. [1]

O‘tgan asrning 30-50 yillarida Sovet totalitar tuzumi oqibatida O‘zbekistonning bir qancha taniqli davlat va jamoat arboblari, yozuvchi va olimlar siyosiy tuhmat ayb bilan begunoh qurbon bo‘lib ketdilar. Bu borada sovetlarning qatag‘on siyosati, ayniqsa, 30-yillar oxiri 40-50 yillar boshlarida, avjiga chiqdi. Yurtimizning taniqli davlat arboblari – Fayzulla Xo‘jaev, Abdulla Rahimboev, Sulton Segizboev, yozuvchi va olimlardan – Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Sulaymon Azimov, Hamid Sulaymonov va boshqalar sovetlarga va partiyaga qarshi bo‘lgan allaqanday millatchilik tashkilotning a’zolari degan soxta ayblar bilan ayblanib og‘ir fojeali qismatlarga duchor qilindilar. [2]

40-yillarning oxiri 50-yillarning boshlarida mustabid tuzum “mafkura maydoni”da keng xujumni avj oldirib, o‘zining asosiy zarbasini boshqacha fikrlovchi ijodkor va ilmiy ziyolilarga, “KPSS tarixi”da yozilganidek, “burjua qarashlari va nuqtai nazarlari qoldiqlariga, reaksion burjua madaniyatiga tanqidiy baho bermaslikka qarshi, fan, adabiyot va san’atda marksizm-leninizmdan chekinishlarga qarshi” qaratdi. Ana shu davrda VKP(b) MK adabiyot va san’at masalalari yuzasidan bir qator qarorlar qabul qilgan bo‘lib, ularda mamlakat ijodkor ziyolilarning ko‘pgina vakillari o‘z asarlarida “g‘oyasizlik”ni targ‘ib qilganliklari, “adabiyot va san’atni siyosatdan ajratib qo‘yishga uringanliklari” uchun, badiiy ijoddagi partiyaviylik prinsiplaridan uzoqlashganliklari uchun badnom etiladi. Partiya mafkura muassasalarining ko‘rsatmasi bilan munozalarda o‘z asarlarida “marksizm-leninizmning asosiy prinsiplaridan” chekinishga yo‘l qo‘ygan ijtimoiy fanlar vakillari, ularning qarashlaridagi sub’ektivizm va shu kabilar tanqid qilindi. [3] Bu holatli jarayondan O‘zbekiston ham chetda qolmadi. VKP(b) MK

direktivalarini amalda ro‘yobga chiqarish jarayonida “millatchilik”ga qarshi kurash niqobi ostida 40-yillar oxiri 50-yillarning boshlarida mustabid tuzum va uning mafkuraviy muassasalari o‘zbek xalqining madaniy merosiga hujum qilishni keng avj oldirib yubordilar, badiiy va ilmiy ziyolilarning bir qator vakillariga qarshi vahshiylarcha bedodlik qildilar.

O‘zbekiston Kompartiyasining X se’zdi (1946 yil mart) qarorlarida go‘yoki respublika fanida mavjud bo‘lgan “millatchilik ko‘rinishlari va jinoyatchiligi”ning bartaraf etilishi to‘g‘risida quyidagicha ko‘rsatma berildi: “Se’zd O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi, O‘zbekiston ilmiy tekshirish institutlari va oliy o‘quv yurtlarida xizmat qiluvchi kommunistlardan barcha ilmiy tadqiqotlarni partiya talablari va respublika oldida turgan vazifalar, fanda bolshevistik partiya tamoyillarini og‘ishmay himoya qilish, reaksion nazariyalar va qarashlarga qarshi kurash nuqtai nazaridan ko‘tarishni talab qiladi. Tarix faniga millatchilik, yuzsiz kosmopolitizm va qarashlarimizga dushman bo‘lgan boshqa urinishlarning kirishiga qarshi dadil kurash olib borish kerak. [4]

XX asrning 40-yillari oxirida adabiyot va san’at masalalari VKP(b) MK Kotibiyati va Tashkiliy byurosi darajasida, ko‘pgincha I.V.Stalinning shaxsan ishtiroqida hal qilingan. A.A.Jdanov va V.M.Molotov urushdan keyin mafkura bo‘yicha mutasadi bo‘lishgan, ijodiy hayotga rahbarlik qilish esa partiya MK Targ‘ibot va tashviqot bo‘limining monopoliyasida bo‘lib, unga matbuot, badiiy adabiyot, teatr va h.k. – jami 22 ta sektor qaragan. Har qanday asar shu bo‘lim tomonidan nazorat qilingan ko‘p bosqichli senzura mexanizmi orqali o‘tgan. Doim adabiyot va san’at asarlarining tavsiyasi ro‘yxatlari bilan birga “qora” ro‘yxatlar ham tuzilar edi. So‘nggi toifadagi ro‘yxatlar asosida kutubxonalardan minglab kitoblar, kinoprokatdan yuzlab kinofilmlar olib tashlanar, muzey ekspozitsiyalari va teatr repertuarilari esa o‘zgartirilardi. [5]

Masalan, Samarqand viloyat Davlat arxividagi xujjatlar bilan tanishib tadqiqot olib borganimda Samarqand sud ishlari №1705 jamg‘armasida Samarqand

viloyatidan ham badiiy va ilmiy ziyolilarining bir qator vakillari qatag‘on domiga tortilganligining guvohi bo‘ldim.

Qulmuhammadxonov Kattaxon 1879 yilda Samarqand viloyati, Dahbed qishlog‘ida tug‘ilgan. Naqshbandiya tariqatining oxirgi piru murshidi bo‘lgan, shoir va tarixchi olim.

Kattaxonxo‘ja Dahbediy 1928 yilda yer-mulklari tortib olinib, xalq dushmani sifatida qatag‘on qilingan. 1930 yilda 5 yilga qamoq jazosiga hukm etilgan. 1951 yilda O‘zSSR JKning 66-moddasini II-qismiga asosan JKning 58-moddasini saniksiyasi bilan muddati 25 yil ozodlik huquqidan, 5 yil saylash-saylanish huquqidan mahrum hamda mol-mulki musodara qilingan.

Sud hukmi bo‘yicha Qulmuhammadxonov o‘zi istiqomat qilgan qishloq aholisi o‘rtasida tizimli ravishda sovetlar hokimiyatiga qarshi aksilinqilobiy tashviqot qilishda va chor hukumatini maqtashda, qilmish jinoyatlarini diniy xurofatlarni qurol qilgani holda zukurga keltirishda ayblanib, hukm etilgan.

Kollegiya mahkumni qarilig‘i (80 yoshda) uning tomonidan gapirilgan so‘zlarni harakteri, sog‘lig‘ini yomon holda bo‘lganligi kabi barcha holatlarni hisobga olib, JKning 157 moddasiga muvofiq ajrim qildi.

Samarqand vilot sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov kollegiyasining 1 avgust 1952 yilda Qulmuhammadxonov Kattaxon haqida chiqarilgan hukmining o‘zgartirilsin, ya’ni, unga nisbatan sud tomonidan tayin etilgan 25 yil qamoq jazosini 5 yilga keltirilsin. [6] SSSR Oliy soveti prezdiumining 27/III-1953 yildagi “Amnistiya haqida”gi farmonini I va 6 moddalariga muvofiq 1955 yil jazoni o‘tashdan ozod qilinadi.

Ha, Kattaxonxoja Dahbediy tazyiqlar davrining Domla Muhammadjon Hindistoniy, Gulshaniy va Habibiy kabi eng mashhur olimu shoir insonlaridan edi, ammo dahr bu zotlarning to‘la namoyon bo‘lishlariga imkon bermadi. Uzoq umr ko‘rib yoshi bir asrga yetgan piru murshid Kattaxonxoja Dahbediy yurtimizni istilo qilgan chorizm Rossiyasi va kommunistlar ittifoqi bilan kelishishni xohlamadi.

Natijada ul zotning muborak nomi pinhon qoldi, mashhur shogirdlari tufayligina onda-sonda matbuotlarda ijodlari chop etilardi. [7] U 1969 yilda vafot etgan.

Samarqand viloyatidan yana bir atoqli katta eshonlardan bo‘lgan Dastlabki ma’lumotni Urgutda Naqshin madrasasida olib, undan keyin o‘z bilimlarini Samarqandda Ulug‘bek madrasasida davom ettirganlar. Shunisi diqqatga sazovorki, Abu Sayyid Xayrullo dastlabki bilimini otalari Urgut qoziysi, shoir Sayyid Asrorxon – Muftaqaridan olganlar. Yetti yoshlarida qur’onni yod olgan hamda 12 yoshlarida Alisher Navoiy “Xamsa”sini to‘liq yod olganlar. U sovet davlatining tazyiqiga uchrab, qatag‘on yillarida Rossiyaning sovuq turmalarida qiynoq va azoblarini boshidan kechirgan, o‘z e’tiqodidan zarracha bo‘lsa-da chekinmagan edi.

O‘zSSR Oliy sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov kollegiyasining yopiq sud majlisida Samarqand viloyat sudlov kollegiyasining 1952 yil 17-19 mayda ko‘rgan 7-son jinoyat ishi bo‘yicha chiqargan hukmi ustidan O‘zSSR prokurorini protesti ko‘rilgan.

Sudni hukmi bilan: Asrorxonov Abuxayr – 1890 yilda tug‘ilgan, o‘zbek, muqaddam sudlanmagan. O‘zSSR JKning 66-2 qismi va 67, 58-moddalari bilan 1951 yil 15 noyabrda aksilinqilobiy faoliyatda ayblanib, qamoqqa olingan.[8]

Samarqand viloyat sudi jinoyat sudlov kollegiyasi 1952 yil 17-19 may oyida unga tayin etilgan ozodlikdan mahrum qilish jazosini kamaytirib 10 yilga keltirib, 3 yil saylov huquqidan mahrum etilgan. 1955 yil 18 iyunda qamoqdan ozod qilingan.

1988 yil 16 dekabrda O‘zbekiston SSR Oliy sudi prezidiumining qarori bilan Samarqand viloyat sudining 1952 yil 17 maydagi urgutlik eshon Abuxayr Asrorxonov haqidagi hukmni mutloqa asossiz bo‘lgani, uning faoliyatida jinoyat alomatlari yo‘qligi aniqlanib, tamomila oqlanganligi aytilgan va qarorga o‘sha davrdagi O‘zbekiston Oliy sudi raisi bo‘lib ishlagan Sodiqjon Yigitaliev imzo qo‘ygan. [9]

Ilmiy, adabiy va madaniy hayotdagi bunday noxush voqealar shu yillarda faqat O‘zbekistonda emas, ayni paytda Sovet Ittifoqining barcha respublikalarida ham sodir bo‘layotgan edi.

1937-1938 yillarda bo‘lganidek, XX asrning 50-yillari avvalida boshlangan qatag‘on to‘lqinida ham NKVD xodimlari va ularning gumashtalari tomonidan tayyorlangan tuhmatnomalar asosida respublikamizda minglab begunoh kishilar qamoqqa olindi. Katta-qirg‘in davridan farqli o‘laroq, bu yillarda qatag‘on qurbonlariga nisbatan qo‘llangan jazo 10 yillik emas, balki 25 yillik qamoq jazosi edi.

Afsuski, 50-yillarda O‘zbekistondan qancha kishining qamoqqa olingani tadqiqotchilar tomonidan hozirgacha yetarli darajada o‘rganilmagan. Hatto shu yillarda fan va madaniyat, sanoat xo‘jalikning qaysi sohalarida qatag‘on tufayli katta talofat ko‘rgani ham ma’lum emas. Sovet davlatining bu o‘ta dahshatli rejasining amalga oshishi va keng ko‘lam olishiga mahalliy g‘alamislar ham o‘z hissalarini qo‘shdilar.

1946-1953 yillarda ro‘y bergan voqealar O‘zbekistondagi ilg‘or kishilarning ko‘zini ochib, ularni hushyorlikka undadi. Sovet mustabid tuzimi yagodalarning yejovlar bilan, yejovlarning beriyalar bilan, beriyalarning esa merkulovlar va yana kimlar bilandir almashtirilishi natijasida o‘zgaradigan, g‘ayriinsoniy, g‘ayrimilliy va g‘ayrimadaniy po‘stlog‘idan xoli bo‘ladigan tuzum emasligini yana bir bor namoyish qildi.

Xulosa qilib aytganda, sovet davlati Ikkinchi jahon urushi davri hamda 1945-1953 yillardagi siyosiy kampaniyalar va qatag‘onni amalga oshirish bilan, bir tomondan, xalqni, ayniqsa, ziyolilarni o‘zining temir panjasida ushlab turmoqchi, uning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ruhiy hayotiga xorijdan kela boshlagan yangi shabadalar oldini olmoqchi, ikkinchi tomondan, qamoqqa olingan mahbuslarning tekin mehnati bilan urushdan vayron bo‘lib chiqqan mamlakatni, xususan, uning iqtisodini tiklamoqchi bo‘lgan. Sovet davlatining bu siyosiy jarayonlardan ko‘zlagan uchinchi maqsadi esa xalqni doimiy qo‘rquv va tazyiq ostida ushlab turish bo‘lgan.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro‘yxati

1.История Россия. Новейшее время (1945-1990). – Москва: АСТ, 2001. 56-бет. [5]

2.Каттаев К. Махдуми Аъзам ва Даҳбед. Самарқанд. 1994. [7]

3.Комунистическая партия Узбекистана в революциях и решениях съездов и пленумов ЦК. Том 2. -С.384. [4]

4.Samarqand viloyat Davlat arxivi 1705-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 929-yig‘ma jild, 26-varaq. [6]

5.Samarqand viloyat Davlat arxivi 1705-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 929-yig‘ma jild, 44-varaq. [8]

6.O‘zbekiston Respublikasining Farmoyishi: Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida (2020 yil 8 oktyabr) // Xalq so‘zi, 2020 yil 9 oktyabr. [1]

7.O‘zbekistonning yangi tarixi. (ikkinchi kitob) Toshkent-2000. 507-bet. [3]

8.“Ургут садоси” газетаси. №28-29 (532) 2021-йил 15 декабр. 4-бет. [9]

9.Ҳасанов Б.“Национальная интеллигенция Узбекистана и исторические процессы”. 1917-начало 50-годов Ташкент-2000, стр. 119-131. [2]

“XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA TERMIZ VA PATTAKESARNING ROSSIYA IMPERIYASI BOJXONA VA SAVDO SIYOSATIDAGI O‘RNI”.

Xidirov Muhiddin Xursanovich,
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi.
mxidirov@tersu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi bojxona, savdo va chegara siyosati hamda ushbu jarayonlarning Termiz va Surxon vohasining ijtimoiy-iqtisodiy va geosiyosiy rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda Amudaryo bo‘yida joylashgan Termiz va Pattakesar hududlarining transchegaraviy savdo va bojxona munosabatlaridagi o‘rni, Rossiya imperiyasining Afg‘oniston va Buxoro amirligi bilan bog‘liq chegara siyosati hamda mintaqadagi savdo yo‘llarini nazorat qilishga qaratilgan chora-tadbirlari yoritiladi. Shuningdek, Termiz va Pattakesar orqali Rossiya, Afg‘oniston, Hindiston va Xitoy o‘rtasida amalga oshirilgan savdo aloqalari, vohada rus sanoat mahsulotlarining tarqalishi hamda Sharq mamlakatlaridan turli tovarlarning olib kirilishi tarixiy manbalar asosida tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari Rossiya imperiyasining bojxona va savdo siyosati iqtisodiy manfaatlar bilan bir qatorda, Amudaryo bo‘yidagi strategik hududlar ustidan nazoratni mustahkamlash, transchegaraviy savdo yo‘llarini boshqarish va Afg‘oniston yo‘nalishidagi geosiyosiy mavqeyini kuchaytirishga xizmat qilganligini ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, Termizning XIX asr oxiri – XX asr boshlarida nafaqat mahalliy, balki mintaqalararo savdo va strategik kommunikatsiyalar tizimidagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Termiz, Surxon vohasi, Rossiya imperiyasi, Buxoro amirligi, bojxona siyosati, chegara siyosati, transchegaraviy savdo, Pattakesar, Amudaryo,

Afg‘oniston, Hindiston, savdo yo‘llari, geosiyosiy manfaatlar, XIX asr oxiri, XX asr boshlarida.

«РОЛЬ ТЕРМЕЗА И ПАТТА-КЕСАРА В ТАМОЖЕННОЙ И ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКЕ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА».

Хидиров Мухиддин Хурсанович,

Преподаватель Термезского государственного университета,

Аннотация: В статье анализируется таможенная, торговая и пограничная политика Российской империи в Центральной Азии в конце XIX – начале XX века, а также её влияние на социально-экономическое и геополитическое развитие Термеза и Сурханского оазиса. Особое внимание уделяется роли Термеза и Патта-Кесара, расположенных на берегах Амударьи, в системе трансграничных торговых и таможенных отношений, пограничной политике Российской империи в отношении Бухарского эмирата и Афганистана, а также мерам по установлению контроля над торговыми путями региона. На основе исторических источников рассматриваются торговые связи, осуществлявшиеся через Термез и Патта-Кесар между Россией, Афганистаном, Индией и Китаем, распространение российских промышленных товаров в регионе и ввоз различных товаров из восточных стран. Результаты исследования показывают, что таможенная и торговая политика Российской империи была обусловлена не только экономическими интересами, но и стремлением укрепить контроль над стратегически важными территориями вдоль Амударьи, регулировать трансграничные торговые пути и усилить геополитические позиции в афганском направлении. В данном контексте раскрывается значение Термеза как важного центра не только местной, но и межрегиональной торговли и стратегических коммуникаций в конце XIX – начале XX века.

Ключевые слова: Термез, Сурханский оазис, Российская империя, Бухарский эмират, таможенная политика, пограничная политика,

трансграничная торговля, Патта-Кесар, Амударья, Афганистан, Индия, торговые пути, геополитические интересы, конец XIX века, начало XX века.

“THE ROLE OF TERMEZ AND PATTAKESAR IN THE CUSTOMS AND TRADE POLICY OF THE RUSSIAN EMPIRE IN THE LATE 19TH AND EARLY 20TH CENTURIES”.

Xidirov Muhiddin Xursanovich,

Lecturer at Termez State University

Abstract: This article examines the customs, trade, and border policies of the Russian Empire in Central Asia in the late nineteenth and early twentieth centuries and their impact on the socio-economic and geopolitical development of Termez and the Surkhan oasis. Particular attention is paid to the role of Termez and Pattakesar, located along the Amu Darya, in cross-border trade and customs relations, as well as to the Russian Empire’s border policy toward the Emirate of Bukhara and Afghanistan and its efforts to control regional trade routes. Drawing on historical sources, the study analyzes trade relations conducted through Termez and Pattakesar between Russia, Afghanistan, India, and China, the expansion of Russian manufactured goods in the region, and the import of various commodities from Eastern countries. The findings demonstrate that the customs and trade policies of the Russian Empire were driven not only by economic interests but also by the strategic objective of strengthening control over key territories along the Amu Darya, regulating cross-border trade routes, and consolidating its geopolitical position in the Afghan direction. In this context, the study highlights the significance of Termez as an important center of both local and interregional trade and strategic communications in the late nineteenth and early twentieth centuries.

Key words: Termez, Surkhan oasis, Russian Empire, Emirate of Bukhara, customs policy, border policy, cross-border trade, Pattakesar, Amu Darya, Afghanistan, India, trade routes, geopolitical interests, late nineteenth century, early twentieth century.

Kirish. “Ellenboroning fikricha, Rossiya dastlab o‘z savdo faoliyatidan harbiy ekspansiya uchun tayyorgarlik vositasi sifatida foydalanadi. Ya’ni, rus savdogarlarini himoya qilish bahonasida, Kobul yo‘nalishida asta-sekin harbiy tayanch punktlar zanjiri shakllanadi. Aynan ana shu belgilar orqali Rossiya qo‘mondonlari kelgusida qaysi yo‘nalishni tanlaganini aniqlash mumkin bo‘ladi”[1].

1892-yilning 7-avgustida Rossiyaning chor xukumati afg‘on-buxoro chegarasini rus chegara qo‘shini bilan egallab olib Buxoro xonligini rus bojxona chizig‘iga aylantirish bo‘yicha rasmiy qaror imzolaydi”[2].

Chegarani rus zobitlari qilishi yo‘lga qo‘yildi va bu amalda amirlikning erkin savdo va bojxona munosabatlarini amalga oshirish imkonidan deyarli mahrum qildi. Qaror mahiyatan amirlikni imperiyaning ichki bozoriga aylantirish harakatlarining yakuni bo‘ldi. Natijada esa, Amudaryo bo‘ylab joylashga bir qator bojxona hamda chegara postlari tashkil etildi. Rus mahsulotlari miqdorining keskin oshishi oqibatida mahalliy ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy ahvolini yanada og’irlashtirdi.

“1895-yil yanvar oyida Rossiya bojxona chegarasi Turkiston–Buxoro chegarasidan Amudaryo bo‘yiga ko‘chirilgach, Buxoro amirligi to‘liq podsho Rossiyasi protektoratiga aylandi. Karkidan Darvozning g‘arbiy chegarasigacha bo‘lgan Amudaryoning o‘ng sohilida Rossiya bojxona punktlari va chegara postlari tashkil etildi, chegara hududlari esa podsho qo‘shinlari tomonidan qo‘riqlandi. Shu vaqtdan boshlab Amudaryo chegarasining mudofaasi to‘liq Rossiya harbiy kuchlariga tayanadigan bo‘ldi, amir qo‘shini esa amirlikda ikkinchi darajali rolni bajara boshladi. Bu paytga kelib amir Rossiyadan boshqa davlatlar bilan mustaqil tashqi aloqalar yuritish imkoniyatidan ham mahrum bo‘lgan edi”[3].

---

[1] THE BRITISH ACADEMY THE RALEIGH LECTURE ON HISTORY (Founded by Sir Charles C. Wakefield, Bart., on the occasion of the Raleigh Tereentenary, October 29, 1918) The Great Game in Asia (1800-1844) By Professor H. W. C. Davis [From the Proceedings of the British Academy] London Published for the British Academy By Humphrey Milford, Oxford University Press Amen House, E.C. PP. 7-8. https://babel.hathitrust.org/cgi/pt?id=uc1.$b42733&seq=11.

[2] Шейко.К.А. Сурхондарё ўлкашунослиги (Краеведение Сурхандарьи). “O‘zbekiston”.2002.

[3] Geiss P. G. Pre-Tsarist and Tsarist Central Asia: Communal Commitment and Political Order in Change. – London ; New York : Routledge, 2003. – 199 p.

Chegarani rus zobitlari qilishi yo‘lga qo‘yildi va bu amalda amirlikning erkin savdo va bojxona munosabatlarini amalga oshirish imkonidan deyarli mahrum qildi. Qaror mahiyatan amirlikni imperiyaning ichki bozoriga aylantirish harakatlarining yakuni bo‘ldi. Natijada esa, Amudaryo bo‘ylab joylashga bir qator bojxona hamda chegara postlari tashkil etildi. Rus mahsulotlari miqdorining keskin oshishi oqibatida mahalliy ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy ahvolini yanada og’irlashtirdi.

“1895-yil yanvar oyida Rossiya bojxona chegarasi Turkiston–Buxoro chegarasidan Amudaryo bo‘yiga ko‘chirilgach, Buxoro amirligi to‘liq podsho Rossiyasi protektoratiga aylandi. Karkidan Darvozning g‘arbiy chegarasigacha bo‘lgan Amudaryoning o‘ng sohilida Rossiya bojxona punktlari va chegara postlari tashkil etildi, chegara hududlari esa podsho qo‘shinlari tomonidan qo‘riqlandi. Shu vaqtdan boshlab Amudaryo chegarasining mudofaasi to‘liq Rossiya harbiy kuchlariga tayanadigan bo‘ldi, amir qo‘shini esa amirlikda ikkinchi darajali rolni bajara boshladi. Bu paytga kelib amir Rossiyadan boshqa davlatlar bilan mustaqil tashqi aloqalar yuritish imkoniyatidan ham mahrum bo‘lgan edi”[4].

XIX asr oxiri -XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda shakllangan Rossiya imperiyasining temiryo‘l, bojxona va savdo siyosati faqat iqtisodiy manfaatlar bilan cheklanib qolmay, balki harbiy-logistik va geosiyodiy ustunlikni ta’minlashga qaratilgan strategik vosita sifatida nomoyon bo‘ldi.

“Vohadagi yirik va gavjum bozorlar Sherobod bekligi bozorlari hisoblanadi. Ayniqsa beklikning katta qismida rus armiyasi va fuqarolarining istiko-mat qilishi hamda Sharq davlatlari bilan Rossiya o‘rtasida savdo aloqalariga e’tiborning oshib borishi. bunda Sherobod. Termiz, Pattakesar bozorlarining ombor vazifasini o‘tashlari, savdo-sotiqning jadal o‘sishiga olib keldi. Bu esa bu bozorlarning dunyoning turli mamlakatlardan, xususan Rossiya fabrikala-rida ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan to‘lib borishiga imkon berdi. Bundan tashkari XIX asrda

[4] Geiss P. G. Pre-Tsarist and Tsarist Central Asia: Communal Commitment and Political Order in Change. – London ; New York : Routledge, 2003. – 199 p.

mintaqadagi boshqa shaharlar qatori, savdo yo‘li ustida joylashgan Termizning Sharq davlatlari xususan Hindiston bilan bo‘ladigan savdo aloqalarida ahamiyati oshib bordi. Hindistondan shol ro‘mollarning turli xillari, nil bo‘yog‘i(indigo), ziravorlar-murch, dolchin, zircho‘pa; ozik-ovqat mahsulotlari shakar, novvot, aqiq, serdolik; Peshavordan lungi, guruch, charmdan tayyorlangan tarozilar, Xitoydan tukachoy, oqquyruq (ko‘k choy), chinni buyumlar va boshqa mahsulotlar keltirilganligi manbalarda qayd qilib o‘til gan. Beklikda uning amlokdorliklari markazlarida Xatak, Poshxo‘rd, Zarabog‘, Ko‘hitang, Jarqo‘rg‘on, Kakaydi va Xo‘jamalikda bozorlari bo‘lgan. Pattakesar bozori ancha gavjum bozor bo‘lib, bu yerda Rossiyadan fabrikalarida ishlab chiqarilgan matolarni ancha qulay narxda sotib olish imkoni bo‘lgan”[5].

Tarixiy manbalar Termizning transchegaraviy savdo markazi sifatidagi maqomini tasdiqlaydi va Hindistondan (Peshovor orqali) nil bo‘yog’i, zirovarlar va shol ro‘mollar, shuningdek, Xitoydan choy va chinni buyumlar import qilinganini qayd etadi. Bu borada Termiz bojxonasi nafaqat fiskal (soliq yig’ish) balki tartibga solish vazigasini ham bajargan. Hindiston mahsulotlarining Termiz orqali Rossiyaning ichki hududlariga olib o‘tilishi Rossiya imperiyasining Afg’oniston orqali o‘tadigan tranzit yo‘llarini nazorat qilishga intilganidan dalolat beradi.

“Voxadagi Pattakesar bojxona kismi orkali Afg‘onistonning Chaxor, Andxoy va Maymana viloyatlariga 24,5 ming pud shakar, 4,4 ming pud kerosin, 7,9 ming pud paxta matosi va boshka maxsulotlar olib o‘tilgan”[6].

Sherobod bekligi va Termiz hududida rus harbiy zobitlari kontengitining joylashtirilishi savdoning jadal rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Harbiy istehkomning mavjudligi karvon yo‘llari xavfsizligini kafolatlagan, bu esa o‘z navbatida chet davlatlar bilan savdo-sotiq ishlarini amalga oshiradigan savdogarlarning Xatak, Poshxurd va Zarabog‘ amlok markazlariga bo‘lgan

[5] Агзамова Г.А. Сўнгги ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида ҳунармандчилик. – Б. 60-61.

[6] Файзулла Очилдиев. Сурхон воҳаси бекликларидаги ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий ўзгаришлар. (XIX асрнинг иккинчи ярми XX аср бошлари). TOSHKENT. 2008.144-б

qiziqishini oshirgan. Bu yerda Termiz forposti nafaqat mudofaa istehkomi, balki savdo-iqtisodiy barqarorlik vositasichisi vazifasini ham bajargan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi bojxona, savdo va chegara siyosati hamda uning Termiz va Surxon vohasining iqtisodiy-geosiyosiy hayotiga ta’sirini o‘rganishda tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillariga asoslanildi. Tadqiqot metodologiyasini shakllantirishda tarixiy-qiyosiy, tarixiy-genetik, muammoviy-xronologik, manbashunoslik va retrospektiv tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tarixiy-qiyosiy metod orqali Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi bojxona va savdo siyosati bilan Termiz hamda Pattakesar hududlarida shakllangan transchegaraviy savdo munosabatlari o‘zaro qiyoslandi. Xususan, Rossiya, Buxoro amirligi, Afg‘oniston, Hindiston va Xitoy o‘rtasidagi savdo aloqalarining Termiz hududidagi rivojlanish xususiyatlari tahlil qilindi.

Tarixiy-genetik metod asosida Rossiya imperiyasining Amudaryo bo‘yidagi chegara va bojxona nazoratini kuchaytirish jarayoni bosqichma-bosqich ko‘rib chiqildi. Ushbu metod orqali bojxona va savdo siyosatining shakllanish sabablari, uning rivojlanish omillari hamda Termiz va Surxon vohasidagi iqtisodiy jarayonlarga ta’sir mexanizmlari aniqlashga harakat qilindi.

Muammoviy-xronologik yondashuv asosida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining savdo yo‘llari va chegara hududlari ustidan nazoratni kuchaytirishi bilan bog‘liq jarayonlar izchil xronologik ketma-ketlikda tahlil qilindi. Bunda Amudaryo bo‘ylab bojxona va chegara punktlarining tashkil etilishi, Pattakesar bojxona hududining faoliyati hamda Termizning mintaqalararo savdodagi o‘rni alohida o‘rganildi.

Manbashunoslik yondashuvi tadqiqotning muhim metodologik asosini tashkil etadi. Tadqiqotda Rossiya imperiyasi davriga oid tarixiy asarlar, ilmiy tadqiqotlar va statistik-ma’lumotlar bilan bir qatorda, rus va xorijiy mualliflarning Markaziy Osiyoga oid materiallaridan foydalanildi. Jumladan, P. G. Geiss, G. A. Agzamova,

Fayzulla Ochilov va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlari tanqidiy tahlil qilindi. Manbalardagi ma’lumotlarning kelib chiqishi, mualliflik pozitsiyasi, siyosiy-mafkuraviy yondashuvlari va tarixiy voqelikni aks ettirish darajasiga e’tibor qaratildi.

Retrospektiv tahlil yordamida XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Termiz va Surxon vohasining savdo-bojxona tizimi, Amudaryo orqali amalga oshirilgan transchegaraviy savdo va Rossiya imperiyasining mintaqadagi iqtisodiy manfaatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ochib berildi. Shuningdek, bojxona siyosatining faqat fiskal yoki iqtisodiy vosita sifatidagi emas, balki strategik hududlar, savdo yo‘llari va chegara makonlari ustidan nazoratni ta’minlash vositasi sifatidagi xususiyati tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida tarixiy dalillarni tizimlashtirish, qiyosiy tahlil qilish va sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash usullaridan ham foydalanildi. Ushbu metodologik yondashuvlar Termiz va Pattakesarning mintaqalararo savdo tizimidagi o‘rnini hamda Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi bojxona va chegara siyosatining geosiyosiy mazmunini kompleks ravishda ochib berishga imkon berdi.

Tahlil va natijalar. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuz bergan siyosiy va iqtisodiy jarayonlar Rossiya imperiyasining mintaqadagi harbiy-siyosiy mavqeyining kuchayishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘ldi. Rossiya imperiyasining hududiy ekspansiyasi natijasida Buxoro amirligi bilan o‘rnatilgan siyosiy munosabatlar asta-sekin iqtisodiy va ma’muriy nazoratning kuchayishi bilan to‘ldirildi. Ayniqsa, bojxona tizimining qayta tashkil etilishi, savdo yo‘llarining nazoratga olinishi va Amudaryo bo‘ylab chegara punktlarining shakllantirilishi Rossiyaning Markaziy Osiyodagi siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Rossiya imperiyasining bojxona siyosati oddiy fiskal vazifalar bilan cheklanib qolmagan. Bojxona punktlari orqali tovarlarning harakatini nazorat qilish, savdo oqimlarini tartibga solish va strategik yo‘nalishlarni kuzatib borish imkoniyati yaratildi. Shu jihatdan Amudaryo bo‘ylab

tashkil etilgan bojxona va chegara nazorati punktlari Rossiyaning mintaqadagi iqtisodiy manfaatlari bilan bir qatorda, uning harbiy-strategik maqsadlariga ham xizmat qilgan.

XIX asr oxiriga kelib Amudaryo Rossiya imperiyasi ta’sir doirasi bilan Afg‘oniston yo‘nalishidagi hududlar o‘rtasidagi muhim geosiyosiy va iqtisodiy chegara makoniga aylandi. Mazkur jarayonda Termiz va uning atrofidagi hududlarning strategik ahamiyati yanada oshdi. Termizning Amudaryoning yuqori oqimiga yaqin hududda, Buxoro amirligining janubiy qismida va Afg‘oniston yo‘nalishidagi savdo yo‘llari kesishgan makonda joylashgani uning iqtisodiy va harbiy-strategik mavqeyini belgilab berdi.

P. G. Geiss tomonidan keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 1895-yil yanvaridan boshlab Rossiya bojxona chegarasining Turkiston–Buxoro chegarasidan Amudaryoga ko‘chirilishi mintaqadagi iqtisodiy nazoratning yangi bosqichini yuzaga keltirgan. Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida Kerki hududidan Darvozning g‘arbiy chegaralarigacha bojxona va chegara punktlarining tashkil etilishi Rossiya imperiyasining Buxoro amirligi hududidagi iqtisodiy ta’sirini yanada kuchaytirgan. Mazkur jarayon Buxoro amirligining tashqi iqtisodiy aloqalarini cheklash va savdo oqimlarini Rossiya manfaatlariga mos ravishda tartibga solish imkonini bergan.
Bu o‘rinda tarixiy aniqlik nuqtayi nazaridan ta’kidlash lozimki, Buxoro amirligi Rossiya imperiyasining protektoratiga 1868-yildayoq aylangan edi. Shuning uchun XIX asr oxiridagi bojxona siyosatini protektoratning tashkil topishi sifatida emas, balki mavjud qaramlikning iqtisodiy-ma’muriy jihatdan chuqurlashuvi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Demak, 1890-yillardagi bojxona va chegara siyosati Rossiyaning Buxoro ustidan mavjud siyosiy nazoratini iqtisodiy mexanizmlar orqali mustahkamlash jarayonining tarkibiy qismi bo‘lgan.

Rossiya imperiyasining bojxona siyosatining muhim natijalaridan biri mahalliy bozorlarning Rossiya sanoat mahsulotlari bilan tobora ko‘proq to‘ldirilishi bo‘ldi. Rossiya fabrikalarida ishlab chiqarilgan to‘qimachilik mahsulotlari va boshqa sanoat tovarlarining Markaziy Osiyo bozorlariga keng kirib kelishi mahalliy

hunarmandchilik va ishlab chiqarish tizimiga raqobat bosimini kuchaytirdi. Shu bilan birga, Rossiya mahsulotlarining savdo tarmoqlari orqali tarqalishi imperiyaning iqtisodiy ta’sir doirasini kengaytirish uchun muhim vositaga aylandi.

G. A. Agzamovaning tadqiqotlarida XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Surxon vohasidagi bozorlarning faoliyati to‘g‘risida muhim ma’lumotlar keltiriladi. Xususan, Sherobod, Termiz va Pattakesar bozorlarining rivojlanishi vohaning iqtisodiy hayotida muhim o‘rin tutgan. Ushbu bozorlar nafaqat mahalliy aholi ehtiyojlarini qondiruvchi savdo maskanlari, balki Rossiya va Sharq mamlakatlari o‘rtasidagi tovar almashinuvida vositachi bo‘lgan savdo markazlari sifatida ham faoliyat yuritgan.

Termizning savdo ahamiyati, ayniqsa, Hindiston bilan olib borilgan savdo munosabatlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Peshovar orqali Hindistondan Termiz bozorlariga ro‘mol, indigo, turli ziravorlar, shakar va boshqa mahsulotlar olib kelingan. Xitoydan esa choy, chinni buyumlar va boshqa tovarlar keltirilgan. Bunday savdo aloqalari Termizning faqat mahalliy bozor sifatidagi mavqeyidan ancha kengroq bo‘lganini, uning Markaziy Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston va Xitoyni bog‘lovchi savdo tizimida ishtirok etganini ko‘rsatadi.

Ayniqsa, Pattakesarning savdo va bojxona tizimidagi o‘rni alohida e’tiborga loyiq. Pattakesar orqali nafaqat Rossiya mahsulotlari janubiy yo‘nalishga chiqarilgan, balki Afg‘oniston hududlaridan keladigan va boshqa Sharq mamlakatlari bilan bog‘liq tovar oqimlari ham nazorat qilingan. Shu sababli Pattakesar bojxona hududining faoliyatini Termizning iqtisodiy tarixidan ajratib o‘rganish mumkin emas. U Termiz bilan birgalikda Amudaryo bo‘yidagi transchegaraviy savdo tizimining muhim bo‘g‘inini tashkil etgan.

F. Ochilovning ma’lumotlari ham Pattakesar bojxona hududining Afg‘oniston bilan savdo aloqalaridagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Jumladan, ushbu bojxona uchastkasi orqali Afg‘onistonning Chahor, Andxo‘y va Maymana viloyatlariga katta miqdorda shakar, kerosin, paxta gazlamalari va boshqa mahsulotlar olib o‘tilgan.

Mazkur ma’lumotlar Termiz–Pattakesar hududining Afg‘onistonning shimoliy viloyatlari bilan iqtisodiy aloqalarda muhim vositachi vazifasini bajarganini ko‘rsatadi.

Tovarlarning miqdoriy ko‘rsatkichlari ham savdo aloqalarining ancha rivojlanganligini ko‘rsatadi. Pattakesar bojxona uchastkasi orqali 24,5 ming pud shakar, 4,4 ming pud kerosin va 7,9 ming pud paxta gazlamalarining Afg‘oniston hududlariga chiqarilgani qayd etiladi. Ushbu ko‘rsatkichlar Termiz atrofidagi savdo yo‘llarining mintaqaviy iqtisodiyotdagi o‘rnini baholash uchun muhim daliliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi ma’lumotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, Termiz orqali amalga oshirilgan savdo ikki tomonlama xususiyatga ega bo‘lgan. Bir tomondan, Rossiya imperiyasining sanoat mahsulotlari janubiy bozorlarga, xususan, Afg‘oniston yo‘nalishiga chiqarilgan. Ikkinchi tomondan esa Hindiston, Afg‘oniston va Xitoydan kelgan mahsulotlar Termiz bozorlari orqali Markaziy Osiyoning boshqa hududlariga tarqalgan. Natijada Termiz mintaqaviy savdo oqimlarini birlashtiruvchi muhim tranzit markazga aylangan.

Biroq Termiz va Pattakesarning savdo markazi sifatidagi rivojlanishini faqat iqtisodiy omillar bilan izohlash yetarli emas. Ularning geografik joylashuvi Rossiya imperiyasining janubiy chegaralarini mustahkamlash va Afg‘oniston yo‘nalishidagi vaziyatni nazorat qilish siyosati bilan bevosita bog‘liq edi. Amudaryo tabiiy geografik chegara sifatida bir tomondan savdo va transport aloqalarini shakllantirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan Rossiya va Afg‘oniston yo‘nalishlari o‘rtasidagi siyosiy-strategik makon vazifasini bajargan.

Shu nuqtayi nazardan, Rossiya imperiyasining bojxona siyosati va savdo yo‘llarini nazorat qilish amaliyotini geosiyosiy jarayonlardan alohida ko‘rib chiqish mumkin emas. Bojxona punktlari orqali tovarlar oqimini nazorat qilish bilan bir qatorda, chegara hududlaridagi harakatlanish, savdo aloqalari va iqtisodiy munosabatlar to‘g‘risida ma’lumot to‘plash imkoniyati ham kengaydi. Bu esa imperiyaning

janubiy chegaralarida harbiy-strategik rejalashtirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Termiz va Pattakesar hududlarida savdo-bojxona tizimining rivojlanishi uchta asosiy jarayonning o‘zaro ta’siri natijasida shakllangan: birinchidan, Rossiya imperiyasining iqtisodiy ekspansiyasi va bojxona nazoratining kuchayishi; ikkinchidan, Afg‘oniston, Hindiston va Xitoy bilan mavjud bo‘lgan tarixiy savdo aloqalarining davom etishi; uchinchidan, Amudaryo bo‘yidagi hududlarning harbiy-strategik va geosiyosiy ahamiyatining ortishi.

Umuman olganda, Termiz va Pattakesarning tarixiy rivojlanishini tahlil qilish Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi siyosati iqtisodiy va siyosiy manfaatlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida olib borilganini ko‘rsatadi. Bojxona tizimi savdo oqimlarini tartibga solish vositasi bo‘lish bilan birga, imperiyaning iqtisodiy ta’sirini kengaytirish, strategik kommunikatsiyalarni nazorat qilish va janubiy yo‘nalishdagi geosiyosiy mavqeyini mustahkamlash mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo‘lgan. Termiz esa ushbu jarayonlarda Rossiya, Buxoro amirligi, Afg‘oniston, Hindiston va Xitoy o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni bog‘lovchi muhim mintaqalararo markaz sifatida alohida o‘rin egallagan.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi bojxona, savdo va chegara siyosati iqtisodiy manfaatlar bilangina cheklanmaganligini ko‘rsatadi. Mazkur siyosat mintaqadagi strategik hududlar, savdo yo‘llari va transchegaraviy aloqalarni nazorat qilish, shuningdek, Rossiya imperiyasining janubiy chegaralaridagi geosiyosiy mavqeyini mustahkamlashga qaratilgan kompleks siyosiy-iqtisodiy mexanizmlardan biri bo‘lgan.

Tadqiqot davomida Amudaryo bo‘yida bojxona va chegara nazoratining kuchaytirilishi Buxoro amirligining iqtisodiy mustaqilligini yanada cheklaganligi aniqlandi. Ayniqsa, XIX asrning 1890-yillarida bojxona chegarasining Amudaryo tomon siljishi va daryo bo‘yida nazorat punktlarining tashkil etilishi Rossiya

imperiyasining savdo oqimlari ustidan nazoratini kuchaytirgan. Shu bilan birga, ushbu jarayonni Buxoro amirligining Rossiya protektoratiga aylanishi bilan tenglashtirish mumkin emas. Chunki Buxoro amirligi 1868-yildayoq Rossiya imperiyasining siyosiy protektorati ostiga o‘tgan bo‘lib, keyingi bojxona va savdo siyosati mavjud qaramlikning iqtisodiy-ma’muriy jihatdan chuqurlashuvini ifodalagan.

Termiz va Pattakesar hududlarining tarixiy rivojlanishi tahlili ularning XIX asr oxiri – XX asr boshlarida nafaqat mahalliy savdo markazlari, balki mintaqalararo iqtisodiy aloqalarning muhim bo‘g‘ini bo‘lganligini ko‘rsatdi. Termizning Amudaryo bo‘yidagi geografik joylashuvi, Afg‘oniston yo‘nalishiga yaqinligi va qadimiy savdo yo‘llari bilan bog‘langanligi uning iqtisodiy hamda strategik ahamiyatini oshirgan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Termiz va Pattakesar orqali Rossiya, Afg‘oniston, Hindiston va Xitoy o‘rtasida turli xil tovarlar almashinuvi amalga oshirilgan. Hindistondan Peshovar orqali ro‘mol, indigo, ziravorlar, shakar va boshqa mahsulotlarning olib kelinishi, Xitoydan esa choy va chinni buyumlarning kirib kelishi Termizning Sharq mamlakatlari bilan savdo aloqalaridagi mavqeyini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, Rossiya fabrikalarida ishlab chiqarilgan to‘qimachilik va boshqa sanoat mahsulotlarining mahalliy bozorlarga keng kirib kelishi imperiyaning iqtisodiy ta’sirini kuchaytirgan.

Pattakesar bojxona uchastkasi orqali Afg‘onistonning Chahor, Andxo‘y va Maymana hududlariga shakar, kerosin, paxta gazlamalari va boshqa mahsulotlarning chiqarilishi Termiz–Pattakesar hududining Afg‘onistonning shimoliy viloyatlari bilan savdo aloqalaridagi vositachilik rolini ko‘rsatadi. Bu esa mazkur hududning faqat mahalliy iste’mol bozorlariga xizmat qilmaganini, balki xalqaro va mintaqalararo savdo oqimlarining tarkibiy qismi bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning muhim xulosalaridan yana biri shundan iboratki, Rossiya imperiyasining bojxona va savdo siyosatini faqat iqtisodiy hodisa sifatida baholash yetarli emas. Bojxona punktlari orqali tovarlar harakatini nazorat qilish, savdo

yo‘llarini tartibga solish va chegara hududlaridagi iqtisodiy jarayonlarni kuzatish imperiyaga o‘zining janubiy yo‘nalishdagi strategik manfaatlarini amalga oshirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratgan. Shu sababli bojxona tizimi Rossiyaning Markaziy Osiyodagi iqtisodiy ekspansiyasi bilan bir qatorda, uning geosiyosiy va harbiy-strategik siyosatining ham muhim vositasi sifatida namoyon bo‘lgan.

Umuman, Termiz va Surxon vohasining XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi tarixini o‘rganish Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi siyosatini hududiy, iqtisodiy va geosiyosiy omillarning o‘zaro bog‘liqligi asosida tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi. Termizning Amudaryo bo‘yida joylashgani, Afg‘oniston yo‘nalishidagi savdo va kommunikatsiya imkoniyatlari hamda Rossiya imperiyasining janubiy chegaralariga yaqinligi uning strategik ahamiyatini belgilovchi asosiy omillar bo‘lgan.

Termiz va Pattakesar bojxona tizimini kompleks o‘rganish. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi bojxona hujjatlari, savdo qaydlari, statistik ma’lumotlar va arxiv materiallarini tizimli ravishda o‘rganish orqali tovarlarning hajmi, yo‘nalishi va nomenklaturasini aniqlash maqsadga muvofiq.

Transchegaraviy savdo yo‘llarini tarixiy-geografik jihatdan tadqiq etish. Termiz–Pattakesar–Afg‘oniston yo‘nalishidagi savdo yo‘llari, Amudaryo kechuvlari va karvon yo‘llarining joylashuvi tarixiy xaritalar asosida qayta tiklanishi mintaqaning iqtisodiy-geografik ahamiyatini yanada aniqroq ochib berishi mumkin.

Rossiya va mahalliy manbalarni qiyosiy tahlil qilish. Rossiya imperiyasi rasmiy hujjatlari va harbiy-topografik materiallarini Buxoro, mahalliy tarixchilar hamda savdogarlar faoliyatiga oid manbalar bilan qiyoslash orqali tarixiy voqealarning yanada xolis manzarasini yaratish lozim.

Termizning Afg‘oniston bilan savdo aloqalarini alohida tadqiq etish. Peshovar va Afg‘onistonning shimoliy hududlari bilan amalga oshirilgan savdo munosabatlarini o‘rganish Termizning Hindiston va Janubiy Osiyo savdo tizimidagi o‘rnini aniqlash imkonini beradi.

Bojxona siyosatining mahalliy iqtisodiyotga ta’sirini o‘rganish. Rossiya sanoat mahsulotlarining mahalliy bozorga kirib kelishi, boj stavkalari va savdo cheklovlarining mahalliy hunarmandchilik, ishlab chiqarish va savdogarlar faoliyatiga ta’siri alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida qaralishi zarur.

Termizning strategik kommunikatsiyalar tarixini o‘rganish. Savdo yo‘llari, daryo kechuvlari, transport tizimi va keyinchalik shakllangan temiryo‘l infratuzilmasining Termizning strategik mavqeyiga ta’sirini kompleks tadqiq etish mintaqaning geosiyosiy tarixini yanada chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

Tarixiy jarayonni “Katta o‘yin” kontekstida baholash. Rossiya imperiyasining Amudaryo bo‘yidagi bojxona va chegara siyosatini Britaniya imperiyasining Afg‘oniston va Britaniya Hindistoniga nisbatan strategiyasi bilan qiyosiy o‘rganish Termiz va Surxon vohasining XIX asr oxiridagi geosiyosiy ahamiyatini yanada kengroq ochib berishi mumkin.

Shunday qilib, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Termiz va Pattakesar hududlarida shakllangan bojxona va savdo tizimi Rossiya imperiyasining iqtisodiy manfaatlari, Buxoro amirligining siyosiy qaramligi hamda Afg‘oniston va Janubiy Osiyo bilan bog‘liq geosiyosiy jarayonlarning o‘zaro kesishgan nuqtasini tashkil etgan. Termizning mazkur davrdagi tarixiy ahamiyati uning nafaqat savdo markazi, balki Amudaryo bo‘yidagi strategik kommunikatsiya va geosiyosiy nazorat makoni sifatidagi faoliyati bilan ham belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Geiss P. G. Pre-Tsarist and Tsarist Central Asia: Communal Commitment and Political Order in Change. – London ; New York : Routledge, 2003. – 199 p.
2. THE BRITISH ACADEMY THE RALEIGH LECTURE ON HISTORY (Founded by Sir Charles C. Wakefield, Bart., on the occasion of the Raleigh Tereentenary, October 29, 1918) The Great Game in Asia (1800-1844) By

Professor H. W. C. Davis [From the Proceedings of the British Academy] London Published for the British Academy By Humphrey Milford, Oxford University Press Amen House, E.C. PP. 7-8. https://babel.hathitrust.org/cgi/pt?id=uc1.$b42733&seq=11.

3. Агзамова Г.А. Сўнгги ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида ҳунармандчилик. – Б. 60-61.
4. Файзулла Очилдиев. Сурхон воҳаси бекликларидаги ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий ўзгаришлар. (XIX асрнинг иккинчи ярми XX аср бошлари). TOSHKENT. 2008.144-б
5. Шейко.К.А. Сурхондарё ўлкашунослиги (Краеведение Сурхандарьи). “O‘zbekiston”.2002.

SURXON VOHASIDA “QULOQ”LAR POSYOLKASI

Termiz davlat pedagogika instituti
Tarix va geografiya kafedrasi dotsenti
PhD Isayev Oybek Axmed o‘g‘li

O‘zbekistonda “quloq” xo‘jaliklarni tugatish, ularni respublika miqyosida va respublikadan tashqariga surgun qilish ishlari O‘z KP(b) Markaziy Komiteti, O‘zSSR Markaziy Ijroiya Komiteti va Xalq Komissarlari Sovetining maxsus yo‘riqnomalari bo‘yicha amalga oshirildi. “Quloq” oilalarini okrug ichida va okrugdan tashqariga respublika ichida surgun qilish ishlari bilan Yer ishlari xalq komissarligining maxsus bo‘limi shug‘ullangan. Hududlarda tashkil etilgan maxsus posyolkalar sovet hokimiyatining ijroiya komiteti tomonidan tayinlangan maxsus vakillar tomonidan boshqargan. Posyolkalardagi holatni ichki ishlar organlari o‘z nazoratiga olishgan. Surgun qilingan “quloq” xo‘jaliklari zimmasiga ma’lum majburiyatlar yuklangan. Ular o‘zlariga ajratib berilgan yer uchastkalariga ekin ekish ishlari, belgilangan miqdordagi qishloq xo‘jalik mahsulotini davlat tomonidan belgilangan qat’iy narxlarda tayyorlov idoralariga topshirishlari shart bo‘lgan[1].

1931-yildan e’tiboran surgun qilingan quloqlarga nisbatan rasman “maxsus ko‘chirilganlar” yoki (spespereselenes), “mehnat ko‘chkindilari” (trudopereselenes) atamalari qo‘llanila boshlandi. Surxon vohasining Denov tumanida tashkil etilgan № 1 Hazarbog‘ sovxozi ham shu maqsadda tashkil etilgan.

SSSR Lagerlar bosh boshqarmasining 1931-yil 7-oktabrdagi yo‘riqmonasiga ko‘ra quloq sifatida maxsus posyolkalarga surgun qilinganlarning mehnatga yaroqli barchasi jismoniy mehnat bilan shug‘ullanishga majbur edilar. Ular davlat va kooperativ xo‘jalik organlarida, qishloq xo‘jaligida sovxozlar, ustavsiz xo‘jalik arteli shaklidagi ishlarda, hunarmandchilik artellarida, yo‘llar qurilishida, yer-suv melioratsiyasi va irrigatsiya tarmoqlarida mehnat qilishga majburlangan. Bu kabi ishlardan faqat nogironlar ozod qilinishi mumkin bo‘lgan.

Mehnat ko‘chkindilari mehnati evaziga oladigan maoshlaridan soliq va boshqa turli to‘lovlar ham to‘lab turganlar. SSSR Xalq komissarlari sovetining 1931-

yil 1-iyuldagi qaroriga binoan surgun qilingan “quloq”larning oladigan maoshidan 5 % i ushlab qolinib, bu mablag‘ mehnat posyolkalarining ma’muriy boshqaruvi uchun sarflangan.

“Hazorbog‘” sovxozi 1930-yil yanvardan o‘zining amaliy va yuridik jihatdan ish faoliyatini boshlagan[2]. “Hazorbog‘” bir necha daryolar va jilg‘alarning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan Surxon daryosining o‘ng sohili yoki Hisor tog‘ining davomi bo‘lmish Vaxshivor, Sina tog‘larining quyi etaklarida joylashgan. Sovxozning yer maydoni 7 ming gektarni tashkil etgan. Sovxoz tashkil etilgunga qadar bu yerlar soylar, notekis daryolar, botqoqliklar, to‘qayzorlar va juda baland o‘sadigan yantoqzorlardan iborat bo‘lgan.

Yuqoridagi ma’lumotlardan aholi aynan 1930-yilda “Hazorbog‘” sovxoziga ko‘chirib keltirilgan degan xulosaga kelmaslik kerak. Bu sovxoz hududida 1925-1927-yillarda qizil askar safidan bo‘shagan turli millatga mansub askarlar ham qolib istiqomat qilishgan. Jumladan, sovxozning tashkiliy davrida Polis ismli latish millatiga mansub shaxs direktorlik vazifasini bajargan. 1930-1931 yillarda sovxozga direktorlik lavozimida polyak millatiga mansub Domashkeyevich Aleksey Fyodorovich ishlagan.

1931-yil O‘zbekiston SSR hukumati tomonidan “quloq”larni surgun qilish va shu siyosat orqali arzon ishchi kuchiga ega bo‘lish maqsadida “Hazarbog‘” sovxoziga ham respublikaning Farg‘ona, Buxoro, Samarqand viloyatlaridan “quloq” xo‘jaliklari ko‘chirib keltirilgan. Nafaqat respublikani boshqa viloyatlaridan balki qo‘shni respublikalardan ham aholi ko‘chirib keltirilgan. Ko‘chirib keltirilganlarning ustidan 1953-yilgacha komendatura nazorati o‘rnatilgan.

O‘zbekistonni yoppasiga savodxon respublika qilish haqida Markazqo‘m ham Xalq komissarlari sovetining 1936-yilgi qarori respublikamizda savodsizlikni tugatish muddatini 1937-yil 1-aprel deb belgiladi[3]. Bu qaror respublikadagi mehnat posyolkalariga ham tegishli edi.

Endigi navbat xalqni ruslashtirish, rus tilining nufuzini oshirish uchun qilingan sayi-harakatlar edi. Mahalliy aholi ham “quloq” xo‘jaligi oila a’zolari ham

arab alifbosida o‘qish yozishni biladigan aholi qatlamlari bo‘lishgan. Faqat ular rus tilini bilishmagan xolos. Garchi sovet hokimiyati savodsizlikni tugatish muddati deb 1937-yil 1-aprel deb belgilagan bo‘lsa ham oradan 2 yil o‘tishiga qaramay, savodsizlik ishlari o‘z nihoyasiga yetmaganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ilg‘or Surxon uchun gazetasining 1939-yil 20-yanvardagi sonida “Hazorbog‘” sovxozi ishchilarining 12-yanvarda bo‘lib o‘tgan umumiy yig‘ilishida savodsizlikni tugatish haqida masala ko‘rildi. “Hazorbog‘” sovxozida savod va chalasavod maktablarining o‘quvchi va o‘qituvchilari “Frunze” kolxozini sotsialistik musobaqaga chaqirdi. Bu kabi uyushtirilgan sotsialistik musobaqalar o‘z natijasini ham bergan. Yuqoridagi kabi musobaqalar nafaqat madaniy sohada balki paxta yetishtirish sohasida ham amalga oshirilgan.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, Sovet hokimiyati sotsialistik musobaqa uyushtirib o‘zining xom-ashyoga bo‘lgan talabini qoplatishga harakat qildi. Arxiv ma’lumotlarida, Surxon vohasida “quloq”lar uchun mo‘ljallangan “Hazorbog‘” sovxozidan tashqari yana quyidagi posyolkalarda aholi soni haqida ma’lumotlar keltirilgan. 1941-yil 1-iyul holati bo‘yicha “Surxon” quloqlar koloniyasida 6908 kishi, Qumqo‘rg‘onda 6800 kishi, Oqqapchig‘ayda 3444 kishi, Hazorbog‘da esa 10.502 kishi, viloyat bo‘yicha jami 27.654 nafar surgun qilingan “quloq”lar yashashi aniqlandi[4]. Bu koloniyalar sovxoz deb atalgan.

Mehnat posyolkalari aholisi oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat mollari bilan sovxozlar markazlarida tashkil qilingan sovdo shahobchalari orqali ta’minlanganlar. Bu kabi mahsulotlar bilan ta’minlashda “quloq”larning huquqi erkin aholi huquqi bilan teng hisoblangan. Biroq, sovxozlardagi savdo do‘konlarida poyafzal, gazmol, ustki kiyimlar tanqisligi doimo mavjud bo‘lgan. Ko‘p xollarda “quloq”lar zarur sanoat mollarini harid qilish uchun mehnat posyolkasidan so‘roqsiz ketib qolganlar lekin bu so‘roqsiz ketish mutloqo mumkin bo‘lmagan.

1931-yil 3-iyulida SSSR Markaziy Ijroiya Komiteti Prezidiumining “Surgun qilingan quloqlarning fuqarolik huquqlarini tiklash tartiblari to‘g‘risida” qarori e’lon qilindi[5]. Qarorda surgun joylarida mehnatsevarligi, tartibliligi, sovet davlatiga

sadoqati bilan o‘zlarini ko‘rsatgan “quloq”larning fuqarolik huquqlari 5 yil mobaynida tiklanishi aytilgan edi.

Lekin, SSSR Markaziy Ijroiya Komitetining 1935-yil 25-yanvardagi qarori bilan yuqoridagi qarorlarga “Surgun qilingan quloqlar fuqarolik huquqlari tiklanishi ularga surgun joyidan jo‘nab ketish huquqini bermaydi” degan qo‘shimcha kiritildi. Bu qaror shuni anglatganki, garchi fuqarolik berilsada, totalitar hukumatning qurboni bo‘lib qolavergan.

Vohaning Denov tumanida olib borilgan dala tadqiqotlari natijasida “Hazorbog‘” sovxozida 1935-yil tug‘ilgan Halima momo Shabonovaning xotiralaridan. –

Halima Shabonova shunday xotirlaydi: “Otam Zayniddin Shabon 1898-yilda Buxoro viloyati Zarmitan qishlog‘ida tug‘ilgan. Millati – o‘zbek, partiyasiz, diniy ma’lumotga ega. Diniy maktabda o‘qigan xalq shuning uchun u kishini Mullo Shabon deb atagan. Otamning dadalari, ya’ni bobomiz Zayniddin, u kishining akalari Yo‘ldosh oqsoqol, Bozor oqsoqol bo‘lib, barcha aka-ukalar bir oila bo‘lib yashaganlar. Otamning dadalari yangi rus kiril alifbosini bilmagan savodsiz kishi bo‘lib, dehqonchilik bilan shug‘ullanganlar. Anchagina xususiy yerlari bo‘lib, dalada paxta, xonadonimizda uzum yetishtirganlar. U kishining akalari Bozor oqsoqol savodli bo‘lib, Zayniddin bobo yetishtirgan paxtani otam mullo Shabon bilan G‘ijduvon, Buxoro, Karmanagacha olib borib sotganlar. Katta akalari Yo‘ldosh oqsoqol savodli kishi bo‘lganlar. Bu kishi sotilgan paxta daromadlarini butun oilani boqish, imoratlar qurish, yetim-yesirlarni boqishga sarflaganlar. Yashab turgan qishlog‘ida masjid qurganlar. Ular juda katta oila bo‘lib, bir oilada 65 kishi ovqatlangan. Ularning ichkari va tashqari hovlilari bo‘lgan. Tashqari honlilari sharqona usulda qurilgan bo‘lib, ganchdan o‘ymakorlik qilingan ikki qavatli bino edi.

Bu imoratlar va ularning barcha molu mulklari sovet hokimiyati tomonidan musodara qilingan. Nihoyat inqilob, kolxozlashtirish, Stalinning bebosh repressiyasi – bularning hammasi otam va bobomlarning tinchini buzgan. 1931-yilda bobomiz

Yo‘ddosh oqsoqol, Bozor oqsoqol, otam Zayniddinov Shabonlar quloq qilinib, Surxondaryo okrugining Denov tumaniga surgun qilishga qaror qilingan. 1931-yili O‘rta Osiyodagi birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi huzuridagi «uchlik» komissiyasining qaroriga ko‘ra 5 yil muddatga qamoq lageriga hukm qilingan. Ukrainaga surgun qilingan. U kishining o‘g‘li Barotali, xotinlari va bolalari ham Ukrainaga surgun qilingan[6].

Bu kabi dala tadqiqotlaridan ko‘rinib turibdiki, “Hazorbog‘” sovxozida surgun qilingan insonlar taqdiri bir-biriga o‘xshash. Ular qiyinchiliklarni birga yengib o‘tishgan. “Hazorbog‘” sovxozini to‘qayzor, tashlandiq bir hududdan obod bir maskanga aylantirishdi. Bu davrda sovet hukumati o‘zining zo‘ravonlikka asoslangan qabix siyosatini yuritdiki, tinch aholiga jabr bo‘ldi. Lekin, mana shu yurt insonlari o‘z mehnatlari evaziga tirik qolishga intildi. “Tub joy” vakillari, “ko‘chirilganlar”, “surgunlar”, “quloqlar” O‘zbekistonning qaysi hududlariga borishmasin u maskanlar obod bir maskanga aylantirilgandi. Shunday fidoiy insonlardan:

Shomurodov Xursan – “Hazarbog‘”ning birnchi irrigatori (mirobi) bo‘lgan. O‘zining fidoiy mehnatlari evaziga “O‘zSSRda xizmat ko‘rsatgan irrigator” unvoniga sazovor bo‘lgan.

Musayev Ismat – 1935-yildan qariyib 40 yil davomida sovxozda brigada boshlig‘i bo‘lib faoliyat yuritgan. Qayumov Turg‘unboy, Haydarov Ne’mat, Haydarqulov Safarqul, Do‘smatov Akbarali kabi fidoiy, mehnatkash shaxslarning ims-sharifini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Xulosa shuki, sovet hokimiyati sotsialistik musobaqa uyushtirib o‘zining xom-ashyoga bo‘lgan talabini qoplatishga harakat qildi. Arxiv ma’lumotlarida, Surxon vohasida “quloq”lar uchun mo‘ljallangan “Hazorbog‘” sovxozidan tashqari yana boshqa hududlarda posyolkalar tashkil qilishgan.

Mehnat posyolkalari aholisi oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat mollari bilan sovxozlar markazlarida tashkil qilingan sovdo shahobchalari orqali ta’minlanganlar.

Bu kabi mahsulotlar bilan ta’minlashda “quloq”larning huquqi erkin aholi huquqi bilan teng hisoblangan.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar

1. Ўзбекистон Республикаси Марказий Давлат Архиви 839-жамғарма, 1-рўйхат, 311-иш, 56-варақ.

2. Сувонов Т, Сапаров Р. Ленин орденли “Ҳазорбоғ” совхози. – Денов. 1990 йил март. Б-3

3. Илғор Сурхон учун.газетаси. 1937-йил 24-март.

4. Сурхондарё вилояти Шеробод туман давлат архиви. С 42-жамғарма, 1-рўйхат, 363-иш, 252-варақ.

5. Шамсутдиннов Р. Қишлоқ фожеаси: жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун. – Т.: Шарқ, - Б-227-228.

6. Дала тадқиқотлари. Денов тумани “Боғи Эрам” маҳалласи. 2020-й. 15 октабр

IS’HOQXON IBRATNING LUG‘ATCHILIK VA YOZUV NAZARIYASIGA QO‘SHGAN HISSASI

Maxsudjonov Otabek Zokirjon o‘g‘li

Is’hoqxon Ibrat muzeyi hamda Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek ma’rifatparvari, tilshunos va noshir Is’hoqxon To‘raqo‘rg‘oniy — Ibratning (1862–1937) lug‘atchilik hamda yozuv nazariyasi sohasidagi merosi birlamchi manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning manbaviy bazasini NamDCHTI huzuridagi Is’hoqxon Ibrat muzeyi fondida saqlanayotgan 280 birlik eksponat hamda Namangan viloyat davlat arxivi hujjatlari tashkil etadi. Muallif Ibratning “Lug‘ati sitta al-sina” va “Jome’ul-xutut” asarlarini o‘zbek amaliy leksikografiyasi va grafematikasining dastlabki tizimli namunalari sifatida baholaydi. Maqola yakunida Ibrat lingvistik merosini raqamlashtirish bo‘yicha “IBRAT-KORPUS” loyihasining konsepsiyasi hamda uni muzey pedagogikasi vositasida yosh avlodga yetkazish modeli taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: Is’hoqxon Ibrat, jadid ma’rifatparvarligi, leksikografiya, ko‘ptilli lug‘at, “Lug‘ati sitta al-sina”, “Jome’ul-xutut”, yozuv nazariyasi, grafematika, Matbaai Is’hoqiya, muzey pedagogikasi, raqamli korpus, davlat tili.

Аннотация

В статье на основе первоисточников анализируется наследие узбекского просветителя, языковеда и издателя Исхакхана Туракурганий — Ибрата (1862–1937) в области лексикографии и теории письма. Источниковую базу исследования составляют 280 единиц хранения фонда Музея Исхакхана Ибрата при НамГПИ, а также документы Наманганского областного государственного архива. Автор оценивает труды «Лугати ситта ал-сина» и «Джомеъул-хутут» как первые системные образцы узбекской прикладной лексикографии и графематики. В заключение предлагается концепция проекта цифрового корпуса «IBRAT-KORPUS» и модель передачи этого наследия молодому поколению средствами музейной педагогики.

Ключевые слова: Исхакхан Ибрат, джадидское просветительство, лексикография, многоязычный словарь, теория письма, графематика, музейная педагогика, цифровой корпус, государственный язык.

Abstract

This article examines the lexicographic and graphematic legacy of the Uzbek enlightener, linguist and publisher Is'hoqxon Turaqurghoniy — Ibrat (1862–1937), drawing on primary sources. The source base comprises 280 holdings of the Is'hoqxon Ibrat Museum at Namangan State Pedagogical Institute and documents of the Namangan Regional State Archive. The author evaluates "Lughati sitta al-sina" and "Jome'ul-khutut" as the first systematic specimens of Uzbek applied lexicography and script theory. The paper concludes by proposing the "IBRAT-KORPUS" digital corpus project and a museum-pedagogical model for transmitting this heritage to the younger generation.

Keywords: Is'hoqxon Ibrat, Jadid enlightenment, lexicography, multilingual dictionary, script theory, graphematics, museum pedagogy, digital corpus, state language.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni hamda "2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi" milliy tilimizni ilmiy o‘rganish va ommalashtirish vazifasini davlat siyosati darajasiga ko‘tardi. Ushbu vazifaning eng kam o‘zlashtirilgan qismi — o‘zbek tilshunosligi tarixining XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi qatlamini birlamchi manbalar asosida qayta baholashdir.

Milliy uyg‘onish davri ziyolilari merosi mamlakatimizda keng o‘rganilgan. Biroq bu tadqiqotlarning aksariyati adabiyotshunoslik, tarix va pedagogika yo‘nalishida olib borilgan. Jadid ma'rifatparvarlarining aynan til, lug‘atchilik va yozuv nazariyasi sohasidagi merosi esa nisbatan chetda qolgan. Holbuki, bugungi kunda o‘zbek tili oldida turgan bir qator amaliy muammolar — ko‘ptilli

terminologik lug‘atlar tanqisligi, lotin yozuvi imlosidagi ixtiloflar, milliy til korpusining to‘liq shakllanmagani — aynan o‘sha davrda birinchi marta ko‘tarilgan va ilk yechimlari taklif etilgan masalalardir.

Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, unda Is’hoqxon Ibrat merosi birinchi marta muzey fondi eksponatlari va viloyat davlat arxivi hujjatlarining bevosita tavsifi asosida, lingvistik-manbashunoslik nuqtayi nazaridan tahlil etiladi. Tadqiqot muallifi Is’hoqxon Ibrat muzeyi direktori sifatida ushbu manbalar bilan bevosita ishlash imkoniyatiga ega bo‘lib, ilmiy muomalaga hozirgacha kiritilmagan bir qator birliklarni tavsifga tortadi.

Tadqiqotning maqsadi — Ibratning lug‘atchilik va yozuv nazariyasiga qo‘shgan hissasini aniqlash, uning bugungi til siyosati uchun amaliy ahamiyatini asoslash va ushbu merosni raqamlashtirish hamda yosh avlodga yetkazishning aniq mexanizmini ishlab chiqishdan iborat.

1. Mavzuning o‘rganilganlik darajasi

Is’hoqxon Ibrat shaxsi va faoliyatini ilmiy o‘rganishda U. Dolimovning tadqiqotlari alohida o‘rin tutadi: olim ma’rifatparvarning tarjimayi holini arxiv ma’lumotlari asosida tiklagan hamda uning yangi usul maktabi tajribasini pedagogik jihatdan tahlil qilgan. B. Qosimovning milliy uyg‘onish davri ziyolilariga bag‘ishlangan asarlarida Ibrat jadidchilik harakatining Farg‘ona vodiysidagi yetakchi namoyandalaridan biri sifatida tavsiflanadi. N. Karimov va boshqa tadqiqotchilarning qatag‘on tarixiga oid ishlarida esa Ibratning 1937-yildagi fojiali taqdiri masalasi ko‘tarilgan.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili quyidagi ilmiy bo‘shliqlarni ko‘rsatadi:

birinchidan, Ibratning “Lug‘ati sitta al-sina” asari ko‘pincha faqat qayd etib o‘tiladi, uning tuzilish tamoyillari, ekvivalent tanlash mezonlari va leksikografik apparati maxsus tahlil qilinmagan;

ikkinchidan, “Jome’ul-xutut” asari yozuv nazariyasi (grafematika) nuqtayi nazaridan deyarli o‘rganilmagan, u ko‘proq umumiy ma’rifiy asar sifatida talqin etiladi;

uchinchidan, Ibratga oid muzey fondi materiallari — kitoblar, moddiy manbalar, fotohujjatlar — ilmiy tavsif obyekti sifatida muomalaga kiritilmagan;

to‘rtinchidan, Ibrat merosini bugungi raqamli til infratuzilmasi bilan bog‘laydigan amaliy taklif ishlab chiqilmagan.

Mazkur maqola aynan shu bo‘shliqlarni to‘ldirishga qaratilgan.

2. Tadqiqot metodologiyasi va manbaviy bazasi

Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy metod, manbashunoslik tahlili, muzey predmetlarini ilmiy tavsiflash (atribusiya) usuli hamda kontent-tahlil qo‘llanildi. Nazariy asos sifatida ma’naviy jarayonlar va texnologiyalar sohasidagi yondashuv tanlandi: til merosi bu yerda faqat lingvistik obyekt emas, balki ma’naviy qadriyatlarni avloddan avlodga uzatuvchi vosita sifatida qaraladi.

Tadqiqotning manbaviy bazasi uch qatlamdan iborat:

a) Muzey fondi materiallari. NamDCHTI huzuridagi muzeyning Is’hoqxon Ibrat bo‘limida jami 280 birlik saqlanadi. Ularning tarkibi quyidagicha:

Eksponat turi	**Miqdori (birlik)**
Kitob va jurnallar	83
Moddiy manbalar	88
Fotohujjatlar	20
Gazetalar	5
Ilmiy qo‘llanmalar	84
Jami	**280**

Muzey umumiy fondi 2026-yil holatiga ko‘ra 663 birlikni tashkil etadi, shundan 514 tasi ekspozitsiyada namoyish etilmoqda.

b) Arxiv hujjatlari. Namangan viloyat davlat arxivi (NVDA) fondlari, jumladan F.13, op.1 bo‘yicha 1920–1930-yillarga oid hujjatlar. Ushbu hujjatlar Ibrat va uning ma’rifiy muhiti vakillarining ijtimoiy maqomi hamda qatag‘on jarayoniga

tortilishi jarayonini tiklashga imkon beradi. Bosma manbalar. Ibratning nashr etilgan asarlari hamda ular haqidagi ilmiy adabiyot.

3. “Lug‘ati sitta al-sina” — o‘zbek amaliy leksikografiyasining ilk tizimli namunasi

Is’hoqxon Ibratning 1901-yilda Toshkentda nashr etilgan “Lug‘ati sitta al-sina” (“Olti tilli lug‘at”) asari o‘zbek madaniyati tarixida alohida o‘rin tutadi. Lug‘atda turkiy (o‘zbek), arab, fors, hind, rus va ingliz tillari qiyoslanadi. Asarning g‘oyaviy zamiri Ibratning 1887–1896-yillardagi sayohatlari — Afg‘oniston, Hindiston, Arabiston, Turkiya, Misr va boshqa o‘lkalarda bo‘lib, turli til muhitlarini bevosita kuzatgani bilan bog‘liq.

Lug‘atning leksikografik ahamiyatini quyidagi jihatlar belgilaydi.

Birinchidan, maqom masalasi. Lug‘atda turkiy (o‘zbek) til jahonning yirik tillari bilan bir qatorda, teng huquqli manba til sifatida beriladi. Bu XIX asr oxiri sharoitida oddiy texnik qaror emas, balki aniq madaniy pozitsiya edi: ona til xalqaro muloqotning to‘laqonli ishtirokchisi sifatida taqdim etilgan. Bugungi kunda “o‘zbek tilining xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirish” deb ataladigan vazifa mohiyatan ana shu pozitsiyaning davomidir.

Ikkinchidan, amaliy yo‘nalganlik. Lug‘at akademik emas, balki savdo, safar, kundalik muloqot ehtiyojlaridan kelib chiqib tuzilgan. So‘zlar mavzuiy guruhlar bo‘yicha joylashtirilgan. Bu — zamonaviy leksikografiyada “foydalanuvchiga yo‘naltirilgan lug‘at” deb ataladigan yondashuvning erta ko‘rinishi.

Uchinchidan, ekvivalent tanlash muammosi. Alohida til oilalariga mansub olti tilni bir qatorga tizishda muallif muqarrar ravishda semantik moslik masalasiga duch kelgan. Lug‘atdagi ekvivalentlar tanlovini tahlil qilish Ibratning o‘zbek so‘zining ma’no hajmini qanday tushunganini ko‘rsatadi — bu esa tarixiy semasiologiya uchun qimmatli material.

To‘rtinchidan, transkripsiya masalasi. Ingliz va hind so‘zlarini arab yozuvi vositasida berish zarurati Ibratni fonetik moslashtirish tamoyillarini ishlab chiqishga

majbur qilgan. Aynan shu tajriba uni keyinchalik yozuv nazariyasi masalalariga olib kelgan bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, “Lug‘ati sitta al-sina”ni o‘zbek amaliy va qiyosiy leksikografiyasining birinchi tizimli namunasi sifatida baholash mumkin.

4. “Jome’ul-xutut” — yozuv nazariyasi va grafik tanlov muammosi

Ibratning 1912-yilda nashr etilgan “Jome’ul-xutut” (“Yozuvlar majmuasi”) asari turli xalqlar yozuvlarining kelib chiqishi, rivojlanishi va o‘zaro munosabatiga bag‘ishlangan. Bu asar o‘zbek tilida yaratilgan dastlabki umumiy yozuv tarixi sifatida qaralishi mumkin.

Asarning ilmiy qimmati uch jihatda namoyon bo‘ladi.

Avvalo, unda yozuv madaniy taraqqiyot ko‘rsatkichi sifatida talqin qilinadi. Ibrat uchun alifbo — shunchaki belgilar to‘plami emas, balki xalqning ma’rifiy holatini aks ettiruvchi tizim. Bu qarash yozuvni ijtimoiy hodisa sifatida o‘rganadigan zamonaviy grafematika bilan hamohang.

Ikkinchidan, asar tipologik yondashuvga asoslanadi: yozuvlar tasodifiy tartibda emas, balki qiyosiy tarzda ko‘rib chiqiladi. Muallif turli yozuv tizimlarining afzalliklari va cheklovlarini qiyoslaydi.

Uchinchidan — va bugungi kun uchun eng muhimi — asar o‘z davrining alifbo islohoti bahsi kontekstida yozilgan. XX asr boshida turkiy xalqlar orasida arab yozuvini isloh qilish yoki almashtirish masalasi keskin muhokama qilinar edi. Ibrat bu bahsga hissiy emas, balki ilmiy-qiyosiy asosda yondashishni taklif qilgan: yozuv tanlovi tarixiy va amaliy dalillarga tayanishi lozim.

Ushbu metodologik pozitsiya bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. O‘zbek lotin yozuvi imlosini takomillashtirish bo‘yicha davom etayotgan munozaralarda aynan tarixiy-qiyosiy dalillar bazasi yetishmaydi. “Jome’ul-xutut”ni ilmiy muomalaga to‘liq kiritish ushbu bazani boyitadi.

5. Matbaai Is’hoqiya va til me’yorlashuvi

Ibrat 1908-yilda To‘raqo‘rg‘onda o‘z bosmaxonasi — “Matbaai Is’hoqiya”ni tashkil etadi. U Farg‘ona vodiysidagi dastlabki xususiy bosmaxonalardan biri bo‘lib, mahalliy muallif asarlarini nashr etish imkonini bergan.

Bu faktning lingvistik ahamiyati ko‘pincha e’tibordan chetda qoladi. Holbuki, matbaa har qanday tilda me’yorlashuv jarayonining asosiy tezlatgichi hisoblanadi: bosma matn imlo, punktuatsiya va terminologiya bo‘yicha yagona qarorlar qabul qilishni talab etadi. Qo‘lyozma an’anasida joiz bo‘lgan variantlilik bosma nashrda chegaralanadi. Shu ma’noda Ibrat faoliyatida uch bosqich mantiqiy zanjirni tashkil qiladi: lug‘at tuzish (so‘z boyligini tizimlashtirish) — yozuv nazariyasi (grafik tizimni asoslash) — matbaa (me’yorni ommalashtirish).

Boshqacha aytganda, Ibrat til masalasiga alohida-alohida emas, balki yaxlit infratuzilma sifatida yondashgan. Bu yondashuv bugungi til siyosati uchun ham namuna bo‘la oladi.

6. Muzey fondi va arxiv hujjatlari: ilmiy muomalaga kiritilayotgan ma’lumotlar

Muzey fondining Ibratga oid bo‘limi ilmiy tadqiqot uchun uch xil qimmatga ega. Kitob va jurnallar (83 birlik) matn manbasi bo‘lib xizmat qiladi; moddiy manbalar (88 birlik), jumladan muzey muhri va shtampi kabi buyumlar, muassasa va shaxs faoliyatining moddiy izlarini saqlaydi; fotohujjatlar (20 birlik) va gazeta nusxalari (5 birlik) esa ma’rifiy muhitni tiklashga imkon beradi.

2026-yilda fondga qabul qilingan yangi eksponatlar orasida “To‘raqo‘rg‘on ziyoratgohlari” kitobi, ayol kiyimi namunasi, muzey muhri va shtampi, kichik sandiq hamda shamdon bor. Bu birliklar mahalliy ma’rifiy an’ana muhitini to‘ldiruvchi manba sifatida qimmatlidir.

Arxiv qatlami masalaning fojiali tomonini ochadi. 1930-yillarda fuqarolarni saylov huquqidan mahrum etish (“lishenes”lar) hujjatlari ma’rifatparvar ziyolilar qatlamining ijtimoiy hayotdan siqib chiqarilishi mexanizmini ko‘rsatadi. Bu jarayon 1937-yilda qatag‘on bilan yakunlanadi. Is’hoqxon Ibrat ham 1937-yilda qatag‘on qurbonlari qatoriga qo‘shiladi.

Til nuqtayi nazaridan bu — oddiy biografik fakt emas. Bir avlod ziyolilarining yo‘q qilinishi o‘zbek tilshunosligida uzilish yuzaga keltirdi: boshlangan lug‘atchilik va yozuv tadqiqotlari davom ettirilmadi, ilmiy an’ana uzildi. Aynan shu sababli bugun bu merosni tiklash faqat tarixiy adolat masalasi emas, balki milliy tilshunoslikning uzilgan an’anasini qayta ulash vazifasidir.

7. Muammolar va yechimlar: “IBRAT-KORPUS” loyihasi

Olib borilgan tahlil Ibrat lingvistik merosini bugungi ilmiy va ta’limiy muomalaga kiritish yo‘lidagi to‘rtta asosiy to‘siqni aniqlash imkonini berdi:

1) Grafik to‘siq. Ibrat asarlari arab yozuvida bitilgan. Bugungi talaba va tadqiqotchilarning aksariyati bu matnlarni mustaqil o‘qiy olmaydi — meros jismonan saqlangan, ammo amalda foydalanishdan tashqarida.
2) Tarqoqlik. Asar nusxalari va ularga oid hujjatlar muzey fondi, kutubxona jamg‘armalari va shaxsiy to‘plamlar o‘rtasida tarqoq holda saqlanadi; yagona ro‘yxat mavjud emas.
3) Raqamli bo‘shliq. Ibrat matnlari milliy til korpuslariga kiritilmagan, izlanuvchan raqamli shaklga keltirilmagan.
4) Xalqaro muomaladan chetda qolganlik. Olti tilli lug‘at muallifi bo‘lgan olim jahon leksikografiyasi tarixiga oid xorijiy manbalarda deyarli tilga olinmaydi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi bosqichli loyiha taklif etiladi.

“IBRAT-KORPUS” loyihasi konsepsiyasi

Birinchi bosqich — inventarizatsiya. Muzey fondi, arxiv va kutubxonalardagi Ibratga oid barcha birliklarning yagona ilmiy ro‘yxatini tuzish, har bir birlikka standart tavsif kartasi yaratish.

Ikkinchi bosqich — raqamli nusxalash. Asarlarning yuqori aniqlikdagi skaner nusxalarini tayyorlash va saqlash tizimini yaratish. Bu bir vaqtning o‘zida asl nusxani jismoniy asrash vazifasini ham bajaradi.

Uchinchi bosqich — transliteratsiya va izohlash. Matnlarni arab yozuvidan hozirgi o‘zbek lotin va kirill yozuvlariga o‘girish, arxaik hamda kam qo‘llanadigan

so‘zlarga ilmiy izoh berish. Natijada uch qatlamli nashr shakllanadi: faksimile — transliteratsiya — izoh.

To‘rtinchi bosqich — lug‘at ma’lumotlar bazasi. “Lug‘ati sitta al-sina” materialini qidirish imkoniyatiga ega elektron bazaga aylantirish. Har bir so‘z uchun olti tildagi ekvivalent, manbadagi sahifa va zamonaviy izoh beriladi. Bu — o‘zbek tarixiy leksikografiyasi uchun mutlaqo yangi resurs.

Beshinchi bosqich — ta’limiy modul. Baza asosida maktab va oliy ta’lim uchun o‘quv materiallari, shuningdek muzeyning interaktiv mashg‘ulot dasturlari tayyorlanadi.

Oltinchi bosqich — xalqaro taqdimot. Loyiha natijalarini ingliz va rus tillarida taqdim etish, xorijiy ilmiy jurnallarda maqola e’lon qilish. Olti tilli lug‘at g‘oyasining o‘zi loyiha uchun tabiiy xalqaro “o‘qilish nuqtasi”ni beradi.

Loyihaning kutilayotgan natijalari: o‘zbek tilining tarixiy leksikografik resurs bazasi kengayadi; alifbo va imlo masalasidagi munozaralar tarixiy-qiyosiy dalil bilan ta’minlanadi; qatag‘on natijasida uzilgan ilmiy an’ana qisman tiklanadi; milliy til merosining xalqaro ko‘rinishi oshadi.

8. Muzey vositasida til merosini yosh avlodga yetkazish

Ilmiy meros faqat tadqiqotchilar doirasida qolsa, uning ma’naviy ta’siri cheklangan bo‘ladi. Shu sababli tadqiqotning amaliy qismi muzey pedagogikasi bilan bog‘lanadi.

Muzey tashrifchilar tarkibi bu imkoniyatni aniq ko‘rsatadi. 2026-yilning olti oyi davomida muzeyga jami 3 130 nafar tashrifchi kelgan, shundan 1 736 nafari maktab o‘quvchisi, 469 nafari talaba, 22 nafari xorijiy fuqaro. Ya’ni auditoriyaning uchdan ikki qismidan ko‘pi — o‘quv yoshidagi yoshlar.

Muzey muhitida til merosini o‘zlashtirish darsxonadagidan farqli kechadi. O‘quvchi lug‘atning asl nusxasini ko‘radi, uning yaratilish sharoitini his qiladi va ilmiy fakt bilan shaxs taqdirini bog‘laydi. Bu jarayonni uch bosqichli model sifatida ifodalash mumkin: ko‘rish (moddiy manba bilan bevosita uchrashuv) — his qilish

(shaxs taqdiri orqali hissiy jalb bo‘lish) — o‘zlashtirish (bilimning shaxsiy qadriyatga aylanishi).

Aynan uchinchi bosqichda ma’naviy natija shakllanadi: yosh avlodda ona tiliga nisbatan mas’uliyat hissi va fidokorlik tuyg‘usi tarbiyalanadi. Bir kishining o‘z tilini jahon tillari qatoriga qo‘yish uchun qilgan mehnati o‘quvchi uchun mavhum tushuncha emas, balki ko‘z oldidagi aniq dalilga aylanadi.

Amaliy taklif sifatida muzey bazasida “Ibrat lug‘ati” interaktiv mashg‘uloti joriy etilishi mumkin: o‘quvchilar olti tildagi ekvivalentlar bilan ishlaydi, o‘z “kichik lug‘at”ini tuzadi va uni raqamli bazaga qo‘shadi. Bunda o‘quvchi merosni iste’mol qiluvchi emas, balki uni davom ettiruvchi ishtirokchiga aylanadi.

Xulosa

Olib borilgan tadqiqot quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi.

Birinchidan, Is’hoqxon Ibratning “Lug‘ati sitta al-sina” asari o‘zbek amaliy va qiyosiy leksikografiyasining birinchi tizimli namunasi sifatida baholanishi lozim; unda o‘zbek tili jahon tillari bilan teng maqomda taqdim etilgan.

Ikkinchidan, “Jome’ul-xutut” o‘zbek tilidagi dastlabki umumiy yozuv tarixi bo‘lib, unda alifbo masalasiga ilmiy-qiyosiy yondashuv namunasi berilgan; bu yondashuv bugungi imlo munozaralari uchun ham metodologik ahamiyatga ega.

Uchinchidan, Ibrat faoliyatidagi lug‘at — yozuv — matbaa zanjiri til masalasiga yaxlit infratuzilma sifatida yondashuvni ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, 1937-yildagi qatag‘on o‘zbek tilshunosligida an’ana uzilishiga olib keldi; bu merosni tiklash milliy tilshunoslik uzluksizligini ta’minlash vazifasining bir qismidir.

Beshinchidan, muzey fondi til tarixi bo‘yicha to‘laqonli ilmiy manba bazasi bo‘lib xizmat qila oladi, muzey esa til merosini yosh avlodga yetkazishning samarali ma’naviy texnologiyasidir.

Taklif etilayotgan “IBRAT-KORPUS” loyihasi ushbu xulosalarni amaliy natijaga aylantirish mexanizmi bo‘lib, “2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til

siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”ning o‘zbek tilini raqamlashtirish hamda xalqaro miqyosda ommalashtirishga oid vazifalariga bevosita xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. 2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi.
3. Is’hoqxon To‘raqo‘rg‘oniy (Ibrat). Lug‘ati sitta al-sina. – Toshkent, 1901.
4. Is’hoqxon To‘raqo‘rg‘oniy (Ibrat). Jome’ul-xutut. – Toshkent, 1912.
5. Dolimov U. Is’hoqxon Ibrat. – Toshkent, [nashr yili aniqlashtirilsin].
6. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002.
7. Namangan viloyat davlat arxivi (NVDA), F.13, op.1.
8. NamDCHTI huzuridagi Is’hoqxon Ibrat muzeyi fondi materiallari
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 4-noyabrdagi 691-son qarori.

QATAG‘ON QURBONLARI XOTIRASI DAVLAT MUZEYINING SHAKLLANISH YO‘LI, FOND TIZIMI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Javlonbek Shavqiddinov,
O‘zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti
tarix yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” davlat muzeyining tashkil topishi va rivojlanish tarixi, muzey fondlarining shakllanishi va boyitilish jarayonlari hamda yangi ekspozitsiyaning mazmuni tahlil etilgan. Tadqiqotda siyosiy qatag‘onlar tarixiga oid arxiv hujjatlari, tarixiy materiallar va biografik ma’lumotlarning muzey fondlaridagi manbashunoslik ahamiyati yoritilib, ularni saqlash, ilmiy o‘rganish va tizimlashtirish mexanizmlari ko‘rib chiqilgan. Muzey ekspozitsiyasini shakllantirishda zamonaviy ekspozitsion vositalar va raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-ma’rifiy imkoniyatlari asoslab berilgan. Shuningdek, muzeyning ilmiy-tadqiqot, xalqaro ilmiy hamkorlik va tarixiy merosni targ‘ib etish faoliyati qiyosiy-tahliliy yondashuv asosida tahlil qilinib, uning tarixiy xotirani asrash va jamoatchilikka yetkazishdagi o‘rni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, muzey fondi, muzey ekspozitsiyasi, tarixiy xotira, arxiv hujjatlari, ilmiy-tadqiqot faoliyati, muzeyshunoslik, muzey targ‘iboti, zamonaviy texnologiyalar, tarixiy meros.

Tarixiy xotirani asrash, tarixiy manbalarni saqlash va ularni kelajak avlodga yetkazishda muzeylarning o‘rni muhimdir. Shu jihatdan “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” davlat muzeyi siyosiy qatag‘onlar tarixiga oid hujjat va materiallarni to‘plash, saqlash, ilmiy o‘rganish hamda jamoatchilikka yetkazishda muhim ilmiy-ma’rifiy muassasa hisoblanadi. Muzey fondlarining yillar davomida boyitilishi, ekspozitsiyaning takomillashtirilishi va zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi uning tarixiy xotirani saqlashdagi ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shu bilan birga, muzey faoliyatida tarixiy hujjatlarni to‘plash va saqlash, ularni tizimlashtirish,

ekspozitsiyalarda mazmunli namoyish etish hamda keng jamoatchilikka yetkazish bilan bog‘liq masalalar dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, muzey fondlarini shakllantirishning dastlabki bosqichida yuzaga kelgan saqlash va hujjatlarni tizimlashtirish bilan bog‘liq qiyinchiliklar, keyingi davrda esa katta hajmdagi tarixiy materiallarni zamonaviy vositalar asosida namoyish etish zarurati ushbu yo‘nalishni ilmiy jihatdan o‘rganishni taqozo etadi. Mazkur maqolada “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” davlat muzeyining tashkil topishi va rivojlanishi, fondlarining shakllanishi va boyitilishi, ekspozitsiyasining mazmuni va takomillashuvi, hududiy filiallari hamda ilmiy-ma’rifiy faoliyati o‘zaro bog‘liq holda yoritiladi. Shuningdek, muzey faoliyatida zamonaviy texnologiyalar va ilmiy hamkorlikning o‘rni tahlil qilinib, uning tarixiy xotirani saqlash, tarixiy manbalarni ilmiy muomalaga kiritish va yosh avlodga yetkazishdagi ahamiyati ochib beriladi.

Qatag‘on qurbonlari haqidagi ma’lumotlarni aniqlash va ularning nomlarini kelajak avlodga yetkazish borasidagi ishlar keyingi yillarda ham davom ettirildi. 1999-yil 12-maydagi F-999-sonli Farmoyishga muvofiq “Shahidlar xotirasi” xayriya jamg‘armasi tashkil etildi. Jamg‘armaga qatag‘on qurbonlari nomlarini aniqlash hamda ular haqidagi ma’lumotlarni jamlash va xotira kitoblarini nashr etish vazifalari yuklatildi. 2000-yil 12-mayda Toshkent shahrida “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasining ochilishi esa qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish yo‘lidagi muhim voqealardan biri bo‘ldi. Qatag‘on qurbonlari haqidagi tarixiy ma’lumotlarni to‘plash, saqlash va kelajak avlodga yetkazishda muzey tashkil etilishi alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 8-noyabrdagi 387-sonli qarori bilan rasman tashkil etildi. Muzeyning tashkil etilishi va uning dastlabki faoliyatini yo‘lga qo‘yishda arxiv materiallarini to‘plash muhim yo‘nalishlardan biri bo‘ldi. Bu jarayonda professor Naim Karimov rahbarligidagi ishchi guruhning faoliyati muhim rol o‘ynadi.

Muzey tashkil etilgach, qatag‘on qurbonlari bilan bog‘liq hujjat va boshqa tarixiy materiallarni yig‘ish, ularni o‘rganish hamda saqlash ishlari izchil davom

ettirildi. Shu bilan birga, muzey faoliyatini rivojlantirish va uning imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan huquqiy hujjatlar ham qabul qilindi. Jumladan, 2008-yil 5-maydagi PQ-861-sonli Qaror muzey faoliyatini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirishga xizmat qildi. 2017-yil 22-noyabrdagi 936-sonli Qaror bilan muzeyga “davlat muzeyi” maqomi berildi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalari qoshida 13 ta hududiy bo‘lim tashkil etilishi belgilandi. Bu esa qatag‘on qurbonlari xotirasini saqlash va ular haqidagi ma’lumotlarni kengroq o‘rganish ishlarini hududlarda ham olib borish imkoniyatini kengaytirdi. Keyingi yillarda ham mazkur yo‘nalishdagi ishlar davom ettirildi. 2020-yil 8-oktyabrdagi F-5598-sonli Farmoyish hamda 2024-yil 19-iyuldagi PQ-270-sonli Qaror bilan hududiy bo‘limlar faoliyatini yanada takomillashtirish va qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar huquqiy jihatdan belgilandi. Shunday qilib, O‘zbekistonda siyosiy qatag‘on qurbonlari xotirasini tiklash ishlari dastlab ularning huquqlarini tiklashga qaratilgan hujjatlardan boshlangan bo‘lsa, mustaqillik yillarida bu yo‘nalish yanada kengaydi. Qatag‘on qurbonlarini xotirlash kuni belgilanishi, “Shahidlar xotirasi” jamg‘armasining tashkil etilishi, yodgorlik majmuasining barpo etilishi va “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyining tashkil etilishi ushbu jarayonning muhim bosqichlarini tashkil etdi. Muzeyning faoliyati esa qatag‘on davriga oid tarixiy hujjat va materiallarni saqlash, ularni o‘rganish hamda jamiyatga yetkazishda muhim o‘rin egallaydi [1; 13-20-b.].

Muzey fondining shakllanishi Prezidentning 2001-yil 1-maydagi PF-2837-sonli Farmonidan so‘ng faollashdi. Dastlab fondni “Ma’naviyat va ma’rifat” hamda “Shahidlar xotirasi” xayriya jamg‘armalari tomonidan to‘plangan hujjatlar va fuqarolar arizalari tashkil etdi. Davlat arxivlari va ishchi guruh sa’y-harakatlari natijasida ko‘plab qatag‘on qurbonlari Oliy sud orqali oqlanib, ularga oid hujjatlar muzey fondiga kiritildi. Muzey faoliyatining dastlabki yillarida fondni shakllantirish va saqlashda qator muammolar yuzaga keldi. Professor Naim Karimov ta’kidlaganidek, uzoq yillar davomida mavjud bo‘lgan qo‘rquv sababli aholidan

ma’lumot to‘plash qiyin kechgan. Arxiv hujjatlaridagi takrorlanishlar va soha mutaxassislarining yetishmasligi ham bu jarayonni sekinlashtirgan. Dastlab maxsus saqlash xonasining mavjud emasligi natijasida ayrim hujjatlarning sarg‘ayishi va siyohlarning o‘chishi kuzatilgan. 2008-yilda muzey binosining takomillashtirilishi, Germaniyadan zamonaviy vitrinalarning keltirilishi va fond infratuzilmasining yangilanishi bilan bu muammolar hal etildi [2; 127-129-b.].

Muzey fondining shakllanishi bilan bir qatorda, keyingi yillarda uni yangi materiallar bilan boyitish ishlari ham davom etdi. 2018–2025-yillar davomida fondga kelib tushgan ashyo va hujjatlar sonida ayrim yillarda o‘zgarishlar kuzatilgan bo‘lsa-da, umumiy jihatdan o‘sish tendensiyasi qayd etildi. 2018-yilda 345 ta material qabul qilingan bo‘lsa, 2019-yilda 309 ta, 2020-yilda 578 ta, 2021-yilda 447 ta, 2022-yilda 687 ta va 2023-yilda 490 ta ashyo va hujjat fondga kiritildi. 2024-yilda bu ko‘rsatkich 1062 taga, 2025-yilda esa 1496 taga yetdi. Natijada 2018–2025-yillar oralig‘ida muzeyning umumiy fondi 20 079 ta ashyo va arxiv hujjatini tashkil etdi.

Fondlarning boyitilishi bilan bir qatorda, muzey ekspozitsiyasini zamonaviy talablarga mos ravishda tashkil etish va tarixiy materiallarni keng jamoatchilikka yetkazish ishlari ham rivojlanib bordi. Muzey ekspozitsiyasi xronologik va mavzuli tamoyillar asosida XIX asrdan mustaqillik davrigacha bo‘lgan tarixiy jarayonlarni qamrab oladi. Unda “Quloqlashtirish”, 1937–1938-yillardagi “Katta terror” hamda 1980-yillardagi “Paxta ishi” kampaniyalariga oid arxiv materiallari yoritilgan. Ekspozitsiyada sensorli ekranlar, VR va proyeksiyali interaktiv texnologiyalardan foydalanilib, 700 dan ortiq ma’lumot birligi va biografik materiallar raqamlashtirilgan. 2024-yilda ilmiy faoliyat va fondlarni saqlash uchun yangi binoning foydalanishga topshirilishi muzey imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Muzeyning hududiy filiallari ham mahalliy manbalarni to‘plash va qatag‘on qurbonlari haqidagi ma’lumotlarni aniqlashda muhim ishlarni amalga oshirmoqda. Qoraqalpog‘iston filialida 903 ta eksponat jamlangan bo‘lsa, Andijon filialida 1937–1938-yillardagi qatag‘on qurbonlaridan 1500 dan ortiq shaxs haqida ma’lumotlar

aniqlangan. Buxoro filialida 2024-yilda 10 450 nafar tashrif buyuruvchi qayd etilgan. Xorazm filialida 5781 ta eksponat saqlanib, 3033 ta qatag‘on qurboni haqida ma’lumotlar jamlangan. Qashqadaryo filiali fondi 3627 ta eksponatdan iborat bo‘lib, unda o‘zaki tarix va raqamli loyihalarga ham e’tibor qaratilmoqda [1; 13-20-b.].

Muzey ekspozitsiyasining birinchi bo‘limida O‘rta Osiyoning Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi va mahalliy aholining mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashlari yoritilgan. Qariyb 150 yil davom etgan mustamlaka davrida istiqlol, erk va ozodlik uchun olib borilgan kurashlarda halok bo‘lgan vatanparvarlar xotirasiga oid materiallar namoyish etilgan. Ekspozitsiyada Chor Rossiyasining O‘rta Osiyoni istilo etish xronologiyasi hamda mustamlakachilik zulmiga qarshi kurashlarga oid eksponatlar o‘rin olgan.

Ikkinchi bo‘limda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan milliy uyg‘onish va ma’rifatparvarlik harakati aks ettirilgan. Unda jadidlarning ta’lim, madaniyat va jamiyatni yangilashga qaratilgan faoliyati, yangi usul maktablari, milliy matbuot namunalari, ma’rifatparvarlar suratlari hamda Qo‘qon va Andijon teatrlariga oid afishalar namoyish etilgan. Mustamlakachi hukumatning ushbu harakatga nisbatan tazyiq va ta’qiblari ham yoritilgan.

Uchinchi bo‘limda Turkiston Muxtoriyatining tugatilishi va sovet qatag‘on siyosatining boshlanishi bilan bog‘liq jarayonlar aks ettirilgan. Shuningdek, 2000-yil 12-mayda Toshkentda “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasining ochilishi, 2001-yil 1-maydagi Farmon asosida muzeyning tashkil etilishi va uning 2002-yil 31-avgustda tantanali ochilgani haqidagi ma’lumotlar berilgan.

To‘rtinchi bo‘limda 1918–1924-yillarda sovet hokimiyatiga qarshi olib borilgan qurolli qarshilik harakati yoritilgan. Ayniqsa, Farg‘ona vodiysidagi harakatlar hamda Madaminbek, Katta Ergash va Shermuhammadbek kabi mahalliy sardorlar faoliyatiga oid ma’lumotlar ekspozitsiyadan o‘rin olgan.

Beshinchi bo‘limda 1930–1936-yillardagi kollektivlashtirish va “quloqlashtirish” siyosatining fojiali oqibatlari ko‘rsatilgan. Minglab xo‘jaliklarning yer-suvi va mol-mulki tortib olinishi, aholining “quloq” sifatida surgun qilinishi

bilan bog‘liq ma’lumotlar berilgan. Ekspozitsiyada surgun yo‘nalishlarini aks ettiruvchi 5 ta xarita, poyezd vagoni va chayla-yerto‘la maketlari, shuningdek, surgun qilingan oilalar farzandlarining xotiralari asosidagi videomateriallar mavjud.

Oltinchi bo‘limda 1929–1936-yillardagi siyosiy qatag‘onlar yoritilib, milliy g‘oyalarni ilgari surgan ziyolilar, qarshilik harakati ishtirokchilari va ularning qarindoshlariga nisbatan ta’qiblar aks ettirilgan. Qatag‘on qilinganlarning “Belomorkanal”, “Belbaltlag” va “Dmitlag” kabi qurilishlarda og‘ir mehnatga jalb etilgani haqidagi ma’lumotlar ham keltirilgan.

Yettinchi bo‘limda 1937–1938-yillardagi ommaviy siyosiy qatag‘onlar aks ettirilgan. Bu davrda davlat arboblari, milliy kadrlar, ziyolilar, olimlar, yozuvchilar, maorif va madaniyat xodimlarining qatag‘on qilingani, shuningdek, ularning oila a’zolari ham ta’qibga uchragani ko‘rsatilgan. Fayzulla Xo‘jayev, Cho‘lpon, Fitrat va boshqa qatag‘on qurbonlariga oid fotosurat va hujjatlar, 1922-yilda Germaniyaga o‘qishga yuborilgan talabalar suratlari ham ekspozitsiyadan o‘rin olgan.

Sakkizinchi bo‘limda 1940–1950-yillardagi qatag‘onlar, xususan, Ikkinchi jahon urushi yillarida davom etgan siyosiy bosim va etnik deportatsiyalar yoritilgan. Koreyslar, qrimtatarlar, mesxeti turklari, polyaklar, Povolje nemislari va boshqa xalqlarning majburiy ravishda O‘zbekistonga ko‘chirilgani hamda ularni joylashtirish va ta’minlashda o‘zbek xalqining ko‘rsatgan yordami haqida ma’lumotlar berilgan.

To‘qqizinchi bo‘limda 1980-yillardagi “Paxta ishi” kampaniyasi va uning oqibatlari yoritilgan. Paxta yakkahokimligi, Orol dengizining qurishi va ekologik muammolar bilan bir qatorda, minglab kishilarning nohaq jazoga tortilgani, tergovdagi tazyiqlar va jabrdiydalarning adolat izlab yozgan arznomalari aks ettirilgan. Shuningdek, 1986-yilda Qashqadaryoda “Paxta ishi” qurbonlarini oqlash va adolatni tiklash yo‘lida boshlangan sa’y-harakatlar haqida ma’lumotlar mavjud.

O‘ninchi bo‘limda mustaqillik yillarida tarixiy adolatning tiklanishi, qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish va milliy qadriyatlarni qayta tiklash jarayonlari aks ettirilgan. Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug‘bek,

Jaloliddin Manguberdi kabi tarixiy shaxslar haqidagi haqiqatning tiklanishi, milliy va diniy merosning qayta qadrlanishi hamda tarixiy yodgorliklarni ta’mirlashga oid ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, yoshlarning ilm-fan, ta’lim, sport, madaniyat va san’at sohalaridagi yutuqlari ham ekspozitsiyada o‘z aksini topgan [3].

“Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyining yangi ekspozitsiyasini tashkil etish jarayonida turli davlat va ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Arxiv agentligi, Kartografiya boshqarmasi, O‘zbekiston matbuot agentligi, Milliy teleradiokompaniya, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Aloqa va axborotlashtirish agentligi, Vesmistr universiteti, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi, Mudofaa vazirligi hamda “Sovplastital” korxonasi bilan birgalikda ish olib borilgan. Shuningdek, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va Oliy sud fondlarida saqlanayotgan hujjatlardan ham ekspozitsiyani shakllantirishda foydalanilgan. Bu hamkorlik muzey ekspozitsiyasini turli turdagi tarixiy hujjatlar, arxiv materiallari va boshqa manbalar bilan boyitishga imkon bergan.

2017-yil 31-avgust kuni Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning muzeyga tashrifi davomida bildirgan taklif va mulohazalari asosida 2017-yil 22-noyabrda Vazirlar Mahkamasining 936-son qarori qabul qilindi. Mazkur qaror asosida muzey Vazirlar Mahkamasi tasarrufiga o‘tkazilib, uning faoliyati yanada kengaytirildi va takomillashtirildi. Muzeyning qayta ta’mirlangan va kengaytirilgan binosi ekspozitsiya uchun mo‘ljallangan 3 ta zaldan iborat bo‘lib, ekspozitsiya zallarining umumiy maydoni 960 m² ni tashkil etadi. Shuningdek, ayvon qismi 640 m², yerto‘la qismi esa 1568 m² maydonni egallaydi. Yangilangan ekspozitsiya 10 ta bo‘limdan tashkil topgan bo‘lib, unda O‘zbekiston tarixining mustamlaka davridan mustaqillik yillarigacha bo‘lgan muhim jarayonlari izchil yoritilgan [6].

Shu bilan birga, muzey ilmiy-tadqiqot muassasasi sifatida ham faoliyat yuritadi. Muzey xodimlari, jumladan tarixchi olimlar qatag‘onlar tarixiga oid arxiv hujjatlarini chuqur o‘rganib, yangi faktik materiallarni to‘playdi va ilmiy

muomalaga kiritadi. Muzey fondlarida jamlangan hujjat va materiallar asosida monografiyalar, ilmiy loyihalar, shuningdek, publitsistik va badiiy nashrlar muntazam tayyorlanib, chop etilmoqda [5].

Bugungi kunda muzey fondlari nafaqat O‘zbekiston, balki xorijlik tarixchi olimlar va tadqiqotchilar, shuningdek, o‘z yaqinlari va ajdodlari taqdirini o‘rganayotganlar uchun ham muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Joriy yilning o‘tgan davrida Germaniya, Malayziya, Turkiya, Pokiston, Rossiya hamda Markaziy Osiyo davlatlaridan tashrif buyurgan mehmonlar bilan uchrashuvlar o‘tkazilib, tarixiy merosni o‘rganish va ilmiy-amaliy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi [4].

Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining targ‘ibot faoliyati tarixiy xotirani saqlash va uni keng jamoatchilikka yetkazishga qaratilgan. Muzey ekspozitsiyalarida tarixiy hujjatlar, fotosuratlar, videomateriallar hamda zamonaviy interaktiv vositalardan foydalanilishi tashrif buyuruvchilarga qatag‘onlar tarixini yanada tushunarli va ta’sirchan tarzda yetkazish imkonini beradi. Ayniqsa, yoshlar bilan olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar orqali qatag‘on qurbonlari xotirasini asrab-avaylash, tarixiy haqiqatni anglash va milliy qadriyatlarga hurmat ruhini shakllantirishga e’tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan muzey nafaqat tarixiy manbalarni saqlovchi, balki ularni ilmiy, madaniy va ma’rifiy yo‘nalishlarda targ‘ib qiluvchi muhim maskan sifatida namoyon bo‘ladi [7].

Xulosa. “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” davlat muzeyining shakllanishi va rivojlanishi O‘zbekistonda siyosiy qatag‘onlar tarixini o‘rganish, tarixiy manbalarni asrash va tarixiy xotirani tiklash jarayonining muhim tarkibiy qismidir. Tadqiqot natijalari muzey fondlarining yillar davomida arxiv hujjatlari, fotosuratlar, biografik ma’lumotlar va boshqa tarixiy materiallar bilan boyib borganini, ularning ekspozitsiya va ilmiy-tadqiqot faoliyatidagi ahamiyati tobora ortib borayotganini ko‘rsatadi. Muzey ekspozitsiyasining takomillashtirilishi, tarixiy materiallarning raqamlashtirilishi hamda interaktiv texnologiyalarning joriy etilishi qatag‘onlar tarixini zamonaviy muzeyshunoslik yondashuvlari asosida namoyish etish

imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Hududiy filiallarda olib borilayotgan izlanishlar esa qatag‘on qurbonlari haqidagi mahalliy ma’lumotlarni aniqlash va muzey fondlarini yangi manbalar bilan to‘ldirishga xizmat qilmoqda. Kelgusida fond materiallarini yanada tizimli raqamlashtirish, ularni ilmiy kataloglashtirish, tarixiy hujjatlarning ilmiy ekspertizasini kuchaytirish va xalqaro tadqiqot hamkorligini kengaytirish muzey faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan bo‘lishi mumkin. Bu jarayonlar siyosiy qatag‘onlar tarixiga oid manbalarni ilmiy muomalaga keng jalb etish, ularning saqlanishini ta’minlash va tarixiy xotirani kelajak avlodga ishonchli yetkazishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Садикова Насиба Бахтиёровна. Қатағон қурбонлари хотираси давлат музейи фондининг шаклланиши ва намойиш этиш масалалари: Тарихи фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2026.– 13– 20 б

2.Садикова, Н. Б. Музейlarda фонд фаолиятини шакллантириш (Қатағон қурбонлари хотираси Давлат музейи мисолида) // Музейшунослик XXI асрда: тадқиқотлар, анъаналар ва инновациялар : халқаро илмий-амалий анжуман тўплами. 3-китоб / мас’ул муҳаррирлар: Ж. Х. Исмаилова, А. Ф. Исмаилов, Л. Г. Левтеева ; ЎзР ФА Ўзбекистон тарихи давлат музейи. – Тошкент, 2023. –127–129 б

3. Музей ҳақида // Қатағон қурбонлари хотираси портали : Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Қатағон қурбонлари хотираси давлат музейи расмий веб-сайти. – URL: http://muzey-xotira.uz/o-muzee/ (мурожаат қилинган сана: 09.09.2026).

4. Қатағон қурбонлари хотираси — тарих ва ибрат // UZA.uz : Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги расмий веб-сайти. – URL: https://uza.uz (мурожаат қилинган сана: 09.09.2026).

5. Қатағон қурбонлари хотираси музейи // Uzbekistan.travel : Ўзбекистон Республикаси Туризм қўмитасининг расмий туристик портали. – URL:

https://uzbekistan.travel/uz/o/qatag-qurbonlari-xotirasi-muzeyi/ (мурожаат қилинган сана: 09.09.2026).

6. Музей ҳақида // Қатағон қурбонлари хотираси портали : Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Қатағон қурбонлари хотираси давлат музейи расмий веб-сайти. – URL: http://muzey-xotira.uz/oz/muzey-haqida_oz/ (мурожаат қилинган сана: 09.09.2026).

7. Садикова, Н. Б. Маданий меросни замонавий экспозиция воситалари орқали намойон этишда Қатағон қурбонлари хотираси давлат музейининг ўрни // Scientific and Practical Conference "Actual Issues of the Theory of Museum Studies and the Practice of Museum Management in the XXI Century". – Tashkent, May 14, 2025.323– 325 б . – DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15552502.

HAYDARQUL HOJIGA NISBATAN QATAG‘ON SIYOSATI VA UNING NOMINING TOPONIMIK-MEMORIAL XOTIRADA AKS ETISHI

Jumayev Mustafo Erkin o‘g‘li

Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning birinchi uchdan birida Surxon vohasida yashab faoliyat yuritgan diniy-ma’rifiy arbob Haydarqul hojining hayoti, ma’rifiy faoliyati va sovet hokimiyati davridagi taqdiri tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor uning Sho‘rchi tumanidagi Baxshitepa hamda Denov hududi bilan bog‘liq faoliyati, 1930-yilda mol-mulkining musodara qilinishi, diniy faoliyati va an’anaviy ta’lim bilan shug‘ullangani sababli ta’qib etilishiga qaratiladi. Shuningdek, sovet davrida uning nomi bilan bog‘liq diniy makonlarning cheklanishi va mustaqillik yillarida Haydarqul hoji xotirasining masjid hamda ziyoratgoh orqali qayta tiklanishi yoritiladi. Haydarqul hoji misolida qatag‘on siyosati qurbonlari xotirasining jamoaviy va memorial-toponimik makonda saqlanish mexanizmlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Haydarqul hoji, Surxondaryo, Sho‘rchi, Denov, Baxshitepa, qatag‘on, diniy ta’qib, sovet siyosati, tarixiy xotira, masjid, ziyoratgoh, memorial makon.

XX asrning 20–30-yillarida sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar O‘zbekiston jamiyatining an’anaviy tuzilishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Yalpi jamoalashtirish, “quloqlarni sinf sifatida tugatish”, diniy tashkilotlar faoliyatini cheklash va mafkuraviy nazoratni kuchaytirish siyosati natijasida mahalliy jamiyatda yuqori mavqega ega bo‘lgan ruhoniylar, ulamolar, eshonlar, imomlar va diniy ta’lim bilan shug‘ullangan shaxslarning katta qismi turli shakldagi tazyiqqa uchradi [1, B. 5–8].

Surxondaryo vohasida ham mazkur siyosat keskin kechgan. Hududdagi diniy arboblarning bir qismi mulkdorlik, “aksilinqilobiy faoliyat”, “sovetlarga qarshi targ‘ibot” va eski usuldagi diniy ta’limni davom ettirish kabi ayblovlar bilan ta’qib

etilgan. Qatag‘on siyosatining mahalliy ko‘rinishlarini alohida shaxslar taqdiri orqali o‘rganish mazkur jarayonning nafaqat siyosiy, balki ijtimoiy va madaniy oqibatlarini ham yoritish imkonini beradi. Ana shunday shaxslardan biri — Haydarqul hojidir. Uning hayoti qiziqarli jihati shundaki, sovet davrida uning mulki musodara qilingan, diniy faoliyati cheklangan va o‘zi hibsga olingan bo‘lsa-da, uning nomi xalq xotirasidan butunlay o‘chib ketmagan. Aksincha, Haydarqul hoji nomi keyingi davrlarda masjid va ziyoratgoh kabi memorial obyektlarda qayta namoyon bo‘ldi. Bugungi kunda Sho‘rchi tumanida “Haydarqul hoji bobo” jome masjidi faoliyat yuritayotgani O‘zbekiston musulmonlari idorasi tomonidan ham qayd etilgan [2]. Shu sababli Haydarqul hoji taqdiri qatag‘on siyosatini o‘rganish bilan bir qatorda tarixiy xotiraning makonda saqlanishi va qayta tiklanishi masalasini tahlil qilish uchun ham muhim manba hisoblanadi.

Haydarqul hojining hayoti va ma’rifiy faoliyati. Qatag‘on qurbonlari tarixiga bag‘ishlangan mahalliy tadqiqotda jurnalist Bozor Muhammadiyev ma’lumotlariga tayangan holda Haydarqul hoji o‘tkir zehnli, kuchli xotiraga ega, mohir tabib va diniy bilimdon shaxs sifatida ta’riflanadi. Uning otasi Abdurahim so‘fi bo‘lib, oilada Shoymardonqul, Quralay, Haydarqul va Qurbonoy ismli farzandlar voyaga yetgan [1, B. 1].

Haydarqul hoji 1840-yilda (ba’zi manbalarda 1841) tug‘ilgan. Umrining asosiy qismini hozirgi Sho‘rchi tumanidagi Baxshitepa qishlog‘ida, so‘nggi olti yilini esa Denov tumanidagi G‘urjak qishlog‘ida o‘tkazgan. U Buxoro shahridagi madrasada uch-to‘rt yil tahsil olib, islom dini bo‘yicha chuqur bilim egallagan. Afg‘onistonning Mozori Sharif va Hirot shaharlaridagi diniy muhit bilan ham aloqalari bo‘lgan. Taxminan 30 yoshida haj safarini amalga oshirgan va 1873-yilda Baxshitepa qishlog‘ida yangi masjid bunyod ettirgan [1, B. 1]. Haydarqul hojining tarjimai holida uning dunyoviy bilimlarga bo‘lgan qiziqishi ham diqqatga sazovordir. Manbada Buxoroda o‘qib yurgan vaqtida uning hujrasidan Sankt-Peterburg va Moskvada nashr etilgan to‘rt-beshta ruscha risola topilgani qayd qilinadi. Shuningdek, u ikki tengdoshi bilan yashirin mashg‘ulotlarda qatnashib, rus tilini

o‘rganishga harakat qilgan [1, B. 2]. Bu faktlar Haydarqul hojining faqat diniy bilimlar bilan chegaralanib qolmaganini ko‘rsatadi. Uning diniy ilmlar bilan bir qatorda boshqa bilim manbalariga qiziqishi XIX asr ikkinchi yarmidagi mahalliy ziyoli qatlamning murakkab intellektual dunyosini anglashga yordam beradi.

Haydarqul hoji haqidagi xalq og‘zaki xotirasida ham uning bilimdonligi va karomat sohibi sifatidagi obrazi saqlangan. Surxondaryo shevalari va folklor materiallarini o‘z ichiga olgan ilmiy konferensiya to‘plamida “Haydarqul hoji haqidagi rivoyat” alohida qayd etilib, unda uning Buxoroda tahsil olgan, Qur’onni yaxshi bilgan bilimli inson sifatidagi obrazi aks etgan [3, B. 329–330]. Mazkur folklor materiali tarixiy faktlarning to‘liq muqobili sifatida emas, balki xalq xotirasida shakllangan Haydarqul hoji obrazini o‘rganish uchun muhimdir. Yozma manba va og‘zaki rivoyatni qiyoslash shaxsning tarixiy tarjimai holi bilan keyinchalik shakllangan memorial obraz o‘rtasidagi farqni aniqlash imkonini beradi.

Haydarqul hojining 1930-yildagi ta’qib qilinishi. 1920-yillarning oxiri va 1930-yillarning boshlarida diniy arboblarga nisbatan bosimning kuchayishi Haydarqul hoji hayotiga ham keskin ta’sir ko‘rsatdi. 1930-yilda bir necha militsiya xodimi hamda Oqarbuloq qishloq kengashi raisi X. Kenjayev uning Baxshitepadagi hovlisiga kelib, barcha mol-mulki va ro‘zg‘or buyumlarini ro‘yxatga olib musodara qilgan [1, B. 2–3]. Shundan so‘ng Haydarqul hoji mulkdorlik, davlatga qarshi targ‘ibot-tashviqot yuritish hamda bolalarga eski usulda diniy ta’lim berishda ayblanib qamoqqa olingan [1, B. 3]. Mazkur ayblovlarning o‘zi o‘sha davr siyosatining mohiyatini ifodalaydi: an’anaviy jamiyatda ijobiy baholangan diniy ta’lim va mahalliy diniy yetakchilik yangi mafkuraviy muhitda siyosiy xavf belgisi sifatida talqin qilingan.

Haydarqul hojining qamoqqa olinganidan keyingi voqealar bo‘yicha xalq orasida turli rivoyatlar tarqalgan. Ulardan birida uni Termiz tomon olib ketayotgan poyezd Hayrobod yaqinida uning duosi sababli to‘xtab qolgani hikoya qilinadi. [1, B. 2]. Shu bilan birga, bu rivoyat boshqa folklor materiallarida ham qayd etilgan. Ilmiy konferensiya materialida Haydarqul hojining poyezdda olib ketilishi va

Hayrobodda poyezdning to‘xtashi bilan bog‘liq rivoyat mahalliy aholi xotirasidan yozib olingan [3, B. 329–330]. Demak, mazkur voqeaning tarixiy fakt sifatida ishonchliligi bahsli bo‘lsa-da, uning xalq xotirasida mustahkam joy olgani shubhasiz. Bu esa qatag‘onga uchragan shaxslarning xotirasi ko‘pincha rasmiy hujjatlardan tashqari, rivoyat va og‘zaki tarix orqali ham saqlanganini ko‘rsatadi.

1930-yillarda Denov tuman ichki ishlar tizimida ishlagan Abdulla Jo‘rayevning og’zaki materiallari keyinchalik Hikmatullo Qarshiyev tomonidan yetkazilgan va 2021-yilda I. Umarov tomonidan dala materiali sifatida yozib olingan [4]. Ushbu ma’lumotga ko‘ra, Haydarqul hoji Hayrobod stansiyasida OGPUning Denov tuman bo‘limi boshlig‘i Filimonov huzuriga olib kelingan. Filimonov 1930–1933-yillarda ushbu bo‘limni boshqargan. Qisqa so‘roq davomida Haydarqul hojining yoshi 90 dan oshgani va ko‘zi ojizligi aniqlangach, uning sovet davlati uchun xavf tug‘dirmasligi haqida xulosaga kelinib, uyiga qaytarib yuborilgan [1, B. 3; 4]. Shu sababli Haydarqul hojini 1937–1938-yillardagi “Katta terror” davrida otuv yoki uzoq muddatli lager jazosiga hukm etilgan shaxslar qatoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kiritish to‘g‘ri emas. Uning taqdiri 1930-yillarning boshidagi mulkni musodara qilish, diniy faoliyatni cheklash va ruhoniy qatlamni siyosiy bosim ostiga olish jarayonlari bilan bog‘liq edi.

Haydarqul hoji xotirasining xalq orasida saqlanishi. Haydarqul hoji 1936-yil 1-avgustda 96 yoshida vafot etgan. Manbada uning dafn marosimiga Sho‘rchi va Denov tumanlaridan ko‘plab kishilar kelgani va u Sarmazorota qabristoniga dafn etilgani qayd etiladi [1, B. 4]. Haydarqul hojining qabri joylashgan hudud keyinchalik ziyorat makoniga aylangan. Surxon vohasidagi ziyorat turizmi salohiyatiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarda Denov tumanidagi ziyoratgohlar qatorida “Haydarqul hoji bobo ziyoratgohi” alohida sanab o‘tilgan [5, B. 19]. Bu fakt juda muhim. Chunki shaxs xotirasining saqlanishini faqat uning tarjimai holiga oid kitoblarning mavjudligi orqali emas, balki nomning real geografik va ijtimoiy makonda yashab qolishi orqali ham kuzatish mumkin. Ziyoratgoh nomi tarixiy shaxs nomini yangi avlodlarga yetkazuvchi memorial vosita vazifasini bajarmoqda.

Ziyoratgohlarning tasnifiga bag‘ishlangan yana bir ilmiy tadqiqotda Surxondaryo vohasidagi muqaddas joylar shaxslar bilan bog‘liqligiga qarab guruhlarga ajratiladi. Unda Haydarqul hoji bobo mahalliy avliyolar nomi bilan bog‘liq ziyoratgohlar qatorida keltiriladi [6, B. 122–123]. Shunday qilib, Haydarqul hoji nomi faqat diniy xotira emas, balki Surxon vohasining ziyorat geografiyasi tarkibiga ham kirgan.

Sovet davrida masjid va memorial makonning o‘zgarishi. Haydarqul hojining shaxsiy ta’qibi bilan bir qatorda uning nomi bilan bog‘liq moddiy meros ham sovet siyosatidan zarar ko‘rgan. Ba’zi manbada sovet tuzumi Baxshitepadagi Shoymardonqul hoji va Haydarqul hoji masjidlarini yopgani qayd etiladi [1, B. 4].

1943-yilda Sho‘rchi tuman partiya qo‘mitasining birinchi kotibi Ergash Jo‘rayev Baxshitepaga kelganida Haydarqul hoji masjididan ombor sifatida foydalanilayotganini ko‘rgan. U kolxoz rahbarlariga masjidni bo‘shatib, tozalashni buyurgan. Biroq bir necha yil o‘tib qarovsiz qolgan Haydarqul hoji masjidi buzilib ketgan [1, B. 4].

Mazkur jarayon tarixiy xotiraning makondagi o‘zgarishini yaqqol aks ettiradi. Dastlab diniy-ma’rifiy markaz bo‘lgan masjid o‘z funksiyasidan mahrum etilib, xo‘jalik obyektiga aylantirilgan, keyinchalik esa jismonan yo‘qolgan. Shu ma’noda sovet siyosati nafaqat shaxsni ijtimoiy faoliyatdan cheklagan, balki u bilan bog‘liq xotira makonining funksiyasini ham o‘zgartirgan. Biroq Haydarqul hoji nomining xalq orasida saqlanishi ushbu siyosatning xotirani to‘liq yo‘q qila olmaganini ko‘rsatadi.

Mustaqillik davrida Haydarqul hoji bilan bog‘liq tarixiy xotira yana ochiq ijtimoiy makonga qaytdi. Mahalliy tarixiy manbada Baxshitepa qishlog‘ida Haydarqul hoji nomidagi yangi masjid qad ko‘targani, unda juma namozlari, Ramazon va Qurbon hayitlari hamda boshqa diniy marosimlar o‘tkazilayotgani qayd etiladi [1, B. 4]. O‘zbekiston musulmonlari idorasining 2021-yil 29-iyuldagi xabarida Sho‘rchi tumanidagi “Haydarqul hoji bobo” jome masjidi aniq tilga olinadi. Unda Musulmonlar idorasi raisi o‘rinbosari Ibrohimjon Inomov mazkur masjidga tashrif buyurib, jamoat bilan uchrashgani qayd etilgan [7]. 2023-yil 22-mayda

O‘zbekiston musulmonlari idorasi tomonidan e’lon qilingan boshqa materialda ham aynan Sho‘rchi tumanidagi “Haydarqul hoji bobo” masjidida “Siz bizga keraksiz” nomli xayriya tadbiri o‘tkazilgani xabar qilingan [8]. Demak, Haydarqul hoji nomidagi masjid bir martalik yoki norasmiy nom emas, balki zamonaviy diniy-jamoat hayotida faol foydalanilayotgan nom sifatida kamida bir necha rasmiy manbada qayd etilgan. Haydarqul hoji nomining memorial makondagi ikkinchi muhim ko‘rinishi Denov tumanidagi ziyoratgohdir. O‘zbekiston Milliy axborot agentligining 2024-yil 1-sentabrdagi fotoreportajida Denov tumanidagi yoshlar “Xo‘ja Alouddin Attor Valiy” hamda “Haydarqul Hoji bobo” ziyoratgohlariga tashrif buyurgani aniq ko‘rsatiladi [9].

Mazkur tadbirning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” shiori ostida tashkil etilgani Haydarqul hoji ziyoratgohining zamonaviy funksiyasini yanada yaqqol ko‘rsatadi. Obyekt faqat diniy ziyorat maskani sifatida emas, balki yosh avlodni tarixiy meros bilan tanishtirish vositasi sifatida ham foydalanilmoqda [9]. 2025-yilda chop etilgan mahalliy matbuot materialida ham Sarmazor qabristoni tasvirlanib, Alouddin Attor maqbarasi yonida Haydarqul hoji qabri joylashgani tilga olinadi [10, B. 4]. Bu ma’lumot ziyoratgoh bilan tarixiy dafn joyi o‘rtasidagi bog‘liqlikning hozirgi davrda ham saqlanayotganini ko‘rsatadi.

Haydarqul hoji misolida tarixiy xotiraning bir necha shakli bir vaqtning o‘zida kuzatiladi. Birinchidan, uning nomi oilaviy va mahalliy og‘zaki xotirada saqlangan. Ikkinchidan, uning qabri ziyorat maskaniga aylangan. Uchinchidan, mustaqillik yillarida uning nomi jome masjidi nomida qayta tiklangan. To‘rtinchidan, bugungi ilmiy adabiyotlarda “Haydarqul hoji bobo ziyoratgohi” Surxondaryo ziyorat turizmi obyektlaridan biri sifatida tasniflanmoqda [5; 6]. Bu jarayonni shartli ravishda memorial-toponimik reabilitatsiya deb atash mumkin. Ushbu tushuncha sud-huquqiy ma’nodagi reabilitatsiya bilan aynan bir narsa emas. U ilgari siyosiy yoki mafkuraviy bosim ostida qolgan shaxs nomining keyinchalik jamoat xotirasi va hududiy nomlash tizimiga qaytishini anglatadi.

Haydarqul hoji misolida bunday transformatsiya aniq ko‘rinadi: 1930-yilda uning mol-mulki musodara qilinib, diniy faoliyati ayblov obyektiga aylantirilgan; uning masjidi sovet davrida yopilib, keyinchalik buzilgan. Biroq shaxs nomi xalq xotirasida saqlanib qolgan va bugungi kunda “Haydarqul hoji bobo” jome masjidi hamda “Haydarqul Hoji bobo” ziyoratgohi nomlarida yashamoqda [7; 8; 9]. Bu holat qatag‘on tarixini tadqiq etishda faqat qamoq, tergov, hukm va reabilitatsiya hujjatlarini o‘rganish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Qatag‘onga uchragan shaxslarning nomlari bugungi ko‘chalar, mahallalar, ta’lim muassasalari, masjidlar, qabristonlar, ziyoratgohlar va boshqa memorial obyektlarda qanday saqlanayotganini o‘rganish tarixiy xotiraning davomiyligini aniqlash imkonini beradi.

Haydarqul hoji XIX asr ikkinchi yarmi – XX asrning birinchi uchdan birida Surxon vohasining diniy-ma’rifiy hayotida faoliyat yuritgan mahalliy diniy arboblardan biri edi. U Buxoroda tahsil olgan, diniy bilimlarni egallagan, dunyoviy bilimlarga ham qiziqqan va 1873-yilda Baxshitepada masjid bunyod ettirgan [1, B. 1–2]. 1930-yildagi siyosiy jarayonlar natijasida Haydarqul hojining mol-mulki musodara qilinib, o‘zi sovet davlatiga qarshi targ‘ibot va an’anaviy diniy ta’lim bilan shug‘ullanganlikda ayblanib hibsga olingan [1, B. 2–3]. Biroq uning yoshi va holati hisobga olinib, keyinchalik uyiga qaytarilgan. Uning taqdiri sovet davridagi diniy arboblarga qarshi ta’qibning o‘ziga xos mahalliy ko‘rinishini aks ettiradi. Haydarqul hoji xotirasining keyingi taqdiri esa yanada ahamiyatlidir. Sovet davrida uning masjidi yopilib, oxir-oqibat buzilib ketgan bo‘lsa-da, shaxsning nomi mahalliy jamoaviy xotirada saqlangan. Mustaqillik yillarida Haydarqul hoji nomi yana jamoat makoniga qaytib, Sho‘rchi tumanidagi jome masjidi hamda Denovdagi ziyoratgoh nomida mustahkamlandi. Bu obyektlar bugungi kunda ham diniy, ma’naviy va ma’rifiy vazifalarni bajarib kelmoqda [7; 8; 9]. Shunday qilib, Haydarqul hoji misoli qatag‘on qurbonlari va siyosiy ta’qibga uchragan shaxslarning tarixiy xotirasini o‘rganishga yangi yondashuvni taklif etadi. Shaxsning hujjatlarda qayta tiklanishi tarixiy reabilitatsiyaning bir bosqichi bo‘lsa, uning nomining masjid, ziyoratgoh va

boshqa jamoat makonlarida qayta paydo bo‘lishi xotiraning hududiy-memorial tiklanishini ifodalaydi. Shu jihatdan Haydarqul hoji xotirasining bugungi Surxondaryo memorial makonida saqlanishi qatag‘on qurbonlari merosini tiklashning o‘ziga xos namunasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tursunov S., Soatov O., Umarov I. Shahid ketgan qatag‘on qurbonlari – Xotirasi abadiy (1920–1938-yillar). – Toshkent: Yosh avlod matbaa, 2022. – B. 1–4.
2. O‘zbekiston musulmonlari idorasi. Masjid va xonadonlarga tashrif ko‘ngillarni xushnud etmoqda. – 29.07.2021.
3. Yosh olimlar ilmiy konferensiyasi materiallari. Haydarqul hoji haqidagi rivoyat. – Toshkent, 2023. – B. 329–330.
4. Umarov I. Hikmatullo Qarshiyevdan yozib olingan dala ma’lumoti. – 2021 // Tursunov S., Soatov O., Umarov I. Shahid ketgan qatag‘on qurbonlari – Xotirasi abadiy. – B. 3.
5. Tursunov S. va boshq. Surxon vohasi ziyorat turizmi salohiyati va uni rivojlantirish istiqbollari. – Termiz, 2023. – B. 19–20.
6. Tursunov S. va boshq. Surxondaryo vohasi ziyoratgohlarining tarixiy-etnografik tasnifiga oid tadqiqot // Journal of Engineering and Technology. – 2021.
7. O‘zbekiston musulmonlari idorasi. Masjid va xonadonlarga tashrif ko‘ngillarni xushnud etmoqda. – 29.07.2021.
8. O‘zbekiston musulmonlari idorasi. Surxondaryoda “Siz bizga keraksiz” tadbiri o‘tkazildi. – 22.05.2023.
9. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi. Yoshlarning tarixiy qadamjolarga sayohati tashkil etildi. – 01.09.2024.
10. Adabiyot olami. “Sarmozor” qabristonida keksa chinor soyasidagi hayratlarim. – 2025-yil 26-may. – №20 (423). – B. 4.

АҲМАД ДОНИШ ВА ИСҲОҚХОН ИБРАТ МАЪНАВИЙ МЕРОСИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАЛҚИНИ

Атаев Алишер Ризоқулович
Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti ilmiy xodimi
Махсуджонов Отабек Зокиржон ўғли
Исҳоқхон Ибрат-Қатағон қурбонлари хотираси музейи директори

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг 35 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқида келгуси ўн йилликни миллий юксалиш даврига айлантириш мақсадида илгари сурилган 7 та миллий дастур Аҳмад Дониш ва Исҳоқхон Ибрат маънавий меросидаги тараққиёт ғоялари билан мазмунан уйғунлик касб этади. Хусусан, Донишнинг одил раҳбар ва инсофли амалдор ҳақидаги қарашлари "Адолат ва қонун устуворлиги", ҳозиқ табиб тамойили "Соғлом ва узоқ умр", сув ва ирригацияни оқилона бошқариш ғояси "Сув ва экология", ижтимоий очиқлик ва мусофирпарварлик тамойили эса "Тинчлик, дўстлик ва бағрикенглик" миллий дастурлари билан ҳамоҳангдир. Исҳоқхон Ибратнинг янги усулдаги таълимни ривожлантириш, хорижий тилларни ўрганиш, жаҳон илм-фани ва технологияларини ўзлаштириш, матбаачиликни йўлга қўйиш ҳамда аҳоли маърифий савиясини ошириш борасидаги амалий фаолияти "Билим ва малака" ҳамда "Юқори технологияли иқтисодиёт" дастурларининг мазмун-моҳияти билан муштарак жиҳатларга эга. Шу нуқтаи назардан, Донишнинг давлат ва жамиятни тизимли ислоҳ этишга қаратилган назарий қарашлари ҳамда Ибратнинг таълим, технология ва маърифат орқали жамиятни янгилашга қаратилган амалий фаолиятини 7 та миллий дастур билан қиёсий-фалсафий ўрганиш, уларнинг маънавий меросини замонавий миллий тараққиёт ғоялари нуқтаи назаридан янгича талқин қилиш имконини беради.

XIX аср охири ва XX аср бошлари Марказий Осиё учун ўзига хос ҳаёт-мамот инқироз даври бўлди. Минтақа тарқоқ, технологик жиҳатдан қолоқ ва аста-секин Россия империясининг мустамлакачилик бўйинтуруғи остига тушиб бораётган эди. Ана шундай мураккаб бир шароитда икки буюк мутафаккир — Бухоро амирлигидан Аҳмад Дониш ва Фарғона водийсидан Исҳоқхон тўра Ибрат жамият таназзулининг оддий кузатувчиси эмас, балки унинг асосий "ташхисчилари" сифатида майдонга чиқдилар. [1, B. 3] Ҳар икки аллома миллий нажот ва юксалиш каби умумий мақсад йўлида бирлашган бўлса-да, уларнинг усуллари бир-бирини мукаммал тўлдирар эди: Дониш йирик миқёсдаги назарий ва тизимли режани тақдим этса, Ибрат замонавий уйғониш учун зарур бўлган халқчил миқёсдаги илғор ускунавий ва таълим воситаларини яратиб берди.

Дониш ва Ибратгача бўлган даврда Марказий Осиё интеллектуал муҳити асосан анъанавийлик исканжасида бўлиб, тарихчилар ҳукмдорларни улуғловчи мадҳияномалар ёзар, файласуфлар эса мавҳум ўрта аср илоҳиёти устида баҳслашар эди. Бу икки олим ўз жамиятларининг фикрлаш тарзида чинакам инқилоб ясади.

Дониш мумтоз Шарқ фалсафаси (Форобий, Ибн Сино ва Бедил каби мутафаккирларга таянган ҳолда) ва замонавий жадидчилик ҳаракати ўртасидаги интеллектуал кўприк вазифасини ўтади. У фалсафий мунозарани меъёрий ёндашувдан ("қандай бўлиши керак") чуқур таҳлилий ("нега амалда бундай бўлмаяпти?") ёндашувга кўчирди. Дониш шунчаки ҳукмдор одил бўлиши керак, деб даъват қилиш билан чекланмай, Бухорода адолатни имконсиз қилган тизимли муаммоларни — масъулиятсизлик ва ҳокимиятнинг бир қўлда тўпланиши каби иллатларни таҳлил қилди. [2, B. 61]

Ибрат тарих ёзиш усулининг ўзини ислоҳ қилди. У ўзининг "Тарихи Фарғона" асарида муболағалар ва хонларни чексиз мадҳ этишга асосланган анъанавий Шарқ тарихнавислиги усулини кескин рад этди. Бунинг ўрнига, В.В. Бартольд, В.В. Радлов ва Ҳ. Вамбери каби ғарб шарқшуносларининг

асарларини аслиятда ўқиб, мантиқий ва холис ёндашувни танлади. Унинг фикрича, тарих хушомадгўйлик воситаси эмас, балки келажак авлодлар миллатнинг юксалиши ва таназзулининг асл сабабларини ўрганиши мумкин бўлган тарбиявий кўзгу (“ибрат”) бўлиши лозим эди. [5, B. 80]

Ҳар икки мутафаккир мустамлакачилик босқини аслида анча чуқурроқ ички емирилишнинг бир натижаси эканлигини англаб етдилар. Уларнинг энг кескин танқидлари элитанинг иккиюзламачилиги ва омманинг жаҳолатига қаратилган эди.

“Наводир ул-вақоеъ” ва бошқа тарихий рисолаларида Дониш Бухоро амирлигининг таназзули хушомадгўйлик, коррупция ва шахсий майлларнинг давлат манфаатидан устун қўйилиши туфайли юз бераётганини таъкидлади. У хушомадгўйлик маданиятини кескин қоралаб, қуруқ мақтовлар ва ҳақгўй маслаҳатчиларнинг йўқлиги давлатни муқаррар ҳалокатга олиб боришини айтди. Бундан ташқари, у “таваккул” (тақдирга тан бериш)нинг бузилган талқинини танқид қилиб, меҳнат қилмасдан фақат тақдирга ишониб яшайдиганларни аҳмоқ деб атади ва фаровонлик учун сабаб-оқибатга асосланган фаол ҳаракат зарурлигини уқтирди. [2, B. 25]

Ибрат ўзининг “Мезон уз-замон” асарида тараққиётга тўсқинлик қилаётган “сохта уламолар”ни нишонга олди. [4, B. 7] У замонавий Европа ихтироларини — самовар, керосин лампалари ва поездларни — дастлаб “бидъат” (динга ёт нарса) деб эълон қилиб, кейинчалик улар одатий ҳолга айлангач, биринчилардан бўлиб фойдалана бошлаган бу тоифанинг иккиюзламачилигини фош қилди. Ибрат, шунингдек, жамиятни емирувчи иллатларни аниқлади: деҳқонларни хонавайрон қилган судхўрлик ҳамда тўй ва аза маросимларидаги мантиқсиз, кераксиз харажатлар (исрофгарчилик) шулар жумласидан эди. Унинг фикрича, бойлар жамиятда обрў орттириш мақсадида банкрот бўлиш ўрнига, ўз маблағларини мактаблар, шифохоналар ва етимхоналар қуришга сарфлашлари керак эди.

Марказий Осиёни қандай қутқариш мумкин эди? Дониш давлатда таркибий ўзгаришларни таклиф қилган бўлса, Ибрат дунё билан ҳамқадам бўлиш орқали алоҳида фуқароларни кучайтиришга эътибор қаратди.

Дониш жамият яшаб қолиши ва ривожланиши учун зарур бўлган бешта асосий тамойилни кўрсатиб ўтди:

Одил ҳукмдор: Ҳокимияти зулмга эмас, балки адолатга ва халқ ҳимоясига таянадиган кучли раҳбар. [2, B. 47]

Инсофли амалдорлар: Хушомаддан кўра ҳақиқатни устун қўядиган ва ўз очкўзлиги эмас, халқ манфаати учун хизмат қиладиган бошқарувчилар. [2, B. 47]

Малакали табиблар: Жамият аҳоли саломатлигини таъминлаш учун юқори малакали тиббиёт ходимларига эга бўлиши, тиббиётга ирим-сирим эмас, балки фан сифатида қараши лозим. [2, B. 47]

Меҳмондўст жамият: Хорижликлар, сайёҳлар ва савдогарлар учун очиқ бўлган, яккаланиб қолиш маданий ва иқтисодий ўлимга олиб келишини англаб етувчи маданият. [2, B. 47]

Сув ва ирригация тизимини бошқариш: Минтақанинг қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти ва сиёсий барқарорлиги сувнинг адолатли тақсимланишига боғлиқ эканини тан олган ҳолда, сув ресурсларини оқилона бошқариш. [2, B. 47-48]

Ушбу тамойиллардан ташқари, Дониш давлат ҳокимиятини тақсимлашни — даромад ва харажатлар, ҳарбий ишлар ҳамда диний-маъмурий вазифалар учун алоҳида вазирлар тайинлашни, шунингдек, ҳукмдорга йўл-йўриқ кўрсатиш учун доно ва билимли инсонлардан иборат Давлат кенгаши (машваратхона) тузишни ёқлаб чиқди. [2, B. 60]

Ибратнинг фикрича, жахон миқёсида билимли аҳолисиз тизимли ислоҳотларни амалга ошириб бўлмас эди. Унинг Европа, Арабистон ва Ҳиндистон бўйлаб саёҳатлари хорижий тилларни эгаллаш ва замонавий

технологияларни ўзлаштириш яшаб қолишнинг асосий гарови эканига ишонч уйғотди.

Ибрат араб, форс, ҳинд-урду, инглиз ва рус тилларини мукаммал эгаллади. Халқини дунё билан уйғунлашувига ёрдам бериш мақсадида у чор ҳукуматининг қаттиқ цензурасига қарамай, рус ва хорижий тилларни ўрганиш учун амалий восита бўлган олти тилли “Луғати ситтати алсина” (1901) луғатини яратди. У шунингдек, ўзининг “Жомеъ ул-хутут” асарида жаҳоннинг 41 хил турли ёзув тизимларини тадқиқ этиб, баён қилди. [3, B. 14]

Ҳукумат ёрдамини кутиб ўтиришни истамаган Ибрат 1908 йилда Оренбургдан литографик босмахона ускунасини сотиб олди ва уни поезд ҳамда туялар ёрдамида Тўрақўрғонга олиб келди. Унинг “Матбааи Исҳоқия” босмахонаси омма учун арзон дарсликлар, шеърий тўпламлар ва тарбиявий рисолалар чоп этиб, чинакам маърифат машъалига айланди. [3, B. 37-38].

У ниҳоятда секин ва самарасиз бўлган анъанавий ҳижо (ҳарфлаб ўқиш) усулига асосланган эски мактабларга (“усули қадим”) қарши фаол курашди. Бунинг ўрнига товуш методига асосланган “усули савтия” мактабларини очди ва қўллаб-қувватлади, уларни глобус, парта ва янги дарсликлар каби замонавий воситалар билан жиҳозлаб, ўқувчиларга қисқа вақт ичида савод чиқариш имконини яратди. [3, B. 34]

Марказий Осиёнинг Россия томонидан босиб олинишини таҳлил қилар экан, ҳар икки мутафаккир ҳам шунчаки ўзларини қурбон сифатида кўрсатишдан йироқ эдилар. Улар мустақилликнинг йўқолишини ички емирилишнинг мантиқий оқибати сифатида қабул қилдилар.

Амирликдаги қаттиқ цензура шароитида яшаган Дониш ўзининг геосиёсий огоҳлантиришларини хавфсиз тарзда ифодалаш учун кўпинча мажозий маънолар, туш таъбирлари ва мунажжимлик рамзлардан фойдаланган. [1, B. 11] У глобал кучларнинг (масалан, Хитой ва Европа) юксалишини башорат қилди ҳамда маънавий ва маъмурий эътиборсизлик туфайли анъанавий тартиб қулаётганидан огоҳлантирди.

Ибрат эса анча очиқ ва дадил фикр билдирди. У “Тарихи Фарғона” асарида Қўқон хонлиги қандай қилиб ўзини-ўзи йўқ қилганини тафсилоти билан ёзиб қолдирган. У шафқатсиз ички қирғинлар, Худоёрхон каби ҳукмдорларнинг лаёқатсизлиги, қипчоқлар ва сартлар ўртасидаги вайронкор урушларни қаламга олди. [5, B. 109-110] Ибрат Россия империяси минтақани фақатгина устун ҳарбий куч билан эгалламади, балки маҳаллий раҳбарларнинг жаҳолати, ҳарбий интизомнинг мутлақо йўқлиги ва сиёсий хиёнатлар мустамлакачиларга ўз эшикларини очиб берди, деган хулосага келди.

Хулоса

Аҳмад Дониш ва Исҳоқхон Ибрат Марказий Осиё илмий-маърифий уйғонишининг қўшалоқ устунлари эди. Дониш эскирган қолоқ ва ақидапараст тафаккурни тизимли равишда парчалаб, замонавий давлатнинг фалсафий ва маъмурий пойдеворини таклиф қилди. [1, B. 12] Ибрат эса бу назарий уйғонишни маҳаллаларга, мактабларга ва босмахоналарга олиб кириб, тараққиёт учун жаҳон тилларини эгаллаш, технологияларни қабул қилиш ва таълимни ислоҳ этиш зарурлигини амалда исботлади. [3, B. 36] Уларнинг маънавий ва интеллектуал мероси биргаликда тез орада жадидчилик ҳаракатининг миллий озодлик ва замонавийлик йўлидаги кураши учун мутлақ пойдевор бўлиб хизмат қилди. [1, B. 107].

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Атаев Алишер Ризоқулович. Аҳмад Дониш асарларида XIX аср ижтимоий-маънавий муҳит муаммоларининг ёритилиши (Диссертация). Тошкент, 2026.
2. Аҳмад Дониш. Наводирул вақое (Нодир воқеалар). Тошкент: Фан нашриёти, 1964.
3. Исҳоқхон тўра Ибрат. Танланган асарлар. Тошкент: Маънавият, 2020.
4. Исҳоқхон тўра Ибрат. Мезон уз-замон. Тошкент: Маънавият, 2005.
5. Исҳоқхон тўра Ибрат. Тарихи Фарғона. Тошкент: Маънавият, 2005.

TARIXIY XOTIRA VA QATAG‘ON QURBONLARI MEROSINI TARG‘IB ETISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Artikov Umidjon Ilxomovich
FarDU tuzilmasidagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi
muzeyi fond saqlovchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarixiy xotiraning jamiyat ma’naviy hayotidagi o‘rni, qatag‘on qurbonlari hayoti va ilmiy-ma’rifiy merosini o‘rganish hamda uni yosh avlodga yetkazishning zamonaviy usullari tahlil qilinadi. Bugungi raqamli texnologiyalar, elektron arxivlar, virtual muzeylar, ijtimoiy tarmoqlar, multimedia loyihalari va ta’lim platformalaridan foydalanish tarixiy xotirani saqlash va targ‘ib etishning samarali vositalari sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, tarixiy haqiqatni yoshlar ongiga singdirishda interaktiv ta’lim, hujjatli filmlar, podkastlar va raqamli ko‘rgazmalarning ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: tarixiy xotira, qatag‘on qurbonlari, tarixiy meros, milliy xotira, raqamli texnologiyalar, elektron arxiv, virtual muzey, yoshlar, ma’naviy tarbiya.

Tarixiy xotira har bir xalqning milliy o‘zligini anglashida, uning ma’naviy qadriyatlarini asrashida va kelajak avlodni tarbiyalashida muhim ahamiyatga ega. Xalqning tarixini bilish faqatgina o‘tmishda sodir bo‘lgan voqealarni eslab qolishdan iborat emas, balki ajdodlarning hayot yo‘li, ularning ilm-fan, adabiyot, san’at, ma’rifat va jamiyat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini anglash, tarixiy jarayonlardan zarur xulosalar chiqarish demakdir. Ayniqsa, xalq boshidan kechirgan murakkab va fojeali davrlarni o‘rganish tarixiy xotiraning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

XX asr tarixida O‘zbekiston xalqi ham siyosiy ta’qib va qatag‘onlarning og‘ir oqibatlarini boshdan kechirgan. Turli davrlarda davlat va jamoat hayotida faoliyat yuritgan ko‘plab ziyolilar, olimlar, yozuvchilar, shoirlar, pedagoglar, harbiylar va diniy ulamolar siyosiy ta’qibga uchragan. Ayniqsa, 1937–1938-yillardagi ommaviy qatag‘onlar davrida minglab kishilar asossiz ravishda qamoqqa olingan, sudlangan yoki otib tashlangan. Manbalarda 1937-yil 10-avgustdan 1938-yil 1-yanvargacha

O‘zbekiston bo‘yicha 10 700 kishi qamoqqa olingani, ulardan 3 613 nafari otuvga hukm qilingani qayd etilgan [1, B.3]. Bu raqamlarning o‘ziyoq qatag‘on siyosatining naqadar katta fojiaga sabab bo‘lganini ko‘rsatadi.

Qatag‘on qurbonlari taqdirini o‘rganish tarixiy adolatni tiklash bilan birga, milliy ma’naviyatimizning muhim qatlamlarini qayta kashf etish imkonini beradi. Chunki qatag‘on qilingan shaxslar orasida o‘z davrining ilg‘or fikrli ziyolilari, ilm-fan va madaniyat namoyandalari, milliy taraqqiyot g‘oyalarini ilgari surgan insonlar ko‘p bo‘lgan. Ularning ilmiy, adabiy va ma’rifiy merosini o‘rganish bugungi avlod uchun ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Qatag‘on qurbonlari haqida yaratilgan xotira kitoblarida ularning hayot yo‘li, faoliyati, ta’qib qilinish sabablari va taqdirlari haqida muhim ma’lumotlar jamlangan. Xususan, R.T. Shamsutdinov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan tayyorlangan “Qatag‘on qurbonlari xotira kitobi” ana shunday manbalardan biridir. Mazkur nashr qatag‘on qilingan yurtdoshlarimiz taqdirini o‘rganish va ularning nomlarini tiklashga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-ma’rifiy manba hisoblanadi [2, B. 5].

Bugungi kunda tarixiy xotirani asrash va qatag‘on qurbonlari merosini targ‘ib etish an’anaviy usullar bilangina cheklanib qolmasligi kerak. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi tarixiy bilimlarni keng jamoatchilikka yetkazish uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Ayniqsa, raqamlashtirish jarayoni tarixiy hujjatlar, fotosuratlar, qo‘lyozmalar, xatlar, arxiv materiallari va boshqa manbalarni saqlash hamda ulardan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Ilgari faqat arxiv yoki kutubxonalarga murojaat qilish orqali topish mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni bugungi kunda elektron shaklda keng auditoriyaga taqdim etish mumkin.

Qatag‘on qurbonlariga oid hujjatlarni raqamlashtirib, elektron ma’lumotlar bazasini yaratish orqali tarixchilar, tadqiqotchilar, talabalar va keng jamoatchilikning ushbu merosdan foydalanish imkoniyatini oshirish mumkin. Elektron arxivlarda har bir tarixiy shaxs haqida alohida ma’lumotlar bazasini yaratish, uning fotosuratlari, tarjimayi holi, ilmiy yoki ijodiy ishlari, sud va tergov

hujjatlarini bir joyga jamlash maqsadga muvofiqdir. Bunday tizim tarixiy ma’lumotlarning yo‘qolib ketishining oldini olish bilan birga, yangi ilmiy tadqiqotlar uchun ham muhim manba vazifasini bajaradi.

Tarixiy merosni targ‘ib qilishda virtual muzeylarning ham ahamiyati katta. Zamonaviy texnologiyalar yordamida muzey ekspozitsiyalarini virtual shaklda yaratish, tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan elektron ko‘rgazmalarni tashkil etish mumkin. Bunday loyihalar ayniqsa yoshlar uchun qiziqarli bo‘lib, tarixiy ma’lumotlarni oddiy matn shaklida emas, balki fotosurat, audio, video, interaktiv xarita va boshqa multimedia vositalari orqali o‘zlashtirish imkonini beradi. Virtual muzeylar geografik masofadan qat’i nazar, foydalanuvchilarga tarixiy manbalar bilan tanishish imkoniyatini yaratadi.

Ijtimoiy tarmoqlar ham tarixiy xotirani targ‘ib qilishning eng ta’sirchan zamonaviy vositalaridan biriga aylanmoqda. Bugungi yoshlar axborotning katta qismini internet va ijtimoiy tarmoqlardan olishini hisobga olsak, tarixiy mavzularni ushbu platformalarda zamonaviy va qiziqarli shaklda yoritish muhimdir. Qatag‘on qurbonlari haqida qisqa videolar, tarixiy fotosuratlar, hujjatlar sharhi, infografikalar, podkastlar va ma’rifiy postlar tayyorlash orqali yoshlarning tarixga bo‘lgan qiziqishini oshirish mumkin. Masalan, muayyan tarixiy shaxsning hayoti haqida bir necha daqiqalik videorolik yaratish, uning ilmiy yoki ijodiy merosidan namunalarni taqdim etish va taqdirining fojeali jihatlarini tarixiy manbalar asosida yoritish katta auditoriyani jalb qilishi mumkin.

Shu bilan birga, tarixiy mavzudagi raqamli kontentni tayyorlashda ilmiy xolislik va ishonchli manbalarga tayanish muhimdir. 1937–1938-yillardagi qatag‘onlar tarixini o‘rganishda arxiv hujjatlari, rasmiy ma’lumotnomalar va ilmiy tadqiqotlardan foydalanish tarixiy voqealarni haqqoniy yoritish imkonini beradi. Qatag‘onlar tarixining ko‘lami va amalga oshirish mexanizmlari uzoq vaqt davomida keng jamoatchilik uchun yopiq bo‘lgan bo‘lsa-da, keyinchalik ko‘plab hujjatlarning ilmiy muomalaga kiritilishi natijasida mazkur davr tarixini chuqurroq o‘rganish imkoniyati paydo bo‘ldi [3, B. 4].

Qatag‘on qurbonlari merosini targ‘ib qilishda hujjatli filmlar va audiovizual loyihalarning imkoniyatlaridan ham keng foydalanish lozim. Tarixiy hujjatlar, eski fotosuratlar, arxiv ma’lumotlari, mutaxassislar fikrlari va avlodlar xotiralarini birlashtirgan hujjatli filmlar tomoshabinga tarixiy voqealarni yanada chuqurroq his etish imkonini beradi. Ayniqsa, tarixiy shaxsning hayot yo‘lini uning tug‘ilgan joyi, ijod qilgan muhiti, ilmiy faoliyati va oila a’zolari haqidagi ma’lumotlar bilan bog‘lab yoritish tarixiy materialning ta’sirchanligini oshiradi. Qisqa videoroliklar, animatsion filmlar va raqamli hikoyalar ham murakkab tarixiy voqealarni sodda va tushunarli tarzda yetkazishda samarali vosita bo‘la oladi.

Ta’lim tizimida ham tarixiy xotirani shakllantirishga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish zarur. O‘quvchi va talabalarni tayyor ma’lumotlarni yodlashga emas, balki tarixiy manbalarni mustaqil tahlil qilishga yo‘naltirish maqsadga muvofiq. Qatag‘on qurbonlariga oid arxiv hujjatlari, fotosuratlar, xatlar va ilmiy maqolalarni o‘rganish, ular asosida taqdimotlar, maqolalar va multimedia loyihalarini tayyorlash yoshlarning tarixiy tafakkurini rivojlantiradi. Shuningdek, muzeylar, arxivlar va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikda tashkil etiladigan uchrashuvlar, ochiq darslar va ilmiy-amaliy konferensiyalar ham yosh avlodning tarixiy xotirasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda podkastlar va audio loyihalardan foydalanish ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tarixchilar, tadqiqotchilar va boshqa mutaxassislar ishtirokidagi suhbatlar orqali qatag‘on davri tarixi, uning sabablari va oqibatlari, shuningdek, mazkur davrda ta’qib qilingan shaxslarning hayoti haqida keng jamoatchilikka ma’lumot berish mumkin. Bunday audio materiallarni internet platformalarida joylashtirish orqali tarixiy bilimlarni turli yosh va ijtimoiy guruhlarga yetkazish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bundan tashqari, tarixiy xotiralarni saqlab qolish maqsadida yoshi katta avlod vakillarining xotiralari va oilaviy hikoyalarini audio yoki video shaklda yozib olish ham muhimdir.

Tarixiy xotirani targ‘ib etishda yoshlarni faol ishtirokchi sifatida jalb qilish alohida ahamiyatga ega. Yosh tadqiqotchilar o‘rtasida maqola, esse, videolavha va

raqamli loyiha tanlovlarini tashkil etish, qatag‘on qurbonlari hayoti bilan bog‘liq oilaviy arxivlarni o‘rganishga rag‘batlantirish mumkin. Bunday faoliyat yoshlarning tarixga qiziqishini oshirish bilan birga, ularni mustaqil izlanishga, manbalar bilan ishlashga va ilmiy xulosalar chiqarishga o‘rgatadi. Ayniqsa, zamonaviy raqamli texnologiyalarni yaxshi o‘zlashtirgan yoshlarning tarixchilar bilan hamkorligi natijasida yangi formatdagi ma’rifiy loyihalarni yaratish imkoniyati kengayadi.

Tarixiy xotirani targ‘ib etishning zamonaviy usullaridan yana biri — genealogik tadqiqotlarni rivojlantirishdir. Har bir oila o‘z ajdodlarining hayot yo‘lini o‘rganish orqali katta tarixning muayyan bir qismini qayta tiklashi mumkin. Oilaviy suratlar, xatlar, hujjatlar va xotiralarni jamlash, ularni raqamlashtirish va izohlash kelajak avlod uchun muhim tarixiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Bunday tadqiqotlar orqali qatag‘on davrida ta’qib qilingan yoki turli sabablarga ko‘ra o‘z yashash joyidan ko‘chirilgan insonlarning hayot yo‘li haqida yangi ma’lumotlar aniqlanishi mumkin.

Shu bilan birga, qatag‘on qurbonlari merosini targ‘ib qilishda tarixiy haqiqatni buzib ko‘rsatmaslik va ishonchsiz ma’lumotlarning tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik muhim vazifalardan biridir. Internet muhitida tarixga oid turli ma’lumotlar juda tez tarqaladi va ularning barchasi ham ilmiy jihatdan asoslangan bo‘lavermaydi. Shuning uchun har qanday raqamli loyiha yoki ma’rifiy material ishonchli arxiv hujjatlari, ilmiy tadqiqotlar va mutaxassislar xulosalariga asoslanishi kerak. Tarixiy shaxslar haqida ma’lumot berishda ularning hayoti va faoliyatini bir tomonlama yoritishdan ko‘ra, mavjud manbalarni qiyosiy tahlil qilish, tarixiy davr sharoitini hisobga olish va xolis xulosa chiqarish maqsadga muvofiqdir [4, B. 5].

Umuman olganda, tarixiy xotira va qatag‘on qurbonlari merosini targ‘ib etish bugungi kunda nafaqat tarixchilar yoki ilmiy muassasalarning, balki butun jamiyatning muhim vazifalaridan biridir. Raqamli arxivlar, virtual muzeylar, ijtimoiy tarmoqlar, hujjatli filmlar, podkastlar, interaktiv ta’lim va multimedia loyihalari ushbu yo‘nalishda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalanish orqali tarixiy manbalarni keng

jamoatchilikka yetkazish, yosh avlodning tarixga qiziqishini oshirish va milliy xotirani mustahkamlash mumkin. Eng muhimi, qatag‘on qurbonlari xotirasini saqlash faqat o‘tmishni eslash emas, balki tarix saboqlarini anglash, inson qadr-qimmati, adolat, tinchlik va erkinlik kabi qadriyatlarning ahamiyatini chuqur tushunishga xizmat qiladi. Ajdodlar merosini asrash va uni kelajak avlodga yetkazish orqali jamiyatning tarixiy ongi va ma’naviy immunitetini yanada mustahkamlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zikrullayev M.F. (tuzuvchi-muallif). 1937–1938-yillardagi “Katta qirg‘in” tarixining muhim sanalari (ma’lumotnoma). – Toshkent: Fan, 2013. – 40 b.

2. Shamsutdinov R.T. va boshqalar. Qatag‘on qurbonlari xotira kitobi: Andijon viloyati (1865–1991 yillar). I qism. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – 448 b.

3. Shamsutdinov R.T. O‘zbekistonda sovetlarning qatag‘on siyosati va uning oqibatlari. – Toshkent: Sharq, 2012. – 430 b.

4. Usmonov I. Qatag‘on qurbonlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – 223 b.

ФАРҒОНА ВОДИЙСИДА ЖАДИДЧИЛИКНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА ШАКЛЛАНИШИ

Сайдахмедова Нозима Руслановна

ФарДУ тузилмасидаги Қатағон қурбонлари хотираси музейи Зал назоратчиси

Аннотация: Ушбу мақолада XIX асрнинг иккинчи ярми ва XX аср бошларида Фарғона водийсида жадидчилик ҳаракатининг вужудга келиши ва шаклланиши таҳлил қилинади. Россия империясининг Марказий Осиёни босиб олиши натижасида юзага келган ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар, маърифатпарварлик ғояларининг кенгайиши ва янги усул мактабларининг ташкил этилиши жадидчиликнинг асосий омиллари сифатида ёритилган. Шунингдек, Маҳмудхўжа Беҳбудий ва Мунавварқори Абдурашидхонов каби намояндаларнинг фаолияти орқали ҳаракатнинг мазмун-моҳияти очиб берилган. Мақолада жадидчиликнинг таълим, матбуот ва миллий уйғонишдаги аҳамияти кўрсатиб ўтилган.

Калит сўзлар: Жадидчилик, Фарғона водийси, Миллий уйғониш, Усули жадид мактаблари, Маорифчилик ҳаракати, Россия империяси, Матбуот ва адабиёт, Зиёлилар қатлами, Маҳмудхўжа Беҳбудий, Мунавварқори Абдурашидхонов.

XIX асрнинг иккинчи ярми ва XX аср бошлари Марказий Осиё, хусусан, Фарғона водийсининг ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётида улкан ўзгаришлар даври бўлди. Россия империяси томонидан истило қилингандан сўнг, пойтахтдаги анъанавий тузумлар изчиллик билан чекиниб, янги ижтимоий-иқтисодий ривожланиш йўллари очила бошлади. Бу даврда водий аҳолиси ўртасида, айниқса, зиёлилар қатламида янги қарашлар, маорифчилик ва тараққиётга интилиш кучайди. Ана шундай шарт-шароитда Фарғона водийсида миллий уйғониш ҳаракати – жадидчиликнинг вужудга келиши ва шаклланиши учун замин яралди. Жадидчиликнинг дастлабки нишоналарини водийнинг йирик шаҳарлари – Қўқон, Фарғона, Андижонда кўриш мумкин

эди. Бу ерда савдогарлар, замоннинг илғор фикрли кишилари, уламолар томонидан янги усулдаги (усули жадид) мактаблар очила бошлади. Бу мактаблар эски мактаблардан фарқ қилиб, замонавий илм-фан, адабиёт, тарих, география каби фанларни ҳам ўқитишга алоҳида эътибор қаратди. Жадид мактабларининг асосий мақсади – ёш авлодни илм-фан ва маданият билан қуроллантириб, онгини кўтариш, миллий ғурурни уйғотишдан иборат эди. Шу билан бирга, жадидлар матбуот орқали ҳам ўз ғояларини тарғиб қилишга ҳаракат қилдилар [1;54].

Водийда туркий тилдаги илк газета ва журналлар нашр этила бошлади. Уларда маориф, маданият, миллий мустақиллик масалалари кўтарилди. Адиб ва шоирлар ўз асарларида халқнинг ижтимоий аҳволини, миллий истиқбол йўлларини тасвирлар, жаҳолатга қарши курашга чақирар эдилар. Қўқонлик Маҳмудхўжа Беҳбудий, Мунавварқори Абдурашидхонов каби жадидлар водий жадидчилигининг етакчи намояндалари бўлиб, уларнинг фаолияти бу ҳаракатнинг янада кенг тарқайишига катта туртки берди [2;25].

Фарғона водийсида жадидчиликнинг ривожланишига кўплаб омиллар таъсир кўрсатди. Россия империясининг кириб келиши, табиийки, иқтисодий ва сиёсий тузумни ўзгартириб, янгича фикрларнинг пайдо бўлишига замин яратди. Водийнинг ўзига хос географик жойлашуви, савдо-сотиқ ривожланганлиги ва шаҳарларнинг ўсиб бориши ҳам жадидчиликнинг тарқалишига катта имконият яратди. Маърифатпарвар зиёлилар, аввало, халқнинг билимсизлиги ва жаҳолатидан ташвиш чекиб, унинг тараққиёти учун курашиш кераклигини тушунишди. Шу боис, улар энг аввало таълим-тарбия тизимини ислоҳ қилишга, янги мактаблар очишга алоҳида урғу беришди [3;19].

Бу даврда Қўқон, Фарғона, Андижон шаҳарлари жадидчилик марказларига айланди. Бу шаҳарларда очилган "усули жадид" мактаблари нафақат диний, балки дунёвий фанларни ҳам ўқитишга ихтисослашди. Ўқув дастурларига математика, география, тарих, табиатшунослик, чет тиллар каби

фанлар киритилиб, ўқитиш усуллари замонавийлаштирилди. Бу эса, ўз навбатида, ёш авлоднинг дунёқарашини кенгайтириб, уларни илм-фанга қизиқтирди. Жадид зиёлиларининг мақсади, аввало, халқни уйғотиш, миллий ўзликни англатиш ва келажак авлодни мустақил фикрлашга ўргатишдан иборат эди [4;62]

Матбуот ва адабиёт ҳам жадидчилик ғояларини тарғиб қилишда муҳим ўрин тутди. Фарғона водийсида туркий тилдаги дастлабки газета ва журналлар пайдо бўлди. Улар орқали маориф, маданият, сиёсат ва ижтимоий масалалар ёритилар, халқни жаҳолатдан чиқаришга, тараққиётга чорлашга уринарди. Адиб ва шоирлар ўз асарларида халқнинг оғир турмушини, миллий истиқлол орзуларини акс эттирдилар. Бу асарлар халқнинг миллий онгини ўстиришда, уларни мустамлакачиликка қарши курашга руҳлантиришда муҳим аҳамият касб этди.

Қўқонлик Маҳмудхўжа Беҳбудий, Мунавварқори Абдурашидхонов каби жадидлар водий жадидчилигининг асосий таянчи бўлишди. Уларнинг фаолияти нафақат мактаблар очиш, балки кутубхоналар ташкил этиш, китоблар чоп этиш, жамоат арбоблари билан ҳамкорлик қилиш орқали ҳаракатни янада кенгайтирди. Беҳбудийнинг "Падари Масъулият" (Масъул ота) асарлари, Мунавварқорининг маорифга оид мақолалари жадидчиликнинг мафкуравий асосларини янада мустаҳкамлади. Уларнинг бу саъй-ҳаракатлари, албатта, водий аҳолисининг, айниқса, ёш авлоднинг дунёқарашини ўзгартиришга хизмат қилди [5;58]

Хулоса қилиб айтганда, Фарғона водийсида жадидчиликнинг вужудга келиши ва шаклланиши мураккаб ижтимоий-сиёсий ва маданий жараёнлар маҳсули бўлди. Россия империясининг таъсири, миллий уйғонишга бўлган интилиш, зиёлиларнинг фаоллиги ва жадид мактаблари ҳамда матбуотнинг тарғибот иши бу ҳаракатнинг ривожига туртки берди. Бу даврдаги жадидчилик ҳаракати, ўз навбатида, кейинчалик Ўзбекистон мустақиллигига эришиши учун замин яратган муҳим тарихий жабҳалардан бири ҳисобланади.

Фойдаланган адабиётлар

1. Халфин Н. *Туркистонда миллий уйғониш*. – Москва, 1964. – В. 54.
2. Қосимов Б. *Жадидчилик ҳаракати тарихи*. – Тошкент: Ўқитувчи, 2004. – В. 25.
3. Каримов Н. *Ўзбек адабиёти тарихи*. – Т.: Ўқитувчи, 2008. – В. 19.
4. Раҳимов Н. *Марказий Осиёда маърифатпарварлик ҳаракатлари*. Тошкент, 2010. – В. 62.
5. Рахимов Т. *Ўзбекистонда маориф тарихи*. – Т.: Университет, 2012. – В. 58.

QATAG‘ON QURBONLARINING ILM-FAN, TA’LIM, ADABIYOT VA MADANIYAT RIVOJIDAGI O‘RNI

Sidikov Sobir Mamasoliyevich b.f.n.professor
FarDU tuzilmasidagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori

Annotatsiya:

Mazkur maqolada XX asrning 20–40-yillarida siyosiy qatag‘onlarga uchragan o‘zbek ziyolilarining ilm-fan, ta’lim, adabiyot va madaniyat rivojiga qo‘shgan hissasi yoritiladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy kabi ziyolilarning milliy ma’rifat va madaniyat taraqqiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, ularning ilmiy va ijodiy merosini o‘rganish, tarixiy xotirani asrash hamda yosh avlodga yetkazish masalalariga e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: qatag‘on, qatag‘on qurbonlari, jadidchilik, ilm-fan, ta’lim, adabiyot, madaniyat, milliy uyg‘onish, ma’rifat, tarixiy xotira, milliy meros.

Har bir xalqning tarixiy taraqqiyotida ilm-fan, ta’lim, adabiyot va madaniyatni rivojlantirishga intilgan ziyolilar alohida o‘rin egallaydi. Ular jamiyatning ma’naviy qiyofasini shakllantirish, xalqni ma’rifatga chorlash va milliy o‘zlikni anglashda muhim rol o‘ynaydi.

XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan jadidchilik harakati xalqni savodsizlik va jaholatdan chiqarish, zamonaviy ta’lim tizimini shakllantirish, milliy matbuot, teatr va adabiyotni rivojlantirishga qaratildi. Biroq XX asrning 20–30-yillarida olib borilgan qatag‘on siyosati ko‘plab milliy ziyolilarni ta’qib ostiga oldi. Ularning qamoqqa olinishi, surgun qilinishi va qatl etilishi natijasida ilmiy, pedagogik, adabiy va madaniy taraqqiyot katta zarar ko‘rdi. Bu jarayon qatag‘on qurbonlari xotirasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ham yoritilgan [1, B. 7].

Qatag‘on qurbonlari orasida olimlar, pedagoglar, shoir va yozuvchilar, jurnalistlar hamda san’at namoyandalari bo‘lgan. Ularning hayoti fojeali yakunlangan bo‘lsa-da, ilmiy va ijodiy merosi xalqimizning ma’naviy boyligi sifatida saqlanib qoldi.

Jadid ma’rifatparvarlari ta’limni milliy taraqqiyotning muhim vositasi deb bildilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va Abdurauf Fitrat yangi usul maktablarini rivojlantirish, darsliklar yaratish va zamonaviy bilimlarni targ‘ib qilishga katta hissa qo‘shdilar. Ular gazeta va jurnallar nashr etish, teatr tomoshalarini tashkil qilish orqali xalqning dunyoqarashini kengaytirishga intildilar.

Abdurauf Fitrat o‘zbek ilmiy va ijtimoiy tafakkuri tarixida muhim o‘rin egallaydi. U adabiyot, til, tarix, musiqa va falsafa sohalarida faoliyat yuritib, milliy taraqqiyot va ma’rifat masalalariga katta e’tibor qaratdi. Qatag‘on qilingan ziyolilarning ilmiy merosi uzoq vaqt davomida cheklangan bo‘lsa-da, mustaqillikdan keyin ularning asarlari qayta nashr etilib, ilmiy faoliyati keng o‘rganila boshlandi.

Ta’lim sohasida Abdulla Avloniy alohida o‘rin tutadi. U yangi usul maktablarida dars bergan, darsliklar yaratgan hamda ta’lim-tarbiyaning ahamiyatini targ‘ib qilgan. Uning pedagogik qarashlarida ilm olish, axloqiy tarbiya, vatanparvarlik va insonparvarlik muhim o‘rin egallaydi [2, B. 3].

Qatag‘on qurbonlari orasida o‘zbek milliy adabiyotining yirik namoyandalari ham bor edi. Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari orqali o‘zbek romanchiligi rivojiga katta hissa qo‘shdi. Uning ijodida tarix, milliy qadriyatlar va xalq hayoti badiiy tasvirlangan [3, B. 18].

Abdulhamid Cho‘lpon she’riyat, nasr va tarjimachilik sohalarida samarali ijod qilib, milliy o‘zlik, inson erkinligi va ma’rifat g‘oyalarini ilgari surdi. Abdurauf Fitrat esa dramaturg, shoir, olim va publitsist sifatida o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shdi. Usmon Nosir qisqa umr ko‘rganiga qaramay, o‘zbek she’riyatida yorqin iz qoldirdi.

Qatag‘on qurbonlari merosi teatr, musiqa va matbuot sohalarida ham namoyon bo‘ladi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasi o‘zbek dramaturgiyasi va milliy teatr rivojida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Jadid matbuoti esa xalqning

ijtimoiy ongini rivojlantirish va ma’rifat g‘oyalarini tarqatishda muhim vosita bo‘lib xizmat qildi.

Qatag‘on siyosati millatning bilimli va tashabbuskor qatlamiga katta zarar yetkazdi. Olimlar, pedagoglar va ijodkorlarning ta’qib qilinishi ilmiy va ijodiy maktablarning tabiiy rivojlanishini to‘xtatdi. Uning oqibatlari keyingi avlodlar hayotida ham sezildi. Qatag‘on siyosatining milliy ziyolilar taqdiriga ta’siri tarixiy tadqiqotlarda batafsil tahlil qilingan [4, B. 15].

Mustaqillik yillarida qatag‘on qurbonlari nomlarini tiklash, ularning ilmiy va ijodiy merosini qayta nashr etish hamda tarixiy xotirani mustahkamlash borasida muhim ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda ularning asarlarini elektron shaklda ommalashtirish, raqamli kutubxonalar, hujjatli filmlar, podkastlar va virtual ko‘rgazmalar orqali yosh avlodga yetkazish muhimdir.

Qatag‘on qurbonlari merosi yosh avlod uchun ilmga intilish, millatga xizmat qilish, ma’rifat tarqatish va ijodiy jasoratning muhim namunasi hisoblanadi. Shu sababli ularning hayoti va faoliyatini o‘rganish hamda tarixiy xotirani asrash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Xulosa

Qatag‘on qurbonlari O‘zbekiston tarixining murakkab va fojeali davrlarida ilm-fan, ta’lim, adabiyot va madaniyat rivojiga katta hissa qo‘shgan ziyolilar edi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon va Usmon Nosir kabi namoyandalar milliy ma’rifat va madaniyat taraqqiyotida muhim iz qoldirdilar.

Qatag‘on siyosati ularning hayoti va ijodiga katta zarar yetkazgan bo‘lsa-da, ularning ilmiy, adabiy va ma’rifiy merosini butunlay yo‘q qila olmadi. Bugungi kunda ularning asarlarini o‘rganish, nomlarini abadiylashtirish va yosh avlodga yetkazish tarixiy xotirani mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Shu sababli qatag‘on qurbonlari merosini zamonaviy usullar orqali targ‘ib qilish, ularning asarlarini elektron shaklda ommalashtirish, ilmiy tadqiqotlar va ma’rifiy loyihalarni ko‘paytirish zarur. Ularning hayoti va faoliyati yoshlarni ilmga,

ma’rifatga, Vatanga muhabbat va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shamsutdinov R.T., Xasanov J., Tajimirzayev E., Iminov J. va boshqalar. *Qatag‘on qurbonlari xotira kitobi. Andijon viloyati (1865–1991 yillar). I qism.* – Toshkent: Akademnashr, 2021. – 448 b.

2. Avloniy A. *Turkiy guliston yoxud axloq.* – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 94 b.

3. Qodiriy A. *O‘tkan kunlar.* – Toshkent: turli nashrlar.

4. Shamsutdinov R.T. *O‘zbekistonda sovetlarning qatag‘on siyosati va uning oqibatlari.* – Toshkent: Sharq, 2012.

5. Karimov I.A. *Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q.* – Toshkent: Sharq, 1998.

MUSTAMLAKACHILIKDAN QATAG‘ONGACHA: SURXON VOHASIDA YER-SUV MUNOSABATLARINING TRANSFORMATSIYASI (XIX ASR OXIRI – XX ASRNING 30-YILLARI)

Chariyev Nuriddin Xushbakovich
Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada XIX asr oxiri – XX asrning 30-yillarida Surxon vohasidagi yer-suv munosabatlarining o‘zgarishi Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosati va sovet hokimiyatining agrar tadbirlari misolida tahlil qilinadi. Rossiya imperiyasining Sherobod vodiysini sug‘orish va yangi yerlarni o‘zlashtirish loyihalari, Zang kanalining bunyod etilishi, A.G. Ananyev boshchiligidagi irrigatsiya tashabbuslari, paxtachilikni kengaytirish hamda “Sherobod aksiyadorlik jamiyati” faoliyatiga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, 1920–1930-yillarda sovet hokimiyati tomonidan yer-suv munosabatlarining yangicha asosda qayta tashkil etilishi, jamoalashtirish, “quloqlashtirish”, mol-mulkni musodara qilish va ushbu jarayonlarning Surxon vohasi aholisi taqdiriga ta’siri yoritiladi. Tadqiqotda Rossiya imperiyasi va sovet agrar siyosati bir-birining bevosita davomi sifatida emas, balki maqsadi, mafkuraviy asoslari va amalga oshirish mexanizmlari turlicha bo‘lgan, ayni paytda vohaning yer-suv va xo‘jalik munosabatlarini tubdan o‘zgartirgan ikki tarixiy bosqich sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: Surxon vohasi, Rossiya imperiyasi, mustamlakachilik, irrigatsiya, Sherobod vodiysi, A.G. Ananyev, Zang kanali, paxtachilik, yer-suv munosabatlari, jamoalashtirish, quloqlashtirish, qatag‘on.

Kirish. Surxon vohasining iqtisodiy taraqqiyotida yer va suv resurslari tarixan hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Vohaning tabiiy-geografik sharoiti dehqonchilikni sun’iy sug‘orish bilan chambarchas bog‘laganligi sababli suv manbalari ustidan nazorat qilish, yangi kanallar chiqarish va qo‘riq yerlarni xo‘jalik muomalasiga kiritish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ham ega bo‘lgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining Buxoro amirligi janubidagi

iqtisodiy manfaatlari kuchayishi natijasida Surxon va Sherobod vohalarining irrigatsion imkoniyatlari alohida o‘rganila boshlandi [1, B. 460–463].

Rossiya imperiyasi uchun Surxon vohasi bir vaqtning o‘zida bir necha jihatdan muhim edi. Termizning Afg‘oniston bilan chegaradosh strategik hududda joylashgani uning harbiy ahamiyatini oshirgan bo‘lsa, Surxon va Sherobod vodiylaridagi katta yer maydonlarining sug‘orish imkoniyati hududning iqtisodiy istiqbolini belgilab berdi. XX asr boshlariga kelib imperiyaning to‘qimachilik sanoati uchun paxta xomashyosiga bo‘lgan talabining ortishi yangi sug‘oriladigan yerlarni o‘zlashtirish masalasini yanada dolzarb qilgan edi [2, B. 182].

Shu tariqa Surxon vohasida irrigatsiya faqat mahalliy dehqonchilik ehtiyojini qondiruvchi an’anaviy xo‘jalik masalasi bo‘lib qolmay, imperiyaning harbiy-iqtisodiy strategiyasi tarkibiga kirdi. A.G. Ananyev va boshqa mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan loyihalarda Sherobod dashtlarini Surxon daryosi suvlari hisobiga sug‘orish, yangi yerlarni o‘zlashtirish va ularda paxta yetishtirishni kengaytirish masalalari ilgari surildi [3].

1917-yildan keyingi siyosiy o‘zgarishlar esa yer-suv munosabatlarini butunlay boshqa mafkuraviy asosda qayta tashkil etish jarayonini boshlab berdi. Ayniqsa, 1920-yillarning oxiri – 1930-yillarning boshlaridagi jamoalashtirish va “quloqlarni sinf sifatida tugatish” siyosati yer va mulkka egalik masalasini siyosiy kurash obyektiga aylantirdi. Natijada Surxon vohasidagi o‘ziga to‘q xo‘jaliklar, sobiq amaldorlar, diniy arboblar va an’anaviy qishloq jamiyatining ayrim vakillari mol-mulkidan mahrum qilinib, qamoq yoki surgunga duchor bo‘ldi [4, B. 4–6].

Mazkur maqolaning maqsadi Rossiya imperiyasi davridagi irrigatsiya va yerlarni o‘zlashtirish siyosatini sovet davridagi agrar o‘zgarishlar bilan tarixiy-qiyosiy tahlil qilish hamda XIX asr oxiridan XX asrning 30-yillarigacha Surxon vohasi yer-suv munosabatlarida yuz bergan transformatsiyani ochib berishdan iborat.

Rossiya imperiyasining Surxon vohasiga iqtisodiy qiziqishi XIX asr oxiridan tobora kuchayib bordi. Bu jarayonda Termizning harbiy-strategik mavqei bilan bir qatorda vohaning katta miqdordagi o‘zlashtirilmagan yer va suv zaxiralari muhim omil bo‘ldi. Rus harbiylari, muhandislari va tadqiqotchilari tomonidan Surxon va Sherobod vodiylarining tabiiy sharoiti, suv manbalari hamda sug‘orishga yaroqli yer maydonlari muntazam o‘rganildi [5, B. 12–14]. XX asr boshlariga kelib mazkur tadqiqotlar amaliy irrigatsiya loyihalariga aylana boshladi. Surxon vohasidagi muhim irrigatsion tadbirlardan biri Zang kanalining bunyod etilishi edi. Tadqiqotlarda kanalni qazish ishlari 1908-yilda boshlanib, 1914-yilga kelib yakunlangani ko‘rsatiladi. Kanal yo‘nalishini belgilashda mahalliy irrigatsiya tajribasidan ham foydalanilgan bo‘lib, uning 55–60 kilometrlik yo‘nalishini aniqlash Eshonbek nomi bilan bog‘lanadi [1, B. 464–465]. Bu holat mustamlakachilik davridagi irrigatsiya siyosatini faqat tashqaridan olib kirilgan texnik tajriba natijasi sifatida baholash bir tomonlama ekanini ko‘rsatadi. Yangi loyihalarda rus muhandislik tajribasi bilan bir qatorda mahalliy aholining asrlar davomida shakllangan suv chiqarish, yer relyefini aniqlash va kanal yo‘nalishini belgilash bo‘yicha amaliy bilimlaridan ham foydalanilgan.

Rossiya imperiyasining asosiy maqsadlaridan biri sug‘oriladigan yerlar maydonini kengaytirish orqali qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, ayniqsa paxta yetishtirish hajmini ko‘paytirish edi. XX asr boshlaridagi iqtisodiy jarayonlar natijasida Sherobod bekligida paxta ishlab chiqarish hajmi sezilarli ortdi. Tadqiqotlarda 1903-yilda Termiz orqali Rossiyaga 17 ming pud paxta yuborilgan bo‘lsa, 1910-yilga kelib bu ko‘rsatkich 34 ming pudga yetgani qayd etiladi [1, B. 464]. Bu raqamlar vohaning Rossiya sanoati uchun xomashyo yetkazib beruvchi hudud sifatidagi ahamiyati ortib borganini ko‘rsatadi.

Surxon-Sherobod hududlarini keng miqyosda o‘zlashtirish bo‘yicha eng yirik loyihalardan biri muhandis A.G. Ananyev faoliyati bilan bog‘liq edi. Uning Sherobod vodiysi yerlarini Surxon daryosi suvlari yordamida sug‘orishga bag‘ishlangan loyihasi vohadagi yerlarni iqtisodiy jihatdan o‘zlashtirishning keng

qamrovli dasturini nazarda tutgan [3]. 1912-yil 23-fevralda Buxoro amirligi hukumati bilan A.G. Ananyev o‘rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq Sherobod vodiysidagi katta yer maydonlaridan foydalanish huquqi berildi. Tadqiqotlarda mazkur hududlar tarkibida Qorakamar, Beshqo‘ton va Angor yer massivlari qayd etilib, umumiy loyiha o‘n minglab desyatina yerni sug‘orish va xo‘jalik muomalasiga kiritishni nazarda tutgani ko‘rsatiladi [1, B. 465–466]. Ananyevning qarashlarida Sherobod dashtlarini sug‘orish ikki asosiy manfaat bilan izohlangan. Birinchisi — Termizda joylashtirilgan rus harbiy qismlarining iqtisodiy va strategik ta’minotini yaxshilash; ikkinchisi esa katta yer maydonlarini sug‘orib, ularni iqtisodiy daromad keltiradigan hududga aylantirish edi [3]. Mazkur rejalarni amalga oshirish uchun keyinchalik maxsus tijorat tuzilmasi tashkil qilindi. 1915-yil 2-noyabrda A.G. Ananyev va N.S. Tolmachev tashabbusi bilan “Sherobod aksiyadorlik jamiyati” faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Uning asosiy vazifasi 72 ming desyatina atrofidagi yerlarni irrigatsion o‘zlashtirish va kelajakda katta hajmda paxta yetishtirishdan iborat edi [6, B. 22–24]. Zamonaviy tadqiqotlarda ham ushbu jamiyatning tashkil etilishi Surxon vohasini yirik paxta xomashyo bazasiga aylantirishga qaratilgan imperiya iqtisodiy siyosatining muhim qismi sifatida baholanadi [1, B. 465–467].

Biroq rejalarning barchasi to‘liq amalga oshmadi. Katta mablag‘ talab qilgan irrigatsiya loyihalari, siyosiy beqarorlik va 1917-yildagi inqilobiy jarayonlar “Sherobod” loyihasining to‘liq yakunlanishiga imkon bermadi. Shunga qaramay, Rossiya imperiyasi davrida amalga oshirilgan tadqiqotlar, kanallar qurilishi va muhandislik loyihalari Surxon vohasidagi yer-suv munosabatlarining keyingi rivojiga muayyan moddiy va texnik zamin yaratdi.

1917-yildan keyin siyosiy tuzumning almashishi Surxon vohasidagi yer-suv munosabatlariga yondashuvni ham tubdan o‘zgartirdi. Rossiya imperiyasi davrida yangi yerlarni irrigatsion o‘zlashtirish asosan harbiy-iqtisodiy va tijorat manfaatlariga bog‘langan bo‘lsa, sovet hokimiyati yer masalasini sinfiy siyosatning muhim vositasiga aylantirdi. 1920-yillarda amalga oshirilgan yer-suv tadbirlari

orqali eski mulkiy munosabatlarni qayta tashkil etish boshlandi. Biroq 1920-yillarning oxiridan jarayon yanada keskinlashib, yalpi jamoalashtirish siyosatiga ulanib ketdi. Endilikda yer, suv, chorva va ishlab chiqarish vositalariga egalik shaxsning iqtisodiy holatini emas, uning siyosiy-ijtimoiy maqomini ham belgilovchi mezonga aylandi. Surxondaryodagi qatag‘on jarayonlariga bag‘ishlangan manbalarda bu davrda tuman va okrug ijroiya qo‘mitalarining yer komissiyalari tuzgan ro‘yxatlar asosida “sinfiy dushman” deb topilgan shaxslar hamda ularning oila a’zolari hibsga olingani qayd etiladi. Ayrim hollarda ularga nisbatan alohida tergov ishi ham rasmiylashtirilmagan. OGPU tomonidan maxsus tavsifnoma tuzilgan shaxslarning bir qismi otuvga hukm etilgan, boshqalari esa surgun qilingan [7, B. 35–36]. Bu jarayonning muhim jihati shundaki, qishloq xo‘jaligini yuritish tajribasiga ega, nisbatan badavlat dehqon xo‘jaliklari “quloq” toifasiga kiritildi. Qatag‘on qurbonlari haqidagi mahalliy tadqiqotda yalpi jamoalashtirish natijasida o‘ziga to‘q va yirik xo‘jaliklar tugatilib, ularning egalari maxsus “quloq posyolkalari”ga surgun qilingani qayd etiladi [4, B. 4]. Ko‘pchilik og‘ir mehnat va yashash sharoitlariga duchor bo‘lgan.

Agrar qatag‘onning Surxon vohasidagi ko‘rinishlarini alohida shaxslar taqdiri orqali ham kuzatish mumkin. Masalan, Sho‘rchi tumanining Baxshitepa qishlog‘ida yashagan Haydarqul hojining 1930-yilda barcha mol-mulki ro‘yxatga olinib, musodara qilingan. U mulkdorlik, davlatga qarshi targ‘ibot olib borish va bolalarga eski usulda diniy ta’lim berishda ayblanib hibsga olingan [4, B. 2–3]. Bu misolda iqtisodiy va diniy omillarning siyosiy ayblov bilan birlashib ketganini ko‘rish mumkin. Shuningdek, 1930-yillarda Surxon vohasining turli hududlarida sobiq mulkdorlar, dehqonlar va milliy ozodlik harakatining sobiq qatnashchilariga nisbatan ham “quloq”, “aksilinqilobchi”, “sovetlarga qarshi targ‘ibotchi” kabi ayblovlar qo‘llanildi [7, B. 36–40]. Natijada yer-suv va mulk masalasi iqtisodiy munosabatlar doirasidan chiqib, siyosiy qatag‘on mexanizmining tarkibiy qismlaridan biriga aylandi. Rossiya imperiyasi hamda sovet hokimiyatining Surxon vohasidagi agrar siyosatini bir-birining to‘g‘ridan-to‘g‘ri davomi sifatida talqin

qilish tarixiy jarayonni soddalashtirib yuboradi. Ularning siyosiy-mafkuraviy maqsadlari sezilarli darajada farq qilgan.

Rossiya imperiyasi davrida asosiy e'tibor yangi sug'oriladigan yerlarni o'zlashtirish, paxtachilikni kengaytirish, hududning harbiy-strategik imkoniyatlarini mustahkamlash va uni imperiya iqtisodiy makoniga bog'lashga qaratildi. Zang kanali, Sherobod vodiysini o'zlashtirish loyihalari va "Sherobod aksiyadorlik jamiyati" faoliyati aynan shu manfaatlar doirasida shakllandi [1, B. 464–467; 6, B. 22–24]. Sovet hokimiyatining agrar siyosati esa xususiy mulkchilikni cheklash va keyinchalik tugatish, dehqon xo'jaliklarini kollektivlashtirish hamda qishloq jamiyatini sinfiy tamoyil asosida qayta qurishga yo'naltirildi. Bunda iqtisodiy o'zgarish siyosiy-mafkuraviy kampaniya bilan birlashdi va mulkka egalik qilgan ayrim qatlamlar davlatning repressiv siyosati obyektiga aylandi [4, B. 4–6].Shu bilan birga, ikki davrni birlashtirib turuvchi muhim tarixiy jihat ham mavjud: har ikki tuzumda Surxon vohasining yer va suv resurslari markaziy davlat manfaatlari asosida keng ko'lamda qayta tashkil etildi. Imperiya davrida bu jarayon mustamlakachilik iqtisodiyoti va paxta xomashyosiga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'langan bo'lsa, sovet davrida davlatlashtirish, kollektivlashtirish va reja iqtisodiyoti bilan uyg'unlashdi. Birinchi bosqichda vohaning yer-suv resurslari iqtisodiy ekspluatatsiya va irrigatsion o'zlashtirish obyektiga aylangan bo'lsa, ikkinchi bosqichda yer va mulkka egalikning o'zi siyosiy-sinfiy baholash mezoniga aylandi. Aynan mana shu transformatsiya XIX asr oxiridan XX asrning 30-yillarigacha Surxon vohasi qishloq jamiyatida yuz bergan eng chuqur o'zgarishlardan biri edi.

XIX asr oxiri – XX asrning 30-yillarida Surxon vohasidagi yer-suv munosabatlari ikki yirik siyosiy tizim ta'sirida chuqur transformatsiyaga uchradi. Rossiya imperiyasi davrida Surxon va Sherobod vohalarining irrigatsion imkoniyatlarini o'rganish, Zang kanalini bunyod etish, Sherobod dashtlarini o'zlashtirish va A.G. Ananyev loyihalarini amalga oshirish orqali hududni imperiyaning iqtisodiy manfaatlariga moslashtirishga harakat qilindi.

Paxtachilikning kengayishi va “Sherobod aksiyadorlik jamiyati”ning tashkil etilishi ushbu siyosatning yirik ko‘rinishlaridan bo‘ldi [1, B. 464–467].

Sovet hokimiyati o‘rnatilgach, yer-suv munosabatlarining mazmuni yangi mafkuraviy yo‘nalish oldi. 1920-yillarda boshlangan agrar o‘zgarishlar 1929–1930-yillardan yalpi jamoalashtirish va “quloqlashtirish” bilan keskin tus oldi. Natijada yer va mulkka egalik masalasi siyosiy baholash vositasiga aylantirilib, Surxon vohasining ko‘plab o‘ziga to‘q dehqonlari, diniy arboblari va an’anaviy qishloq elitasi vakillari mol-mulkini musodara qilish, surgun va qamoq kabi repressiv choralar bilan to‘qnashdi [4, B. 4–6; 7, B. 35–40]. Shu jihatdan Surxon vohasi misolida XIX asr oxiri – XX asrning 30-yillaridagi agrar tarixni faqat irrigatsiya yoki jamoalashtirish tarixi sifatida alohida-alohida o‘rganish yetarli emas. Ularni yer-suv munosabatlarining uzoq muddatli transformatsiyasi doirasida qiyosiy tahlil qilish hudud tarixining murakkab jihatlarini to‘laroq ochib beradi. Rossiya imperiyasi va sovet hokimiyatining maqsad hamda usullari bir xil bo‘lmagan bo‘lsa-da, har ikkala davrda ham yer va suv resurslari davlatning keng miqyosli iqtisodiy-siyosiy loyihalariga bo‘ysundirildi.

Mazkur jarayonning eng keskin bosqichi sovet davrida kuzatilib, agrar siyosatning ma’muriy-majburiy usullar bilan olib borilishi qishloq xo‘jaligi munosabatlarini o‘zgartirish bilan cheklanmay, inson taqdirlariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Shu sababli Surxon vohasidagi agrar qatag‘on tarixini irrigatsiya, yer egaligi, jamoalashtirish va mulkni musodara qilish jarayonlari bilan o‘zaro bog‘liqlikda tadqiq etish qatag‘on siyosatining iqtisodiy ildizlari va mahalliy xususiyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xidirov M. Rossiya imperiyasining Termiz va Surxon vohasidagi iqtisodiy siyosati: irrigatsiya, savdo va transport tizimining tarixiy rivojlanishi // Jamiyat va innovatsiyalar – Society and Innovations. – 2026. – № 7(3). – B. 460–470.

2. Surxondaryo viloyati davlat arxivi materiallari. – 58-fond, 2-ro‘yxat, 11-varaq.

3. Ananyev A.G. Sherobod vohasi yerlarini Surxon suvi yordamida sug‘orish loyihasi. – Toshkent: Turkiston general-gubernatorligi bosmaxonasi, 1911.

4. Tursunov S., Soatov O., Umarov I. Shahid ketgan qatag‘on qurbonlari – Xotirasi abadiy (1920–1938-yillar). – Toshkent: Yosh avlod matbaa, 2022. – B. 1–6.

5. Kozlovskiy V.L. Termiz shahrining tarixi. – Toshkent, 1962. – B. 12–14.

6. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. – 377-fond, 1-ro‘yxat, 15-varaq; 377-fond, 53-ro‘yxat, 6-varaq.

7. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. – 96-fond, 1-ro‘yxat, 158-ish, 18–19-varaqlar.

8. Ananyev A.G. Sherabadskaya dolina. – Sankt-Peterburg, 1914.

9. Shubinskiy P.P. Ocherki Buxary // Istoricheskiy vestnik. – Sankt-Peterburg, 1892.

10. Yavorskiy I.L. Puteshestviye russkogo posolstva po Afganistanu i Buxarskomu xanstvu v 1878–1879 gg. – T. 1. – Sankt-Peterburg: Tipografiya V.S. Balasheva, 1883.

O‘ZBEKISTONDA DINIY BAG‘RIKENGLIKNING TARIXIY VA HUQUQIY ASOSLARI

Shodmonov Abdujalil Uzoq o‘g‘li
Termiz davlat universiteti
Mustaqil tadqiqotchisi
abdujalil0993@gmail.com
+99897-536-93-96

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglikning shakllanishi va rivojlanishining tarixiy hamda huquqiy asoslari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Markaziy Osiyo, xususan, hozirgi O‘zbekiston hududining qadimdan turli sivilizatsiyalar, madaniyatlar va diniy an’analar kesishgan makon bo‘lib kelgani tarixiy manbalar hamda UNESCO materiallari asosida yoritiladi. Zardushtiylik, buddaviylik, xristianlik, yahudiylik va islomning mintaqadagi tarixiy mavjudligi diniy-madaniy xilma-xillikning muhim omili sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, mustaqillik yillarida vijdon erkinligi va diniy e’tiqod huquqining konstitutsiyaviy kafolatlanishi, diniy tashkilotlarning huquqiy maqomi hamda konfessiyalararo totuvlikni ta’minlashga qaratilgan qonunchilikning rivojlanishi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglikning tarixiy tajriba va zamonaviy huquqiy institutlarning o‘zaro uyg‘unligi asosida shakllanganligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: diniy bag‘rikenglik, vijdon erkinligi, diniy e’tiqod, konfessiyalararo totuvlik, huquqiy kafolat, dunyoviy davlat, Markaziy Osiyo, O‘zbekiston.

ИСТОРИЧЕСКИЕ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ РЕЛИГИОЗНОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Шодмонов Абдужалил Узок угли
Термезский государственный университет
Независимый исследователь
abdujalil0993@gmail.com
+99897-536-93-96

Аннотация: В этой статье всесторонне анализируются исторические и правовые основы формирования и развития религиозной толерантности в Узбекистане. Исторические источники и материалы ЮНЕСКО показывают,

что Центральная Азия, в частности нынешний Узбекистан, издревле была местом пересечения различных цивилизаций, культур и религиозных традиций. Зороастризм, буддизм, христианство, иудаизм и историческое существование ислама в регионе рассматриваются как важный фактор религиозно-культурного разнообразия. Кроме того, в годы независимости будут проанализированы конституционные гарантии свободы совести и права на вероисповедание, правовой статус религиозных организаций и развитие законодательства, направленного на обеспечение межконфессионального согласия. Исследование показывает, что религиозная толерантность в Узбекистане формируется на основе исторического опыта и гармонии современных правовых институтов.

Ключевые слова: религиозная свобода, свобода совести, религиозные убеждения, межконфессиональное согласие, правовые гарантии, светское государство, Центральная Азия, Узбекистан.

HISTORICAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF RELIGIOUS REVIVAL IN UZBEKISTAN

Shodmonov Abdujalil Uzoq o‘g‘li
Termez State University
Independent researcher
abdujalil0993@gmail.com
+99897-536-93-96

Fitratning qarashlarida insonning ma’naviy kamoloti va jamiyat taraqqiyoti o‘rtasidagi bog‘liqlik muhim o‘rin tutadi. Uning fikricha, xalqning kelajagi yosh avlodning bilim va tarbiyasiga bog‘liq. Shu sababli u ta’lim mazmunini yangilash, ilm-fan yutuqlaridan foydalanish va yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish masalalariga katta e’tibor bergan [6].

Munavvarqori Abdurashidxonov esa yangi usul maktablari va pedagogik faoliyat rivojiga katta hissa qo‘shgan jadidlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Uning faoliyatida o‘qituvchi tayyorlash, darsliklar yaratish va yosh avlodga zamonaviy bilim berish masalalari muhim o‘rin egallagan [6,7].

Jadidlarning ushbu vakillari faoliyatini umumlashtirganda, ularning qarashlarida uch asosiy jihatni ko‘rish mumkin: ta’limni yangilash, milliy ongni shakllantirish va jamiyatni ma’rifat orqali taraqqiy ettirish [7].

Milliy matbuot va ijtimoiy tafakkurning rivojlanishi

Jadidchilik harakati taraqqiyotida matbuot alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Gazeta va jurnallar xalqni yangiliklardan xabardor qilish, ijtimoiy muammolarni muhokama qilish va ma’rifiy g‘oyalarni ommalashtirish imkonini berdi [2].

Jadid matbuotida ta’lim, maktab, ilm-fan, milliy til, adabiyot, iqtisodiyot va jamiyatning boshqa dolzarb masalalari yoritildi. Natijada matbuot oddiy axborot vositasidan kengroq ma’rifiy va ijtimoiy institutga aylandi [4,7].

Adabiyot va teatr ham jadidlarning ma’rifiy faoliyatida muhim vosita bo‘ldi. Badiiy asarlar orqali jamiyatdagi muammolar, jaholatning oqibatlari, ta’limning ahamiyati va insonning ma’naviy mas’uliyati yoritildi. Bu usul keng jamoatchilikka murakkab ijtimoiy masalalarni sodda va ta’sirchan shaklda yetkazish imkonini berdi [2].

Shu ma’noda jadidchilikni nafaqat pedagogik yoki siyosiy harakat, balki keng qamrovli madaniy-ma’rifiy modernizatsiya jarayoni sifatida o‘rganish mumkin.

Jadidlar merosining tarixiy ahamiyati

Jadidlar faoliyatining tarixiy ahamiyati, avvalo, xalqning ijtimoiy va madaniy tafakkurida yangilanish jarayonini tezlashtirganida namoyon bo‘ladi. Ular ta’limning jamiyat hayotidagi rolini yangicha talqin qildilar va bilimli avlodni shakllantirishni milliy taraqqiyotning muhim sharti sifatida ilgari surdilar.

Jadidlar tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar faqat o‘z davri bilan chegaralanib qolmadi. Ularning maktab, darslik, matbuot, teatr va adabiyot sohalaridagi faoliyati keyingi avlodlarning ma’rifiy dunyoqarashiga ham ta’sir ko‘rsatdi [4].

Biroq jadidchilik tarixini o‘rganishda uning murakkab va ziddiyatli siyosiy sharoitda shakllanganini hisobga olish lozim. Jadidlarning ko‘plab vakillari keyingi davrlardagi siyosiy ta’qib va qatag‘onlar natijasida hayotdan ko‘z yumdilar. Namunaviy maqolada ham qatag‘on siyosatining milliy ziyolilar hayotiga hamda ilmiy-madaniy taraqqiyotga og‘ir ta’siri qayd etilgan.

Bu tarixiy jarayon jadidlar merosini yanada chuqurroq o‘rganish zaruratini ko‘rsatadi. Chunki qatag‘onlar natijasida nafaqat alohida shaxslarning hayoti, balki ilmiy va ijodiy maktablarning uzviy rivojlanishi ham zarar ko‘rgan.

Jadidlar g‘oyalarining bugungi ta’limdagi ahamiyati

Bugungi kunda jadidlar merosini o‘rganishning ahamiyati faqat tarixiy xotirani tiklash bilan cheklanmaydi. Ularning ta’lim, ilm-fan, kitobxonlik, mustaqil fikrlash va yoshlar tarbiyasi haqidagi qarashlari zamonaviy ta’lim jarayoni uchun ham muhim metodologik ahamiyatga ega.

Jadidlar bilimni shaxs va jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida ko‘rganlar. Hozirgi davrda ham ta’limning asosiy vazifalaridan biri yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lgan shaxs sifatida tarbiyalashdan iborat.

Ayniqsa, bugungi axborot makonida yoshlarning tanqidiy fikrlashi, ishonchli ma’lumotni noto‘g‘ri yoki asossiz axborotdan farqlay olishi muhimdir. Jadidlarning o‘z davrida xalqni jaholatdan chiqarish uchun bilim va matbuot imkoniyatlaridan foydalanishga intilgani ushbu masalaning tarixiy ildizlarini ko‘rsatadi.

Jadidlar merosining zamonaviy ta’lim uchun yana bir muhim jihati — o‘qituvchi shaxsining jamiyatdagi o‘rni masalasidir. Jadidlar maktabni jamiyatni yangilovchi kuch sifatida ko‘rgan ekan, bugungi pedagog ham faqat bilim beruvchi emas, balki yoshlarning ilmiy dunyoqarashi va ijtimoiy mas’uliyatini shakllantiruvchi shaxs sifatida qaralishi mumkin.

Xulosa

Jadidchilik harakati Turkiston tarixida xalqning ma’rifiy va madaniy taraqqiyotida muhim o‘rin egallagan ijtimoiy-ma’naviy hodisadir. Jadidlarning asosiy faoliyati ta’limni yangilash, xalq savodxonligini oshirish, zamonaviy fanlarni

ommalashtirish, milliy matbuot va adabiyotni rivojlantirish hamda yosh avlodning dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqa jadid ziyolilarining faoliyati shuni ko‘rsatadiki, ular jamiyat taraqqiyotini, avvalo, insonning bilim va ma’naviy saviyasini oshirish bilan bog‘laganlar. Ular uchun maktab, matbuot, adabiyot va teatr xalqni ma’rifatga yetaklovchi o‘zaro bog‘liq vositalar bo‘lgan.

Jadidchilik harakatining tarixiy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, jamiyat taraqqiyotida ta’lim va ilm-fanning o‘rni beqiyosdir. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan ma’rifat, kitobxonlik, ilmga intilish, mustaqil fikrlash va milliy o‘zlikni anglash kabi g‘oyalar bugungi avlod uchun ham muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Shuningdek, jadidlarning qatag‘on qilinishi milliy ilm-fan, adabiyot va madaniyat rivojiga katta zarar yetkazgan tarixiy fojia sifatida o‘rganilishi lozim. Ularning hayoti va ijodini xolis ilmiy asosda tadqiq etish tarixiy xotirani mustahkamlash bilan birga, yosh avlodda ilmga hurmat va Vatan taraqqiyotiga daxldorlik tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi.

Demak, jadidlar merosi faqat o‘tmishning bir qismi emas. U zamonaviy ta’lim, ilm-fan va ma’naviy tarbiya masalalarini anglashda muhim tarixiy tajriba sifatida ahamiyat kasb etadi. Jadidlar faoliyatining mazmun-mohiyatini chuqur o‘rganish va uni ilmiy asosda yosh avlodga yetkazish milliy tariximizni anglashning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. — Toshkent: Ma’naviyat, 2002.
2. Qosimov B. Jadidchilik. — Toshkent: Milliy ensiklopediya, 2000.
3. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. — Toshkent: Ma’naviyat, 1997.
4. O‘zbekiston tarixi: oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
5. Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi materiallari. — Toshkent.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
7. Fitrat A. Tanlangan asarlar. — Toshkent: Ma’naviyat.
8. Behbudiy M. Padarkush. — Toshkent: turli nashrlar.

QATAG‘ON QURBONLARI — MILLIY XOTIRA VA TARIXIY ADOLAT SABOQLARI

Termiz davlat universiteti Kimyo fakulteti Kimyo ta'lim yo‘nalishi 4-bosqich 123-guruh talabasi

Qayimova Durdona

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asrning eng fojeali sahifalaridan biri bo‘lgan qatag‘on siyosati, uning o‘zbek xalqi tarixidagi og‘ir oqibatlari hamda qatag‘on qurbonlarining taqdiri yoritiladi. Unda mustabid tuzum davrida milliy ziyolilar, davlat va jamoat arboblari, olimlar, adiblar, san’atkorlar hamda oddiy fuqarolarning siyosiy ta’qib va asossiz ayblovlarga duchor etilgani tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Tarixiy haqiqat, Milliy xotira,siyosiy qatag‘on,Vatan,xotira,milliy ziyolilar,qatag‘on qurbonlari,tarixiy adolat, mustabid tuzum

Tarix — xalqning kechagi kuni haqidagi oddiy ma’lumotlar yig‘indisi emas. U bugungi kunning ma’naviy poydevori, ertangi kunning sabog‘idir. Har bir millat o‘z tarixidagi yorqin sahifalarni faxr bilan eslagani kabi, og‘riqli va fojeali davrlarini ham unutmasligi kerak. Chunki unutish — sodir bo‘lgan voqealarni ikkinchi bor yo‘qotish, xotira esa inson qadrini tiklashning muhim vositasidir. XX asr O‘zbekiston tarixida katta ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlar bilan birga, og‘ir sinovlar davri ham bo‘lgan. Sovet hokimiyati yillarida siyosiy ta’qib, asossiz ayblov, surgun, qamoq, mol-mulkdan mahrum etish va boshqa repressiv choralar ko‘plab insonlar hayotiga ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, 1930-yillar oxiridagi ommaviy qatag‘onlar jamiyatning ilm-fan, adabiyot, davlat boshqaruvi va madaniyatiga katta zarba berdi. Qatag‘on tarixini o‘rganishning maqsadi faqat o‘tmishdagi fojealarni sanab o‘tish emas. Muhimi, inson huquqi, qonun ustuvorligi, adolat va fuqarolik qadr-qimmatining naqadar muhim ekanini anglashdir. Bir insonning huquqi poymol qilinsa, bu faqat uning oilasiga emas, butun jamiyatning ma’naviy muhitiga ta’sir qiladi. Ushbu maqolada O‘zbekiston hududidagi siyosiy qatag‘onlarning tarixiy

sharoitlari, uning turli ko‘rinishlari, ziyolilar va oddiy fuqarolar taqdiriga ta’siri, oilaviy fojealar, milliy xotiraning ahamiyati hamda mustaqillik davrida qatag‘on qurbonlari xotirasini tiklash yo‘lidagi ishlar yoritiladi.

“Qatag‘on” yoki siyosiy repressiya davlat hokimiyati tomonidan siyosiy, ijtimoiy yoki boshqa sabablar bilan shaxslarni ta’qib qilish, huquqlarini cheklash, qamoqqa olish, surgun qilish yoki boshqa majburlov choralarini qo‘llash jarayonlarini anglatadi. Tarixiy manbalarda repressiya turli davr va shakllarda uchrashi mumkin, biroq sovet davridagi siyosiy qatag‘onlar o‘zining tizimliligi va keng ko‘lamliligi bilan ajralib turadi.

Qatag‘on siyosatining xavfli tomoni shundaki, u ko‘pincha insonni real qilgan ishiga qarab emas, balki unga berilgan siyosiy tamg‘aga qarab baholaydi. “Xalq dushmani”, “millatchi”, “aksilinqilobchi”, “josus” kabi ayblovlar ayrim holatlarda dalillardan ko‘ra siyosiy qarorga bo‘ysungan. Natijada insonning aybi isbotlanmasdan turib uning hayoti, oilasi va kelajagi barbod bo‘lishi mumkin edi.

Tarixiy jihatdan qatag‘onlarni tushunishda davrning siyosiy tizimi, davlat boshqaruvidagi markazlashuv, qo‘rquv muhiti va sud-tergov amaliyotidagi buzilishlarni hisobga olish zarur. Bunda barcha holatlarni bir xil ko‘rmasdan, har bir ishning hujjatlari va tarixiy sharoitini alohida o‘rganish muhim.

Qatag‘on qurbonlari haqida gapirganda, faqat mashhur shaxslarni emas, ismi keng ommaga tanish bo‘lmagan minglab fuqarolarni ham eslash kerak. Chunki tarixiy fojeaning haqiqiy ko‘lami insonlarning individual taqdirlari orqali namoyon bo‘ladi [1].

1917-yildagi siyosiy voqealardan keyin Turkiston hududida hokimiyat uchun murakkab kurashlar kechdi. Sovet boshqaruv tizimining o‘rnatilishi mahalliy jamiyat hayotida tub o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Yangi siyosiy va iqtisodiy tartiblar bilan birga davlatning jamiyat ustidan nazorati ham kuchaydi.

1920-yillar davomida milliy davlat boshqaruvi, maorif, madaniyat va iqtisodiyotda yangi jarayonlar yuz berdi. O‘zbekiston SSRning tashkil topishi ham shu davr siyosiy qayta tashkil etishlarining bir qismi edi. Mahalliy ziyolilar davlat va jamiyat

taraqqiyoti masalalarida faol ishtirok etdilar [2]. Shu bilan birga, markaz va mahalliy manfaatlar o‘rtasidagi ziddiyatlar, siyosiy nazoratning kuchayishi va mustaqil fikrga nisbatan shubha qatag‘on siyosatining keyingi kuchayishiga zamin yaratdi. Ayrim milliy taraqqiyot tarafdorlari siyosiy jihatdan ishonchsiz deb topildi.

Bu jarayonlarni o‘rganishda bir tomondan sovet modernizatsiyasi, savodxonlik va sanoatlashtirish kabi jarayonlarni, ikkinchi tomondan esa siyosiy erkinliklarning cheklanishi va zo‘ravonlikni bir-biridan ajratib ko‘rish kerak. Tarix bir vaqtning o‘zida turli va qarama-qarshi jarayonlarni o‘z ichiga oladi [3].

1930-yillar siyosiy repressiyalar tarixida eng og‘ir davrlardan biri bo‘ldi. Sovet Ittifoqida siyosiy nazorat keskin kuchaydi va “katta terror” deb ataladigan jarayonlar 1937–1938-yillarda ayniqsa avj oldi. O‘zbekiston ham bu siyosiy kampaniyalardan chetda qolmadi. Bu davrda davlat xavfsizlik organlari tomonidan turli “aksilinqilobiy” tashkilotlar mavjudligi haqidagi ayblovlar ilgari surildi. Tergov jarayonlarida qiynoq va bosim qo‘llangani, ko‘plab hukmlar yetarli huquqiy asosga ega bo‘lmagani haqida keyinchalik ochilgan hujjatlar va tadqiqotlarda ma’lumotlar keltiriladi.

Qatag‘onlar faqat siyosatchilar bilan cheklanmagan. Yozuvchilar, shoirlar, olimlar, o‘qituvchilar, davlat xizmatchilari, din vakillari, dehqonlar va boshqa ijtimoiy qatlam vakillari ham turli ayblovlarga duch kelgan. Eng og‘ir jihatlardan biri — qatag‘onning oilalarga ham ta’sir etgani. Qamoqqa olingan yoki otib tashlangan kishining farzandlari, turmush o‘rtog‘i va qarindoshlari ham ijtimoiy bosimga uchragan. Shu sababli qatag‘on tarixini faqat siyosiy tarix emas, balki oilalar va jamiyatning kundalik hayoti tarixi sifatida ham o‘rganish zarur [4].

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakati shakllandi. Jadidlar ta’limni yangilash, maktablarda zamonaviy fanlarni o‘qitish, matbuot va teatrni rivojlantirish, milliy o‘zlikni anglash va jamiyatni isloh qilish g‘oyalarini ilgari surdilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy va boshqa ma’rifatparvarlar xalqning bilimli va ma’rifatli bo‘lishini orzu qilganlar.

Ularning faoliyati o‘zbek madaniyati va zamonaviy ta’lim tarixida muhim o‘rin tutadi. Keyinchalik jadidlarning bir qismi sovet siyosiy tizimi tomonidan ta’qib qilindi. Ularning ayrimlari qamoqqa olinib, sud qilindi yoki qatl etildi. Ayniqsa, 1937–1938-yillardagi qatag‘onlar milliy adabiyot va ilm-fanning ko‘plab namoyandalarini yo‘qotishga olib keldi.

Jadidlar taqdirini o‘rganish bizga bitta muhim haqiqatni ko‘rsatadi: ma’rifat, erkin fikr va milliy taraqqiyot g‘oyalari tarixiy sharoitda katta jasorat talab qilgan. Bugungi avlod ularning merosini o‘rganar ekan, ularning ilmga, ta’limga va jamiyatni rivojlantirishga bo‘lgan intilishini qadrlashi lozim.Abdulla Qodiriy o‘zbek romanchiligining yirik namoyandalaridan biridir. Uning “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” asarlari milliy adabiyot tarixida muhim o‘rin egallaydi. Qodiriyning ijodida tarix, jamiyat, inson taqdiri va milliy o‘zlik masalalari chuqur ifodalangan.

Abdulhamid Cho‘lpon shoir, yozuvchi va tarjimon sifatida o‘zbek adabiy tilining rivojiga katta hissa qo‘shdi. Uning she’riyati va nasriy asarlarida inson erki, vatan, ma’naviyat va milliy uyg‘onish mavzulari aks etadi.

Abdurauf Fitrat esa olim, yozuvchi, dramaturg va jamoat arbobi sifatida ko‘p qirrali faoliyat olib bordi. U til, adabiyot, tarix va ta’lim masalalarida muhim asarlar yaratdi.

Uchala ijodkor ham qatag‘on yillarida og‘ir ta’qibga uchradi. Ularning keyinchalik oqlanishi tarixiy adolatni tiklash yo‘lidagi muhim jarayonlardan bo‘ldi. Bugun ularning asarlarini o‘qish — faqat adabiy zavq olish emas, balki o‘tmishdagi avlodlarning fikri va orzularini anglash imkonidir[5].

Tarix kitoblarida mashhur shaxslar nomi ko‘proq uchrashi mumkin, ammo qatag‘onning asosiy og‘irligini oddiy oilalar ham boshdan kechirgan. Biror kishining “ishonchsiz” deb topilishi uning ishidan, uy-joyidan, ta’lim olish imkoniyatidan yoki jamiyatdagi mavqeidan ayrilishiga olib kelishi mumkin edi.

Ota yoki aka qamoqqa olingan oilalarda farzandlar ko‘pincha otasining taqdiri haqida ochiq gapira olmagan. Ba’zi oilalar yillar davomida qarindoshining qayerda

va qanday vafot etganini bilmay yashagan. Qo‘rquv va sukut avloddan avlodga o‘tgan. Qatag‘onning bunday ijtimoiy oqibatlari statistik raqamlarda to‘liq aks etmaydi. Bir hukm ortida bir oilaning daromadi, farzandlarning tarbiyasi, qarindoshlar o‘rtasidagi munosabatlar va butun bir xonadonning ruhiy kechinmalari turgan. Shuning uchun tarixiy xotira faqat sanalar va familiyalardan iborat bo‘lmasligi kerak. Arxiv hujjatlari, oilaviy suratlar, xatlar, xotiralar va og‘zaki tarix ham qimmatli manbadir. Har bir topilgan ism ortida inson hayoti borligini unutmaslik kerak.

Qatag‘onlar natijasida jamiyat o‘zining ko‘plab bilimdon va ijodkor vakillaridan ayrildi. Adabiyot, tarix, tilshunoslik, pedagogika va boshqa sohalarda ilmiy maktablarning tabiiy rivojlanishi izdan chiqdi. Madaniyatga yetkazilgan zarar faqat ijodkorlarning hayotdan ketishi bilan o‘lchanmaydi. Ularning qo‘lyozmalari yo‘qolishi, asarlarning taqiqlanishi, nomlarini tilga olishdan qo‘rqish va ilmiy merosning uzilib qolishi ham katta yo‘qotish edi. Shunga qaramay, xalqning ma’naviy xotirasi butunlay yo‘qolmadi. Mustaqillik yillarida ko‘plab ijodkorlarning asarlari qayta nashr qilindi, hayoti va faoliyati ilmiy jihatdan o‘rganildi, nomlari tiklandi.

Bugungi vazifa — merosni faqat yodlash emas, uni o‘rganish, maktab va oliy ta’limda mazmunli tarzda yetkazishdir. Yoshlar qatag‘on tarixini bilsa, erkin fikr, ilm va inson huquqlarining qadrini chuqurroq anglaydi. Sovet davrida davlatning diniy institutlarga munosabati keskin nazorat va cheklovlar bilan kechgan davrlar bo‘ldi. Masjidlar faoliyati qisqargan, diniy ta’lim imkoniyatlari cheklangan, diniy ulamolarning bir qismi ta’qib qilingan.

Bu jarayonni qatag‘on tarixining alohida yo‘nalishi sifatida o‘rganish mumkin. Diniy e’tiqod masalasi ko‘plab oilalar hayotida muhim o‘rin tutgani sababli, diniy faoliyatning cheklanishi jamiyatning ma’naviy hayotiga ham ta’sir ko‘rsatgan. Tarixiy tahlilda bu davrni baholashda aniq hujjatlar, mahalliy sharoit va vaqt oralig‘i hisobga olinishi kerak. Turli yillarda davlat siyosatining shakli va darajasi bir xil bo‘lmagan.

Bugungi kunda tarixiy merosni o‘rganishda diniy va dunyoviy qadriyatlar, ilm-fan, bag‘rikenglik va qonuniylik o‘rtasidagi muvozanatni tushunish muhimdir. Tarixning vazifasi jamiyatni bo‘lish emas, o‘tmishdagi xatolardan saboq chiqarishga yordam berishdir.

Ikkinchi jahon urushi arafasida va urush yillarida siyosiy nazorat davom etdi. Urush sharoitida davlat xavfsizligi va sodiqlik masalalari yanada keskin qo‘yildi. Ayrim etnik guruhlar ommaviy ko‘chirilishi ham sovet tarixining og‘ir sahifalaridan biridir. O‘zbekiston urush yillarida ko‘plab evakuatsiya qilingan aholini qabul qildi. Turli hududlardan kelgan oilalar, bolalar va korxonalar bu yerga joylashtirildi. Bu jarayon O‘zbekiston jamiyatining insonparvarlik va hamjihatlik tajribasini ham namoyon etdi. Shu bilan birga, urush yillari siyosiy repressiyalar butunlay to‘xtab qolmagan. Turli guruhlar ustidan nazorat va tekshiruvlar davom etgan.

Tarixning murakkabligi shundaki, bir davrning o‘zida insonparvarlik namunalari ham, davlat zo‘ravonligining og‘ir oqibatlari ham mavjud bo‘lishi mumkin. Ularni bir-birini inkor qiluvchi emas, tarixiy voqelikning turli tomonlari sifatida o‘rganish kerak [6].

Qatag‘on tarixidan olinadigan eng muhim huquqiy saboqlardan biri — inson aybi qonuniy va xolis tartibda isbotlanmasdan turib jazolanmasligi kerakligi. Sud va tergov jarayonining mustaqilligi, himoya huquqi va dalillarga asoslangan qaror inson huquqlarining asosiy kafolatlaridan hisoblanadi. Tarixiy repressiyalarda esa ayrim hollarda siyosiy maqsad huquqiy tartibdan ustun qo‘yilgan. Natijada tergovning xolisligi, ayblanuvchining huquqlari va sudlovning adolatliligi buzilgan. Bu tajriba bugungi jamiyat uchun juda muhim saboqdir. Qonun faqat oddiy fuqaro uchun emas, mansabdor shaxs uchun ham bir xil ishlashi kerak. Huquqiy davlatning kuchi jazolashda emas, adolatli tartibni ta’minlashda namoyon bo‘ladi. Qatag‘on qurbonlarining keyinchalik oqlanishi ham huquqiy adolatni tiklash jarayonining bir qismi bo‘ldi. Oqlash faqat bir shaxsning nomini tiklash emas, uning oilasi va avlodlari oldidagi tarixiy qarzni tan olishdir.

Stalin vafotidan keyin Sovet Ittifoqida siyosiy repressiyalarni qayta ko‘rib chiqish jarayonlari boshlandi. Ayrim shaxslarning ishlari qayta ko‘rib chiqilib, ularning aybsizligi tan olindi. Biroq barcha ishlarni bir vaqtning o‘zida tiklash imkoni bo‘lmagan. Keyingi o‘n yilliklarda ham arxiv materiallarini o‘rganish, noqonuniy hukmlarni qayta ko‘rib chiqish va qatag‘on qurbonlari nomlarini tiklash ishlari davom etdi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy tarixga yangicha nazar bilan qarash uchun imkoniyat kengaydi. Qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish, ularning ilmiy va ijodiy merosini qayta tiklash bo‘yicha davlat va jamoatchilik tashabbuslari amalga oshirildi. Oqlash jarayoni tarixiy xotiraning huquqiy asosga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Bunda asosiy mezon siyosiy qarash emas, hujjatlar va qonuniylik bo‘lishi lozim. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston tarixining ilgari bir tomonlama yoki cheklangan tarzda yoritilgan sahifalarini qayta o‘rganish imkoniyati paydo bo‘ldi. Qatag‘on qurbonlari haqida kitoblar, maqolalar va ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Xotira maydonlari va muzeylar tashkil etilishi, tarixiy hujjatlarni o‘rganish, ijodkorlar asarlarini qayta nashr qilish yosh avlodning tarixiy ongini shakllantirishga xizmat qiladi. Qatag‘on qurbonlarini xotirlash marosimlari ham ma’naviy ahamiyatga ega. Bunday tadbirlar orqali jamiyat o‘z tarixini unutmaslik, ajdodlar taqdirini qadrlash va inson hayotining bebaho ekanini anglash imkoniga ega bo‘ladi. Tarixiy xotira siyosiy shiorga aylanib qolmasligi uchun ilmiylik, xolislik va manbaga tayanish muhim. Har bir yangi topilma avvalgi tasavvurlarni to‘ldirishi yoki aniqlashtirishi mumkin. Yosh avlod tarixni bilmasa, bugungi tinchlik va huquqiy imkoniyatlarning qadrini to‘liq anglamasligi mumkin. Qatag‘on tarixini o‘rganish yoshlarni qo‘rqitish uchun emas, aksincha, huquq va erkinliklarning qanchalik muhimligini tushuntirish uchun kerak. Maktablarda va oliy ta’lim muassasalarida bu mavzuni faqat sanalar orqali emas, inson taqdirlari asosida o‘qitish samaraliroq bo‘lishi mumkin. Masalan, bir ijodkorning tarjimai holi, bir oilaning xotirasi yoki bitta arxiv hujjati orqali butun davrning murakkabligini ko‘rsatish mumkin.

Yoshlar tarixiy manbani tanqidiy o‘qishni ham o‘rganishi kerak. Biror voqea haqida turli manbalar berayotgan ma’lumotni solishtirish, muallif va yaratilgan davrni hisobga olish, fakt bilan talqinni ajratish — tarixiy tafakkurning muhim belgilaridir. Qatag‘on qurbonlari xotirasi yoshlarni adolat, insonparvarlik, bag‘rikenglik va qonun ustuvorligi ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi mumkin. Har bir oilada tarixning kichik bir bo‘lagi mavjud. Bobolar va buvilarning xotiralari, eski suratlar, maktublar, hujjatlar va oilaviy hikoyalar katta tarixni tushunishga yordam beradi.

Qatag‘on davrini boshdan kechirgan oilalarning xotiralari uzoq vaqt sukutda saqlangan bo‘lishi mumkin. Ularni yozib olish va avlodlarga yetkazish tarixiy manbalarni boyitadi. Bunda shaxsiy xotira bilan arxiv hujjatini farqlash, og‘zaki ma’lumotni boshqa manbalar bilan tekshirish muhim. Xotira — qasos emas. U o‘tgan voqealardan saboq chiqarish, jabrlangan insonlarning qadrini tiklash va kelajakda shunday fojialarning takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslikka xizmat qilishi kerak. Shu ma’noda qatag‘on qurbonlarini eslash — bugungi avlodning o‘z tarixiga bo‘lgan hurmatidir. Inson nomi va taqdiri unutilmagan jamiyat o‘zining ma’naviy ildizlarini yaxshiroq anglaydi.

Bugungi texnologiyalar qatag‘on tarixini o‘rganish va targ‘ib qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamli arxivlar, elektron kutubxonalar, muzeylarning virtual ekspozitsiyalari va ilmiy ma’lumotlar bazalari yoshlarning tarixiy manbalarga murojaat qilishini osonlashtiradi. Tarixiy mavzudagi maqolalar va videolar tayyorlashda manbaning ishonchliligiga alohida e’tibor berish kerak. Tasdiqlanmagan raqamlar, noto‘g‘ri familiyalar yoki kontekstdan uzilgan iqtiboslar tarixiy xotiraga zarar yetkazishi mumkin. Maktab o‘quvchilari uchun qatag‘on qurbonlari haqidagi loyiha, oilaviy tarixni o‘rganish, mahalliy muzeylarga sayohat, arxiv hujjatlari bilan ishlash va tarixiy esse tanlovlarini tashkil etish foydali bo‘lishi mumkin.

Tarixni raqamlashtirish bilan birga, manbalarni saqlash madaniyatini ham rivojlantirish zarur. Eski hujjat va suratlar kelajak tadqiqotchilari uchun bebaho manba bo‘lishi mumkin. Qatag‘on tarixi faqat poytaxt yoki mashhur shaxslar tarixi

emas. O‘zbekistonning har bir viloyati, tumani va mahallasida shu davr bilan bog‘liq insonlar va voqealar bo‘lgan.

Mahalliy tarixni o‘rganishda tuman va viloyat arxivlari, muzeylar, kutubxonalar, qabristonlar haqidagi ma’lumotlar, oilaviy hujjatlar va mahalliy matbuot muhim manba bo‘la oladi. Bunday tadqiqotlar orqali tarixning umumiy manzarasi yanada boyiydi. Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona vodiysi va boshqa hududlarda qatag‘on davrining mahalliy ko‘rinishlari alohida o‘rganilishi mumkin. Bunda hududlar o‘rtasidagi farqlarni ham hisobga olish lozim.

Mahalliy tarixga qiziqish yoshlarni o‘z yurti bilan bog‘laydi. O‘z mahallasidagi bir inson taqdirini o‘rganish orqali o‘quvchi butun mamlakat tarixiga boshqacha nigoh bilan qarashi mumkin. Qatag‘on mavzusida ilmiy xolislik ayniqsa muhim. Fojeali tarixiy voqealar kuchli hissiyot uyg‘otishi tabiiy, biroq tadqiqotchi hujjat, sana, shaxs va voqealar o‘rtasidagi bog‘liqlikni imkon qadar aniq ko‘rsatishi kerak [7].

Tarixiy manbalar ham bir xil darajada ishonchli bo‘lmasligi mumkin. Rasmiy hujjat, sud bayonnomasi, shaxsiy xat, xotira yoki keyingi tadqiqotning har birining o‘z imkoniyati va cheklovi mavjud. Shuning uchun qatag‘on qurbonlari soni, muayyan shaxsga qo‘yilgan ayblov yoki aniq voqeaning tafsilotlari haqida gapirganda manbaning kelib chiqishi va ilmiy tadqiqotlar o‘rtasidagi farqlar ko‘rsatilishi kerak. Xolis tarix biror tomonning manfaatini himoya qilish uchun emas, voqelikni imkon qadar aniq tushunish uchun kerak. Tarixiy adolat ham aynan shunday ilmiy mas’uliyat bilan mustahkamlanadi.

Qatag‘onlar tarixidan olinadigan birinchi saboq — inson qadr-qimmati davlat va siyosiy manfaatlardan ustun turishi kerak. Davlat institutlari fuqaroga xizmat qilishi, qonun esa barcha uchun bir xil amal qilishi lozim.

Ikkinchi saboq — erkin fikr va ilmiy izlanish jamiyat taraqqiyotining muhim shartidir. Turli fikrlarni zo‘ravonlik bilan bostirish qisqa muddatda sukut keltirishi mumkin, ammo uzoq muddatda jamiyatning ilmiy va ma’naviy rivojiga zarar yetkazadi.

Uchinchi saboq — huquqiy kafolatlar qog‘ozda qolmasligi kerak. Aybsizlik prezumpsiyasi, himoya huquqi, adolatli sud va qonuniy tergov inson huquqlarini real himoya qilishi zarur.

To‘rtinchi saboq — tarixiy xotira jamiyatning immunitetidir. O‘tmishdagi xatolarni bilgan avlod zo‘ravonlik va adolatsizlikning oqibatlarini chuqurroq anglaydi.

Xulosa

Qatag‘on qurbonlari tarixi — xalqimizning og‘riqli, ammo unutib bo‘lmaydigan xotirasidir. Bu tarixda mashhur adiblar, olimlar, davlat arboblari bilan bir qatorda oddiy fuqarolar, oilalar va butun avlodlarning taqdiri mujassam. Bugun ularning nomlarini tiklash, asarlarini o‘rganish, hujjatlarini saqlash va yosh avlodga yetkazish — tarix oldidagi ma’naviy mas’uliyatdir. Xotira marosim bilan cheklanmasligi, ilmiy izlanish, ta’lim va tarbiya bilan davom etishi kerak.

Qatag‘on tarixini o‘rganish bizni o‘tmishda yashashga emas, kelajakni to‘g‘ri qurishga undaydi. Inson huquqi, qonun ustuvorligi, adolat, bag‘rikenglik va erkin fikrning qadri aynan tarixiy tajriba orqali yanada ravshan ko‘rinadi. Ajdodlarimizning fojeali taqdiri bizga bir haqiqatni eslatadi: inson nomi, sha’ni va xotirasi hech qachon siyosiy davrlar qurboniga aylanmasligi kerak. Xotira bor ekan, tarixning sabog‘i ham yashaydi.

Qatag‘on qurbonlarini eslash — faqat o‘tganlarni yodga olish emas. Bu bugungi kunning huquqiy va ma’naviy qadriyatlarini asrash, kelajak avlodga tinch, adolatli va inson qadrini ulug‘laydigan jamiyat qoldirishga bo‘lgan va’dadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. *Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q*. — Toshkent: Sharq, 1998. — 32 b.

2.Karimov I.A. *O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida*. — Toshkent: O‘zbekiston, 2011. — 440 b.

3.Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch*. — Toshkent: Ma’naviyat, 2008. — 176 b.

4.Qosimov B. *Karvon boshidagi tuya.* — Toshkent: Sharq, 2003. — 416 b.

5.Qosimov B. *Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik*. — Toshkent: Ma’naviyat, 2002. — 400 b.

6.Rajabov Q., Inoyatov S. *Buxoro tarixi*. — Toshkent: Tafakkur, 2016.

7.Rajabov Q., Haydarov M. *Turkiston tarixi (1917–1924-yillar).* — Toshkent: Universitet, 2002.

8.*O‘zbekistonning yangi tarixi*. Ikkinchi kitob: O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. — Toshkent: Sharq, 2000.

9.Jo‘rayev N., Fayzullayev T. *O‘zbekiston tarixi: yangi davr.* — Toshkent: Sharq, 2000.

10.*Qatag‘on qurbonlari xotirasi kitobi.* — Toshkent: Sharq, 2000–2002.

11.Saidov A.X. *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va inson huquqlari*. — Toshkent: O‘zbekiston, 2012.

ABDULLA QODIRIY IJODI VA UNING QATAG‘ON SIYOSATI QURBONI SIFATIDAGI FOJIALI TAQDIRI

Eshqurbonov Shuhruz Feruzovich

Termiz davlat universiteti Iqtisod fakulteti Moliya va moliyaviy texnologiyalar kafedrasi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada XX asr boshlarida O‘zbekistonda vujudga kelgan jadidchilik harakatining yorqin vakili, o‘zbek zamonaviy nasrining asoschisi Abdulla Qodiriyning ilmiy-adabiy faoliyati, uning millat taraqqiyoti yo‘lidagi xizmatlari hamda 1937–1938-yillardagi ommaviy qatag‘on siyosati qurboniga aylanish jarayoni tahlil qilinadi. Tadqiqotda yozuvchining hayot yo‘li, ijodiy merosi va uning fojiali taqdiri tarixiy manbalar asosida yoritiladi, shuningdek uning merosini bugungi kunda o‘rganish ahamiyati ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar

jadidchilik, Abdulla Qodiriy, qatag‘on, milliy ziyolilar, “O‘tkan kunlar”, siyosiy repressiya, ma’rifatparvarlik, milliy uyg‘onish.

Kirish

O‘zbek xalqining XX asr tarixi murakkab va ziddiyatli voqealarga boy davrni o‘z ichiga oladi. Ushbu davrning eng og‘ir sahifalaridan biri — 1920–1930-yillarda milliy ziyolilarga, xususan jadidchilik harakati vakillariga qarshi olib borilgan ommaviy qatag‘on siyosatidir. Sovet hokimiyati o‘z mafkurasiga xavf soluvchi kuch sifatida ko‘rgan milliy ziyolilarni “millatchi”, “xalq dushmani” singari asossiz ayblovlar bilan ta’qib qilib, ularning ko‘pchiligini jismonan yo‘q qildi. Shu qatorda o‘zbek adabiyotining yorqin namoyandasi, zamonaviy o‘zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy ham mazkur fojiali taqdirni boshidan kechirdi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, mustaqillik yillarida qatag‘on qurbonlarining hayoti va faoliyatini xolis, ilmiy asosda o‘rganish, ularning merosini yosh avlodga to‘g‘ri yetkazish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan muhim

vazifalardan biridir. Abdulla Qodiriy misolida bu jarayonni tahlil qilish nafaqat tarixiy haqiqatni tiklashga, balki milliy o‘zlikni anglash va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Maqolaning maqsadi — Abdulla Qodiriyning jadidchilik harakati bilan bog‘liq ijtimoiy-ma’rifiy faoliyatini, uning adabiy merosini hamda qatag‘on qurboniga aylanish sabab va oqibatlarini ilmiy jihatdan yoritishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: jadidchilik harakatining tarixiy-ijtimoiy zaminini yoritish; Abdulla Qodiriyning shaxsiyati va ijodiy faoliyati shakllanishida jadidchilik g‘oyalarining o‘rnini aniqlash; yozuvchining badiiy-publitsistik merosini tahlil qilish; uning qatag‘on qilinish jarayoni va sabablarini tarixiy hujjatlar asosida ochib berish; nihoyat, uning merosini bugungi kunda o‘rganish va targ‘ib qilishning ahamiyatini asoslash.

Tadqiqot metodologiyasi tarixiylik, xolislik va qiyosiy tahlil tamoyillariga asoslanadi. Ish jarayonida tarixiy-genetik, tavsifiy-tahliliy hamda biografik tadqiq usullaridan foydalanildi, bu esa mavzuni har tomonlama va izchil yoritish imkonini berdi.

1. Jadidchilik harakati va Abdulla Qodiriyning shakllanishi

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan ma’rifatparvarlik va milliy uyg‘onish harakati bo‘lib, uning asosiy maqsadi xalqni ilm-ma’rifat orqali jaholatdan qutqarish, ta’lim tizimini isloh qilish, milliy matbuot va adabiyotni rivojlantirish edi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy kabi jadid mutafakkirlari yangi usul maktablari ochish, gazeta va jurnallar chiqarish orqali xalq ongini uyg‘otishga harakat qildilar.

Abdulla Qodiriy 1894-yilda Toshkentda oddiy hunarmand oilasida dunyoga keldi. Yoshligidan bilim olishga intilgan Qodiriy avval eski maktabda, so‘ngra rus-tuzem maktabida tahsil oldi, keyinchalik Moskvadagi Adabiyot institutida o‘qib, adabiy bilimini yanada chuqurlashtirdi. Jadid ma’rifatparvorlarining ta’siri ostida shakllangan yosh ijodkor o‘z faoliyatini dastlab milliy matbuot nashrlarida

maqolalar, hikoyalar chop ettirishdan boshladi. Uning ijodida jadidchilik g‘oyalari — ma’rifat, milliy uyg‘onish, ijtimoiy adolat masalalari markaziy o‘rin egallaydi.

Yosh Qodiriyning dunyoqarashi shakllanishida u ishlagan savdo idoralari, so‘ngra “Sho‘ro” jurnali va boshqa milliy nashrlar muhitida bo‘lishi katta rol o‘ynadi. U turli mavzularda — savdo-sotiq axloqi, ta’lim islohotlari, ayollar masalasi, mahalliy boshqaruv nuqsonlari haqida keskin maqolalar yozib, jamiyatdagi illatlarni ochiq tanqid qildi. Bu davrda shakllangan tanqidiy-realistik uslub keyinchalik uning yirik badiiy asarlarida yanada yuksak darajaga ko‘tarildi. Shuningdek, Qodiriy 1917-yildan keyingi og‘ir ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar davrida ham millat manfaatini ustuvor qo‘yib, yangi jamiyat qurilishida millatning o‘z ovoziga ega bo‘lishi zarurligini uqtirib bordi.

2. Abdulla Qodiriyning ilmiy-adabiy merosi

Abdulla Qodiriy o‘zbek adabiyotida zamonaviy roman janrining asoschisi sifatida tan olingan. Uning 1922–1926-yillarda yaratilgan “O‘tkan kunlar” asari o‘zbek tilidagi birinchi yirik badiiy roman bo‘lib, unda XIX asr oxiridagi Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayoti, xalq turmush tarzi va milliy qadriyatlar chuqur badiiy mahorat bilan tasvirlangan. Asar nafaqat badiiy jihatdan, balki tarixiy-ijtimoiy ahamiyati bilan ham o‘zbek xalqi ma’naviy hayotida alohida o‘rin tutadi.

1928-yilda yaratilgan “Mehrobdan chayon” romani esa “O‘tkan kunlar”ning mantiqiy davomi bo‘lib, unda amirlik davri saroy hayoti, ayollarning og‘ir ijtimoiy ahvoli va istibdod tuzumining illatlari yanada teran tasvirlangan. Roman qahramoni Anvarning fojiali sarguzashtlari orqali muallif despotik boshqaruv tizimining insonga, uning erkiga qanday zid ekanligini ko‘rsatib berdi. Bu asar ham o‘z davrida jadidchilik g‘oyalari — adolat, erkinlik, ma’rifat tantanasi haqidagi orzu-umidlarning badiiy ifodasi sifatida baholanadi.

Yozuvchining “Mehrobdan chayon”, “Kalvak Mahzumning xotira daftaridan”, “Toshpo‘lat tajang nima deydi” kabi asarlari ham o‘z davrining dolzarb ijtimoiy muammolarini, mansabparastlik, jaholat va ikkiyuzlamachilik illatlarini keskin satira vositasida fosh etadi. Qodiriy ijodiga xos yana bir muhim jihat — u

milliy tilning boyligini, xalq tili va adabiy tilning uyg‘unligini o‘z asarlarida mahorat bilan namoyish eta oldi. Shu bois u o‘zbek adabiy tili taraqqiyotiga ham katta hissa qo‘shgan ijodkor sifatida e’tirof etiladi.

Alohida ta’kidlash joizki, Qodiriy nasr bilan bir qatorda publitsistika sohasida ham samarali ijod qildi. U “Mushtum” satirik jurnalining faol muallifi va tashkilotchilaridan biri sifatida jamiyatdagi mansabparastlik, poraxo‘rlik, jaholat kabi illatlarga qarshi o‘tkir felyetonlar, hajviy hikoyalar yozdi. Bu asarlarda muallif taxallus sifatida “Julqunboy” nomidan foydalangan bo‘lib, uning hajviy uslubi o‘sha davr o‘zbek satirik adabiyotining rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Shu tariqa Qodiriy nafaqat yirik nosir, balki millatning ijtimoiy ongini uyg‘otishga xizmat qilgan faol publitsist sifatida ham tarixda qoldi.

3. Qatag‘on siyosati va Abdulla Qodiriyning fojiali taqdiri

1930-yillarning ikkinchi yarmida Ittifoq miqyosida avj olgan ommaviy siyosiy qatag‘on to‘lqini O‘zbekistonni ham chetlab o‘tmadi. Sovet mafkurasi nuqtai nazaridan milliy ziyolilar, xususan sobiq jadidlar «millatchi, panislomist, sovet hokimiyatiga qarshi yashirin tashkilot a’zosi» sifatida ayblanib, ommaviy ravishda qamoqqa olina boshladi. Bu jarayon ilmiy adabiyotlarda “Katta Terror” yoki 1937–1938-yillardagi qatag‘on siyosati nomi bilan yuritiladi.

Abdulla Qodiriy ham 1937-yil dekabr oyida asossiz ayblov bilan hibsga olindi. Unga millatchi tashkilotga a’zolik va sovetga qarshi faoliyat yuritish kabi soxta aybnomalar qo‘yildi. Uzoq davom etgan tergov jarayonidan so‘ng yozuvchi 1938-yil oktabr oyida boshqa qator ziyolilar — Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon kabi ijodkorlar bilan birgalikda otuvga hukm qilindi va hukm shu yilning kuzida ijro etildi. Shunday qilib, o‘zbek adabiyotining eng iqtidorli namoyandalaridan biri o‘z hayotining eng gullab-yashnagan davrida, atigi qirq to‘rt yoshida fojiali ravishda hayotdan ko‘z yumdi.

Qodiriyga nisbatan qo‘yilgan barcha ayblovlar keyinchalik to‘qima va asossiz ekanligi isbotlandi. 1956-yilda, Stalin kulti fosh etilgach, yozuvchi to‘liq oqlandi (reabilitatsiya qilindi). Biroq bu voqea uning va uning oilasi boshiga tushgan azob-

uqubatlarni, adabiyotimiz yo‘qotgan salohiyatni qaytara olmadi. Qodiriyning fojiasi — bu bir kishining emas, balki butun bir avlod milliy ziyolilarining fojiasi timsolidir.

Yozuvchining hibsga olinishi butun oilasi boshiga og‘ir kulfat solgan edi. Uning rafiqasi va farzandlari “xalq dushmani” oilasi sifatida uzoq yillar davomida ijtimoiy tazyiq va cheklovlarga uchradi. Otasining oqlanishidan so‘ng Qodiriyning o‘g‘li Habibulla Qodiriy otasining hayoti va ijodiga oid ko‘plab hujjat va xotiralarni yig‘ib, ularni kitob holida nashr ettirdi. Bu asarlar Abdulla Qodiriy taqdirini o‘rganishda muhim manba vazifasini o‘tab, tergov ishi materiallari, guvohlik ko‘rsatmalari va davr voqealarini yoritishga xizmat qildi.

4. Abdulla Qodiriy merosini o‘rganishning bugungi kundagi ahamiyati

Mustaqillik yillarida Abdulla Qodiriy va boshqa qatag‘on qurbonlarining merosini xolis o‘rganish, ularning hayoti va ijodini yosh avlodga to‘g‘ri, haqqoniy tarzda yetkazish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Toshkentda yozuvchi nomidagi uy-muzey tashkil etilgan, asarlari qayta-qayta nashr qilinmoqda, ijodi maktab va oliy o‘quv yurtlari dasturlariga kiritilgan. Bunday tadbirlar nafaqat tarixiy adolatni tiklash, balki millat xotirasini saqlash, kelajak avlodda vatanparvarlik va milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, talaba-yoshlar orasida qatag‘on qurbonlari hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarini, maqola va esselarni rag‘batlantirish — tarixiy haqiqatni yangi avlod nigohi bilan qayta anglash, ularda mustaqil fikrlash va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligida Abdulla Qodiriy ijodi bo‘yicha ko‘plab dissertatsiya va monografiyalar yaratilgan, uning asarlari qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan jahon adabiyoti namunalari bilan tahlil qilinmoqda. Bu esa yozuvchi merosining nafaqat milliy, balki umumjahon adabiy-madaniy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Xalqaro miqyosda o‘tkaziladigan ilmiy anjumanlar, “O‘tkan kunlar”ning chet tillariga tarjima qilinishi ham buning yaqqol dalilidir.

5. Qatag‘on davri boshqa ziyolilari misolida umumiy manzara

Abdulla Qodiriyning taqdiri yakka hodisa emas, balki o‘sha davr Turkiston ziyolilari boshidan kechirgan umumfojiaviy jarayonning bir ko‘rinishi edi. Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon, Usmon Nosir, Elbek, Botu kabi o‘nlab yozuvchi, shoir va davlat arboblari xuddi shunday asossiz ayblovlar bilan qatag‘on qilindi. Ularning aksariyati ilm-ma’rifat, milliy til va madaniyat rivoji yo‘lida xizmat qilgan, jamiyatning eng ilg‘or fikrlaydigan qatlamini tashkil etgan shaxslar edi. Sovet tuzumi aynan shu tabaqani — mustaqil fikrlovchi, xalq oldida obro‘ga ega bo‘lgan ziyolilarni — o‘ziga eng katta xavf sifatida baholardi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 1937–1938-yillarda O‘zbekistonda minglab kishi siyosiy ayblovlar asosida qatag‘on qilingan, ularning katta qismi otuvga hukm etilgan yoki uzoq muddatli mehnat lagerlariga jo‘natilgan. Bu raqamlar ortida har biri o‘ziga xos taqdirga, oilaga, ijodiy rejalarga ega bo‘lgan insonlar turibdi. Shu nuqtai nazardan, Abdulla Qodiriy taqdirini o‘rganish orqali biz butun bir davr — millat tarixidagi eng og‘ir sinovlardan biri haqida to‘liqroq tasavvurga ega bo‘lamiz.

Qolaversa, qatag‘on qurbonlarining ijodiy merosi ko‘pincha ular hibsga olingandan so‘ng yo‘q qilingan, yashirilgan yoki taqiqlangan. Abdulla Qodiriyning ba’zi asarlari, xatlari va qo‘lyozmalari faqat mustaqillik yillarida arxivlardan topilib, ilmiy muomalaga kiritildi. Bu esa tarixchi va adabiyotshunoslar oldida hamon dolzarb bo‘lgan — yo‘qolgan meros izlarini tiklash, arxiv hujjatlarini chuqur o‘rganish vazifasini qo‘yadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qodiriy o‘zbek xalqining milliy uyg‘onish davri yetishtirgan buyuk ma’rifatparvar va yozuvchi, zamonaviy o‘zbek nasrining asoschisi sifatida tarixda mangu qoladi. Uning ijodiy merosi — millatning ma’naviy boyligi, qatag‘on qurboniga aylanish taqdiri esa o‘tgan asrning eng og‘ir tarixiy saboqlaridan biridir. Bunday shaxslarning hayoti va faoliyatini chuqur, ilmiy asosda o‘rganish, ularning xotirasini abadiylashtirish har bir vatanparvar, ziyoli insonning muqaddas burchidir.

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, Abdulla Qodiriy taqdiri XX asr o‘zbek ziyolilari boshidan kechirgan fojiaviy jarayonning yorqin va ayni paytda dardli namunasidir. Uning ijodiy merosini har tomonlama o‘rganish, tergov hujjatlari va arxiv materiallarini ilmiy muomalaga kiritish, shuningdek yosh tadqiqotchilarni ushbu mavzuga jalb etish — tarixiy adolatni to‘liq tiklash va milliy xotirani mustahkamlashning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Kelgusi tadqiqotlarda Qodiriy ijodini boshqa qatag‘on qurbonlari ijodi bilan qiyosiy tahlil qilish, uning merosini raqamli texnologiyalar asosida keng jamoatchilikka yetkazish istiqbolli yo‘nalishlardan biri sifatida taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. Mehrobdan chayon: Romanlar. – Toshkent: Sharq, 2014.
2. Sharipov O. Abdulla Qodiriy: hayoti va ijodi. – Toshkent: Fan, 1994.
3. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008.
4. Rashidov Sh. Qatag‘on qurbonlari xotirasi. – Toshkent: Akademnashr, 2017.
5. O‘zbekiston tarixi (1917–1991): Darslik. – Toshkent: Universitet, 2019.
6. Alimova D. Jadidchilik harakati: islohot, yangilanish va mustaqillik mafkurasi. – Toshkent: Fan, 2009.

TURKISTON JADIDLARINING MA’RIFIY TASHABBUSLARI: MAKTAB, MATBUOT VA TEATR UYG‘UNLIGI

Termiz davlat universiteti Kimyo fakulteti Kimyo ta’lim yo ‘nalishi
1-kurs talabasi Umarova Mashhura

Annotatsiya

Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda faoliyat yuritgan jadidlarning ma’rifiy tashabbuslari maktab, matbuot, darslik yaratish va teatr faoliyati misolida tahlil qilinadi. Jadidlarning xalq orasida savodxonlikni oshirish bilan bir qatorda, ta’lim mazmunini yangilash, o‘quv adabiyotlarini yaratish, zamonaviy fanlarni ommalashtirish va jamoatchilik ongiga ta’sir ko‘rsatish borasidagi faoliyati yoritiladi. Maqolada jadid maktablarining hududiy kengayishi, Saidrasul Saidaziziy, Munavvarqori Abdurashidxonov va Mahmudxo‘ja Behbudiylarning darslik yaratishdagi faoliyati, jadid matbuotining shakllanishi hamda teatrning ma’rifiy vosita sifatidagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, jadidlarning ta’lim va madaniyatni bir butun tizim sifatida rivojlantirishga intilgani tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: jadidlar, Turkiston, ma’rifat, yangi usul maktabi, darslik, matbuot, teatr, savodxonlik, Saidrasul Saidaziziy, Munavvarqori, Behbudiy, milliy madaniyat.

Kirish

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston jamiyatida ta’lim va madaniyatni yangilash masalasi tobora muhimlashib bordi. Yangi davr sharoitida faqat an’anaviy bilimlar bilan chegaralanib qolish jamiyatning ilmiy va madaniy rivojlanishi uchun yetarli emasligi ayon bo‘la boshladi. Shu sababli taraqqiyparvar ziyolilar ta’limning yangi usullarini joriy etish, zamonaviy fanlarni o‘qitish va xalqning savodxonligini oshirishga e’tibor qaratdilar.

Jadidchilik ana shu ehtiyojlar asosida rivojlangan ijtimoiy-ma’rifiy harakatlardan biri bo‘ldi. Harakatning o‘ziga xos tomoni shundaki, uning faoliyati faqat maktab bilan chegaralanib qolmadi. Maktab, darslik, gazeta-jurnal, teatr va nashriyot faoliyati bir-birini to‘ldiruvchi ma’rifiy vositalarga aylandi.

Tarixiy manbalarda jadidchilikning Markaziy Osiyoda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida zamonaviy maktab, matbaa va taraqqiyotning yangi usullarini qo‘llab-quvvatlagan harakat sifatida shakllangani qayd etiladi.

Jadid maktablarining hududiy kengayishi

Jadidlarning eng dastlabki amaliy tashabbuslaridan biri yangi usul maktablarini tashkil etish bo‘ldi. Bunday maktablarda savod chiqarishning yangi metodlaridan foydalanish bilan birga, bolalarga dunyoviy fanlardan ham bilim berishga e’tibor qaratildi.

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Samarqandda 1893-yilda, Qo‘qonda 1898-yilda, Toshkentda 1899-yilda yangi usuldagi maktablar ochilgan. Buxoroda esa 1900-yilda yangi usul maktabi tashkil etilgan. 1903-yilda Mahmudxo‘ja Behbudiy Jomboyda o‘z mablag‘i hisobidan maktab ochgan[1,2].

Jadid maktablarining keyingi yillarda son jihatdan ham kengaygani kuzatiladi. 1911-yilga kelib Turkistonda 63 ta jadid maktabi faoliyat yuritgani va ularda 4106 nafar bola ta’lim olgani haqidagi ma’lumotlar mavjud. 1917-yil boshlariga kelib esa o‘lkada 100 ga yaqin jadid maktablari bo‘lib, ularda 5 mingdan ortiq o‘quvchi tahsil olgan.

Bu raqamlar yangi usuldagi ta’limga bo‘lgan ehtiyoj va qiziqishning asta-sekin ortib borganini ko‘rsatadi.

Darslik yaratish va yangi pedagogik tajriba

Jadidlarning ta’lim sohasidagi faoliyatini maktab ochish bilangina izohlash mumkin emas. Yangi maktablar uchun mahalliy sharoitga mos darslik va o‘quv qo‘llanmalariga ehtiyoj mavjud edi.

Shu sababli jadid ziyolilari o‘zlari darslik va o‘quv adabiyotlari yaratishga kirishdilar. Saidrasul Saidaziziy tomonidan tayyorlangan “Ustodi avval” darsligi 1902-yilda nashr etilgani va qiroat usulidan foydalanilgani tarixiy manbalarda qayd etiladi[3,4].

Munavvarqori Abdurashidxonov ham yangi maktablar uchun bir qator o‘quv qo‘llanmalarini yaratgan. Uning “Adibi avval”, “Adibi soniy”, “Yer yuzi”, “Tajvid” kabi asarlari yangi usuldagi maktablarda foydalanilgan.

Bunday darsliklarning yaratilishi o‘sha davr uchun muhim pedagogik hodisa bo‘lib, o‘quv materiallarini mahalliy o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirish imkonini berdi.

Munavvarqori Abdurashidxonovning ma’rifiy faoliyati

Munavvarqori Abdurashidxonov Toshkentdagi jadidchilik harakatining faol namoyandalaridan biri bo‘lgan. U yangi usuldagi maktablarni tashkil etish, darsliklar yaratish va milliy matbuotni rivojlantirish bilan shug‘ullangan.

Manbalarga ko‘ra, Munavvarqori 1903-yildan boshlab jadid maktablarini ochib, ularda dars bergan. Keyinchalik u o‘qitish jarayonida foydalanish uchun turli darslik va qo‘llanmalar yaratgan. 1906-yilda esa “Xurshid” gazetasini chiqara boshlagan.

Bu faoliyat jadidlarning maktab va matbuotni bir-biridan ajratmaganini ko‘rsatadi. Maktab orqali yosh avlodga bilim berilgan bo‘lsa, gazeta va jurnallar orqali keng jamoatchilikka ma’rifiy g‘oyalar yetkazilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy va ta’lim tashabbuslari

Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining faol tashkilotchilaridan biri sifatida ta’lim va matbuot sohasida katta ishlarni amalga oshirgan. U yangi usuldagi

maktab tashkil etish bilan birga, o‘quvchilar uchun darsliklar yaratishga ham e’tibor qaratgan.

Behbudiyning faoliyatida geografiya faniga alohida e’tibor berilgani ko‘rinadi. U “Qisqacha umumiy geografiya” va “Aholi geografiyasiga kirish” kabi asarlarni yaratgan[5].

Uning 1912–1913-yillarda Samarqandda “Samarqand” gazetasi va “Oyna” jurnalini tashkil etgani ham jadidlarning matbuot orqali ma’rifat tarqatish strategiyasini ko‘rsatadi.

Behbudiy yoshlarning zamonaviy bilimlarni egallashiga alohida e’tibor bergan. 1914-yilda “Oyna” jurnalida e’lon qilingan murojaatida u Turkistonda muallimlar yetishmasligi muammosini ko‘tarib, yoshlarni o‘qituvchi tayyorlash ishiga jalb etish zarurligini ta’kidlagan.

Bu fikr jadidlar uchun ta’lim tizimining rivojlanishi faqat maktablar sonini ko‘paytirish emas, balki malakali pedagoglarni tayyorlash bilan ham bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi.

Matbuot – ma’rifat tarqatish vositasi

Jadidlar matbuotni jamiyatga ta’sir ko‘rsatishning muhim vositalaridan biri sifatida ko‘rdilar. Gazeta va jurnallar orqali ta’lim, madaniyat, adabiyot, fan va ijtimoiy hayotga oid masalalar muhokama qilindi.

1906-yildan “Taraqqiy” va “Xurshid”, keyingi yillarda “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona” kabi nashrlar paydo bo‘ldi. 1913-yildan esa Behbudiy muharrirligida “Oyna” jurnali muntazam nashr etila boshlagan.

Matbuotning rivojlanishi natijasida ma’rifiy g‘oyalarni faqat maktab o‘quvchilari orasida emas, balki keng jamoatchilik orasida ham tarqatish imkoniyati paydo bo‘ldi[6].

Teatrning ma’rifiy imkoniyatlari

Jadidlarning ma’rifiy faoliyatidagi yana bir o‘ziga xos yo‘nalish teatr san’ati bo‘ldi. Ular teatrni ko‘ngilochar vosita sifatida emas, balki jamoatchilikka ijtimoiy va axloqiy masalalarni tushuntirish vositasi sifatida ham qo‘lladilar.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” asari bu boradagi muhim misollardan biridir. Asarda ta’limsiz va tarbiyasiz qolgan yoshning fojiaviy taqdiri orqali ilm va tarbiyaning ahamiyati ko‘rsatilgan. Asar 1914-yilda Samarqand va Toshkentda sahnalashtirilgan.

1914–1916-yillar davomida Samarqand, Toshkent va Qo‘qondagi teatr truppalari tomonidan o‘ndan ortiq dramatik asarlar sahnalashtirilgani ham jadidlarning teatrga bo‘lgan e’tiborini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, teatr ham maktab va matbuot kabi ma’rifat tarqatishning amaliy vositalaridan biriga aylandi.

Jadidlarning xorij tajribasiga munosabati

Jadidlarning faoliyatida boshqa mamlakatlardagi ilm-fan va ta’lim tajribasini o‘rganish ham muhim o‘rin tutgan. Ular zamonaviy taraqqiyot sabablarini anglash uchun boshqa hududlardagi ta’lim va madaniyat rivojini kuzatishga harakat qilganlar.

Behbudiyning Qozon va Ufa shaharlarida bo‘lgani, Yevropa madaniyati bilan qiziqqani hamda keyinchalik Turkiya va Misrga borib, kitoblar va o‘quv qo‘llanmalar olib kelgani haqida ma’lumotlar mavjud.

Bunday tajribalar jadidlarning ma’rifat masalasiga mahalliy doiradan tashqarida, kengroq nuqtayi nazardan qarashga intilganini ko‘rsatadi.

Jadidlar faoliyatining o‘ziga xos jihatlari

Jadidchilik harakatining muhim xususiyatlaridan biri turli ma’rifiy vositalarning o‘zaro bog‘langan holda olib borilganidir.

Birinchi yo‘nalish — **maktab**. U orqali yangi avlodga zamonaviy bilim berildi.

Ikkinchi yo‘nalish — **darslik**. U orqali yangi pedagogik mazmun shakllantirildi.

Uchinchi yo‘nalish — **matbuot**. U orqali ma’rifiy g‘oyalar keng jamoatchilikka yetkazildi.

To‘rtinchi yo‘nalish — **teatr va adabiyot**. Ular orqali jamiyatdagi muammolar badiiy shaklda yoritildi.

Shu sababli jadidlarning faoliyatini faqat ta’lim islohoti doirasida emas, balki kompleks madaniy-ma’rifiy yangilanish jarayoni sifatida baholash mumkin.

Zamonaviy ta’lim uchun tarixiy tajriba

Jadidlar tajribasining bugungi ta’lim uchun ahamiyatli jihatlaridan biri o‘quv jarayonini zamon talablariga moslashtirishga intilishdir. Ular mavjud ta’lim tizimini takomillashtirish uchun yangi metodlar, yangi darsliklar va yangi fanlarni joriy etishga harakat qilganlar.

Bugungi ta’limda ham o‘quvchining faqat tayyor ma’lumotni yodlashi emas, balki axborotni izlash, tahlil qilish, mustaqil fikrlash va amaliy qo‘llash qobiliyatlari muhim hisoblanadi.

Jadidlarning maktab, darslik, matbuot va teatrni bir-birini to‘ldiruvchi vositalar sifatida qo‘llagani ham zamonaviy ta’lim uchun qiziqarli tarixiy tajriba bo‘la oladi. Hozirgi davrda ham ta’limni kitob, elektron resurs, ommaviy axborot vositalari va madaniy loyihalar bilan uyg‘unlashtirish bilimlarni kengroq targ‘ib qilish imkonini beradi[1,3].

Xulosa

Turkiston jadidlarining ma’rifiy faoliyati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jamiyatning ta’lim va madaniy hayotida sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Ularning faoliyati yangi usul maktablarini tashkil etish, darsliklar yaratish,

matbuotni rivojlantirish va teatr orqali ma’rifiy g‘oyalarni tarqatish kabi bir necha yo‘nalishlarda namoyon bo‘ldi.

Jadid maktablarining qisqa vaqt ichida hududiy jihatdan kengayishi, yangi darsliklarning yaratilishi va matbuot nashrlarining ko‘payishi ma’rifiy harakatning amaliy ko‘lamini ko‘rsatadi. Munavvarqori Abdurashidxonovning darslik va maktab faoliyati, Behbudiyning geografik mazmundagi o‘quv adabiyotlari, gazeta-jurnal va teatr sohasidagi tashabbuslari bu jarayonning muhim misollaridir.

Jadidlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ta’limdagi yangilanish faqat maktab binolari yoki dars berish usullarini o‘zgartirish bilan cheklanmaydi. Uning samaradorligi darslik, pedagog, matbuot, adabiyot va madaniy muhitning o‘zaro uyg‘unligiga ham bog‘liq.

Bugungi kunda jadidlarning ushbu tarixiy tajribasini o‘rganish ta’limning jamiyat taraqqiyotidagi rolini chuqurroq anglash, yoshlar orasida kitobxonlik va ilmga qiziqishni rivojlantirish hamda tarixiy-madaniy merosga ilmiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimov B. **Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik.** — Toshkent: Ma’naviyat, 2002.
2. Qosimov B. **Jadidchilik.** — Toshkent: Milliy ensiklopediya, 2000.
3. Behbudiy M. **Tanlangan asarlar.** — Toshkent: Ma’naviyat, 1997.
4. **O‘zbekiston tarixi: oliy ta’lim muassasalari uchun darslik.** — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
5. **Jadidchilik.** — Oyina.uz, 2023.
6. Munavvarqori Abdurashidxonov. **Musulmonlik.** — Ziyouz elektron kutubxonasi.

MAHALLIY KADRLARDAN “IJTIMOIY YOT UNSUR”GACHA: SURXONDARYODA SOVET SIYOSATI VA QATAG‘ON MEXANIZMLARI (1920–1930-YILLAR)

Musurmonova Mohinur Ulug‘bek qizi
Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Maqolada 1920–1930-yillarda Surxondaryoda sovet hokimiyatining mahalliy kadrlarni boshqaruv tizimiga jalb etishi va keyinchalik ularning bir qismini siyosiy-ijtimoiy belgilar asosida chetlashtirish hamda ta’qib qilish jarayoni o‘rganiladi. Tadqiqotda qatag‘on siyosati faqat 1937–1938-yillardagi “Katta terror” doirasida emas, balki 1920-yillarning ikkinchi yarmidan kuchayib borgan ijtimoiy tasniflash, “quloq”, “ijtimoiy yot unsur”, “xalq dushmani” kabi siyosiy kategoriyalarning amaliyotga tatbiq etilishi bilan bog‘liq davomiy jarayon sifatida ko‘rib chiqiladi. Surxondaryodagi mazkur jarayonning individual ko‘rinishi mahalliy sovet boshqaruvi va militsiya tizimida faoliyat yuritgan Chori Berkaliyevning hayot yo‘li misolida mikrohistorik tahlil qilinadi. Shuningdek, 1931-yilda Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi Uchligi tomonidan jazolangan surxondaryoliklar hamda 1937–1938-yillardagi qatag‘onlar haqidagi ma’lumotlar individual keysni umumiy tarixiy jarayon bilan qiyoslash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari sovet hokimiyatiga xizmat qilganlik va partiyaviy mansublik ham mahalliy kadrni keyingi siyosiy ta’qibdan kafolatlamaganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Surxondaryo, sovet hokimiyati, mahalliy kadrlar, qatag‘on, Chori Berkaliyev, “ijtimoiy yot unsur”, BDSB, NKVD, militsiya, Katta terror, mikrohistoriya.

XX asrning 20–30-yillari Surxondaryo tarixida siyosiy va ijtimoiy munosabatlarning tubdan o‘zgargan davri hisoblanadi. Buxoro amirligining tugatilishi va uning hududlarida yangi boshqaruv tizimining joriy qilinishi mahalliy jamiyatni qisqa vaqt ichida yangi siyosiy sharoitga moslashishga majbur etdi. Bir tomondan, yangi hokimiyatga joylardagi sharoitni, aholi turmushini va mahalliy munosabatlarni yaxshi biladigan kadrlar zarur edi. Ikkinchi tomondan, 1920-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab jamiyatni siyosiy va ijtimoiy belgilar asosida guruhlarga ajratish kuchayib, ayrim ijtimoiy qatlamlar yangi tuzum uchun “yot” yoki “xavfli” sifatida talqin qilina boshladi.

Surxondaryodagi qatag‘on jarayonlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar, asosan, 1937–1938-yillardagi ommaviy repressiyalarga e’tibor qaratadi. O. Rahmonov va J. Ergashev ham mavjud adabiyotlarda Surxondaryo bo‘yicha maxsus izlanishlarning yetarli emasligini qayd etib, qatag‘onning mintaqaviy xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi.

Biroq qatag‘on tarixini faqat uning eng yuqori nuqtasi bo‘lgan 1937–1938-yillar bilan chegaralash jarayonning avvalgi bosqichlarini e’tibordan chetda qoldiradi. Surxondaryodan bo‘lgan ko‘plab kishilarning 1931-yildayoq Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi (BDSB) Uchligi qarori asosida konslagerlarga

yuborilgani repressiv amaliyot mintaqada “Katta terror”dan ancha oldin mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

Shundan kelib chiqib, mazkur maqolada qatag‘on siyosati 1920-yillarda yangi boshqaruv tizimining shakllanishidan 1930-yillar oxiridagi ommaviy repressiyalargacha bo‘lgan jarayon doirasida tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor mahalliy kadrlarning yangi tuzumdagi o‘rni va siyosiy mezonlar o‘zgarishi natijasida ularning ayrimlari qanday qilib “ijtimoiy yot unsur” yoki siyosiy jihatdan shubhali shaxs sifatida baholana boshlaganiga qaratiladi.

Maqolaning maqsadi 1920–1930-yillarda Surxondaryoda sovet hokimiyatining mahalliy kadrlarga munosabatidagi o‘zgarishlarni aniqlash va ushbu jarayonning qatag‘on mexanizmlari bilan bog‘liqligini individual taqdir misolida ko‘rsatishdan iborat.

Tadqiqotda tarixiylik, qiyosiy tahlil, biografik hamda tarixshunoslik yondashuvlaridan foydalanildi. Tarixshunoslik yondashuvi umumiy siyosiy jarayonni bir shaxs hayotida kuzatish, biografik ma’lumotlarni mintaqada kechgan kengroq ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan qiyoslash imkonini beradi.

1920-yilda Buxoro amirligining tugatilishi Surxon vohasidagi siyosiy vaziyatni keskin o‘zgartirdi. Eski boshqaruv institutlarining o‘rnida yangi hokimiyat organlari tashkil qilinar ekan, ularning faoliyati uchun mahalliy aholi orasidan kadrlarni jalb qilish zarurati yuzaga keldi. Ayniqsa, savodli, rus tilini biladigan, mahalliy sharoit va aholi bilan ishlash tajribasiga ega kishilar yangi boshqaruv tizimi uchun muhim edi.

Ana shunday mahalliy kadrlardan biri Chori Berkaliyev edi. U 1895-yilda Buxoro amirligining Sherobod bekligiga qarashli Xo‘shman qishlog‘ida, dehqon oilasida tug‘ilgan. Dastlab qishloq imomida savod chiqargan, 1907-yildan dehqonchilik va yollanma mehnat bilan shug‘ullangan. 1915–1917-yillarda Kogon–Termiz temiryo‘lida ishlashi uning keyingi faoliyatida muhim ahamiyat kasb etdi: shu davrda u rus va tojik tillarini o‘zlashtirdi. 1918-yilda esa yana Xo‘shmanga qaytib, dehqonchilik bilan shug‘ullandi[13].

Ch. Berkaliyevning siyosiy faoliyatga kirib kelishi aynan eski va yangi siyosiy tizimlar almashgan davrga to‘g‘ri keldi. 1920-yilda u Xo‘shman volosti Inqilobiy qo‘mitasi raisi etib saylandi. Bu davrda Boysun, Sherobod va Denov hududlarida yangi hokimiyatga qarshi qurolli harakatlar davom etayotgan edi. U. Quvvataliyev keltirgan ma’lumotga ko‘ra, Ch. Berkaliyev qishloq aholisini birlashtirish hamda qizil armiya vakillari va qo‘rboshilar bilan muzokara olib borish orqali Xo‘shmanni qurolli to‘qnashuvlardan saqlashga harakat qilgan[14].

Mazkur ma’lumotni ehtiyotkorlik bilan baholash lozim, chunki hozircha bu voqeaning mustaqil arxiv tasdig‘i aniqlanmagan. Shunga qaramay, uning keyingi xizmat faoliyati Ch. Berkaliyevning yangi boshqaruv tizimida muhim mahalliy kadrga aylanganini boshqa manbalar bilan ham kuzatish imkonini beradi.

---

[13] Quvvataliyev U. **Chori Berkaliyev: oddiy o‘zbek dehqoni hayotidagi mustabid sovet tizimi izi** // Oyina.uz. 14.12.2024

[14] O‘sha joyda.

1924-yilda u Termiz tuman ijroiya qo‘mitasi raisi lavozimiga tayinlangan. U. Quvvataliyev ma’lumotiga ko‘ra, shu yili Buxoro Respublikasi “Qizil Yulduz” ordeni bilan ham taqdirlangan. 1926-yildan Ch. Berkaliyevning militsiya tizimidagi faoliyati boshlangan, 1927-yilda esa Butunrossiya Kommunistik partiyasiga qabul qilingan. 1927–1928-yillarda Termiz rayon ijroiya qo‘mitasi raisi, 1928–1931-yillarda Surxondaryo okrug militsiya bo‘limi boshlig‘i, 1931–1933-yillarda yana Termiz rayon ijroiya qo‘mitasi raisi bo‘lib ishlagan[15].

Ch. Berkaliyevning militsiyadagi faoliyati boshqa ilmiy manbada ham tasdiqlanadi. Surxondaryoda ichki ishlar organlari tarixiga oid tadqiqotda 1930-yilda okrug militsiyasi boshlig‘i Chori Berkaliyev tomonidan Sariosiyo, Jarqo‘rg‘on, Sherobod va Denov rayonlari bo‘yicha militsiya shtatlari tasdiqlangani arxiv materiallari asosida qayd etilgan.

Demak, Chori Berkaliyev biografiyasi 1920-yillarda yangi hokimiyatning mahalliy kadrlar bilan ishlash siyosatini kuzatish imkonini beradi. U eski siyosiy elitaning yuqori mansabli vakili emas, balki mahalliy muhitdan yetishib chiqib, yangi boshqaruv tizimiga kirgan va unda rahbarlik darajasigacha ko‘tarilgan shaxs edi.

1920-yillarning ikkinchi yarmiga kelib sovet hokimiyatining mahalliy jamiyatga munosabatida boshqa tendensiya ham kuchaya boshladi. Jamiyatning ayrim qatlamlari iqtisodiy holati, oldingi ijtimoiy mavqei, diniy faoliyati yoki siyosiy o‘tmishiga qarab tasniflandi. Yer-suv islohotlari va keyinchalik kollektivlashtirish jarayonlari iqtisodiy o‘zgarish bilangina cheklanmay, siyosiy-ijtimoiy mazmun ham kasb etdi.

Bu jarayon Surxondaryoda ham kuzatildi. X.X. Qobilovning tadqiqotlariga ko‘ra, 1928-yil 31-dekabr holatiga Surxondaryo okrugida sobiq amir amaldorlari, ruhoniylar va boylardan 1335 kishi “quloq” qilingani qayd etilgan[16]. Bunday siyosiy-ijtimoiy tasniflashning kengayishi yangi hokimiyat tizimida faoliyat yuritayotgan mahalliy kadrlarning mavqeiga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin edi. Shaxsning amaldagi xizmatidan tashqari uning oilaviy kelib chiqishi, ota-onasining mulki, oldingi ijtimoiy aloqalari va siyosiy tarjimai holi ham muhim mezonga aylanib bordi.

Chori Berkaliyevning keyingi taqdiri aynan shu jihatdan e’tiborga molik. U. Quvvataliyev ma’lumotiga ko‘ra, Ch. Berkaliyevning otasi ma’lum yer-mulkka egalik qilgan. Muallif uning keyingi ta’qibini aynan shu holat bilan bog‘laydi[17]. Biroq hozirgi mavjud manbalar otasining mulkdorligi Ch. Berkaliyevga qarshi 1933-yildagi siyosiy qarorning yagona va bevosita sababi bo‘lganini qat’iy isbotlash

---

[15] Quvvataliyev U. **Chori Berkaliyev: oddiy o‘zbek dehqoni hayotidagi mustabid sovet tizimi izi** // Oyina.uz. 14.12.2024

[16] Qobilov X.X. Sovet hokimiyatining O‘zbekistonda amalga oshirgan yer-suv islohotlari va uning natijalari (1920-1940 yillarda Surxondaryo misolida). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya avtoreferati. Termiz. 2024-y. B-20.

[17] Quvvataliyev U. **Chori Berkaliyev: oddiy o‘zbek dehqoni hayotidagi mustabid sovet tizimi izi** // Oyina.uz. 14.12.2024

imkonini bermaydi. Shu bois ushbu holatni tayyor xulosa sifatida emas, uning ijtimoiy kelib chiqishiga berilgan siyosiy bahoni tushunishga yordam beruvchi omil sifatida ko‘rish maqsadga muvofiq.

1933-yil Chori Berkaliyev hayotida keskin burilish yasadi. O‘n yildan ortiq vaqt davomida yangi hokimiyatning turli mahalliy institutlarida xizmat qilgan, kommunistik partiya a’zosi bo‘lgan va militsiya tizimida rahbarlik lavozimini egallagan shaxs “ijtimoiy yot unsur” deb topilib, partiya safidan chiqarildi[18].

Shundan keyin Ch. Berkaliyev Toshkentga chaqirtirilib, hibsga olindi. Unga “bosmachilar” bilan hamkorlik qilish va sovet hokimiyatiga qarshi targ‘ibot olib borish singari ayblovlar qo‘yilgani qayd etiladi. Ch. Berkaliyev ayblovlarni tan olmagan. 1934-yilda esa sud uni oqlagan[19].

Bu voqea bir shaxs tarjimai holidagi keskin o‘zgarishdan kengroq mazmunga ega. Chunki Ch. Berkaliyevning 1920-yillardagi xizmat faoliyati bilan 1933-yilda unga berilgan siyosiy baho o‘rtasida yaqqol nomuvofiqlik mavjud: bir davrda davlat uchun ishonchli hisoblangan kadr keyingi davrda siyosiy jihatdan shubhali shaxsga aylangan.

Ch. Berkaliyevning taqdiri shu ma’noda sovet siyosatidagi “ishonchlilik” mezonining o‘zgarmas bo‘lmaganini ko‘rsatadi. Avvalgi xizmat, rahbarlik lavozimi va partiyaga mansublik shaxsning keyingi siyosiy ta’qibdan himoyalanishini kafolatlamagan. Buni faqat Ch. Berkaliyevga xos istisno deb baholash ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki Surxondaryoda siyosiy jazolash mexanizmlari 1930-yillarning boshidayoq kengroq doirada qo‘llanayotgan edi.

2022-yil 19-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan ko‘rib chiqilgan qatag‘on qurbonlariga oid ishlar bu masalaga muhim ma’lumot beradi. Sud majlislarida jami 173 shaxsga oid to‘rtta jinoyat ishi bo‘yicha ilgari chiqarilgan hukmlar qayta ko‘rib chiqilib, ular Jinoyat-protsessual kodeksining 83-moddasi asosida oqlangan.

Ular orasida Markaziy Osiyodagi BDSB Uchligining 1931-yil 12-oktabrdagi maxsus yig‘ilish qarori bilan jazolangan ko‘plab surxondaryoliklar ham mavjud. Masalan, 1896-yilda tug‘ilgan Xasan Davlyatov 10 yil, 1876-yilda tug‘ilgan Minniyaz Xodjimu 10 yil, 1901-yilda tug‘ilgan Babakul Musayev 10 yil, 1891-yilda tug‘ilgan Ataxan Yuldashev esa 5 yil muddatga konslagerga yuborilgan. Ularning barchasiga O‘zSSR Jinoyat kodeksining eski tahrirdagi 78-moddasi qo‘llangan.

Ro‘yxat shu to‘rt shaxs bilan cheklanmaydi. Unda Surxondaryoda tug‘ilgan o‘nlab kishilar qayd etilib, aksariyatiga 3, 5 yoki 10 yillik konslager jazosi tayinlangan. Ayrimlariga 63, 66 va 78-moddalar birgalikda qo‘llangan. Ba’zi hukmlarda mol-mulkni musodara qilish ham jazoning tarkibiy qismi bo‘lgan.

Bu ma’lumotlarning ahamiyati shundaki, ular Surxondaryodagi siyosiy repressiyani faqat 1937–1938-yillardan boshlash to‘g‘ri emasligini ko‘rsatadi. BDSB Uchligi orqali suddan tashqari yoki soddalashtirilgan siyosiy jazolash

[18] Quvvataliyev U. **Chori Berkaliyev: oddiy o‘zbek dehqoni hayotidagi mustabid sovet tizimi izi** // Oyina.uz. 14.12.2024

[19] O‘sha joyda

amaliyoti mintaqada 1930-yillarning boshidayoq ko‘plab insonlar taqdiriga ta’sir ko‘rsatgan.

Shu tarixiy fon Ch. Berkaliyevning 1933-yilda “ijtimoiy yot unsur” sifatida siyosiy tizimdan chetlashtirilishini alohida hodisadan ko‘ra kengroq jarayonning bir ko‘rinishi sifatida o‘rganish imkonini beradi. Albatta, 1931-yilda hukm qilingan shaxslarning ishlari bilan Ch. Berkaliyevning 1933-yildagi ishi o‘rtasida bevosita tashkiliy bog‘liqlikni mavjud manbalar asosida da’vo qilib bo‘lmaydi. Ammo xronologik yaqinlik mintaqada siyosiy nazorat va repressiv amaliyot kuchayib borayotgan umumiy muhitni ko‘rsatadi.

1934-yilda oqlangan Ch. Berkaliyev keyinchalik Turkmaniston SSRga ko‘chib o‘tgan. 1935–1938-yillarda Toshhovuz oblastida rayon ijroiya qo‘mitasi instruktori, so‘ngra suv xo‘jaligida gidrotexnik sifatida faoliyat yuritgan. Biroq uning birinchi ish bo‘yicha oqlanishi siyosiy ta’qibning yakunlanganini anglatmagan.

1938-yil 15-martda Ch.Berkaliyev yana hibsga olingan. U. Quvvataliyevning ma’lumotiga ko‘ra, uzoq davom etgan tergov natijasida uning aybdorligini isbotlovchi dalillar aniqlanmagan va 1940-yil 13-yanvarda ozod qilingan.

Ikkinchi hibsning sanasi alohida ahamiyatga ega, chunki u SSSR miqyosidagi ommaviy repressiyalarning eng yuqori bosqichlaridan biri bilan bir davrga to‘g‘ri keladi. Surxondaryoga bag‘ishlangan O. Rahmonov va J. Ergashev tadqiqotida NKVDning 00447-sonli buyrug‘i asosida “antisovet unsurlar”ga qarshi keng miqyosli operatsiyalar o‘tkazilgani ko‘rsatiladi[20].

Shu bilan birga, mazkur tadqiqotdagi ayrim statistik hisob-kitoblarga ehtiyotkorlik bilan yondashish talab etiladi. Masalan, mualliflar O‘zbekiston bo‘yicha belgilangan limitlarni aholi soniga mutanosib ravishda Surxondaryoga tatbiq etib, viloyatda taxminan 160 kishi qatl etilgan va 320 kishi ozodlikdan mahrum qilingan bo‘lishi mumkinligini hisoblaydi. Mualliflarning o‘zi ham buni taxminiy ko‘rsatkich sifatida beradi. Shu sababli mazkur raqamlarni Surxondaryodagi aniqlangan qurbonlar soni sifatida qabul qilish mumkin emas.

Biroq individual holatlar repressiyaning hududdagi real ko‘rinishlarini ko‘rsatadi. O. Rahmonov va J. Ergashev Denov tumani Teshon qishlog‘ida tug‘ilgan mulla Xo‘ja Yo‘ldoshev 1937-yil 25-noyabrda “aksilinqilobiy faoliyat”da ayblanib hibsga olingani va 1990-yil 8-mayda oqlanganini qayd etadi. Denov tumani Zahartepa qishlog‘ida tug‘ilgan Dilovar Karimov esa 1938-yil 24-yanvarda hibsga olinib, qamoqda vafot etgan; u 1990-yil 30-dekabrda oqlangan.

Ushbu misollar Ch. Berkaliyevning ikkinchi hibsini kengroq repressiv muhitdan ajratib bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Biroq uning taqdiri boshqa ko‘plab qurbonlardan bir jihati bilan farqlanadi: ikki marta siyosiy ta’qibga uchragan bo‘lsa-da, har ikki holatda ham ayblovlar yakuniy hukm bilan mustahkamlanmagan va u ozodlikka chiqqan.

---

[20] Rahmonov O.R., Ergashev J.Y. **Katta terror davrida Surxondaryodan qatag‘on qilinganlar** // *XXI asrda ilm-fan taraqqiyotining asosiy tendensiyalari va xususiyatlari*. – 2025. – № 9, maxsus son. – B. 665–670.

Ch. Berkaliyevning biografiyasi 1920–1930-yillardagi Surxondaryo tarixini o‘rganishda bir nechta muhim masalani bir nuqtada tutashtiradi.

Birinchidan, uning hayot yo‘li yangi hokimiyatning dastlabki yillarida mahalliy kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni ko‘rsatadi. Qishloq muhitidan chiqqan, mahalliy aholi turmushini bilgan va bir necha tilda muloqot qila olgan shaxs qisqa muddatda volost inqilobiy qo‘mitasidan rayon ijroiya qo‘mitasi va okrug militsiyasi rahbarligigacha ko‘tarildi.

Ikkinchidan, uning taqdiri sovet boshqaruv tizimiga integratsiyalashuv siyosiy xavfsizlik kafolati bo‘lmaganini ko‘rsatadi. Ch. Berkaliyevning partiyaga a’zoligi, militsiya va ijroiya organlaridagi rahbarlik faoliyati 1933-yilda unga “ijtimoiy yot unsur” sifatida baho berilishiga to‘sqinlik qilmadi.

Uchinchidan, bu keys “ijtimoiy kelib chiqish”ning siyosiy ahamiyatini ko‘rsatadi. Biroq bu yerda sabab va kontekstni farqlash lozim. Ch. Berkaliyev otasining yer-mulkka egaligi haqidagi ma’lumot uning oilaviy-ijtimoiy kelib chiqishini tushunishga xizmat qiladi, ammo hozircha aynan shu holat uning qatag‘on qilinishiga bevosita sabab bo‘lganini ko‘rsatuvchi birlamchi tergov hujjati aniqlanmagan.

To‘rtinchidan, Ch. Berkaliyevning 1934-yilda oqlanib, 1938-yilda yana hibsga olinishi siyosiy shubhaning davomiyligini ko‘rsatadi. Shaxsga nisbatan bir ishning tugatilishi uning keyingi repressiv kampaniyalardan tashqarida qolishini anglatmagan.

Nihoyat, 1931-yilda ko‘plab surxondaryoliklarning bitta BDSB Uchligi qarori asosida jazolanishi, 1933-yilda Ch. Berkaliyevning siyosiy tizimdan chetlashtirilishi va 1937–1938-yillarda repressiyaning ommaviy tus olishi birgalikda ko‘rilganda, mintaqadagi qatag‘on tarixining bosqichma-bosqich rivojlanganini kuzatish mumkin. Bunda 1937–1938-yillar jarayonning boshlanishi emas, balki avvalgi yillarda shakllanib borgan siyosiy tasniflash va jazolash amaliyotining keskin kengaygan bosqichi sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. 1920–1930-yillarda Surxondaryoda kechgan siyosiy jarayonlarni mahalliy kadrlar taqdiri bilan bog‘liq holda o‘rganish qatag‘on tarixining murakkabroq manzarasini ko‘rsatadi. Yangi hokimiyatning dastlabki yillarida mahalliy sharoitni biladigan kadrlarni davlat boshqaruvi, militsiya va boshqa institutlarga jalb qilish zarurati mavjud bo‘lgan. Biroq keyinchalik jamiyatni sinfiy va siyosiy mezonlar asosida tasniflash kuchayishi bilan mahalliy kadrlarning ijtimoiy kelib chiqishi, avvalgi aloqalari va siyosiy ishonchliligi qayta baholana boshladi.

Ch. Berkaliyevning hayot yo‘li ushbu o‘zgarishning individual ko‘rinishini beradi. U yangi tuzum sharoitida mahalliy boshqaruvning quyi bo‘g‘inidan Surxondaryo okrug militsiyasi rahbarligigacha ko‘tarildi. 1930-yilda uning okrug militsiyasi boshlig‘i sifatidagi faoliyati arxiv hujjatlariga tayangan tadqiqotda ham qayd etilgan. Shunga qaramay, 1933-yilda u “ijtimoiy yot unsur” sifatida partiyadan chiqarilib, hibsga olindi. 1934-yilda oqlanganidan keyin ham 1938-yilda yana

qamoqqa olinishi uning avvalgi xizmatlari siyosiy shubhani bartaraf eta olmaganini ko‘rsatadi.

Surxondaryoliklarning 1931-yildayoq BDSB Uchligi tomonidan ommaviy ravishda konslagerlarga yuborilgani esa Berkaliyev taqdirini yakka hodisa sifatida ko‘rishga imkon bermaydi. 1937–1938-yillardagi ommaviy qatag‘onlar bu jarayonni yanada kengaytirdi.

Shu asosda tadqiqotning asosiy xulosasi shuki, Surxondaryoda qatag‘on mexanizmlarining shakllanishini faqat “Katta terror” yillari bilan chegaralash yetarli emas. 1920-yillarda yangi boshqaruv tizimiga mahalliy kadrlarni jalb qilish bilan bir vaqtda jamiyatni ijtimoiy-siyosiy jihatdan tasniflash jarayoni ham shakllanib bordi. 1930-yillarda esa bu tasniflar siyosiy chetlashtirish va jazolash vositalaridan biriga aylandi. Shu tariqa bir davrda yangi hokimiyat uchun zarur bo‘lgan mahalliy kadr boshqa siyosiy sharoitda “ijtimoiy yot unsur” sifatida baholanishi mumkin edi.

Ch. Berkaliyev taqdiri ana shu ziddiyatni bir inson hayoti doirasida ko‘rsatadi. Uning tarjimai holi qatag‘on tarixini faqat qurbonlar soni va hukmlar statistikasi orqali emas, balki hokimiyat va inson o‘rtasidagi munosabatlarning o‘zgarishi orqali ham o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Quvvataliyev U. **Chori Berkaliyev: oddiy o‘zbek dehqoni hayotidagi mustabid sovet tizimi izi** // Oyina.uz. 14.12.2024. https://oyina.uz/uz/article/3293
2. Rahmonov O.R., Ergashev J.Y. **Katta terror davrida Surxondaryodan qatag‘on qilinganlar** // *XXI asrda ilm-fan taraqqiyotining asosiy tendensiyalari va xususiyatlari*. – 2025. – № 9, maxsus son. – B. 665–670. DOI: 10.5281/zenodo.17297136.
3. **Sovet davrida qatag‘on qilinib, 90 yildan so‘ng oqlangan 173 o‘zbek** // Oyina.uz. – 09.01.2023. https://oyina.uz/uz/article/1317
4. Qobilov X.X. Sovet hokimiyatining O‘zbekistonda amalga oshirgan yer-suv islohotlari va uning natijalari (1920-1940 yillarda Surxondaryo misolida). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya avtoreferati. Termiz. 2024-y. B-20.

Qatag‘on qilingan ziyolilar orzu qilgan kelajak: jadidlar g‘oyalari va bugungi O‘zbekiston taraqqiyoti

Termiz davlat universiteti
Psixologiya yo’nalishi
talabasi Klicheva Laziza

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidchilik harakati vakillarining xalqni ma’rifatli qilish, zamonaviy ta’limni rivojlantirish va milliy taraqqiyotga erishishga qaratilgan g‘oyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, qatag‘on siyosati natijasida millat taraqqiyoti uchun kurashgan ko‘plab ziyolilarning hayoti va faoliyati to‘xtatilgani hamda buning jamiyat taraqqiyotiga ko‘rsatgan ta’siri yoritiladi. Maqolada jadidlar orzu qilgan ma’rifatli va taraqqiyparvar jamiyat g‘oyalari bugungi O‘zbekiston taraqqiyoti bilan qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, qatag‘on, ziyolilar, ma’rifat, ta’lim, milliy taraqqiyot, jadidlar, O‘zbekiston.

Yigirmanchi asrning boshlarida Turkiston zaminida shakllangan jadidchilik harakati millat tarixidagi eng yorqin va shu bilan birga eng fojiali sahifalardan biridir. Bu harakat xalqimizning milliy uyg‘onishi, ma’rifat va taraqqiyot sari intilishi bilan chambarchas bog‘liq edi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi o‘nlab millat fidoyilari faqat o‘z davrining ziyolilari emas, balki millat kelajagi haqida qayg‘urgan buyuk ma’rifatparvarlar ham edilar. Ular xalqning ozodligi, ma’rifati, milliy o‘zligini anglash va taraqqiyotga erishishi yo‘lida fidokorona faoliyat olib bordilar.

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida siyosiy, madaniy va iqtisodiy jihatdan murakkab ahvolga tushib qolgan Turkiston o‘lkasida rivojlanish darajasi mustamlakachilik siyosati tufayli ancha past edi. Chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmi o‘lkaning siyosiy va iqtisodiy hayotiga, xalqning milliy manfaatlari hamda erkinligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan edi. Ana shunday murakkab sharoitda Turkistonning ilg‘or ziyolilari xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarish, ma’rifat tarqatish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo‘l ochish hamda milliy

davlatchilik g‘oyalarini shakllantirish yo‘lida faol kurash olib bordilar. Bu borada jadidchilik harakati katta tarixiy ahamiyat kasb etdi. [1]

Jadidchilik rus mustamlakachiligi sharoitida shakllangan milliy-demokratik va ma’rifatparvarlik harakati bo‘lib, uning asosiy maqsadi Turkiston xalqlarini ma’rifatlashtirish, jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy islohotlarni amalga oshirish hamda milliy mustaqillik g‘oyalarini shakllantirishdan iborat edi. Jadidlar xalqning taraqqiyoti, avvalo, uning bilim va dunyoqarashiga bog‘liq ekanligini chuqur angladilar. Shu sababli ular jamiyatni o‘zgartirishning eng muhim yo‘li sifatida ta’lim va ma’rifatni tanladilar. [1]

Jadidlar orzu qilgan kelajakning eng muhim shartlaridan biri milliy mustaqillik va hurriyat edi. Ular xalqning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi, o‘z milliy davlatchiligiga ega bo‘lishi va o‘z yurtida erkin yashashi uchun kurashdilar. Millat siyosiy jihatdan ozod bo‘lmasdan turib, uning to‘laqonli taraqqiy etishi qiyin ekanligini jadidlar yaxshi tushunganlar. Shu sababli ularning faoliyatida milliy ozodlik, Vatan ravnaqi va xalq manfaatlari muhim o‘rin egallagan. Ma’rifat ular uchun faqat savod chiqarish vositasi emas, balki milliy ongni uyg‘otish va jamiyatni yangilashning asosiy omili edi.

Bugungi kunda O‘zbekiston jahon hamjamiyatida o‘z o‘rni va ovoziga ega bo‘lgan, suveren va mustaqil davlat sifatida taraqqiy etmoqda. Bu jihatdan qaraganda, jadid bobolarimizning eng buyuk orzularidan biri — ozod va erkin Vatan barpo etish g‘oyasi bugun ro‘yobga chiqdi. Mustaqillik xalqimizga o‘z milliy qadriyatlarini tiklash, tarixini xolisona o‘rganish, ona tilini rivojlantirish va o‘z kelajagini mustaqil belgilash imkoniyatini berdi. Shu ma’noda, jadidlarning milliy davlatchilik va hurriyat haqidagi orzu-intilishlari bugungi O‘zbekiston hayotida o‘zining amaliy ifodasini topmoqda. [2]

Jadidlarning yana bir ulug‘vor maqsadi ta’lim va ma’rifat tizimini isloh qilish edi. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida jadid bobolarimiz xalqning diniy bilimlar

qatorida dunyoviy bilimlarni ham egallashi zarurligini ilgari surdilar. Ular ta’lim tizimini yangilash, yosh avlodga zamonaviy bilimlar berish hamda xalqning dunyoqarashini kengaytirish orqali jamiyat taraqqiyotiga erishish mumkin, deb hisobladilar.

Shu maqsadda jadidlar tomonidan usuli jadid maktablari tashkil etildi. Bu maktablarda ta’limning yangi va samarali usullaridan foydalanilib, o‘quvchilarga nafaqat diniy bilimlar, balki matematika, geografiya, tarix va boshqa dunyoviy fanlar ham o‘qitildi. Zamonaviy darsliklarning yaratilishi va yangi o‘qitish usullarining joriy etilishi o‘sha davr ta’lim tizimida muhim o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Jadidlarning bu boradagi faoliyati xalqning savodxonligini oshirish va ilm-ma’rifatga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. [1; 3]

Jadidlar, shuningdek, yosh avlodni zamon bilan hamnafas bo‘lishga, dunyoda sodir bo‘layotgan yangiliklardan xabardor bo‘lishga va ilm-fanni egallashga da’vat etdilar. Ular o‘g‘il va qizlarning bilim olishi, ma’rifatli va zamonaviy dunyoqarashga ega bo‘lishi xalq kelajagining muhim sharti ekanligini tushundilar. Shuning uchun ham jadidlar faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri yoshlarni tarbiyalash va ularni Vatan ravnaqi uchun xizmat qiladigan bilimli insonlar qilib voyaga yetkazishdan iborat bo‘lgan.

Bugungi O‘zbekistonda ta’lim tizimining rivojlantirilishi, yoshlarning zamonaviy bilimlarni egallashi uchun yangi imkoniyatlarning yaratilishi jadidlar ilgari surgan ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan hamohangdir. Yangi ta’lim muassasalarining tashkil etilishi, ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar va yoshlarni ilm-fanga jalb etishga qaratilayotgan e’tibor jamiyat taraqqiyotida bilimning ahamiyati tobora ortib borayotganini ko‘rsatadi. Bu jarayonlarni jadidlar boshlab bergan ma’rifatparvarlik harakatining bugungi kundagi mantiqiy davomlaridan biri sifatida baholash mumkin. [2]

Zamonaviy dunyoqarashga ega, xorijiy tillarni o‘rganayotgan, ilm-fan va ilg‘or texnologiyalarni puxta egallashga intilayotgan bugungi yoshlar jadidlar orzu qilgan ma’rifatli avlodning yorqin namunasidir. Chunki jadidlarning asosiy maqsadlaridan biri ham xalqni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish va uni dunyo taraqqiyotidan ortda qolmasligini ta’minlash edi. Bugungi yoshlarning ilm olish, yangi kasblarni egallash va xalqaro maydonda o‘z o‘rnini topishga intilishi jadidlar g‘oyalarining hanuzgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligini ko‘rsatadi.

Jadid bobolarimiz milliy til va adabiyotni rivojlantirish, matbuot va teatr orqali xalqning dunyoqarashini kengaytirishga ham ulkan hissa qo‘shdilar. Ular millatning o‘zligini anglashida ona tili, adabiyot va madaniyatning o‘rni beqiyos ekanligini yaxshi tushunganlar. Shu sababli jadidlar o‘z asarlari, gazeta va jurnallari orqali xalqni ilm-ma’rifatga, ozodlikka va milliy uyg‘onishga chorladilar. Matbuot ular uchun jamiyat muammolarini muhokama qilish va xalqni ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan xabardor etishning muhim vositasi bo‘ldi. [3]

Cho‘lponning she’riyati va Abdulla Qodiriyning romanlari xalqning milliy o‘zligini anglashida muhim ahamiyat kasb etdi. Ularning ijodida xalqning orzu-intilishlari, ozodlikka bo‘lgan umidi va millat taqdiri o‘z ifodasini topgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy va boshqa jadid ma’rifatparvarlarining matbuot hamda teatr sohasidagi faoliyati ham xalqning fikrlash doirasini kengaytirish va jamiyatdagi muammolarga e’tibor qaratishda muhim vosita bo‘ldi. Adabiyot va san’at orqali ilgari surilgan g‘oyalar insonning ichki dunyosiga ta’sir ko‘rsatib, uni jamiyat va Vatan taqdiri haqida mushohada yuritishga undadi. [3; 4]

Jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z faoliyatida ta’lim, matbuot, adabiyot va teatrni bir-biri bilan bog‘liq holda rivojlantirishga intildi. U xalqning taraqqiyoti uchun zamonaviy bilim va milliy ong zarurligini ta’kidladi. Behbudiy nafaqat yangi maktablar tashkil etish va darsliklar yaratish, balki xalqni ijtimoiy-siyosiy masalalarga befarq bo‘lmaslikka chaqirish

orqali ham jadidchilik harakatining rivojiga katta hissa qo‘shdi. Uning hayoti va faoliyati keyinchalik qatag‘on siyosatining fojiali oqibatlarini boshdan kechirgan milliy ziyolilar taqdirining yorqin namunalaridan biridir. [3]

Abdurauf Fitrat ham jadidchilik harakatining eng yirik vakillaridan biri sifatida millatning ilmiy, madaniy va siyosiy taraqqiyoti uchun faol xizmat qildi. Uning asarlarida xalqni jaholatdan chiqarish, zamonaviy bilimlarni egallash, milliy o‘zlikni anglash va jamiyatni isloh qilish masalalari keng yoritilgan. Fitratning ilmiy va adabiy merosi jadidchilik g‘oyalarining mazmunini chuqurroq anglash imkonini beradi. Uning hayoti ham milliy ziyolilarning siyosiy qatag‘onlar davrida qanday og‘ir sinovlarga duch kelganini ko‘rsatadi. [4]

Munavvarqori Abdurashidxonovning faoliyatida ham ta’lim va tarbiya masalalari alohida o‘rin egalladi. U yangi usul maktablarini rivojlantirish, darsliklar yaratish va yoshlarni zamonaviy bilimlar asosida tarbiyalashga katta e’tibor berdi. Uning ma’rifatparvarlik faoliyati Turkistonda yangi pedagogik tafakkurning shakllanishiga xizmat qildi. Jadidlarning ta’lim sohasidagi sa’y-harakatlari natijasida xalq orasida savodxonlikni oshirish, ilmga qiziqishni kuchaytirish va yosh avlodning dunyoqarashini kengaytirish uchun muhim zamin yaratildi. [1; 4]

Hozirgi O‘zbekistonda o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish, milliy adabiyot va madaniy merosimizni o‘rganish, uni asrash hamda dunyoga targ‘ib qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar jadidlar ilgari surgan g‘oyalarning muhim jihatlari bilan hamohangdir. Milliy merosimizga bo‘lgan e’tiborning kuchayishi, jadidlar nomi va merosining qayta tiklanishi xalqimizning o‘z tarixiga bo‘lgan hurmati va e’tiborini namoyon etadi. [2]

Afsuski, jadidchilik harakatining ko‘plab buyuk namoyandalari mustabid tuzum tomonidan shafqatsizlarcha qatag‘on qilindi. Qatag‘on faqat alohida insonlarning hayotiga chek qo‘ymadi, balki millatning ilmiy, madaniy va ma’naviy taraqqiyotiga ham katta zarba berdi. O‘z davrining eng bilimli, ilg‘or fikrlovchi va

Vatan ravnaqi uchun kurashgan insonlarining yo‘q qilinishi xalqimiz tarixida og‘ir va fojiali iz qoldirdi. [5]

Eng achinarlisi, qatag‘on natijasida nafaqat o‘sha davrning buyuk ziyolilari, balki ular tarbiyalashi, ilm berishi va ilhomlantirishi mumkin bo‘lgan kelajak avlodlar ham ulkan imkoniyatlardan mahrum bo‘ldi. Agar jadidlarning faoliyati zo‘ravonlik bilan to‘xtatilmaganida, Turkistonning ilmiy, madaniy va ijtimoiy taraqqiyoti yanada yuqori darajada bo‘lishi mumkin edi. Siyosiy ta’qiblar natijasida milliy tafakkurning rivojlanishi sekinlashdi, ko‘plab asarlar va ilmiy qarashlarning avlodlarga yetib borishiga to‘sqinlik qilindi. Shunday bo‘lsa-da, jadidlarning ezgu g‘oyalari xalq qalbidan butunlay o‘chib ketmadi.

Jadid ziyolilarining qatag‘on qilinishi XX asr tariximizning eng og‘ir sahifalaridan biri hisoblanadi. Ular turli siyosiy ayblovlar bilan ta’qib qilindi, hibsga olindi va ko‘pchiligi o‘z hayotidan ayrildi. Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonov kabi millat fidoyilarining fojiali taqdiri qatag‘on siyosatining xalqimizga yetkazgan zararini yaqqol ko‘rsatib beradi. Ularning yo‘q qilinishi bilan birga, millatning o‘z tarixini, adabiyotini va ilmiy merosini rivojlantirish imkoniyatlari ham keskin cheklab qo‘yildi. [5]

Bugungi mustaqil O‘zbekistonda jadidlar merosiga bo‘lgan e’tibor va hurmat tobora ortib bormoqda. Ularning hayoti, faoliyati va ilmiy-adabiy merosini o‘rganish orqali yosh avlodda Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat va ma’rifatga intilish tuyg‘ularini shakllantirish mumkin. Jadidlarning milliy mustaqillik, ma’rifat, taraqqiyot va erkin fikrlash haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Qatag‘on qurbonlarining nomlarini tiklash va ularning merosini keng o‘rganish tarixiy adolatni qaror toptirishning muhim ko‘rinishidir. [5; 6]

Jadidchilik harakati xalqimiz tarixidagi ulkan ma’naviy va siyosiy hodisalardan biridir. Jadidlar o‘z xalqining kelajagi, Vatan ozodligi va millat

taraqqiyoti uchun fidokorona kurash olib bordilar. Ular mustabid tuzum tomonidan qatag‘on qilingan bo‘lsalar-da, ularning orzu-umidlari, g‘oya va maqsadlari vaqt sinovidan o‘tib, bugungi mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotida o‘z aksini topmoqda. Jadidlar merosi xalqimiz uchun nafaqat boy tarixiy xotira, balki kelajak taraqqiyotiga yo‘l ko‘rsatuvchi muhim ma’naviy manba bo‘lib qolmoqda. Shu bois ularning merosini chuqur o‘rganish, g‘oyalarini anglash va yosh avlodga yetkazish muhim vazifalardan biridir.

Jadidchilik harakati Turkiston tarixida xalqni ma’rifatga, milliy uyg‘onishga va taraqqiyotga chorlagan yirik ijtimoiy-ma’naviy harakat sifatida alohida o‘rin tutadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ziyolilar o‘z faoliyati orqali xalqning kelajagini ilm, ta’lim, milliy ong va hurriyat bilan bog‘ladilar. Ularning asosiy maqsadi jamiyatni zamonaviy bilimlar asosida rivojlantirish va millatning o‘z taqdirini o‘zi belgilashiga erishish edi. [1; 4]

Afsuski, siyosiy qatag‘onlar natijasida ko‘plab jadid ziyolilarining hayoti fojiali tarzda yakunlandi. Bu jarayon nafaqat alohida insonlarning taqdiriga, balki millatning ilmiy, madaniy va ma’naviy taraqqiyotiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Shunga qaramay, ularning g‘oyalari xalq xotirasidan o‘chmadi va mustaqillik yillarida ularning tarixiy merosini tiklash uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Bugungi O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatida rivojlanishi, ta’lim va ilm-fanga berilayotgan e’tibor, milliy madaniyat va tarixiy merosni asrashga qaratilayotgan sa’y-harakatlar jadidlar ilgari surgan ko‘plab g‘oyalar bilan hamohangdir. Shu bilan birga, jadidlar merosi bugungi avlodga tayyor xulosa emas, balki harakat uchun ma’naviy yo‘nalish beradi. Ularning hayoti bizga taraqqiyotning asosi bilim, ma’rifat, mustaqil fikr va Vatanga daxldorlik ekanligini ko‘rsatadi.

Jadidlar orzu qilgan kelajakni yanada mustahkamlash bugungi avlodning zimmasidagi mas’uliyatdir. Bu mas’uliyat, avvalo, sifatli ta’lim olish, ilm-fan bilan

shug‘ullanish, mustaqil fikrlash, milliy qadriyatlarni asrash va jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shish orqali namoyon bo‘ladi. Zero, jadidlar bizga faqat tarixiy meros emas, balki kelajakni bilim va ma’rifat orqali qurish g‘oyasini ham qoldirganlar. [2]

Shunday ekan, qatag‘on qurbonlarini xotirlash — faqat o‘tmish oldidagi qarzdorlikni ado etish emas. Bu bugungi kunning imkoniyatlarini qadrlash, tarixdan saboq olish va kelajak oldidagi mas’uliyatni chuqur anglashdir. Jadidlar orzusi avlodlar xotirasida saqlanibgina qolmasdan, ilmli, erkin fikrlaydigan va Vatan taraqqiyotiga daxldor yoshlar faoliyatida davom etgandagina o‘zining haqiqiy ma’nosini topadi.

Xulosam shuki, jadidchilik harakati Turkiston xalqlarining milliy uyg‘onishi va ma’rifiy taraqqiyotida beqiyos o‘rin tutgan. Jadidlar ta’lim, matbuot, adabiyot, teatr va ijtimoiy-siyosiy faoliyat orqali xalqning dunyoqarashini o‘zgartirishga, milliy o‘zlikni shakllantirishga va ozod kelajak sari yo‘l ochishga intildilar. Ularning ko‘pchiligi qatag‘on siyosatining qurboniga aylangan bo‘lsa-da, ular ilgari surgan g‘oyalar yo‘qolmadi. Aksincha, mustaqillik davrida bu g‘oyalarga va tarixiy merosga yangicha baho berish imkoniyati yaratildi. Bugungi avlod uchun jadidlar hayoti va faoliyati katta saboq maktabidir. Ularning taqdiri ilm-ma’rifat va erkin fikrning qadrini anglashga, tarixiy xotirani asrashga hamda Vatan taraqqiyotiga befarq bo‘lmaslikka undaydi. Qatag‘on qurbonlarini yod etish esa ularning nomlarini eslash bilangina cheklanmasdan, ular orzu qilgan ilmli, ma’rifatli, erkin fikrlaydigan va milliy o‘zligini anglagan avlodni tarbiyalash bilan davom etishi kerak. Ana shundagina jadidlar merosi haqiqiy ma’noda yashaydi va kelajak avlodlar uchun ma’naviy kuch manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimov B. *Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik.* — Toshkent: Ma’naviyat, 2002.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi.* — Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
3. Behbudiy M. *Tanlangan asarlar.* — Toshkent: Ma’naviyat, 1997.
4. Qosimov B. *Jadidchilik.* — Toshkent: Milliy ensiklopediya, 2000.
5. Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi materiallari. — Toshkent.
6. O‘zbekiston tarixi: oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.

QATAG‘ON QURBONLARNING HAYOTI VA FAOLIYATI : MILLATNING UYG'OQ VIJDONI.

Malikova Sadbarg,
Termiz Davlat Universiteti
O‘zbek filologiyasi fakulteti
2-kurs
talabasi
Ilmiy rahbar:*R.Zaripova, f.f.f.d (PhD)*

Kirish

Har bir xalqning tarix sahifalarida nafaqat yorug' kunlar, yutuq va g'alabalar, balki unutilmas fojialari, chuqur ijtimoiy va siyosiy jarohatlar ham muhrlanib qoladi. Xuddi shu singari O'zbek xalqining XX asrdagi eng og'riqli, mudhish va asoratlari bugungi kungacha yetib kelgan fojiasi, shubhasiz mustabit sovet tuzumi davridagi ommaviy siyosiy qatag'onlar. Bu davrda xalqning eng ziyoli va ma'rifatparvar shaxslarga qarata g'arazli niyatida otilgan nohaq toshlar yurakni o'rtaydigan eng og'riqli yara hisoblanadi. Sovet tuzimi davrida xalqning va millatning yo'q bo'lib ketishi uchun qilingan har qanday razillikning ortida "sodda" deymizmi yoki sotqin bo'lgan o'z xalqimizning ba'zi amaldorlari turganligini eslash bu yaraning anchayin chuqur ekanligini anglatadi. Bu davr bizni "Xalq dushmani" degan soxta tamg'a ostida yashagan, surgun qilingan va otib o'ldirilgan millatning eng vijdoni pok, ko‘zi ochiq, ziyoli va o'z elini sevgan fidoyilaridan ayirdi. Bugungi kunda erkin va mustaqil davlatda yashar ekanmiz bu kunlarga yetish ishimizda ularning hissa juda kattadir. O'zbekistondek mustaqil yurtning musaffo havosidan nafas olib turgan, shu davlat osmon ostida birlashgan har bir fuqaro uchun qatag'on qurbonlarining hayoti va faoliyatini chuqur o'rganish - o'tmishdan saboq chiqarish hamda istiqlolning qadriga yetish demakdir.

Jadidchilik harakati va uyg'onish davri

XX asrning boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakati millatni g'ofillik uyqusidandan uyg'otishni maqsad qilgan edi. Qatag'on qurbonlarining mutlaq ko‘pchiligi aynan shu harakatning vakillari yoki ularning g'oyaviy davomchilari edi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat kabi ma'rifatparvarlar dastlab xalqning

savodxonligini oshirish, dunyoviy ilmlarni joriy etish orqali mustaqillikka poydevor qo'yishga urindilar. Ular yangi usuldagi maktablar ochishdi, darsliklar yozishdi, teatr san'atini yo'lga qo'yishdi va matbuot nashrlarini tashkil etishdi. Ularning asosiy maqsadi bitta edi: millat o'zligini anglasin, o'z haq-huquqini bilsin va mustamlaka kishanlarini parchalab tashlasin. Aynan mana shu milliy uyg'onish g'oyasi sovet imperiyasining rahbariyatida katta xavf va qo'rquv uyg'otdi. Bu davrda Sovetlar bu kabi ma'rifatparvarlikni ichdan yemirish maqsadida oddiy va sodda aholidan va amaldorlardan foydalandilar. Oddiy aholining ko'ziga jadidlarni xalq dushmani va sotqin qilib ko'rsatdilar bu natijaga erishish uchun esa ularni amaldorlari orqali qayradilar. Amaldor va mansabli shaxslarga esa jadidlar go'yoki ularning mol-mulklari uchun xavf soladigan dushman kabi tarifladilar. Bu kabi voqealarning yaqqol timsoli "Kecha va Kunduz" asarida ta'riflab o'tilgan.

Zulm ostidagi hayot:

Bu fidoyi insonlarning hayoti fojeaga to‘la bo‘ldi. Ular tun-u kun ta'qib ostida yashashdi. Hech qanday asossiz hibsga olinib, mudhish qiynoqlar ostida so'roq qilindi. Eng achinarlisi, ularning aksariyati o'z ijodiy kuchiga to'lgan, millatga eng ko'p foydasi tegadigan yoshda otib tashlandi yoki surgun lagerlarida halok bo'ldi. Bu davrda tuzum o'ziga salbiy munosabatda bo‘lishi mumkin bo'lgan har qanday shaxsni, ayniqsa, so'z san'atkorlari va jamoat arboblarini yo'q qilish rejasini tuzdi. Abdulla Qodiriy: O'zbek romanchiligining asoschisi bo'lgan bu ulug' adib o'zining "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" asarlarida o'tmish xatolarini ko'rsatish orqali millatni birlikka, ogohlikka chorladi. Uning go'zal asarlari ortida milliy g'urur va ozodlikka bo'lgan intilish yashiringan edi. Shuning uchun ham u tuzum uchun xavfli deb topildi va shafqatsizlarcha otib tashlandi. Qolaversa, hali hayotining o'n gulidan bir guli ham ochilmagan navqiron shoir Usmon Nosir 1937-yil 18-iyulda, hali 25 yoshga ham to'lmagan ayni kuchga to'lgan davrida "xalq dushmani" degan soxta ayblov bilan hibsga olindi. Uning tergov ishlari va hujjatlari minglab varaqlarni tashkil etgan. U uzoq muddat Sibirning og'ir mehnat lagerlarida, inson chidab bo'lmas azob-uqubatlar ostida yashadi. 1944-yil 9-martda Rossiyaning

Kemerovo viloyati, Marinsk tumani Suslovo qishlog‘idagi lagerda 31 yoshida vafot etdi. Uning aybi faqatgina yuksak tafakkur va zehn sohibi ekanligida edi.

Tuhmatlar va azob-uqubatlar girdobi

Qatag'on davrining eng mudhish jihati shundaki, insonlar mutlaqo asossiz, uydirma va soxta ayblovlar bilan hibsga olingan. Ularga "panturkist" , "panislamistc," "sho'ro xonadonining dushmani" degan tamg'alar yopishtirildi. Hibsga olingan ziyolilar NKVD (Ichki ishlar xalq komissarligi) yerto'lalarida tun-u kun so'roq qilinar, ularga nisbatan eng vahshiy jismoniy va ruhiy qiynoq usullari qo'llanilar edi. Maqsad - ularni o'zlari sodir etmagan jinoyatlarga iqror qilish va boshqa safdoshlarining nomlarini ham qoralatish edi. Ko'plab arboblar, jumladan, Fayzulla Xo'jayev, Akmal Ikromov kabi davlat rahbarlari ham bu qonli mashinaning qurboniga aylandilar. Ularning oila a'zolari, ayollari va farzandlari ham "Xalq dushmanining oilasi" sifatida surgun qilindi va jamiyatdan chetlatildi.

Xotira va nomlarning tiklanishi

Yillar davomida bu buyuk insonlarning nomlarini tilga olish, asarlarini o'qish taqiqlab qo'yildi. Biroq haqiqatni ko'mib bo'lmaydi. O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgachgina, qatag'on qurbonlarining pok nomlari qayta tiklana boshladi, ularning boy ilmiy va adabiy merosi xalqqa qaytarildi. Bugun mustaqil yurtimizda ularning xotirasini e'zozlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Har yili 31-avgust Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni sifatida keng nishonlanadi. Toshkent shahrida barpo etilgan "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasi va uning tarkibidagi "Qatag'on qurbonlari xotirasi" davlat muzeyi millatimizning o'sha qonli o'tmishini eslatib turuvchi, yoshlarni hushyorlikka chorlovchi muqaddas maskanga aylandi. Shuningdek, hududlarda ham ushbu muzeyning filiallari tashkil etilib, noma'lum bo'lib ketgan minglab vatandoshlarimizning nomlari arxivlaridan qayta tiklanmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, qatag'on qurbonlari bo'lgan millat fidoiylari garchi jismonan yo'q qilingan bo'lsalar-da, ularning g'oyalari, orzulari va qoldirgan

meroslari barhayotdir. Ular o'z hayotlari va qonlari evaziga bugungi hurlik va erkinlik poydevorini qo'yib ketishdi. Ularning fojiali, ammo ibratli hayot yo'li bugungi yosh avlod uchun haqiqiy vatanparvarlik, matonat, or-nomus va o'zlikka sodiqlik maktabidir. Bizning burchimiz-bu muqaddas xotirani doimo qalbimizda saqlash va ular orzu qilgan ozod, obod Vatanni ko'z qorachig'idek asrashdir.

MILLIY OZODLIK VA MA’RIFATPARVARLIK G‘OYALARINING CHOLPON IJODIDA TUTGAN O‘RNI

Termiz davlat universiteti
O‘zbek filologiyasi fakulteti
2-bosqich talabasi
Soatova Aziza Sadriddin qizi
azizasoatova011@gmail.com

Annoatatsiya: Mazkur maqolada XX asr boshlaridagi Turkiston ijtimoiy-madaniy muhitida shakllangan milliy uyg‘onish jarayonlari Abdulhamid Cho‘lponning publitsistik merosi misolida tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi Cho‘lpon publitsistikasida ma’rifat, milliy ong, milliy o‘zlik, adabiyot va jamiyat munosabatining qanday talqin etilganini aniqlash hamda mazkur qarashlarning milliy tafakkur taraqqiyotidagi o‘rnini ochib berishdan iborat. Maqolada adibning publitsistik maqolalari, xususan, “Adabiyot nadir?” kabi asarlari mazmuniy-tahliliy yondashuv asosida o‘rganilib, ularda ilgari surilgan ma’rifatparvarlik va milliy uyg‘onish g‘oyalarining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida Cho‘lpon publitsistikasida adabiyot va ma’rifat xalqning ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti hamda milliy tafakkurini shakllantiruvchi muhim omillar sifatida talqin etilgani asoslab beriladi. Shuningdek, uning publitsistik merosining jadidchilik harakati doirasidagi tarixiy-ma’rifiy ahamiyatiga baho beriladi.

Kalit so‘zlar: Abdulhamid Cho‘lpon, jadidchilik, publitsistika, milliy uyg‘onish, ma’rifatparvarlik, milliy ong, milliy o‘zlik, milliy tafakkur, adabiyot, jadid matbuoti, Turkiston.

Аннотация. В данной статье исследуются процессы национального возрождения, сформировавшиеся в общественно-культурной среде Туркестана в начале XX века, на основе публицистического наследия

Абдулхамида Чулпана. Основной целью исследования является выявление особенностей интерпретации просвещения, национального сознания, национальной идентичности, а также взаимосвязи литературы и общества в публицистике Чулпана и определение их роли в развитии национального мышления. В статье на основе содержательно-аналитического подхода рассматриваются публицистические произведения писателя, в частности статья «Что такое литература?», и анализируются особенности отражённых в них просветительских идей и концепций национального пробуждения. В результате исследования обосновывается, что в публицистике Чулпана литература и просвещение рассматриваются как важнейшие факторы социально-культурного развития народа и формирования национального мышления. Кроме того, раскрывается историко-просветительское значение его публицистического наследия в контексте джадидского движения.

Ключевые слова: Абдулхамид Чулпан, джадидизм, публицистика, национальное возрождение, просветительство, национальное сознание, национальная идентичность, национальное мышление, литература, джадидская печать, Туркестан.

Abstract. This article examines the processes of national awakening that emerged within the socio-cultural environment of Turkestan in the early twentieth century through the journalistic legacy of Abdulhamid Cholpon. The primary objective of the study is to identify how enlightenment, national consciousness, national identity, and the relationship between literature and society were interpreted in Cholpon’s journalism, as well as to determine their role in the development of national thought. Using a content-analytical approach, the study examines Cholpon’s journalistic works, particularly his article “What Is Literature?”, and analyzes the distinctive features of the enlightenment ideas and concepts of national awakening reflected in them. The findings demonstrate that Cholpon’s journalism presents literature and enlightenment as significant factors in the socio-cultural

development of the nation and the formation of national thought. The article also highlights the historical and educational significance of Cholpon's journalistic legacy within the broader context of the Jadid movement.

Keywords: Abdulhamid Cholpon, Jadidism, journalism, national awakening, enlightenment, national consciousness, national identity, national thought, literature, Jadid press, Turkestan.

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotida yuz bergan tub o‘zgarishlar milliy tafakkur taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berdi. Bu davrda jamiyatning mavjud muammolarini anglash, xalqning ilm-ma’rifatga bo‘lgan ehtiyojini kuchaytirish, zamonaviy ta’lim tizimini shakllantirish hamda milliy o‘zlikni anglash masalalari ziyolilar faoliyatining muhim yo‘nalishlariga aylandi. Ayniqsa, jadidchilik harakati vakillari xalq taraqqiyotini ta’lim, ma’rifat, matbuot, adabiyot va san’at rivoji bilan uzviy bog‘lab, jamiyatni ma’naviy yangilash g‘oyalarini ilgari surdilar. Mazkur jarayonda publitsistika xalq bilan muloqot qilish, mavjud ijtimoiy muammolarni muhokama etish va ilg‘or qarashlarni keng ommaga yetkazishning muhim vositalaridan biriga aylandi. Ana shunday murakkab va o‘zgaruvchan tarixiy sharoitda Abdulhamid Cho‘lponning ijodiy va publitsistik faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. U o‘z davrining ijtimoiy-madaniy muammolariga befarq bo‘lmagan ijodkor sifatida adabiyot, matbuot va publitsistika imkoniyatlaridan foydalanib, xalqning ma’rifiy saviyasini oshirish, milliy ongni yuksaltirish va jamiyatdagi ma’naviy muammolarni anglashga xizmat qiluvchi fikrlarni ilgari surdi. Cho‘lpon faoliyatini faqat badiiy ijod doirasida ko‘rib chiqish uning qarashlari ko‘lamini to‘liq ochib bermaydi. Uning publitsistik maqolalarida adabiyot va san’atning vazifasi, xalqning ma’rifatga munosabati, milliy o‘zlik, jamiyat va shaxs mas’uliyati kabi masalalar o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning bo‘lajak adib va milliy uyg‘onish harakatining yorqin vakili sifatida kamol topishida u ulg‘aygan oilaviy muhit hamda otasi Sulaymonqul bazzozning ma’rifiy qarashlari muhim poydevor vazifasini o‘tadi. 1897-yilda Andijonning Qatorterak mahallasida, Sulaymonqul Mulla Muhammad Yunus o‘g‘li xonadonida dunyoga kelgan bo‘lajak shoir yoshligidanoq o‘z davrining ilg‘or ma’naviy-ijtimoy havosidan bahramand bo‘lib o‘sdi. El orasida “Sulaymonqul bazzoz” nomi bilan tanilgan adibning otasi *“...eski madrasani bitirgan, har kuni gazeta o‘qib, olam ishlaridan xabardor bo‘lib turgan”*[21] kishilardan biri edi. U o‘sha davrda millatni g‘aflatchilikdan uyg‘otishga qaratilgan eng ilg‘or harakat — jadidchilik g‘oyalariga xayrixohlik bilan qaragan. Ushbu ma’rifiy va ma’naviy muhit bo‘lajak adibning ilm-fanga bo‘lgan samimiy mehrini uyg‘otib, uning dunyoqarashi shakllanishida asosiy poydevor bo‘ldi. Cho‘lponning bo‘lajak adib va mutafakkir sifatida shakllanishida nafaqat oilaviy muhit, balki uning Sharq hamda G‘arb adabiy an’analarini chuqur o‘zlashtirgani ham hal qiluvchi rol o‘ynadi. U an’anaviy madrasa saboqlaridan so‘ng o‘z ustida mustaqil ishlab, turkiy, rus va jahon adabiyoti durdonalarini qunt bilan o‘rgandi. Tarixiy manbalar va Ahmad Zaki Validiy To‘g‘onning guvohlik berishicha, Cho‘lpon 1913-yildayoq turk tarixiga oid asarlarni, “Turk yurdi” kabi taraqqiyparvar nashrlarni muntazam kuzatib borgan. Bu esa uning milliy tafakkuri va hurlik g‘oyalari ildiz otishiga kuchli turtki berdi. Shu bilan birga, adib rus tilini va ma’rifatini ham xususiy tartibda puxta egalladi. Cho‘lponning intellektual kamoloti uning keyinchalik Pushkin, Gogol, Shekspir kabi jahon va rus adabiyoti namoyandalarining asarlarini o‘zbek tiliga yuksak mahorat bilan o‘girishida va o‘zbek she’riyatiga yangicha, Yevropacha poetik shakllarni olib kirishida namoyon bo‘ldi. Shunday qilib, Sharq va G‘arb madaniyatining tutashuv nuqtasida turgan Cho‘lpon o‘z davrining keng dunyoqarashli, milliy va jahoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtira olgan yetuk adibiga aylandi.

[21] M. Muhammadjonov. Turmush urinishlari. – Toshkent, 1964. 129-bet.

Abdulhamid Cho‘lpon adabiy va ijtimoiy maydonga qadam qo‘yar ekan, o‘zining ilmiy-estetik va milliy-ma’rifiy e’tiqodini, eng avvalo, publitsistik chiqishlari hamda ma’rifiy nasri orqali namoyon etdi. Adibning ma’rifatparvarlik konsepsiyasida badiiy so‘z va matbuot shunchaki ko‘ngilochar vosita emas, balki millatni g‘aflat uyqusidan uyg‘otuvchi, ijtimoiy shuurga ta’sir o‘tkazuvchi asosiy qurol sifatida talqin qilindi. Cho‘lpon publitsistikasining g‘oyaviy poydevorini uning 1914-yilda e’lon qilingan mashhur “Adabiyot nadir? ” nomli adabiy-tanqidiy maqolasi tashkil etadi. Ushbu asarda yosh adib so‘z san’atining ijtimoiy mohiyatini teran tahlil qilib, “Adabiyot yashasa, millat yashar. Adabiyoti o‘lmag‘on va adabiyotining taraqqiysiga chalishmag‘on va adiblar yetishtirmag‘on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o‘ydan, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo‘lur.” [22] degan hayotiy va falsafiy formulani ilgari surdi. Cho‘lpon adabiyoti inqirozga uchragan, adiblar yetishtirmagan jamiyat oxir-oqibat fikriy va ma’naviy tanazzulga yuz tutishidan ogohlantirdi. Yevropa xalqlarining taraqqiyot sirlarini ularning kitob va adabiyotga bo‘lgan yuksak munosabatida ko‘rgan muallif, o‘z davri Turkiston jamiyatidagi ma’naviy loqaydlikni, avomning choyxonalarda vaqti bekor o‘tayotganini, ziyolilarning esa shakliy dabdabalarga berilayotganini achchiq alam bilan tanqid ostiga oldi. Adib o‘zining “Muhtaram yozg‘uchilarimizga” maqolasida hamda “Qurboni jaholat” hikoyasi kabi ilk nasriy asarlarida ushbu g‘oyalarni amaliy jihatdan rivojlantirdi. “Qurboni jaholat” hikoyasining qahramoni Eshmurod obrazi orqali Cho‘lpon gazetalar ta’sirida shakllangan, biroq jaholat va loqaydlik hukmron bo‘lgan muhitda yakka qolib, ruhiy tushkunlikka yuz tutgan yosh mardning fojeasini ko‘rsatib berdi. Adib qalam ahlini xalq orasiga kirib borishga, milliy turmushni boricha — yaxshisini yoritib, yomonini ro‘y-rost ko‘rsatib beruvchi haqqoniy va yangicha realistik adabiyot yaratishga da’vat etdi. Cho‘lponning ijtimoiy-siyosiy qarashlari faqat ma’rifiy chaqiriqlar bilan cheklanib qolmay, jamiyatning tub iqtisodiy hamda ijtimoiy muammolarini chuqur tahlil qilish darajasiga ko‘tarildi. Adib milliy o‘zlikni anglash va istiqlolga erishishning muhim omillaridan biri

[22] Quronov D. *Jadidlar. Abdulhamid Cho‘lpon*. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 32 b.

sifatida iqtisodiy mustaqillik hamda yer masalasini birinchilardan bo‘lib kun tartibiga qo‘ydi. Ushbu yo‘nalishdagi eng xarakterli asarlardan biri adibning “Vatanimiz Turkistonda ziroat va dehqonchilik” nomli turkum maqolalaridir. Dastlab Turkiston yerlarining unumdorligini AQSh ko‘rsatkichlari bilan chog‘ishtirib, o‘lkaning ulkan imkoniyatlaridan g‘ururlangan Cho‘lpon, dasta-dastlab muammoning ildizini faqat dehqonlarning texnika va “ekin mashinalari”ni ishlatmasligida, ya’ni ilmsizligida ko‘rgan edi. Biroq qishloqlarga borib, dehqonlar va xalq vakillari bilan bevosita muloqot qilgach, adib muammoning tubda yotgan ijtimoiy-iqtisodiy sabablarini anglab yetdi. Cho‘lpon dehqonlarning oddiy texnikani ham sotib olishga tayyor naqd puli yo‘qligini, ular paxta va bug‘doyni hali epmay turib, mahalliy boylar va sudxorlarga bo‘ynigacha qarzga botganini ro‘y-rost matbuot sahifalariga olib chiqdi. Yig‘im-terim paytida 100 so‘mlik mehnat evaziga 40–50 so‘m berilib, kamsitilayotgan dehqonlar ahvolini ko‘rgan adib, ushbu gaplarni keltirib o’tadi: *“O‘tgan maqolamda... dehqon qardoshlarimizdan hech birlarining ziroat mashinalari ishlatmaganliklarini yozgan edim. Maqolani yozgandan so‘ngra qishloqlarda yurub, o‘zum dehqonlar bilan ko‘rushub fikr olishdim. Endi ularning fikrlarini o‘ylag‘on millatparvar kishi ko‘zlaridan qonlik yoshlarini oqizmay mumkin emas”*[23]. U millatning rivojlanishi uchun faqat maktab va ma’rifatning o‘zi yetarli emasligini, balki dehqonlarni iqtisodiy qullikdan va asoratdan qutqaradigan jiddiy ijtimoiy islohotlar zarurligini ochiq-oshkor ilgari surdi.

Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon lirikasi asrlar davomida davom etib kelgan an’anaviy va qat’iy qoliplardan holi bo‘lgan uslubiy erkinligi hamda tuyg‘ular samimiyati bilan ajralib turadi. Cho‘lpon mumtoz merosimiz vakillari bo‘lmish Navoiy, Lutfi, Boyqaro, Mashrab, Umarxon, Fazliy, Furqat hamda Muqimiylarning ijodini har necha chuqur hurmat qilmasin, o‘zining badiiy izlanishlarida zamon shiddatiga mos yangi shakllarni izladi. Zotan, asr boshida sodir

[23] Cho‘lpon. Vatanimiz Turkistonda ziroat va dehqonchilik // "Sadoyi Farg‘ona" gazetasi. – 1914-yil, 7-may

bo‘layotgan shiddatli ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va o‘zgarishlar mumtoz aruzning og‘ir hamda qat’iy ritmik sistemasiga sig‘mas edi. Cho‘lpon o‘zbek poeziyasiga yangi tushuncha, to‘lqin va ohang olib kirdi, buni uning zamondoshlari ham bir ovozdan e’tirof etishgan. Shoir o‘zbek tilining boy xalqona imkoniyatlaridan unumli foydalanib, barmoq vaznini yozma adabiyot darajasiga ko‘tardi va uni nazariy hamda amaliy jihatdan boyitdi. Fitrat ta’kidlaganidek, barmoq vaznini birinchi bo‘lib nazariy va amaliy qo‘llashda Cho‘lponning yetakchiligi beqiyosdir. Abdurauf Fitrat o‘zining adabiy-nazariy qarashlarida ushbu jarayonni e’tirof etar ekan: *“Barmoq vaznida she’rni boshlab Cho‘lpon yozdimi yo men yozdimmi, esimda yo‘q. Faqat shunisi aniqki, barmoq vaznini nazariy jihatdan yoqlab chiqqan birinchi o‘zbek millatchisi men edim”*[24], deya ta’kidlaydi va bu orqali Cho‘lponning amaliy she’riyatdagi kashfiyotlariga yuksak baho beradi. Vadud Mahmud va boshqa munaqqidlar ham Cho‘lpon poeziyasining poydevori xalq ruhiyatiga hamda milliy vafo tuyg‘usiga tayanishini alohida e’tirof etganlar. Shoirning “Buloqlar”, “Uyg‘onish”, “Tong sirlari” to‘plamlari hamda vaqtli matbuotda chop etilgan she’rlari millat ruhiyatining oynasiga aylandi. Uning 1919-yilda yozilgan “Go‘zal” she’ri o‘z davrida A. Sa’diy kabi adabiyotshunoslar tomonidan simvolistik va ramziy ruhdagi asar sifatida baholangan. Shoir uchun “Go‘zal” va “ma’shuqa” timsoli shunchaki shaxsiy ishqiy tuyg‘u emas, balki erksizlikda toqatsizlanayotgan Istiqlol hamda Vatan ozodligi ramzidir. Cho‘lpon uchun milliy ozodlik g‘oyasi boshqa barcha tushunchalardan ustun turgan. Biroq istiqlol yo‘lidagi umidlarning sarobga aylanishi, Turkiston muxtoriyatining bostirilishi shoir qalbida tushkunlik va og‘riqli iztiroblarni paydo qildi. Uning 1922-yilda yozilgan “Aldanish” she’rida o‘sha ruhiy iztirob va aldanilgan tuyg‘ularning ochiq va ta’sirchan bayoni namoyon bo‘ladi:

Qo‘limni tegizdim... odam edi-ku,
Ko‘zimda o‘ynagan bir nur edi-ku.
Sezgim-da sog‘, tetik, bardam edi-ku,

[24] Fitrat. Aruz haqida. – Toshkent, 1936, 21-bet.

Bo‘ynimga qo‘l solgan bir hur edi-ku...

Lirik qahramonning “besh yillik yonishim bir yil uchunmi? ” deya o‘z-o‘ziga bergan achchiq savollari zamonning murakkab vafo hamda fojialariga ishoradir. Shoir orzu qilgan istiqlol va ozodlik ma’shuqasi hali qo‘l yetmas darajada ekanligi ushbu misralarda o‘zining chuqur badiiy aksini topgan. Aruz vaznining hazaj bahrida bitilgan, Cho‘lponning eng mashhur va mukammal g‘azallaridan biri bo‘lgan “Qalandar ishqi” (1920-yil, Boku safari davomida yozilgan) she’rida ham ushbu ma’naviy-ruhiy iztirob davom etadi. Shoir o‘zining hayotiy va ijtimoiy qarashlaridagi umid hamda umidsizlik kurashini, istiqlol yo‘lidagi qalandarlarcha fidoyiligini quyidagicha kuylaydi:

Karashma dengizin ko‘rdim, na nozlik to‘lqini bordir,
Halokat borligin bilmay qulochni katta otdim-ku.

Shoir “karashma dengizi” deganda millatning erki va istiqboli yo‘lidagi jozibador g‘oyalarni, “halokat” deganda esa qonli ijtimoiy toqatsizliklar va Fevral voqealaridan keyingi siyosiy tazyiqlarni nazarda tutadi. Cho‘lpon o‘z e’tiqodi va milliy orzulari yo‘lida borlig‘ini baxsh etganini “Bu dunyo deb u dunyoni bahosiz pulga sotdim-ku” deya qalandarlarcha izhor qiladi. Shoirning “Buzilgan o‘lkaga” she’ri esa o‘sha davrdagi qizil qo‘shin tomonidan Farg‘ona vodiysida amalga oshirilgan qonli xunrezliklar va qishloqlarning payhon etilishiga nisbatan aytilgan achchiq faryoddir. Asar to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat bilan boshlanadi:

Ey, tog‘lari ko‘klarga salom bergan zo‘r o‘lka,
Nima uchun boshingda qora bulut ko‘lanka?

Bu yerdagi “qora bulut” obrazi yurt boshiga tushgan mustamlakachilik kishanlari hamda xalqning boshiga kelgan fojialar ramzidir. Cho‘lpon bu kabi

otashin va dardli she’rlari orqali o‘zbek poeziyasiga yuksak fuqarolik ruhini va tengsiz novatorlikni olib kirdi. Cho‘lpon faqatgina tengsiz shoir emas, balki milliy teatr va dramaturgiya sohasining asoschilaridan biri sifatida ham samarali faoliyat olib bordi. U teatrni jamiyatning ma’rifiy-madaniy darajasini oshiruvchi va xalqni jaholatdan qutqaruvchi eng ta’sirchan minbar deb bildi. K. Marks nomidagi dramatik truppada hamda keyinchalik Buxoro va Toshkent teatr jamoalarida faoliyat yuritib, milliy sahnaga munosib pyesalar taqdim etdi. Shoirning teatr sohasidagi fidoyiligi 1920-yillarda Moskva drama studiyasida tahsil olayotgan o‘zbek talabalariga ustozlik qilishida va ularning repertuari uchun dramatik asarlarni moslashtirib berishida yaqqol ko‘rindi. U sahna san’atida zamonaviy Yevropa teatr maktabining ilg‘or tamoyillarini milliy kolorit bilan uyg‘unlashtirishga intildi. Uning “Yorqinoy”, “Xujum” va boshqa qator pyesalari milliy dramaturgiyamizda alohida bosqich bo‘ldi.

Badiiy tarjima sohasida Cho‘lpon o‘zbek adabiyotini jahon durdonalari bilan boyitgan buyuk tarjimon sifatida namoyon bo‘ldi. U asliyat matnining badiiy-estetik jozibasi, muallif uslubi va qahramonlar ruhiyatini ona tilimizda mukammal qayta yaratish mahoratiga ega edi. Cho‘lpon tomonidan tarjima qilingan Uilyam Shekspirning “Gamlet” tragediyasi bugungi kunga qadar milliy tarjima san’atimizning cho‘qqisi va tugallangan mukammal namuna sifatida e’tirof etiladi. Shuningdek, A. S. Pushkinning “Boris Godunov”, A. P. Chexov hamda boshqa ko‘plab rus va Yevropa adiblarining pyesalari hamda nasriy asarlarini o‘zbek tiliga yuksak maxorat bilan o‘girdi. Cho‘lponning tarjimonlik faoliyati o‘zbek tili lug‘at tarkibining boyishiga va milliy nasrimiz hamda dramaturgiyamizning Yevropa andozalari darajasida rivojlanishiga beqiyos hissa qo‘shdi.

Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning adabiy va ijtimoiy faoliyati, uning milliy madaniyatimizdagi o‘rni zamondoshlari hamda keyingi avlod adabiyotshunoslari e’tiborini doimiy ravishda jalb qilib kelgan. Cho‘lpon siymosiga berilgan xolis va samimiy baholar dastlab uning safdoshlari hamda zamondosh xotiralarida namoyon bo‘ldi. M. Muhammadjonov o‘z xotiralarida Cho‘lponning

favqulodda samimiy, millat dardi bilan yashaydigan va tengsiz ijodkorlik qobiliyatiga ega bo‘lgan insoniy fazilatlarini alohida ta’kidlaydi. Rus yozuvchisi V. Yan esa 1920-yillardagi Turkiston matbuoti va teatr muhitini kuzatar ekan, Cho‘lponning so‘z san’atkori sifatidagi qudrati va yoshlar orasidagi yuksak obro‘-e’tiborini e’tirof etgan. Istiqlol davri va undan avvalgi “qayta qurish” yillarida Cho‘lpon ijodiy merosini oqlash, uning xolis qiyofasini tiklash borasida akademik Naim Karimov hamda professor Ozod Sharafiddinovning xizmatlari beqiyosdir. Naim Karimov shoirning murakkab hayot yo‘li, qatag‘on yillari fojiasi va uning badiiy mahoratini arxiv hujjatlari hamda aniq dalillar asosida haqqoniy ravishda tadqiq etib, unga quyidagicha ta’rif berdi: *“Cho‘lpon butun umrini xalqimizning mustamlakachilik kishanlaridan xalos bo‘lib, emin-erkin yashashi va milliy taraqqiyot yo‘liga chiqib olishiga bag‘ishlagan, milliy adabiyotimizni yuksak dovonga olib chiqqan ulug‘ shoir, yozuvchi, dramaturg, adabiyotshunos va san’atshunos olim edi”.*[25] Ozod Sharafiddinov esa Cho‘lpon poeziyasi va nasrining badiiy-estetik tabiatini chuqur tahlil qilib, uni o‘zbek milliy adabiyotining o‘zgarmas ustunlaridan biri sifatida baholadi. Olimlar tadqiqotida Cho‘lpon shunchaki shoir emas, balki milliy o‘zlikni anglash g‘oyasining bayroqdori sifatida gavdalanadi.

Cho‘lpon ijodiy taqdiri 1920–1930-yillardagi sovet mafkurasining shafqatsiz tazyiqlari va g‘oyaviy xurujlari bilan chambarchas bog‘liq. Shoirning har bir asari, xususan, “Kecha va Kunduz” romani, “Go‘zal”, “Buzilgan o‘lkaga”, “Aldanish” kabi she’rlari sho‘ro tanqidchilari tomonidan “millatchilik”, “pessimism” (tushkunlik) hamda “aksilinqilobiy g‘oyalar”da ayblandi. O‘sha davr adabiy munozaralarida Cho‘lpon ijodi sovet g‘oyasiga yot deb e’lon qilinib, shoir shaxsiga nisbatan ma’naviy hamda siyosiy ta’qiblar kuchaytirildi. Bu tazyiqlar 1937-yilda shoirning fojiali qatag‘on qilinishi va otib tashlanishi bilan yakun topdi. Shoir fojiasidan so‘ng uning nomi va asarlari uzoq yillar davomida taqiqlab qo‘yildi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Cho‘lpon adabiy merosini xolis baholash va

[25] Quronov D. *Jadidlar. Abdulhamid Cho‘lpon*. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 155 b.

uni tamomila yangicha mezonlar asosida o‘rganish imkoniyati yaratildi. Istiqlol davri adabiyotshunosligi adib ijodiga sovet davridagi soxta va mafkuraviy qoliplardan xoli holda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar prizmasi orqali yondasha boshladi.

Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning serqirra faoliyati va boy adabiy-ma’rifiy merosi milliy uyg‘onish harakati hamda jadidchilik tarixining eng yorqin sahifalaridan biridir. Adib o‘zining butun hayotini va ijodiy salohiyatini xalqimizning ma’naviy uyg‘onishi, milliy o‘zligini anglash hamda mustamlakachilik kishanlaridan xalos bo‘lib, emin-erkin yashashi yo‘liga bag‘ishladi. Shoir, dramaturg va tarjimon sifatidagi fidoyiligi orqali u milliy madaniyatimiz hamda ma’rifatimiz rivojiga beqiyos hissa qo‘shdi. Mustaqillik yillarida qatag‘on qurbonlari xotirasini e’zozlash va jadid bobolarimizning xolis qiyofasini tiklash borasida amalga oshirilgan ezgu ishlar Cho‘lpon singari millat fidoiylarining nomini qayta tikladi. Adibning milliy birlik, ma’rifatparvarlik hamda Vatan ozodligi yo‘lidagi hayot yo‘li va g‘oyaviy merosi bugungi kunda ham o‘zining yuksak qimmatini yo‘qotgani yo‘q. Zotan, qatag‘on qurbonlarining jasorati hamda ular ilgari surgan ezgu g‘oyalarni chuqur o‘rganish va targ‘ib etish yosh avlod qalbida milliy g‘urur, ma’naviy mas’uliyat va Yangi O‘zbekiston kelajagiga bo‘lgan sadoqat tuyg‘ularini mustahkamlashda beqiyos ma’naviy manba bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov N. Istiqlolni uyg‘otgan shoir. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000.

2. Sharafiddinov O. Shoir haqidagi rivoyatlar va haqiqatlar. – Toshkent: Cho‘lpon, 1991.

3. Sharafiddinov O. Cho‘lponni anglash. – Toshkent: Yozuvchi, 1994.

4. Quronov D. Cho‘lpon hayoti va ijodiy merosi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1997.

5. Quronov D. Jadidlar. Abdulhamid Cho‘lpon. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.

6. Fitrat. Aruz haqida. – Toshkent, 1936.

7. M. Muhammadjonov. Turmush urinishlari. – Toshkent, 1964.

8. Yuldashev N. T. Cho‘lpon she’riyati poetikasi: Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Andijon, 2024.

9. Cho‘lpon. Vatanimiz Turkistonda ziroat va dehqonchilik // "Sadoyi Farg‘ona" gazetasi. – 1914-yil, 7-may.

QATAG‘ON QURBONLARINING HAYOTI VA MEROSINING BUGUNGI ILM-FAN TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI

Normetov Bunyodbek Jasur o‘g‘li
Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti
Arxeologiya ta’lim yo‘nalishi
4-kurs 123-guruh talabasi
Tel:+998996306063
E-mail: bunyod0063@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asrning 20–50-yillarida siyosiy qatag‘onlarga uchragan millat ziyolilarining hayoti, ilmiy-ijodiy faoliyati va ma’naviy merosi tahlil qilinadi. Qatag‘on qurbonlarining ilm-fan, ta’lim, adabiyot va milliy tafakkur rivojiga qo‘shgan hissasi hamda ularning boy ilmiy merosining bugungi O‘zbekiston ilm-fani taraqqiyotidagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, tarixiy xotirani tiklash, ularning asarlarini o‘rganish va ilmiy merosini yosh avlodga yetkazishning dolzarbligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Jadid, Ismoil G‘aspirali, Abdulhamid Cho‘lpon, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, “Adibi avval”, “Adibi soniy”, “Yer yuzi”, “Shahidlar xotirasi”

Kirish: Qatag‘on qurbonlari bu XIX asrning II-yarmida vujudga kelgan jadidchilik harakati namoyondalari hisoblanadi. O‘sha davrda o‘lkamizda mustamlakachilikka qarshi milliy-ozodlik harakatlari bilan bir qatorda mahalliy aholining aksariyat qismi o‘zligini saqlab qolish, milliy madaniyatni asrash va rivojlantirishga harakat qildi. O‘rta Osiyoga nisbatan Rossiya imperiyasining harbiy jihatdan ustunligi mahalliy aholining ochiq qarshilik ko‘rsatishiga imkon bermadi. Shuning uchun ham Vatan, millat, xalq g‘oyasini tushungan kishilar, ayniqsa, ziyolilar xalqni ozodlikka eltuvchi yo‘l bu – xalqni ma’rifatli qilish deb bildilar. Ular xalqni ma’rifatli qilmasdan turib, mustamlakachilik g‘oyasiga kirib bo‘lmaydi, deb hisobladilar. Ziyolilar xalq orasida

ilg‘or g‘oyalarni tarqatishda maorif tizimini asosiy vosita deb bildilar. O‘lkadagi milliy ziyolilarining jamiyatni yangilash va isloh qilishga qaratilgan harakati jadidchilik nomi bilan maydonga chiqdi.[26] “Jadid” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, «yangi» degan ma’noni anglatadi. Jadidlar Rossiya imperiyasi mustamlakasi bo‘lgan xalqlarni, eng avvalo, maorif tizimini yaxshilash, ta’lim sohasini isloh qilish, yoshlarga diniy bilimlar bilan birga dunyoviy fanlarni ham o‘qitish zarur deb bilgan aholining ziyoli qatlami.

Jadidchilik harakati asoschisi Qrim-tatar ma’rifatparvari Ismoil G‘aspirali (1851-1914) hisoblanadi. Ismoil G‘aspirali 1884-yilda Qrimdagi Boqchasaroyda birinchi jadid maktabiga asos soldi. U o‘zi tuzgan ta’lim dasturi asosida darslik tayyorladi. Shu dastur bo‘yicha 40 kunda 12 ta o‘quvchining savodi chiqarildi. Bu usul «usuli savtiya» – harf tovush usuli, ya’ni «usuli jadid» nomi bilan keng tarqaldi. Uning 1888-yilda «Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo‘ldosh» kitobi chop etildi. Unda yangi usul maktablarining ta’lim tizimi, dars o‘tish va uning tashkil qilinishi, o‘quv xonalarining jihozlanishi, dars jadvali, ta’tillar, imtihonlar bayon etilgan. Jadidchilik g‘oyalarining keng yoyilishida «Tarjimon» gazetasi muhim o‘rin tutdi. Ismoil G‘aspiralining 1893-yilda Toshkent, Samarqand va Buxoroga tashrifi ma’rifatparvarlik g‘oyalarining keyingi rivojiga turtki bo‘ldi. 1893-yilda Buxoro amirligida birinchi yangi usul maktabi faoliyat ko‘rsata boshladi. Keyinchalik bunday maktablar boshqa hududlarda ham keng tarqaldi.[27]

O‘rta Osiyo jadidlari ma’rifatparvarlik yo‘lida qrim ziyolilari tajribalarini o‘rganish bilan birga boshqa mamlakatlardagi taraqqiyparvarlarning ilg‘or g‘oyalaridan ham foydalandilar. O‘rta Osiyo taraqqiyparvarlik harakati ishtirokchilarining yoshi boshqa mamlakatlar jadid vakillaridan ajralib turgan. 1910-yilda ularning eng yoshi Abdulhamid Cho‘lpon – 13 yoshda, eng kattasi Mahmudxo‘ja Behbudiy – 36 yoshda bo‘lgan.

[26] Karimov I. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q”, T.”Sharq”, 1998.

[27] Ahmedov Sirojiddin; Rajabov Qahramon (2000-2005). "Jadidchilik". *O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi*. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

Turkistonda ma’rifatparvarlik harakatining yoyilishi bu davrdagi mustamlakachi hukumat va uning amaldorlari hamda mahalliy mutaassib va johil ruhoniylarning qarshiligiga uchradi. Shunga qaramay, jadidlar matbuot, noshirlik va teatr sohalarida faoliyatlarini davom ettirdilar. 1898-yilda Qo‘qon shahrida Salohiddin domla ikkinchi jadid maktabini ochdi. 1899-yil Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon qori jadid maktabini ochib, ko‘plab o‘quvchilarning yangi usulda ta’lim olishlariga erishdilar.

Ma’rifatparvarlar yangi usul maktablarining Turkistonda milliy kadrlar tayyorlash, yosh avlodni o‘qitishdagi ahamiyatini ko‘rsatib berdilar. XIX asr oxirida O‘rta Osiyoda yangi usuldagi maktablar sanoqli bo‘lgan bo‘lsa, 1911-yilga kelib ularning soni 63 taga, o‘quvchilarning soni 4106 nafarga yetdi. 1910-yilda Toshkentning o‘zida 24 ta jadid maktabi faoliyat ko‘rsatib, ularda 1740 nafar bola o‘qigan. 1917-yilga kelib o‘lkada 100 ga yaqin yangi usuldagi maktablar mavjud edi. Taraqqiyparvarlarning qarashlarida xotin-qizlar ta’limi masalasi alohida o‘rin tutgan. Jadidlar, islom ma’rifatli bo‘lishni istagan ayollarga to‘sqinlik qilmaydi, deb ta’kidladilar. Islom ilm o‘rganishni erkaklarga ham, ayollarga ham farz deb hisoblashidan kelib chiqqan holda jadidlar o‘g‘il va qiz bolalarni birga o‘qitishda tashabbuskor bo‘ldilar.

Asosiy qism:

XX asr boshiga kelib Turkistondagi jadid ziyolilarining butun bir avlodi, o‘lka ma’naviy-ma’rifiy soha taraqqiyotiga, milliy madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan namoyandalari vujudga keldi. Bular Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla xo‘ja Asadullaxo‘jayev, Buxoroda Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Fayzul-la Xo‘jayev, Farg‘ona vodiysida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Obidjon Mahmudov, Abdulhamid Cho‘lpon, Is’hoqxon Ibrat, Xivada Boboxun Salimov, Polvonniyoz Hoji Yusupov va

boshqalar edi. Ular vatanparvar, ma’rifatparvar, Turkiston o‘lkasida jadidchilik harakatining asoschilari va rahnamolari hisoblanadi.

Turkiston jadidlarini birlashtirishda “O‘rta Osiyo jadidlarining otasi” deb tan olingan Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919) ning xizmati katta bo‘ldi. U 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida tug‘ilgan. Dastlab Samarqand, so‘ngra Buxoro madrasalarida tahsil olib, imom-xatib, qozi, keyin muftiy darajasiga ko‘tarildi. Behbudiy O‘rta Osiyo jadidchilik harakatining asoschisi va yo‘lboshchisi edi. Turkistonda ma’rifatparvarlik harakatining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan shaxs hisoblanadi. Behbudiyning tashabbusi bilan o‘z shaxsiy sarhadiga «Behbudiya kutubxonasi» deb atalgan kutubxona tashkil qilingan.[28]

Munavvarqori Abdurashidxonov (1878–1931) — Turkiston o‘lkasida ozodlik, millat kelajagi uchun kurashgan ma’rifatparvar siyosiy arbob, jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri. 1904-yildan boshlab o‘lkadagi ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakatlarning faol ishtirokchisi.[29] U jadid maktablari ochilishining tashabbuskori va amaliyotchisi, milliy gazeta va jurnallar asoschisi, muharriri hamda jadid teatri targ‘ibotchisi bo‘lgan. Munavvarqori maktablar uchun “Adibi avval”, “Adibi soniy”, “Yer yuzi” kabi darsliklarni yaratdi.[30]

Dastlabki paytlarda madaniy-ma’rifiy, keyinchalik siyosiy-ijtimoiy xususiyat kasb etgan islohotchilik harakati faol ishtirokchilaridan biri Abdulla Avloniy 1878-yil Toshkent shahrida hunarmandlar oilasida tug‘ildi. U maktab va madrasada ta’lim olib, o‘z zamonining ma’rifat va chuqur bilim sohibiga aylandi. Abdulla Avloniy «O‘lkada ta’lim, matbuot, teatr sohalarining rivojlanishiga katta hissa qo‘shib, 1907-yil «Shuhrat» gazetasiga asos soldi. O‘zi tashkil qilgan yangi usul maktabi uchun «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Turkiy guliston yoxud axloq» kabi darsliklarni yaratdi. Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy kabi boshqa milliy taraqqiyparvarlar ham ma’rifatparvarlik faoliyatini olib borib,

[28] Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat-2009. 108-b
[29] https://ziyouz.uz/ozbek-ziyolilari/munavvar-qori-abdurashidxonov/
[30] Бегали Қосимов – “Мунававарқори Абдурашидхонов”. Тошкент, 2017 йил ziyouz.uz

yangi maktablar, xayriya jamiyatlari, kutubxona va kitob do‘konlari ochdilar.

Abduqodir Shakuriy - samarqandlik o‘qituvchi, yangi usul maktablari uchun qator darsliklar muallifi, jurnalist, samarqandlik jadidchilikning mashhur namoyandalaridan biri. 1875-yilda Samarqand chekkasidagi Rajabamin qishlog‘ida bog‘bon va dindor oilasida tug‘ilgan. Uning otasi imom bo‘lganligi haqida ma’lumotlar bor. Uning onasi otin bo‘lib, o‘z uyida qizlar uchun islom maktabida dars bergan. 1890-yillarning oxirida jadidlar taklifiga binoan Qo‘qonga borib, jadidlar tomonidan ochilgan mahalliy yangi usul maktablari bilan tanishadi. U Samarqandga qaytib, 1901-yilda o‘zi tug‘ilib o‘sgan Rajabamin qishlog‘ida asosan dunyoviy fanlar va oddiy fanlar o‘qitiladigan zamonaviy maktab ochadi. Abduqodir Shakuriy o‘z maktabida dars berishdan tashqari darsliklar ham yozgan va ularni o‘z mablag‘i hisobidan chop etgan. Uning mashhur darsliklaridan biri fors tilidagi „Savod o‘rgatish yo‘riqnomalari“ (tojikcha – Rahnamoi savod)dir. „Jomi-ul-hikoyat“ (1907), „Zubdat-ul-ashar“ (1907) kabi darsliklar ham yozgan. Darsliklarning bir qismi Saidahmad Vasliy va Mahmud Behbudiy bilan hamkorlikda yozilgan.

Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev - jamoat arbobi, jadidchilik harakatining yirik vakili, o‘zbek matbuotining ilk tashkilotchilaridan biri. Turkiston muxtoriyatining hukumat boshliqlaridan biri (1917–1918). Toshkent shahrida hunarmand oilasida tug‘ilgan. Toshkentdagi rus-tuzem maktabini bitirgach, mahkamalardan birida tilmoch bo‘lib ishladi. 1897yili Rossiyaning Saratov shahridagi huquqshunoslik institutida o‘qidi (1908–1912). Talabalik yillaridayoq davr muammolarini yechishni o‘yladi, rus yozuvchisi L. N. Tolstoy bilan yozishmalar olib bordi (1909). O‘qishni tugatgach, dastlab Saratov, 1913-yilda Toshkent okrug sudida xususiy advokat bo‘lib ishladi. Chor hukumati ma’murlarining poraxo‘rligi va zolimligini fosh etib, ayrimlarini davlat ishidan chetlatishga erishdi. Jadidchilik harakatiga qo‘shilib, tez orada uning yirik vakillaridan biriga aylandi. „Umid“ deb ataluvchi ilg‘or musulmon guruhiga yetakchilik qildi (1913). „Turon“ jamiyatining asoschilaridan biri (1913). U

mustaqil firqa tashkil qilish niyatida Toshkentda „Sadoyi Turkiston“ gazetasiini tashkil etib unga muharrirlik qildi.

Abdurauf Fitrat - o‘zbek tarixchisi, filolog, tarjimon, yozuvchi, dramaturg va shoir, zamonaviy o‘zbek tili va adabiyoti asoschilaridan biri, O‘rta Osiyo jadidchiligining taniqli vakili, birinchi o‘zbek professori (1929). Jadidchilik milliy ma’rifatparvarlik harakatining tarafdori. Turkiyada tahsil olgan. Inqilobga qadar O‘rta Osiyoni Rossiyadan ozod qilinishi harakatlarida faol qatnashgan, politsiya nazorati ostida bo‘lgan. Turkiyadagi „Yosh turklar“ harakatidan ilhomlanib, Buxoroda „Yosh buxoroliklar“ partiyasini tuzgan, uning ma’naviy rahnamosiga aylangan. Do‘sti va maslakdoshi Munzim bilan hamkorlikda buxorolik 70 nafar yosh turkistonliklarni Germaniyaning bir qator oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga yuborgan (1922). 1908—1913-yillarda Turkiya dorilfununida o‘qiyotganda uning zukko, bilimdonligi professor-o‘qituvchilarni hayratga soladi. Unga Fitrat — Donishmand taxallusini beradilar. Fitratning dastlabki maqolalari „Hikmat“ jurnalida bosilgan. O‘zi esa Rossiya imperiyasidan kelgan muhojirlar bilan aloqa bog‘lagan. Fitratning Usmonlilar poytaxtida o‘tkazgan to‘rt yili Bolqon urushi va Yosh turklarning konstitutsiyaviy inqilobiga to‘g‘ri keldi.Fitrat o‘qishni Istanbulda davom ettirib yurgan kezlarida, hamyurtlari bilan birgalikda „Buxoro ta’limi maorif jamiyati“ni tuzgan.[31] Bu jamiyat buxoroliklarning o‘zaro moddiy-ma’naviy uyushmasi vazifasini bajargan hamda Buxoro va Turkiston maorifining olg‘a siljishiga doir bir qator ishlarni amalga oshirgan. Bu davrda Turkiya „Yosh turklar“ inqilobidan mast davrni o‘z boshidan kechirardi. Turkiyadagi bunday inqilobiy muhit, albatta, yosh Fitratga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. U siyosat maydoniga sho‘ng‘ib ketdi. Bu yerda Fitrat Sharq adabiyoti, san’ati, tarixini chuqur va atroflicha o‘rganadi. Ilg‘or taraqqiyparvar turk adabiyoti vakillari, turk adabiyoti orqali esa G‘arb adabiyoti bilan yaqindan tanishadi. G‘arb va Sharq xalqlari madaniyati, adabiyotlari o‘rtasidagi farqlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘radi, uning sabablarini teranroq anglaydi.

[31] А.Фитрат. Танланган асарлар. V жилд. –Т.: “Маънавият” 2010. –Б. 68-208

Sadriddin Ayniy - 1878-yilning 15-aprel kuni Buxoro amirligining Soktare qishlog‘ida, tojik oilasida tug‘ilgan. Uning o‘g‘li Ayniy Kamol, taniqli jurnalist. Otasi Said Murodxo‘ja dehqonchilik bilan shug‘ullangan bo‘lsa-da, o‘zi savodli bo‘lgani uchun farzandlarini bilimli qilishga intilgan. Shuning uchun o‘g‘li Sadriddin Ayniyni olti yoshida o‘z qishlog‘i madrasasiga yuboradi. Ayniy „Eski maktab“ qissasida o‘sha madrasada o‘qiganini ta’riflab beradi. 1884—1887-yillarda eski maktabda o‘qigan. 1889-yilda Buxoro va uning atrofini qamrab olgan vabo uni qirq kun ichida otasidan ham, onasidan ham ajratdi. Ayniy 12 yoshida Buxoroga keladi. Ayniy kabi kambag‘allarning Buxoro madrasalarida o‘qishi juda qiyin edi. Ammo o‘zining g‘ayrati, ilm talabasi bo‘lgani tufayli hayot va o‘qishning barcha qiyinchiliklarini yengib, 16 yil Buxoro madrasalarida tahsil olgan. Buxorodagi Mir Arab (1890—1891), Olimxon (1892—1893), Badalbek (1894—1896), Hoji Zohid (1896—1899) va Ko‘kaldosh (1899—1900) madrasalarida tahsil olgan. Shoir, davlat va jamoat arbobi. Sovet davridagi tojik adabiyoti asoschisi.[32] tojik va o‘zbek tillarida ijod qilgan. Tojikiston Fanlar Akademiyasining birinchi prezidenti (1951—1954), O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi faxriy a’zosi (1943), Tojikistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1940), filologiya fanlari doktori (1948), professor (1950). Tojikiston Qahramoni unvoni sohibi (1998), qator sobiq SSSR orden va medallari sohibi. 2001-yilda o‘zining beqiyos iste’dodi, o‘lmas ijodiy merosi bilan o‘zbek milliy madaniyati rivojiga hissa qo‘shgani uchun O‘zbekiston Respublikasining "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlangan.

Hamza Hakimzoda Niyoziy - 1889-yil 6-martda Qo‘qon shahrida tabiblar oilasida tug‘ilgan. Solkashon mahallasidagi eski maktab va madrasada (1896–1906), keyin 8 oy davomida Namangan madrasasida (1908) tahsil olgan. Hamzaning otasi Ibn Yamin Niyoz o‘g‘li ham o‘z zamonining savodli kishilaridan bo‘lgan. Yoshligida dehqonchilik bilan kun kechirgan, so‘ngra Buxoroga borib tabiblikni o‘rganib kelgan, xalq orasida „hakimcha“ laqabi bilan tanilgan. Hamzaning „Hakimzoda“ taxallusi otasining shu laqabidan olingan. Niyoziyning dastlabki asarlarida kuchli

[32] Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. — Москва, 1926.

sotsial-demokratik yo‘nalishlar va ijtimoiy adolatsizlik keskin qoralangan. Uning asarlarida asosan ayollar huquqlari, ijtimoiy tengsizlik va xurofotning keng tarqalishi kabi istak ijtimoiy masalalari yoritilgan. Hamza 1908-yilda qo‘shni o‘lkalarda nashr etilgan ilg‘or gazetalar va ulardagi taraqqiyparvarlik g‘oyalari bilan tanishgan. Ma’rifatli kishilar ta’sirida „milliy she’rlar“ yoza boshlagan.

Bundan tashqari, Turkiston taraqqiyparvar sarmoyadorlari yoshlarni chet elga yuborib, zarur kasblarni egallab, xalqga foydali xizmat qiladigan yoshlarni va ular uchun qayg‘urgan jadidlarni qo‘llab-quvvatladilar. Andijonlik Mirkamil Mirmo‘minboyev o‘z hisobidan ana shu ishga katta miqdorda mablag‘ ajratgan. 1910-yilda Buxoroda mudarris Hoji Rafiy, Mirza Abduvohid, Hamidxo‘ja Mehriy, Usmonxo‘ja va Muhammadamin maxdum kabilar «Tarbiyai atfol» («Bolalar tarbiyasi») jamiyatini tashkil qilib, 1911-yilda 15 nafar, 1912-yilda esa 30 nafar talabani Turkiyaga o‘qishga yuborganlar.

Jadidchilik harakati davomida ularning o‘z matbuoti ham shakllandi. Jadidlar Toshkentda 1905–1906-yillarda „Taraqqiy“ (muharriri — Ismoil Obiliy), „Xurshid“ (muharriri — Munavvarqori), 1907–1908-yillarda „Shuhrat“ (muharriri — Abdulla Avloniy), „Osiyo“ (muharriri — Ahmadjon Bektemirov), „Tujjor“ (muharriri — Saidkarimboy Saidazimboy o‘g‘li), Buxoroda 1912-yilda „Buxoroyi sharif“ (muharriri — Mirzo Jalol Yusufzoda), „Turon“ (muharriri — G‘iyos maxsum Husayniy), Samarqandda 1913-yilda „Samarqand“ (muharriri — Mahmudxo‘ja Behbudiy), Toshkentda „Sadoyi Turkiston“ (muharriri — Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev), Qo‘qonda „Sadoyi Farg‘ona“ (muharriri — Obidjon Mahmudov) gazetalari va Samarqandda 1913–1915-yillarda „Oyina“ (muharriri — Mahmudxo‘ja Behbudiy), Toshkentda 1915-yil „Al-isloh“ (muharriri — Abdurahmon Sodiq o‘g‘li) jurnallarini nashr qilishdi. Shuningdek, 1917–1918-yillarda Toshkentda „Najot“ (muharriri — Munavvarqori), „Kengash“ (muharrirlari — Ahmad Zakiy Validiy va Munavvarqori), „Turon“ (muharrirlari — M. Afandizoda, Abdulla Avloniy), „Ulug‘ Turkiston“ (muharriri — Kabir Bakirov), „Shuroy Islom“ (muharriri — Abdulla Battol), „Turk so‘zi“ (muharriri — Temirbek

Xudoyorxonov), „Turk eli“ (tahririyati), Samarqandda „Hurriyat“ (muharrirlari — Mardonqul Shohmuhammadzoda, Akobir Shomansurov, Fitrat), Qo‘qonda „Tirik so‘z“ (muharriri — Obidjon Mahmudov), „El bayrog‘i“ (muharriri — Bo‘lat Soliyev) gazetalari va „Kengash“ (muharriri — Hamza), „Yurt“ (muharriri — Ashurali Zohiriy) jurnallari chop qilindi. Matbuot millat dilidagi gaplarni o‘z sahifalariga ko‘chirish bilan kifoyalanmay, qanday ishlarni birinchi navbatda amalga oshirish masalasini o‘rtaga qo‘ydi. 1909-yilda Toshkent yosh ziyolilari tomonidan „Jamiyati xayriya“ tashkil etildi. Mahalliy yoshlardan davlat mahkamalarida, sanoat, tijorat sohasida ishlaydigan mutaxassislar tayyorlash, kambag‘al musulmonlarga madaniy-ma’naviy yordam ko‘rsatish masalasi qo‘yildi. Bu millatning boshqa xalqlar ichiga singib ketmasligi yo‘lida ko‘rilgan tadbirlar edi.

1917-yilning mart oyi boshlarida jadidlar tomonidan Toshkentda barcha erkparvar tashkilotlarning umumiy dasturiga ega bo‘lgan yagona tashkilot «Musulmon markazi sho‘rosi» tuzildi. Uning ta’sis s’ezdida 350 delegat qatnashgan. Ular orasida ozarbayjonlar, tatarlar, turkmanlar, boshqirdlar kabi boshqa musulmon xalqlarining vakillari ham bo‘lgan. Syezdda barcha delegatlar bo‘lajak davlat Turkiston deb atalishi, uning tarkibiga Buxoro, Xiva va Turkiston general-gubernatorligi kirishi kerak degan fikrni ma’qulladilar. Biroq Turkistonda 1917-yildagi oktabr voqealari va bolsheviklarning hokimiyatni egallashi jadidlarning o‘z maqsadlarini oxirigacha amalga oshirishlariga imkon bermadi. Shunga qaramay, ular markazi Qo‘qonda bo‘lgan, Turkiston muxtoriyati deb atalgan mustaqil muxtor respublika e’lon qildilar. 72 kun yashab bu muxtor respublika sovet hokimiyati tomonidan tor-mor etildi. Natijada jadidlar ta’qibga uchradi va oxir-oqibat, 1937–1938-yillarda qatag‘on qurboni bo‘ldilar.

Jadidchilik harakati namoyondalari va ma’rifatparvarlar xalqni ilm-ma’rifatli qilishi sovet hukumatini xavotirga solib boshladi. Shuning uchun 1937-1938 yillarda SSSRda «katta terror» nomli keng ko‘lamli yirik qatag‘on operatsiyasi amalga oshiriladi. «Xalqlar qotili» Stalinning ushbu shafqatsiz kampaniyasi sabab millionlab odamlar turli bo‘hton va tuhmatlar bilan hibsga olinib, otib tashlandi. Ular

orasida o‘zbek xalqining jonkuyar farzandlari Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Sa’dullaxo‘ja Tursunxo‘jayev, Qayum Ramazon, Majid Qodiriy, Ziyo Saidov kabilar ham bor edi. 1937 yil 31 iyul kuni SSSR Kompartiyasi Markaziy qo‘mitasi (MQ) SSSR Ichki ishlar xalq komissarligining (NKVD) «Sobiq quloq qilinganlar, jinoyatchilar va boshqa sovetlarga qarshi unsurlarni qatag‘on qilish operatsiyasi haqida»gi N=00447 sonli buyrug‘ini tasdiqladi. Sovet respublikalarida qatag‘on qilinuvchi insonlar ro‘yxatini Ichki ishlar xalq komissarligi «maxsus uchligi» deb ataluvchi uchliklar shakllantira boshladi. Bunday «uchlik»lar tarkibiga respublika ichki ishlar xalq komissari, prokurori va kommunistik partiya Markaziy qo‘mitasining birinchi kotibi kirgan. O‘zbekistondagi «katta terror»da «maxsus uchlik»dan tashqari SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining sayyor yig‘ilishi ham ishtirok etgan.[33] 1938 yil 4 oktyabrdan 16 oktyabrgacha har kuni o‘tkazilgan bu yig‘ilishlarda jami 507 nafar o‘zbekistonlik otuvga hukm qilingan. O‘zbek jadidlarining aksariyati aynan Harbiy kollegiya tomonidan o‘lim jazosiga hukm qilingandi. «Katta terror» davrida, ya’ni 1937-1939 yillarda 41 ming nafardan ko‘proq kishi qamoqqa tashlangan. Shulardan 37 mingdan ko‘prog‘i sudlanib, 6 ming 920 kishi otib tashlangan.

Taklif va xulosalar: Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, XX asrning 20–50-yillarida O‘zbekistonda amalga oshirilgan qatag‘on siyosati xalqimizning siyosiy, ilmiy, madaniy va ma’naviy taraqqiyotiga katta zarar yetkazgan fojeali jarayonlardan biri bo‘ldi. Ayniqsa, milliy uyg‘onish, ma’rifat, ilm-fan va milliy o‘zlik g‘oyalarini ilgari surgan jadidlar va ziyolilarning ta’qib qilinishi natijasida o‘zbek jamiyatining eng ilg‘or va bilimli qatlamiga jiddiy zarba berildi. Shu bilan birga, qatag‘on siyosati milliy ma’rifat va ozodlik g‘oyalarini butunlay yo‘q qila olmadi. Qatag‘on qurbonlari tomonidan yaratilgan ilmiy, adabiy va ma’rifiy meros keyingi avlodlar uchun muhim ma’naviy manbaga aylandi. Ularning asarlarida ilgari surilgan ilm-ma’rifat, milliy o‘zlikni anglash, ona tilini asrash, xalq manfaatini himoya qilish va

[33] Shamsutdinov R. Qatag‘on qurbonlari xotira kitobi. – Toshkent: Sharq, 2000–2005. 57-b

taraqqiyotga intilish kabi g‘oyalar mustaqillik davrida qayta tiklandi. Shu jihatdan, qatag‘on qurbonlarining faoliyati O‘zbekistonning milliy tiklanish jarayonida muhim ma’naviy va intellektual asoslardan biri bo‘lib xizmat qildi. Mustaqillik yillarida qatag‘on qurbonlarining nomlari va tarixiy merosini tiklash borasida muhim ishlar amalga oshirildi. Ularning hayoti va faoliyatiga oid arxiv hujjatlari o‘rganildi, asarlari qayta nashr etildi, nomlari ta’lim va ilmiy tadqiqotlarda qayta tiklandi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov (1938 – 2016) tashabbusi bilan 2000-yil 12-mayda Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi Bo‘zsuv kanali bo‘yida “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi ochildi. U mustabid sovet rejimi davrida qatag‘on qilingan shahidlar xotirasiga bag‘ishlab o‘rnatilgan bo‘lib, millat fidoyilarining aksariyati shu yerda otib tashlangan edi. Bundan tashqari, yurtimizda 2001-yildan boshlab har yili 31-avgust — mustaqillik e’lon qilingan kun qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni sifatida o‘tkaziladigan bo‘ldi. “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasida 2002-yil 31-avgustda “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi ochildi. Muzey Rossiya imperiyasi va sovet hokimiyati davrida Vatan ozodligi yo‘lidagi faoliyati uchun qatag‘on etilgan vatandoshlarimiz xotirasini abadiylashtirish maqsadida tashkil qilingan. Bu minnatdor avlodlarning o‘z ajdodlari xotirasiga ehtiromidir. Qatag‘on tarixini o‘rganishning bugungi kun uchun ahamiyati shundaki, u yosh avlodga inson huquqlari, qonun ustuvorligi, adolat, erkin fikr va milliy qadriyatlarning qadrini anglash imkonini beradi. Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, jamiyatda erkin fikr va ilm-fanga bosim o‘tkazilishi, qonuniylikning buzilishi hamda siyosiy ta’qiblarning kuchayishi mamlakat taraqqiyotiga katta zarar yetkazadi. Shu sababli qatag‘on qurbonlari tarixini chuqur o‘rganish nafaqat o‘tmishdagi adolatsizliklarni yodga olish, balki kelajakda bunday fojealarning takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. Э. Назарова. “Жадидларнинг миллий маънавият ривожига қўшган ҳиссалари” Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal – (2) I/2020 ISSN 2181-063X
2. Jadidlar. Munavvar qori Abdurashidxonov [Matn]: risola. / S.Xolboyev. — Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. — 152 b.
3. Jadidlar. Abdurauf Fitrat [Matn]: risola. / H. Boltobayev. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 144 b.
4. Jadidlar. Ilshoqon to‘ra Ibrat [Matn]: risola. /U.Dolimov. — Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2022. — 180 b.
5. А.Фитрат. Танланган асарлар. IV жилд. – Т.: “Маъвият” 2006. –Б. 214-317.
6. И.А.Каримов “Юксак маънавият енгилмас куч”. –Т.: Маънавият. 2008. 52-бет
7. Б.Қосимов Миллий уйғониш: жасорат, фидойилик, матонат. Тошкент: Маънавият, 2002. 260 б.
8. Н.Нахмов Бухоро жадидлари (тарихий очерклар, ҳужжатли қисса). Тошкент: Фан, 2000. – 46 б.
9. А.Фитрат. Танланган асарлар. IV жилд. – Т.: “Маъвият” 2006. –Б. 214-317.
10. А.Фитрат. Оила. (Шодмон Воҳидов таржимаси). – Т.: 2013. –Б.71-75
11. https://yuz.uz/news/shavkat-mirziyoev-yoshlar-kelajagi-bilan-bogliq-har-qanday-vazifa-birlamchi-ahmiyatga-ega

KATTA QIRG‘IN SIYOSATINING O‘ZBEK ZIYOLILARI TAQDIRIDAGI FOJIALI O‘RNI

Choriyeva Charos Eshbo‘riyevna.
Termiz davlat universiteti Tarix fakultyeti
2-kurs Tarix yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada 1937–1938-yillardagi “Katta qirg‘in” siyosatining o‘zbek ziyolilari taqdiriga ta’siri tahlil qilinadi. Behbudiy, Cho‘lpon va Usmon Nosir faoliyati misolida qatag‘on siyosatining milliy ma’rifat, adabiyot va madaniyat rivojiga yetkazgan zarari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Katta qirg‘in, siyosiy qatag‘on, jadidchilik, o‘zbek ziyolilari, Behbudiy, Cho‘lpon, Usmon Nosir.

KIRISH

XX asr boshlarida Turkistonda milliy uyg‘onish va ma’rifatparvarlik harakati kuchaydi. Jadid ziyolilari xalqni savodli qilish, zamonaviy maktablar ochish, milliy matbuot va teatrni rivojlantirish orqali jamiyatni yangilashga intildilar. Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori, Cho‘lpon va boshqa ziyolilar ilm-ma’rifatni milliy taraqqiyotning asosiy sharti deb bildilar. Biroq 1917-yildan keyin o‘rnatilgan sovet tuzumi milliy mustaqil fikrni xavf sifatida baholay boshladi. 1937–1938-yillarda bu siyosat “Katta qirg‘in” nomi bilan tarixga kirgan ommaviy qatag‘onga aylandi. Uning eng og‘ir oqibatlaridan biri o‘zbek xalqining ilm-fan, adabiyot va madaniyat sohasidagi yetuk vakillari yo‘q qilinganidir.

Jadid ziyolilarining milliy taraqqiyotdagi o‘rni

Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining yirik namoyandasi sifatida maktab, matbuot, teatr va adabiyot rivojiga katta hissa qo‘shdi. U xalq taraqqiyoti uchun, avvalo, zamonaviy ta’lim zarur ekanini ta’kidladi. Behbudiy “Risolai asbobi savod”, - bolalarga eski yodlash usuliga nisbatan tezroq savod chiqarishga mo’ljallangan , “Kitobat ul-atfol” – bolalarga so’zlarni yozish va yozma nutqni rivojlantirishga xizmat qiluvchi , “Muntaxabi jug’rofiyai umumiy” – umumiy geografiya bo’yicha darslik bo’lib, yer, qit’alar, dengizlar, tog’lar , daryolar va xalqlarning yashash hududlari haqida yozilgan bo’lib

ushbu qollanma orqali o’quvchilar faqat o’z mahallasi yoki o’lkasi emas balki butun dunyo haqida tasavvur hosil qilganlar , qolaversa, “ Risolai jug’rofiyai Rusiy “ ,” Muxtasari islom” kabi millat yoshlarini savodli qilish uchun darsliklar yaratdi, gazeta va jurnallar tashkil etdi, milliy teatrning shakllanishiga xizmat qildi. Uning 1914- yil 15- yanvarda b Samarqandda sahnalashtirilgan “Padarkush” dramasi jamiyatdagi jaholat, tarbiyasizlik va ma’naviy tanazzul oqibatlarini ko‘rsatib berdi [3, 110–123-b.]. Uning fidokorona xizmatlari natijasida keyinchalik ushbu asar Turkistonning boshqa shaharlariga b tarqaldi .

Ayniqsa Toshkentdagi namoyishlar jadidlarning teatr orqali xalqni ma’rifatga chaqirish harakatini kuchaytirgan. Behbudiy faoliyatining mohiyati xalqni siyosiy jihatdan uyg‘otish, savodli qilish edi. Shu sababli uning merosi sovet mafkurasi tomonidan xolis baholanmadi, chunki ular bilishardiki bunday ziyoli , fidokor shaxslar erkin harakat qilar ekan bu xalqni asir qilish , o’ziga bo’ysundirish imkonsiz edi. 1937-yilga kelib Behbudiy nomi “millatchi” va “xalq dushmani” deb e’lon qilingan ziyolilar qatorida tilga olindi [3, 203–205-b.].

Munavvarqori Abdurashidxonov ham Turkistonda yangi usul maktablarining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan ma’rifatparvarlardan edi. U maktab ta’limini zamonaviylashtirish, ona tilida darsliklar yaratish va o‘quvchilarga dunyoviy fanlarni o‘rgatish masalalariga alohida e’tibor qaratdi. Xuddi Behbudiy kabi Munavvarqori ham maktablar uchun maxsus o'quv qo'llanmalari yaratdi. Uning “Adibi avval” asari – bolalarga harf tanitish va o‘qishni o‘rgatishga xizmat qilgan bo‘lsa, “Adibi soniy” – o‘quvchilarga axloq-odob qoidalarini singdiruvchi o'qish kitobi vazifasini o'tagan, “Yer yuzi” asari esa – geografiya fanidan dastlabki bilimlarni beruvchi qo‘llanma hisoblangan.

Munavvarqorining xizmatlari natijasida Toshkent va uning atrofida yangi usul maktablari rivojlandi. Bu maktablarda o‘qish va yozish bilan bir qatorda hisob, geografiya, tarix, tabiatshunoslik va axloq asoslari ham o‘qitila boshlandi. U yosh avlodni faqat bilimli emas, balki millat taqdiriga befarq bo‘lmagan, ijtimoiy mas’uliyatli insonlar qilib tarbiyalashga intildi.

Abdurauf Fitrat jadidchilik harakatining eng serqirra vakillaridan biri bo‘lib, adabiyotshunos, yozuvchi, dramaturg, tilshunos, tarixchi va davlat arbobi sifatida faoliyat yuritdi. U xalq taraqqiyoti uchun ilm-fan, zamonaviy ta’lim va milliy o‘zlik zarur ekanini ta’kidladi. Fitrat o‘zining “Munozara” va “Bayonoti sayyohi hind” kabi asarlarida jamiyatdagi qoloqlik, mutaassiblik va jaholatni keskin tanqid qilib, xalqni dunyoviy bilimlarni egallashga chaqirdi. Uning "Oila" asari jamiyatning asosi bo'lgan oila qurish va farzand tarbiyasiga bag'ishlangan bo'lsa, "Abulfayzxon" kabi dramalari tarixiy xatolar orqali bugungi kun muammolarini yoritib berdi.

U adabiyotning vazifasini faqat badiiy zavq berish bilan cheklamay, uni xalqni o‘ylashga, uyg‘onishga va o‘zligini anglashga undovchi kuch deb bildi. Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho‘lpon o‘zbek adabiyotida milliy uyg‘onish, ozodlik va inson qadr-qimmati g‘oyalarini yuksak badiiy darajada ifodalagan ijodkor edi. U shoir, yozuvchi va tarjimon sifatida o‘zbek adabiyotining yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qildi. Uning "Uyg'onish", "Buloqlar", "Tong sirlari" kabi she'riy to'plamlari xalqni asrlar davom etgan ruhiy qullikdan uyg'otishga qaratilgan bo'lsa, mashhur "Kecha va kunduz" romani xalqning og'ir o'tmishi va ma'rifatga intilishini yorqin bo'yoqlarda tasvirlab berdi. Cho‘lpon ijodida xalqning dardi, mustamlakachilik zulmi, ijtimoiy adolatsizlik va ozodlikka intilish masalalari markaziy o‘rin egalladi [2, 724-b.].

U jahon adabiyoti durdonasi bo'lmish U. Shekspirning "Hamlet" fojiasini o'zbek tiliga tarjima qilib, milliy adabiyotning badiiy imkoniyatlarini kengaytirdi. Ammo uning erkin va milliy ruhdagi ijodi sovet tuzumi uchun xavfli deb topildi. Uning asarlari uzoq vaqt taqiqlandi [2,724-b.]. Usmon Nosir esa o‘zbek she’riyatiga jo‘shqinlik, kuchli tuyg‘u va erkin ruh olib kirgan iste’dodli shoir edi. U juda yosh bo‘lishiga qaramay, "Quyosh bilan suhbat", "Sevgim", "Yurak" kabi she'riy to'plamlari orqali qisqa vaqt ichida adabiyotda o‘ziga xos o‘rin egalladi.

Shuningdek, u A. Pushkinning "Boqchasaroy fontani" va M. Lermontovning "Demon" dostonlarini o'zbek tiliga mahorat bilan o'girdi. Uning ijodida Vatanga muhabbat, insoniy g‘urur, hayotga ishonch va ma’naviy erkinlik g‘oyalari

mujassam edi [5, 90-b.]. Usmon Nosirning adabiyotdagi o‘rni faqat uning yozgan asarlari bilan belgilanmaydi.

U yosh avlodning ruhiy dunyosini, orzu-intilishlarini va hayotga bo‘lgan ishonchini ifodalagan shoir sifatida qadrlanadi. Jadid ziyolilarining bugungi kundagi o‘rni nihoyatda katta. Ularning asarlari maktab va oliy ta’lim muassasalarida o‘rganilmoqda, nomlari ko‘chalarga, ta’lim muassasalariga va madaniy markazlarga berilmoqda. Behbudiy milliy maktab va teatr asoschisi, Munavvarqori zamonaviy ta’lim tashkilotchisi, Fitrat milliy ilmiy va badiiy tafakkur vakili, Cho‘lpon milliy adabiyotning buyuk shoiri, Usmon Nosir esa erkin ruh va iste’dod timsoli sifatida qadrlanmoqda.

Katta qirg‘in” siyosati: Sovet qatag‘on tizimining shakllanishi va uning O‘zbekistondagi fojiali oqibatlari

“Katta qirg‘in” siyosati birdaniga yuzaga kelgan tasodifiy hodisa emas, balki Sovet hokimiyati o‘rnatilgan dastlabki yillardan boshlab bosqichma-bosqich shakllangan siyosiy nazorat va jazolash tizimining eng yuqori, qonli bosqichi edi. Bu siyosatning asosiy maqsadi — markaziy hokimiyatga bo‘ysunmagan siyosiy kuchlarni, milliy manfaatlarni himoya qilgan ziyolilarni, erkin fikrlovchi shaxslarni va hattoki boy-badavlat dehqonlarni yo‘q qilish, jamiyatda yalpi qo‘rquv muhitini yaratishdan iborat bo‘ldi. Siyosiy qatag‘onlarning mafkuraviy asosi sifatida Iosif Stalinning “sotsializm qurilishi sari olg‘a siljigan sari sinfiy kurash keskinlashib boradi” degan g‘oyasi xizmat qildi. 1917-yil oktabr oyida bolsheviklar Rossiyada hokimiyatni egallaganidan so‘ng, yangi tuzum o‘z hukmronligini saqlab qolish uchun maxsus jazolovchi organlar tashkil eta boshladi.

1917-yil dekabrida Feliks Dzerjinskiy rahbarligida Butunrossiya Favqulodda komissiyasi — VCHK tuzildi. Dastlab VCHK aksilinqilobchilik va ish tashlashlarga qarshi kurashish maqsadida tashkil etilgan bo‘lsa-da, unga sudsiz hibsga olish, tintuv o‘tkazish va siyosiy raqiblarga qarshi keskin choralar ko‘rish, hatto otuvga hukm qilish vakolati berildi [1, 3–4-b.]. 1918–1919-yillarga kelib VCHK tarkibida maxfiy-tezkor, tergov, harbiy, transport va boshqa bo‘limlar tashkil

etildi. Shu bilan birga, uning mahalliy bo‘linmalari ham tuzila boshladi. Natijada Sovet davlatida fuqarolar ustidan doimiy kuzatuv olib boradigan, siyosiy qarashlarni nazorat qiladigan va shubhali deb topilgan shaxslarni jazolaydigan keng tarmoq vujudga keldi [1, 4–5-b.].

Turkiston hududida ham Favqulodda komissiya organlari zudlik bilan shakllantirildi. Turkiston Favqulodda komissiyasining asosiy vazifalaridan biri — 1918-yil fevralida qonga botirilgan Turkiston Muxtoriyati hukumatining qoldiqlarini tugatish va milliy ozodlik (sovet terminologiyasida “bosmachilik”) harakatini bostirish edi. Muxtoriyat g‘oyasini qo‘llab-quvvatlaganlar, islom diniga sadoqatli ulamolar va sovet tuzumiga ishonchsizlik bilan qaragan kishilar “aksilinqilobchi” sifatida baholandi [1, 5-b.].

1922-yil fevral oyida VCHK tugatilib, uning o‘rniga Davlat siyosiy boshqarmasi — GPU tashkil etildi. Tashkilotga shaxslarni kuzatish, maxfiy ma’lumotlar to‘plash va “banditizm”ga qarshi kurashish vakolatlari saqlab qolindi [1, 6–7-b.]. GPU tarkibida Sharq bo‘limining tuzilishi esa Turkiston, Kavkaz, Tatariston va Qrim kabi milliy hududlar aholisini alohida nazorat qilishga qaratilgan maqsadli siyosatni ko‘rsatardi. Siyosiy nazorat, josuslikka qarshi kurash va matbuot ustidan qattiq senzura o‘rnatish ushbu tizimning muhim yo‘nalishlariga aylandi [1, 7–8-b.].

Olim Naim Karimov keltirgan tarixiy tasnifga ko‘ra, Sovet qatag‘on siyosati Turkistonda aniq reja asosida, bir necha bosqichda amalga oshirilgan: 1918–1923-yillarda — milliy kuchlarga qarshi kurash Sovet hokimiyatini mustahkamlash shiori ostida olib borildi.

1923–1928-yillarda — eski milliy ziyolilar qatlamiga qarshi mafkuraviy kurash kuchaydi. 1929–1935-yillarda — barcha milliy ziyolilar “millatchi” va “aksilinqilobchi” sifatida ta’qib qilina boshladi. 1936–1940-yillarda — bu jarayon “tozalash” siyosati nomi ostida butun xalqni qamrab olgan keng ko‘lamli qirg‘inga aylandi [1, 16-b.]. 1920-yillarning oxiri — 1930-yillarning boshlarida qatag‘on nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy tus oldi. “Kolxozlashtirish” va “quloq qilish”

(dekulakizatsiya) siyosati natijasida O‘zbekistondagi minglab o‘ziga to‘q dehqon oilalari mol-mulkidan mahrum qilinib, Ukraina, Sibir va Qozog‘iston cho‘llariga surgun qilindi. Ayni shu davrda hukumat boshqaruvida faoliyat yuritayotgan milliy kadrlarni yo‘q qilish maqsadida “Inog‘omovchilik”, “Qosimovchilar ishi” (1929-1930) va “Badriddinovchilar” kabi soxta jinoiy ishlar to‘qib chiqarildi. Ular “Milliy ittihod” va “Milliy istiqlol” kabi tashkilotlarga a’zolikda, “panturkizm” va “panislomizm” g‘oyalarini targ‘ib qilishda ayblandilar [1, 14–16-b.].

Milliy ziyolilarni “xalq dushmani” sifatida ko‘rsatish jarayoni ularning jamiyatdagi obro‘sini tushirish, xalqni o‘z yetakchilaridan yuz o‘girishga majbur qilishga qaratilgan edi. Masalan, jadidchilik otasi Mahmudxo‘ja Behbudiy 1919-yilda fojiali halok bo‘lgan bo‘lsa-da, 1937-yilga kelib uning nomi “ashaddiy burjua millatchisi” sifatida qoralandi [3, 203–205 b.]. Bu hol qatag‘on siyosati faqat tirik shaxslarni jazolash bilan cheklanmaganini, balki xalqning tarixi, qadriyatlari va xotirasini yo‘q qilishga ham qaratilganini isbotlaydi. 1934-yil 10-iyulda SSSR Ichki ishlar xalq komissarligi — NKVD tashkil etildi. Uning qoshida markazlashgan GULAG (Bosh lagerlar boshqarmasi) tizimi yuzaga keldi [1, 17–18-b.]. 1937-yil 2-iyuldagi “Aksilsovet unsurlar to‘g‘risida”gi maxfiy ko‘rsatma hamda 31-iyulda tasdiqlangan 00447-sonli buyruq asosida hududlarda “Uchliklar” (Troika) tashkil qilindi [1, 70–72-b.]. Ular inson taqdirini 10-15 daqiqalik yopiq sudlarda, advokatlarsiz va apellyatsiya huquqisiz hal qilar edilar. Mahbuslarga nisbatan dahshatli ruhiy bosim va jismoniy qiynoqlar qo‘llash qonunan ruxsat etildi.

Aynan 1937–1938-yillardagi mash’um qirg‘in natijasida o‘zbek xalqining eng sara namoyandalari — Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Usmon Nosir, Elbek kabi adiblar; Fayzulla Xo‘jayev, Akmal Ikromov singari davlat va jamoat arboblari qatl etildi. Ularning ayollari esa ALJIR (Akmolinsk lageri) kabi konslagerlarga surgun qilindi. Xulosa qilib aytganda, “Katta qirg‘in” siyosati VCHKdan to NKVDgacha bo‘lgan jazolovchi organlarning tizimli ravishda mukammallashib borishi natijasidir. Bu tizim Turkiston xalqlarining boshqaruv

elitasi, ilmiy, adabiy va ma’naviy qatlamini jismonan mahv etish, ularni mudhish qo‘rquv va itoatkorlikda saqlashga xizmat qildi. Bugungi kunda bu tarixiy qatag‘onlarni o‘rganish — millat xotirasini tiklash va mustaqillikning qadriga yetishdek muhim ijtimoiy ahamiyatga egadir.

Cho‘lpon taqdirida qatag‘on siyosatining namoyon bo‘lishi

Cho‘lpon asarlarida sovet mustamlakachilik zulmi, ijtimoiy adolatsizlik va xalqning ruhiy tushkun holati favqulodda yuksak badiiy mahorat bilan ifodalandi. Xususan, uning isyonkorona she'rlari hamda "Kecha va kunduz" romani millat dardining in’ikosi sifatida yangradi. Shoirning o‘z yurtini ozod va hur ko‘rish istagi, jadidchilik g‘oyalariga sadoqati tufayli u sovet mafkurasi uchun "ishonchsiz" ijodkor sifatida ro‘yxatga olindi. 1920-yillarning oxiri va 1930-yillarning boshlaridayoq Cho‘lponga qarshi matbuotda qattiq mafkuraviy hujumlar boshlandi. Shoirga qasddan "millatchi", "burjua adabiyotchisi", "o‘tmishni qo‘msovchi" va "xalq dushmani" kabi soxta ayblovlar qo‘yildi.

Bu kampaniya nafaqat bitta ijodkorni, balki butun boshli hur fikrli milliy ziyolilarni ruhiy jihatdan sindirishga qaratilgan edi. 1937–1938-yillardagi mash’um qatag‘on davrida Cho‘lpon hibsga olindi va og‘ir qiynoqlarga solindi. Uzoq muddatli va adolatsiz tergovlardan so‘ng, xalqimizning ulug‘ shoiri 1938-yilning 4-oktabrida shafqatsizlarcha qatl etildi. Shundan so‘ng uning asarlari qat’iy taqiqlandi, kitoblari yo‘q qilindi, hatto nomini tilga olish ham davlatga xiyonat darajasidagi xavfli holga keltirildi. Demak, sovet jazolash tuzumi Cho‘lponning o‘zini jismonan yo‘q qilish bilan cheklanmay, uning ozodlik haqidagi g‘oyalarini, shaxsiyatini va tarixiy xotirasini ham xalq ongidan butunlay yashirishga va o‘chirib tashlashga urindi. Biroq, qatag‘on mashinasi uning merosini mahv eta olmadi; bugungi kunda Cho‘lpon ijodi millat ma'naviyatining ajralmas va g‘ururli qismiga aylangan.

Usmon Nosirning fojiaviy taqdiri

Usmon Nosir XX asr o‘zbek she’riyatida o‘ziga xos ovozga ega bo‘lgan iste’dodli shoir edi. U qisqa ijodiy faoliyati davomida jo‘shqin lirizmi, kuchli

tuyg‘ulari va erkin fikri bilan adabiyotda munosib o‘rin egalladi. Uning ijodida Vatanga muhabbat, insoniy g‘urur va ma’naviy erkinlik g‘oyalari mujassam edi [5, 90-b.]. Shoir 1937-yil 13-iyulda hibsga olindi. Unga siyosiy ayblovlar qo‘yilib, qamoq va lager jazosiga hukm qilindi [4, 1–2-b.]. Usmon Nosir lagerlarda sovuq, ochlik, kasallik va zo‘ravonlik sharoitida yashadi. Shunga qaramay, u ijodiy ruhini butunlay yo‘qotmadi.

Uning qamoq va lager davridagi hayoti qatag‘on siyosatining inson taqdirini qanday yemirganini ko‘rsatadi [4, 60–70-b.]. Usmon Nosirning hibsga olinishi o‘zbek adabiyoti uchun katta yo‘qotish bo‘ldi. Agar u erkin ijod qilish imkoniga ega bo‘lganida, milliy she’riyat rivojiga yanada katta hissa qo‘shishi mumkin edi. Uning taqdiri yosh, iste’dodli va mustaqil fikrli ijodkorlar ham qatag‘on mashinasidan himoyalanmaganini ko‘rsatadi. Qatag‘onning milliy madaniyatga ta’siri “Katta qirg‘in” natijasida o‘zbek xalqining eng bilimli, faol va iste’dodli vakillari yo‘q qilindi. Jadidlar tomonidan shakllantirilgan ma’rifat maktabi izdan chiqdi, adabiyot, tarix, tilshunoslik, teatr va matbuot rivojida katta uzilish yuz berdi.

“Xalq dushmani” deb e’lon qilingan shaxslarning qarindoshlari, do‘stlari va hamkasblari ham ta’qib qilindi. Akmal Ikromov va Fayzulla Xo‘jayev misolida qatag‘on ayblovlari butun oilalarni fojia girdobiga tashlagani ko‘rinadi [1, 85–86-b.]. 1939-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, Gulag lagerlarida 24 499 nafar o‘zbek mahbus bo‘lgan. Biroq bu raqam qatag‘on davrida ochlik, kasallik yoki otib tashlash natijasida halok bo‘lgan barcha insonlarni qamrab olmaydi [1, 88–89-b.]. Demak, qatag‘on xalqning nafaqat siyosiy hayotiga, balki uning ilmiy, madaniy va ma’naviy salohiyatiga ham katta zarar yetkazdi.

Xulosa

Xulosa sifatida shuni alohida ta’kidlash mumkin-ki, “Katta qirg‘in” siyosati Sovet hokimiyatining o‘z siyosiy mavqeini mustahkamlash, jamiyat ustidan to‘liq nazorat o‘rnatish va mustaqil fikrlovchi kuchlarni yo‘q qilishga qaratilgan siyosiy amaliyot edi. Milliy ziyolilar xalqni ilm ma’rifatga, milliy o‘zlikni anglashga va

ozodlikka chorlagani uchun sovet mafkurasi tomonidan xavfli kuch sifatida baholandi. Shu sababli ular “millatchi”, “aksilinqilobchi”, “josus” va “xalq dushmani” kabi soxta ayblovlar bilan ta’qib qilindi. Mazkur siyosat natijasida o‘zbek xalqi Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Cho‘lpon, Usmon Nosir va boshqa ko‘plab ma’rifatparvar ziyolilaridan ayrildi. Ularning qamoqqa olinishi, qatl etilishi yoki lagerlarda halok bo‘lishi millatning ilmiy, adabiy va madaniy salohiyatiga katta zarar yetkazdi. Behbudiy tomonidan yaratilgan ma’rifiy maktab va teatr an’analari, Fitratning ilmiy-adabiy qarashlari, Cho‘lponning milliy ruhdagi ijodi va Usmon Nosirning o‘ziga xos she’riyati uzoq vaqt davomida xalqdan yashirildi . Qatag‘onlarning zarari faqat ziyolilarning hayotini barbod qilish bilan cheklanmagan.

Jadid maktablari yopildi, milliy darsliklar taqiqlandi, adabiyot va ilm fan mafkuraviy nazorat ostida qoldi. Ziyolilarning oila a’zolari, qarindoshlari va hamkasblari ham ta’qib qilindi. Natijada jamiyatda qo‘rquv, sukut, ishonchsizlik va o‘z fikrini erkin ayta olmaslik kabi og‘ir ruhiy asoratlar paydo bo‘ldi. Bir necha avlod o‘z tarixining ilg‘or vakillari va ularning merosini to‘liq bilish imkonidan mahrum bo‘ldi.

Shunga qaramay, qatag‘on siyosati jadidlarning g‘oyalarini butunlay yo‘q qila olmadi. Mustaqillik yillarida ularning nomi va ijodiy-ilmiy merosi qayta tiklandi. Bugungi kunda Behbudiy milliy ta’lim va teatr asoschisi, Munavvarqori yangi usul maktablari tashkilotchisi, Fitrat ilmiy va badiiy tafakkur namoyandasi, Cho‘lpon milliy adabiyot vakili, Usmon Nosir esa erkin ruhli shoir sifatida e’tirof etilmoqda. Demak, jadidlar merosi bugungi kunda faqat tarixiy xotira emas, balki milliy taraqqiyot uchun muhim ma’naviy manbadir. Ularning ilm-ma’rifat, vatanparvarlik, erkin fikr va milliy o‘zlik haqidagi qarashlari yosh avlod tarbiyasida katta ahamiyatga ega. “Katta qirg‘in” tarixini o‘rganish esa o‘tmishdagi fojiadan saboq chiqarish, tarixiy xotirani asrash va bunday hodisalarning kelajakda takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov N. 1937–1938-yillarda “Katta qirg‘in”ning fojiali oqibatlari. — Toshkent: Fan, 2013.

2. Karimov N. Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon. — Toshkent: Fan, 712-bet.

3. Karimov N. Mahmudxo‘ja Behbudiy. (Tanlangan asarlar) — Toshkent: Fan, 2013.

4. Karimov N. Usmon Nosirning so‘nggi kunlari. — Toshkent: Sharq, 1994. 90 b.

5. Karimov N. Usmon Nosir. Toshkent: “Sharq”, 1997. 253-b.

6. Boqiyeva Marhabo. Magistrlik dssertatsiyasi. Fitrat tadriji va baadiy tafakkur tadriji. (https://st.deepthought.industries/vuA32i)

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY MEROSIDA GEOGRAFIK BILIMLAR VA GEOGRAFIK DUNYOQARASH

Tabbiy fanlar fakulteti
Geografiya ta’lim yo‘nalishi
3-bosqich talabasi
Samadov O‘ral
samadovural7@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Turkiston jadidchilik harakatining yirik namoyandasi Mahmudxo‘ja Behbudiyning ilmiy-ma’rifiy merosida geografik bilimlarning o‘rni tarixiy-qiyosiy va tizimli yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Uning geografiyaga oid darsliklari, yangi usul maktablari uchun ilgari surgan pedagogik qarashlari, sayohat xotiralari va publitsistik merosi geografik tafakkurning shakllanish manbalari sifatida baholanadi. Tahlil Behbudiy geografiyani faqat joy nomlari va tabiiy obyektlarni yodlashga yo‘naltirilgan fan emas, balki makon, aholi, xo‘jalik, transport, shahar va mamlakatlararo aloqalarni o‘zaro bog‘liqlikda anglatadigan ma’rifiy vosita sifatida talqin qilganini ko‘rsatadi. Maqolada uning qarashlarining bugungi geografiya ta’limi uchun metodik ahamiyati ham ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudiy, jadidchilik, geografik bilim, geografik ta’lim, hududiy tafakkur, o‘lkashunoslik, sayohat, ijtimoiy-iqtisodiy geografiya, Turkiston, ma’rifat.

Аннотация. В статье на основе историко-сравнительного и системного подходов анализируется место географических знаний в научно-просветительском наследии Махмудходжи Бехбуди. Его учебники по географии, педагогические идеи, путевые заметки и публицистика рассматриваются как источники формирования пространственного мышления. Обосновывается значение взглядов Бехбуди для современной методики преподавания географии.

Ключевые слова: Махмудходжа Бехбуди, джадидизм, географические знания, географическое образование, пространственное мышление, краеведение, путешествие, Туркестан.

Abstract. The article examines the role of geographical knowledge in Mahmudkhoja Behbudi's educational and intellectual legacy through historical-comparative and systematic approaches. His geography textbooks, educational ideas, travel notes and journalism are interpreted as sources for the development of spatial thinking. The study also explains the methodological relevance of Behbudi's ideas to contemporary geography education.

Keywords: Mahmudkhoja Behbudi, Jadidism, geographical knowledge, geography education, spatial thinking, regional studies, travel, Turkestan.

KIRISH

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonning ijtimoiy-madaniy hayotida yuz bergan yangilanish jarayonlari ta'lim mazmunini qayta ko‘rib chiqishni talab etdi. An'anaviy maktablarda diniy bilimlar yetakchi o‘rin egallagan bir sharoitda jadidlar savodxonlikni yangi usulda o‘rgatish, dunyoviy fanlarni o‘quv dasturiga kiritish va yosh avlodni zamon talablari asosida tarbiyalashni ilgari surdilar. Bu harakatda geografiya alohida ahamiyat kasb etdi: u o‘quvchini o‘z mahallasi chegarasidan tashqaridagi tabiiy va ijtimoiy makon bilan tanishtirar, dunyo mamlakatlari, xalqlari, savdo yo‘llari va taraqqiyot markazlari haqida tizimli tasavvur hosil qilardi [6; 112–118-b.].

Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilikning nazariyotchisi, amaliy tashkilotchisi, publitsisti va pedagogi sifatida ta'limni milliy taraqqiyotning tayanch omili deb bildi. Uning maktab, matbuot, teatr va sayohat bilan bog‘liq faoliyati bir-biridan ajralgan yo‘nalishlar emas, balki jamiyatni bilim orqali yangilashga qaratilgan yagona ma'rifiy dastur edi. Geografik bilim ana shu dasturning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, insonning makon haqidagi tasavvurini kengaytirish bilan birga, Turkistonning dunyodagi o‘rnini anglashga xizmat qilgan [4; 146–151-b.].

Behbudiy merosiga bag‘ishlangan adabiyotlarda uning dramaturgiyasi, publitsistikasi, siyosiy va pedagogik qarashlari keng o‘rganilgan. Biroq geografiyaga oid darsliklari, safar kuzatuvlari va hududiy taqqoslash usulini yagona

tizimda tahlil qilish zarurati saqlanib qolmoqda. Mazkur maqola ushbu ehtiyojdan kelib chiqib, Behbudiy qarashlaridagi geografik mazmunni fan tarixi, ta’lim metodikasi hamda ijtimoiy-iqtisodiy geografiya nuqtayi nazaridan yoritadi.

TADQIQOT MAVZUSINING DOLZARBLIGI

Bugungi globallashuv sharoitida o‘quvchining geografik savodxonligi xaritadan obyekt topish bilangina o‘lchanmaydi. Hududiy farqlarni tushunish, tabiiy resurslardan foydalanish oqibatlarini baholash, migratsiya, urbanizatsiya, transport va iqtisodiy aloqalarni tahlil qilish ham geografik tafakkurning tarkibiy qismlaridir. Shu jihatdan milliy geografik ta’limning tarixiy ildizlarini aniqlash, undagi ilg‘or g‘oyalarni zamonaviy ta’lim bilan bog‘lash ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Behbudiyning merosi aynan shunday bog‘liqlikni ko‘rsatadi. U dunyo haqidagi bilimni o‘z yurtining holatini anglash vositasiga aylantirgan. Boshqa mamlakatlarning ta’limi, shahar hayoti, savdosi va transporti bilan tanishish Turkistonning rivojlanish imkoniyatlarini qiyosiy baholashga yo‘l ochgan. Bu yondashuv bugungi geografiya metodikasidagi «mahalliydan globalga» va «global jarayonni mahalliy misolda tushuntirish» tamoyillariga mazmunan yaqin [5; 47–52-b.].

Mavzuning dolzarbligi yana uch omil bilan belgilanadi. Birinchidan, jadid darsliklari milliy maktabda dunyoviy bilimlarning shakllanish tarixini yoritadi. Ikkinchidan, Behbudiy safarnomalari XX asr boshidagi shaharlar, yo‘llar, xizmat ko‘rsatish tizimi va turmush tarzini tavsiflovchi tarixiy-geografik manba vazifasini bajaradi. Uchinchidan, uning qiyosiy qarashlari zamonaviy o‘quvchida dalilga tayangan hududiy fikrlash, sabab-oqibat aloqalarini topish va fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirish uchun metodik asos bo‘la oladi.

TADQIQOTNING MAQSADI VA METODLARI

Tadqiqotning maqsadi Mahmudxo‘ja Behbudiy merosidagi geografik bilimlarning mazmuni, vazifasi va dunyoqarashni shakllantirishdagi o‘rnini aniqlash hamda bu merosning zamonaviy geografiya ta’limi uchun ahamiyatini asoslashdan

iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun Behbudiyning geografiyaga oid asarlarini tavsiflash, sayohat va publitsistik materiallardagi makoniy tushunchalarni ajratish, hududiy taqqoslash usulini izohlash hamda olingan natijalarni hozirgi ta’lim vazifalari bilan bog‘lash belgilandi.

Maqolada tarixiy-qiyosiy, manbashunoslik, mazmuniy tahlil va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tarixiy-qiyosiy metod Behbudiy qarashlarini davrning ta’lim ehtiyojlari bilan bog‘lashga; mazmuniy tahlil darslik va publitsistikadagi geografik birliklarni aniqlashga; tizimli yondashuv esa tabiat, aholi, xo‘jalik, transport va ta’lim haqidagi fikrlarning o‘zaro aloqasini ko‘rsatishga xizmat qildi. Manbalarni talqin qilishda keyingi davr geografik terminlarini muallif matniga sun’iy ravishda ko‘chirmaslik, balki qarashlarning tarixiy mazmunini saqlash tamoyiliga amal qilindi.

BEHBUDIY MA’RIFIY DASTURIDA GEOGRAFIYANING O‘RNI

Jadid maktabining asosiy yangiligi faqat tez savod chiqarish usulida emas, balki o‘quvchiga taqdim etiladigan bilimlar doirasining kengayganida ko‘rinadi. Hisob, tarix, tabiatshunoslik va geografiya kabi fanlar bolaning kundalik tajribasini umumlashtirib, uni kengroq ijtimoiy hayotga tayyorlagan. Behbudiy ta’limni hayotdan uzilgan mashg‘ulot emas, jamiyatning iqtisodiy va madaniy rivojiga ta’sir qiluvchi kuch sifatida tushungan [4; 82–89-b.].

Geografiya bu tizimda ikki vazifani bajargan. Birinchi vazifa axboriy bo‘lib, Yer yuzasi, qit’alar, davlatlar, shaharlar, daryolar, dengizlar, aholi va xo‘jalik haqida boshlang‘ich bilim bergan. Ikkinchi vazifa tafakkuriy bo‘lib, o‘quvchini obyektlarning joylashuvi, masofa, yo‘nalish va hududiy farqlarni anglashga o‘rgatgan. Shuning uchun geografik ta’lim bilimlar yig‘indisi bilan cheklanmasdan, dunyoni tartibli va bog‘langan makon sifatida tasavvur qilish imkonini yaratgan.

Behbudiyning «Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy» va «Muxtasari jug‘rofiyai Rusiy» kabi qo‘llanmalari yangi usul maktabining ehtiyojiga mos ravishda umumiy va mintaqaviy geografik bilimlarni ixcham bayon qilishga qaratilgan edi [1; 3–18-

b.; 2; 5–21-b.]. Ularda o‘quvchi uchun tushunarli tilda hudud, davlat va aholi haqidagi asosiy ma’lumotlarni berish ko‘zlangan. Bu holat milliy tildagi geografik terminologiyaning shakllanishi va ommalashuvida ham muhim bosqich bo‘ldi.

Darsliklarning ahamiyati ularning tarixiy davri bilan belgilanadi. Turkiston aholisi uchun uzoq mamlakatlar va yirik shaharlar haqidagi ma’lumotlar muntazam va ommabop shaklda kam yetib kelgan bir paytda geografiya darsligi dunyoni matn va xarita orqali «ko‘rish» imkonini bergan. Shu tariqa geografik bilim o‘quvchining tasavvur maydonini kengaytirgan, o‘z yurti bilan boshqa hududlar orasidagi o‘xshashlik va farqlarni izlashga undagan.

GEOGRAFIK DARSLIKLAR VA MAKONIY TAFAKKUR

Makoniy tafakkur joylashuvni bilishdan boshlansa-da, u masofa, yo‘nalish, miqyos, hududiy bog‘lanish va chegaralarni tushunish orqali rivojlanadi. Behbudiy davridagi boshlang‘ich geografiya ta’limi o‘quvchiga avvalo o‘ziga yaqin makonlardan boshlab, asta-sekin mamlakatlar va qit’alar miqyosiga chiqish imkonini bergan. Bunday izchillik abstrakt nomlarni real tasavvurlar bilan bog‘lashga yordam beradi.

Umumiy geografiyaga oid bilimlar tabiat unsurlari va siyosiy-hududiy birliklarni bir tizimda ko‘rishga xizmat qilgan. Mintaqaviy geografiya esa imperiya tarkibidagi o‘lkalarning joylashuvi, asosiy shaharlari va aloqalarini tushuntirish imkonini bergan. Mazkur bilimlar siyosiy sharoit ta’siridan xoli bo‘lmagan bo‘lsa-da, o‘quvchining makon haqidagi savollarini ko‘paytirgan: qaysi hudud qayerda joylashgan, nega shaharlar muayyan yo‘l yoki suv manbai bo‘yida rivojlangan, savdo oqimlari qaysi markazlarni bog‘laydi? [2; 22–34-b.].

Behbudiy yondashuvida geografik ma’lumotning tarbiyaviy tomoni ham mavjud. O‘z yurti tabiati va aholisi haqida bilimga ega bo‘lish vatanni mavhum tushuncha sifatida emas, muayyan hudud, resurs, mehnat va tarixiy xotira birligi sifatida anglashga olib keladi. Boshqa xalqlar hayoti bilan tanishish esa farqlarni begonalik belgisi emas, insoniyat tajribasining rang-barang ko‘rinishi sifatida qabul

qilish imkonini beradi. Natijada geografiya milliy o‘zlik va ochiq dunyoqarashni bir-biriga qarama-qarshi qo‘ymaydigan fan sifatida namoyon bo‘ladi.

Geografik terminlarning ona tilida bayon etilishi ham alohida ahamiyatga ega. Ilmiy tushuncha o‘quvchining kundalik tili bilan bog‘langanda u osonroq o‘zlashtiriladi va mustaqil fikrlash vositasiga aylanadi. Behbudiy yaratgan va ommalashtirgan qo‘llanmalar geografiyani mahalliy maktab amaliyotiga yaqinlashtirib, fan tilining shakllanishiga hissa qo‘shgan [7; 93–98-b.].

SAYOHATLAR VA HUDUDIY KUZATISH USULI

Geografik bilimning muhim manbalaridan biri bevosita kuzatishdir. Sayohat vaqtida inson yo‘l, masofa, tabiiy sharoit, aholi manzilgohlari, shahar tuzilishi, savdo va xizmat ko‘rsatish shakllarini bir vaqtda kuzatadi. Behbudiy safar taassurotlarini faqat shaxsiy xotira sifatida emas, o‘quvchi uchun axborot va xulosa manbai sifatida taqdim etgan. Uning kuzatuvlarida ko‘rilgan joyni tasvirlash bilan birga, uning Turkiston hayoti uchun qanday saboq berishi mumkinligi haqidagi mulohaza yetakchi o‘rin egallaydi [3; 181–190-b.].

Sayohat Behbudiyga hududiy taqqoslash imkonini berdi. Turli shaharlardagi maktablar, matbuot, jamoat muassasalari, savdo markazlari va transport vositalarini qiyoslash orqali rivojlanishdagi tafovutlar ko‘rinadigan bo‘ldi. Bunday qiyoslashning maqsadi boshqa yurtdagi holatni shunchaki maqtash emas, balki taraqqiyotga olib kelgan omillarni aniqlash edi. Ta’lim sifati, axborot almashinuvi, mehnat intizomi va infratuzilma bir-biri bilan bog‘liq holda talqin etildi.

Behbudiy kuzatgan shahar makoni ijtimoiy munosabatlarning moddiy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bozor va savdo rastalari iqtisodiy faollikni, yo‘l va bekatlar hududlararo aloqani, maktab va kutubxonalar madaniy taraqqiyotni, matbuot esa axborot oqimini ko‘rsatadi. Zamonaviy geografiya tilida bular shahar funksiyalari va infratuzilmaning tarkibiy qismlaridir. Tarixiy matnni shu tushunchalar bilan ehtiyotkorlik bilan tahlil qilish Behbudiy kuzatuvlarining geografik qimmatini ochadi.

Safarnomalarning yana bir jihati shundaki, ular makon bilan vaqtni birlashtiradi. Bir hududning bugungi holati boshqa hududning avvalgi yoki kelajakdagi holati bilan qiyoslanadi; taraqqiyot o‘zgarmas sifat emas, ta’lim, boshqaruv, iqtisodiy faoliyat va aloqa vositalari ta’sirida yuz beradigan jarayon sifatida tasavvur qilinadi. Bu qarash Turkistonning kelajagi oldindan belgilab qo‘yilmaganini, islohot va ma’rifat orqali uni o‘zgartirish mumkinligini anglatadi [5; 118–124-b.].

1-rasm. Behbudiy geografik tafakkurining shakllanish mantiqi



Diagrammada Behbudiy merosida takror uchraydigan mantiqiy ketma-ketlik umumlashtirilgan: bevosita kuzatish hududlararo taqqoslashga, taqqoslash geografik tahlilga, tahlil esa Turkiston taraqqiyotiga doir amaliy xulosalarga olib keladi. Ushbu model safar xotiralari, publitsistika va pedagogik qarashlarni yagona tadqiqot doirasida o‘rganish imkonini beradi.

MATBUOT VA GLOBAL GEOGRAFIK DUNYOQARASH

Behbudiy tashkil etgan va faol qatnashgan matbuot nashrlari geografik axborotni keng jamoatchilikka yetkazish vositasi bo‘ldi. Gazeta va jurnal sahifalaridagi xorij xabarlari, mamlakatlar, shaharlar, siyosiy voqealar, savdo va ta’lim haqidagi materiallar o‘quvchining kundalik axborot makonini kengaytirdi. Bosma matbuot geografiyani maktab darsidan tashqariga olib chiqib, uni ijtimoiy hayotni tushunish vositasiga aylantirdi [3; 25–32-b.].

Global geografik dunyoqarash o‘z yurtidan voz kechish emas, aksincha, uni kengroq tizim ichida ko‘rishdir. Turkistonning iqtisodiy imkoniyatlari qo‘shni o‘lkalar, xalqaro savdo yo‘llari va texnologik yangiliklar bilan bog‘liq holda

baholanganida mahalliy muammolarning tashqi sabab va imkoniyatlari ham koʻrinadi. Behbudiy matbuot orqali oʻquvchini ana shunday bogʻliqliklarni koʻrishga chaqirdi.

Matbuotdagi geografik ma’lumot tezkorligi bilan darslikdan farq qiladi. Darslik asosiy tushunchalarni tartibga solsa, gazeta va jurnal real voqealar misolida ularni yangilab boradi. Natijada oʻquvchi «davlat», «shahar», «yoʻl», «bozor», «aholi» singari tushunchalarning kundalik siyosiy va iqtisodiy hayotda qanday namoyon boʻlishini koʻrgan. Bunday axborot muhiti geografik savodxonlikni fuqarolik tafakkuri bilan birlashtirgan.

IJTIMOIY-IQTISODIY GEOGRAFIK QARASHLAR

Behbudiy merosidagi geografik mazmun tabiiy obyektlar tavsifi bilangina cheklanmaydi. Aholining savodxonligi, kasb-hunari, savdo faoliyati, shaharlarning rivoji, yoʻl va aloqa tizimi haqidagi fikrlar ijtimoiy-iqtisodiy geografiya uchun muhim boʻlgan hududiy munosabatlarni aks ettiradi. Muallif jamiyat taraqqiyotini bir sabab bilan izohlamaydi; ta’lim, iqtisodiyot, axborot, boshqaruv va madaniyatning oʻzaro ta’sirini koʻrsatadi [4; 201–207-b.].

Transport geografik makonni «qisqartiruvchi» kuchdir: yoʻl yaxshilangani sari odam, tovar va axborot tezroq harakatlanadi. Safar va publitsistik materiallarda yoʻl, temiryoʻl, bekat va aloqa vositalariga e’tibor berilishi bejiz emas. Ular shaharlarning oʻsishi, savdoning kengayishi va yangiliklarning tarqalishi uchun sharoit yaratadi. Shu ma’noda transport Behbudiy qarashlarida modernizatsiyaning koʻrinadigan belgilaridan biri boʻlgan.

Savdo markazlari haqidagi kuzatuvlar hududning iqtisodiy ixtisoslashuvi va tashqi aloqalari haqida tasavvur beradi. Bozor faqat oldi-sotdi joyi emas, qishloq bilan shaharni, ishlab chiqaruvchi bilan iste’molchini, mahalliy xoʻjalik bilan uzoq hududlarni bogʻlaydigan tugundir. Behbudiy zamonaviy bilim va kasb egallash zaruratini iqtisodiy raqobat bilan bogʻlar ekan, aholining inson kapitalini kuchaytirish masalasini ham ilgari surgan [5; 76–81-b.].

Suv, yer va aholi joylashuvi kabi masalalar Turkiston sharoitida alohida dolzarb bo‘lgan. Garchi Behbudiy ularni bugungi tabiiy resurslar geografiyasining maxsus terminlari bilan ifodalamagan bo‘lsa-da, o‘lkaning imkoniyatlarini bilish va undan oqilona foydalanish uchun dunyoviy bilim zarurligini ta’kidlagan. Bu g‘oya tabiat va jamiyat aloqalarini anglashga yo‘naltirilgan geografik ta’limning mohiyatiga mos keladi.

1-jadval. Behbudiy merosidagi geografik yo‘nalishlar va ularning ta’limiy mazmuni

Yo‘nalish	Manbadagi ko‘rinishi	Shakllanadigan ko‘nikma	Zamonaviy qo‘llanish
Umumiy geografiya	Qit’a, davlat, tabiiy obyekt va hududlar haqidagi bilimlar	Joylashuv, yo‘nalish va miqyosni anglash	Xarita bilan ishlash va geografik savodxonlik
O‘lkashunoslik	Turkiston shaharlari, aholisi va xo‘jaligi haqidagi qarashlar	Mahalliy hududni tizimli kuzatish	Dala tadqiqoti va mahalliy loyiha
Sayohat geografiyasi	Yo‘l, shahar, xizmat va turmush tarzini tavsiflash	Kuzatish va hududiy taqqoslash	Safar marshruti va keys tahlili
Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya	Savdo, transport, ta’lim va shahar hayoti	Sabab-oqibat aloqalarini aniqlash	Muammo va omillar xaritasini tuzish
Global dunyoqarash	Boshqa mamlakatlar tajribasini Turkiston bilan qiyoslash	Mahalliy va global jarayonni bog‘lash	Qiyosiy loyiha va munozara

BEHBUDIY MEROSINING ZAMONAVIY GEOGRAFIYA TA’LIMIDAGI AHAMIYATI

Behbudiy merosidan foydalanish geografiya darsini milliy tarix bilan bog‘lash imkonini beradi. O‘quvchi geografik bilimlar yurtimiz ta’limida qanday shakllanganini anglaganda fan tayyor va o‘zgarmas ma’lumotlar to‘plami emas, jamiyat ehtiyojlariga javoban rivojlangan tafakkur sohasi ekanini tushunadi. Bu yondashuv fan tarixiga hurmat va ilmiy merosga mas’uliyatli munosabatni kuchaytiradi.

Birinchi metodik yo‘nalish — manba bilan ishlash. Behbudiyning darslik yoki safar matnidan qisqa parcha tanlanib, undagi joy nomlari, yo‘nalishlar, transport vositalari, shahar funksiyalari va baholovchi fikrlar ajratiladi. So‘ng o‘quvchilar tarixiy xarita bilan zamonaviy xaritani qiyoslaydi, nomlar va chegaralardagi o‘zgarishlarni izohlaydi. Bu mashq matn, xarita va vaqt o‘rtasidagi aloqani ko‘rsatadi.

Ikkinchi yo‘nalish — hududiy taqqoslash. O‘quvchilarga Behbudiy kuzatgan ikki shahar yoki bir tarixiy shahar bilan bugungi shaharni ta’lim, transport, savdo va jamoat makoni mezonlari bo‘yicha qiyoslash topshiriladi. Muhimi, taqqoslash oddiy «yaxshi-yomon» bahosiga aylanmasligi, har bir farqning tabiiy, tarixiy, iqtisodiy va boshqaruv omillari ochib berilishi kerak.

Uchinchi yo‘nalish — o‘lkashunoslik loyihasi. O‘quvchilar o‘z yashash joyidagi eski maktab, bozor, yo‘l, suv inshooti yoki matbuot tarixiga oid obyektni tanlab, uning joylashuvi va jamiyat hayotidagi vazifasini o‘rganishi mumkin. Kuzatuv, suhbat, xarita va fotosuratlar birlashtirilganda Behbudiy targ‘ib qilgan bevosita bilish tamoyili zamonaviy loyiha ta’limida davom etadi.

To‘rtinchi yo‘nalish — media savodxonlik. «Oyina» va boshqa jadid nashrlaridagi dunyo xabarlari bilan bugungi raqamli yangilik oqimi qiyoslanadi. O‘quvchi xabarning qaysi hududga taalluqli ekanini, uning mahalliy hayotga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini va manbaning ishonchliligini tekshiradi. Bu mashq geografik va axborot savodxonligini o‘zaro bog‘laydi.

Behbudiy qarashlarini zamonaviy darsga olib kirishda tarixiy aniqlik muhim. Uning matnlarini bugungi terminlar bilan qayta ifodalash mumkin, biroq muallifga u ishlatmagan nazariy tushunchalarni nisbat berish to‘g‘ri emas. Darsda asl matn, tarixiy izoh va zamonaviy talqin alohida ko‘rsatilsa, o‘quvchi manba bilan xulosa o‘rtasidagi farqni anglaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tahlil natijasida Behbudiy merosidagi geografik mazmun besh asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘lishi aniqlandi: geografik darslik yaratish, makoniy tafakkurni shakllantirish, sayohat orqali bevosita kuzatish, hududiy taqqoslash va geografik bilimni milliy taraqqiyot vazifalari bilan bog‘lash. Bu yo‘nalishlar bir-birini to‘ldiradi va Behbudiy geografik dunyoqarashining kompleks xususiyatini ko‘rsatadi.

Birinchi natija shundan iboratki, geografiya Behbudiy uchun ikkilamchi fan bo‘lmagan. Uning maxsus geografik qo‘llanmalar yaratgani mazkur fanni yangi usul maktabining zarur tarkibiy qismi deb bilganini tasdiqlaydi [1; 3–6-b.; 2; 3–7-b.]. Demak, geografik bilim jadid ta’lim modelida dunyoviy fanlarni joriy etishning aniq amaliy ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan.

Ikkinchi natija — geografik bilimning ijtimoiy vazifasi. Behbudiy nazarida dunyoni bilish insonning fikrlash doirasini kengaytiradi, o‘z yurti kamchiliklarini ko‘rishga va islohot zaruratini tushunishga yordam beradi. Geografik axborot shu tariqa neytral ma’lumot bo‘lib qolmay, ijtimoiy mas’uliyat va taraqqiyotga intilish bilan bog‘lanadi.

Uchinchi natija sayohat va matbuotning norasmiy ta’lim vositasi bo‘lganidir. Maktab darsligi tizimli boshlang‘ich bilim bersa, safarnoma va davriy matbuot o‘sha bilimni real hududlar hamda dolzarb voqealar bilan boyitgan. Ushbu uch manba — darslik, sayohat va matbuot — birgalikda Behbudiy ma’rifiy faoliyatining geografik axborot tizimini tashkil etadi.

To‘rtinchi natija Behbudiy qarashlarining zamonaviy metodik salohiyatiga taalluqlidir. Uning merosi xarita bilan ishlash, tarixiy-geografik qiyoslash, o‘lkashunoslik kuzatuvi va loyiha ta’limi uchun mazmunli material beradi. Biroq bu imkoniyatlardan foydalanishda manbalarning nashr yili, matn varianti va sahifa ko‘rsatkichlarini aniq qayd etish talab qilinadi. Turli nashrlarda sahifalanish farq qilishi mumkinligi sababli ilmiy ishda foydalanilgan aynan o‘sha nashr bibliografik tavsifi berilishi lozim.

Muhokama shuni ko‘rsatadiki, Behbudiy merosidagi geografik dunyoqarashni faqat alohida joy nomlari yoki sayohat marshrutlari bilan cheklash yetarli emas. Uning asosiy xususiyati makon va taraqqiyot o‘rtasidagi bog‘lanishni ko‘rishdadir. Hududdagi ta’lim, yo‘l, savdo, matbuot va shahar madaniyati jamiyatning rivojlanish darajasini ko‘rsatuvchi o‘zaro aloqador belgilar sifatida talqin qilinadi.

XULOSA

Mahmudxo‘ja Behbudiy merosini geografik nuqtayi nazardan o‘rganish jadid ma’rifatparvarligining fan va ta’lim tarixidagi qamrovini yanada aniqroq ko‘rsatadi. Behbudiy geografiyani yosh avlodga dunyo haqida tartibli bilim beradigan, hududiy tafakkurni rivojlantiradigan va Turkistonning holatini boshqa mamlakatlar tajribasi bilan qiyoslashga imkon yaratadigan fan sifatida qadrlagan.

Uning geografik darsliklari milliy tildagi dunyoviy ta’limni rivojlantirishga, sayohatlari bevosita kuzatish va hududiy qiyoslashga, matbuotchilik faoliyati esa geografik axborotni jamoatchilik orasida ommalashtirishga xizmat qilgan. Tabiat, aholi, shahar, savdo, transport, ta’lim va axborot haqidagi qarashlarning o‘zaro bog‘lanishi Behbudiy geografik dunyoqarashining kompleks mazmunini belgilaydi.

Behbudiy merosidan zamonaviy geografiya ta’limida tarixiy xaritalarni tahlil qilish, safar matnlaridan marshrut tuzish, shaharlarni qiyoslash, mahalliy obyektlarni o‘rganish va media xabarlarining geografik mazmunini baholashda foydalanish mumkin. Bu ishlar o‘quvchining nafaqat bilimini, balki kuzatish, dalil keltirish,

sabab-oqibat aloqasini topish va asoslangan xulosa chiqarish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Shunday qilib, Behbudiy merosidagi geografik bilimlar tarixiy yodgorlik bo‘lib qolmay, bugungi ta’lim uchun ham mazmunli metodik manbadir. Uni aniq bibliografik asosda, tarixiy kontekstni saqlagan holda va zamonaviy geografik muammolar bilan bog‘lab o‘rganish O‘zbekistonda geografik ta’lim hamda geografik tafakkur tarixini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Behbudiy M. Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy. — Samarqand, 1906.
2. Behbudiy M. Muxtasari jug‘rofiyai Rusiy. — Samarqand, 1906.
3. Behbudiy M. Tanlangan asarlar / nashrga tayyorlovchi B. Qosimov. — Toshkent: Ma’naviyat, 1997.
4. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. — Toshkent: Ma’naviyat, 2002.
5. Qosimov B. Behbudiy. — Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.
6. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. — Toshkent: Universitet, 1999.
7. Sirojiddinov Sh. O‘zbek jadid adabiyoti. — Toshkent: Fan, 2011.
8. Abdug‘afurov A. Jadidlar va milliy uyg‘onish. — Toshkent: Fan, 2006.
9. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. — Toshkent: O‘qituvchi, 1999.
10. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. “Behbudiy Mahmudxo‘ja” maqolasi. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000–2005.
11. O‘zbekiston tarixi: XIX asr oxiri — XX asr boshlarida O‘zbekiston. — Toshkent: O‘zbekiston, 2011.

Mundarija

Муслимбек Алижонов — **Қатағон сиёсатининг келиб чиқиш тарихи ва унинг фожиали оқибатлари..... 3-11**

Бахтигул Эргашева — **Қатағон бўлган Ҳамдамовлар.....12-17**

Quvvataliyev Ubaydulla — **Bo‘lat Soliyev: Birinchi o‘zbek tarix professori va siyosiy qatag‘on qurboni.....18-20**

Masharipov Shavkat — **XX asr 40-yillari oxiri 50-yillari boshlarida yozuvchi va olimlarning qatag‘on qilinishi (Samarqand viloyati misolida).....21-28**

Xidirov Muhiddin — **“XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Termiz va Pattakesarning Rossiya Imperiyasi bojxona va savdo siyosatidagi o‘rni”.....29-44**

Isayev Oybek — **SURXON VOHASIDA “QULOQ”LAR POSYOLKASI.....45-50**

Maxsudjonov Otabek — **Is’hoqxon Ibratning lug‘atchilik va yozuv nazariyasiga qo‘shgan hissasi.....51-61**

Javlonbek Shavqiddinov — **Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining shakllanish yo‘li, fond tizimi va rivojlanish istiqbollari.....62-71**

Jumayev Mustafo — **Haydarqul Hojiga nisbatan qatag‘on siyosati va uning nomining toponimik-memorial xotirada aks etishi.....72-79**

Атаев Алишер — **Аҳмад Дониш ва Исҳоқхон Ибрат маънавий меросининг қиёсий талқини.....80-85**

Artikov Umidjon — **Tarixiy xotira va qatag‘on qurbonlari merosini targ‘ib etishning zamonaviy usullari 86-91**

Сайдахмедова Нозима — **Фарғона водийсида жадидчиликнинг вужудга келиши ва шаклланиши.....92-95**

Sidikov Sobir — **Qatag‘on qurbonlarining ilm-fan, ta’lim, adabiyot va madaniyat rivojidagi o‘rni.....96-99**

Chariyev Nuriddin — **Mustamlakachilikdan qatag‘ongacha: Surxon vohasida yer-suv munosabatlarining transformatsiyasi (XIX Asr Oxiri – XX asrning 30-yillari)……..….100-107**

Shodmonov Abdujalil — **O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglikning tarixiy va huquqiy asoslari.....108-117**

Boborajabova Mubina — **Jadidlarning milliy g‘oyani shakllantirishdagi o‘rni: Tarixiy tahlil va ma’naviy meros.....118-126**

Xudoyqulov Xusan — **Mustaqillikka erishishning Gandicha yo’li. “gandizm’ siyosati.....127-131**

Valiyeva G. — **Jadidchilik harakatida ta’lim va milliy tafakkur: tarixiy tajriba va zamonaviy ahamiyat.....132-136**

Qayimova Durdona — **Qatag‘on qurbonlari — milliy xotira va tarixiy adolat saboqlari.....137-147**

Eshqurbonov Shuhruz — **Abdulla Qodiriy ijodi va uning qatag‘on siyosati qurboni sifatidagi fojiali taqdiri.....148-155**

Umarova Mashhura — **Turkiston jadidlarining ma’rifiy tashabbuslari: maktab, matbuot va teatr uyg‘unligi……..……..155-159**

Musurmonova Mohinur — **Mahalliy kadrlardan “Ijtimoiy yot unsur”gacha: Surxondaryoda sovet siyosati va qatag‘on mexanizmlari (1920–1930-yillar).....160-166**

Klicheva Laziza — **Qatag‘on qilingan ziyolilar orzu qilgan kelajak: jadidlar g‘oyalari va bugungi O‘zbekiston taraqqiyoti.....167-175**

Malikova Sadbarg — **Qatag‘on qurbonlarning hayoti va faoliyati : millatning uyg'oq vijdoni……..……176-179**

Soatova Aziza — **Milliy ozodlik va ma’rifatparvarlik g‘oyalarining cholpon ijodida tutgan o‘rni.....180-191**

Normetov Bunyodbek — **Qatag‘on qurbonlarining hayoti va merosining bugungi ilm-fan taraqqiyotidagi ahamiyati……..……192-203**

Choriyeva Charos — **Katta qirg‘in siyosatining o‘zbek ziyolilari taqdiridagi fojiali o‘rni.....204-213**

Samadov O‘ral — **Mahmudxo‘ja Behbudiy merosida geografik bilimlar va geografik dunyoqarash.....214-225**

Mundarija.....227-228